

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universitetining
100 yilligiga
bag‘ishlanadi

INDUSTRIAL IQTISODIYOT
DARSLIK

I qism

Toshkent
«Tafakkur-bo‘stoni»
2020

UDK 338.012

Muminov N.G.

Industrial iqtisodiyot: Darslik. I qism / T.: “Tafakkur-bo‘stoni” nashriyoti, 2020., 261 bet.

Darslikda «Industrial iqtisodiyot» fanining predmeti va vazifalari, iqtisodiyotning eng muhim, yetakchi tarmog’i bo‘lgan sanoatning milliy iqtisodiyotdagi roli, o‘rni va ahamiyati, tarkibiy muammolar, boshqarish va rejalashtirishning ilmiy asoslari, fan-texnika taraqqiyoti, kadrlar va mehnatga haq to‘lash, asosiy va aylanma fondlar, mahsulot sifati va raqobatbardoshlik, qiymat va tannarx, foyda va rentabellik hamda baho masalalari yoritilgan. Unda bir qator uslubiy masalalar va sanoat sohasida yuz beradigan iqtisodiy jarayonlarning mohiyatini ohib berishga ham alohida e’tibor berilgan.

Darslik iqtisodiyot yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalar, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanuvchi doktorant va tadqiqotchilar, malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, ushbu darslikdan tarmoqlar iqtisodiyoti va investitsiya siyosati muammolariga qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin.

MAS’UL MUHARRIRLAR:

Xolmirzayev A.A. - O‘zMU “Mintaqaviy iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, g.f.n.

Rayxanov U.A. - O‘zMU “Makroiqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi

TAQRIZChILAR:

Xashimova N.A. - TDTU “Sanoat iqtisodiyoti” kafedrasi mudiri, i.f.d.

Xashimov P.Z. - O‘zMU “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi dotsent, i.f.n.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil
9 fevral dagi “133”-sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan
(ro‘yxatga olish raqami 133-133)

ISBN- 978-9943-6247-8-8

© Muminov N.G. ., 2020

KIRISH

Moddiy ishlab chiqarish sohasidagi yuz berayotgan o‘zgarishlarning bugungi bosqichida ta’lim sohasida sezilarli siljishlar kuzatilmoqda. Bu tizim, butun iqtisodiyot tizimi kabi yangi jihatlar, yangi yo‘nalishlar, yangi yondashuv va mazmun kasb etmoqda. Bozor iqtisodiyoti bugungi kunda fanning turli sohalarida chuqur bilimga ega bo‘lgan, mustaqil hisob-kitoblar yurita oladigan, to‘g‘ri xulosalar chiqara oladigan va istiqbolni belgilay oladigan malakali mutaxassislarga ehtiyoj sezmoqda.

Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish sharoitida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan jadal taraqqiy ettirish asosida jamiyat a’zolarining moddiy va ma’naviy farovonligini ta’minlashda iqtisodiyotning yetakchi va o‘ziga xos tarmoqlardan bo‘lgan sanoat va qurilishning mavqeい alohida o‘rin egallaydi. Ana shu juda muhim sohalar iqtisodiy asoslarining ham nazariy, ham amaliy ahamiyati va mohiyatini tushunadigan, undagi barcha yangiliklar va tashkiliy o‘zgarishlarni his eta oladigan iqtisodchilarni tayyorlashda “Industrial iqtisodiyot» fanining roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Fanning asosiy maqsadi tahsil oluvchilarda zamonaviy iqtisodiy fikrlashni, mamlakat milliy iqtisodiy-ijtimoiy ishlab chiqarish tizimida sanoat majmuasining egallagan o‘rnini tavsiflash, iqtisodiyot va aholining sanoat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laroq qondirish, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish va sanoat ishlab chiqarishining samarador-ligini oshirish zarurati to‘g‘risidagi umumlashgan tasavvurni shakllan-tirishdan iborat.

Davlat va xo‘jalik subyektlari miqyosida amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatini, uning ustivor yo‘nalishlarini yaxshi tushunish, kapitalni yangi qurilishga sarflash imkoniyatlarini, amaldagi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va rekonstruksiya qilishni, fan-texnika taraqqiyotining eng yangi yutuqlari asosida texnika va texnologiyalarning yangi turlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy qilishni, resurslardan oqilona foydalanish, boshqaruvi, tadbirkorlik va biznesni bilish bugungi kundagi mutaxassislar uchun juda muhimdir. Shuningdek, ular uchun iqtisodiyot boshqaruvidagi turli miqyoslarda ishlab chiqilayotgan investitsion yechimlar va loyihalarni tanlab olish, tahlil qilish va baholash usullarini bilish juda muhimdir.

“Industrial iqtisodiyot» fani talabalarga nafaqat muayyan axborot, ma’lumotlar, bilim va ilm berishi, balki ularni o‘z faoliyatining eng muhim yo‘nalishlarini to‘g‘ri tanlab olishga, murakkab iqtisodiy muammolarning yechimini topa bilishga o‘rgatishi kerak.

Kursning asosiy maqsadi - talabalarga sanoat iqtisodiyoti sohasidagi bilimlarni berish, sanoatning takror ishlab chiqarish jarayonidagi alohida o‘rni, investitsiyalash strategiyasi va taktikasi, sanoat ishlab chiqarishini rejorashtirish va boshqarish, shuningdek, olingan bilimlardan xo‘jalik amaliyotida mahorat bilan foydalanish, ularni iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlariga ham

amalda tatbiq eta olishni o‘rgatishdir.

Kursning asosiy vazifalari talabalarga quyidagi bilimlarni berishdan iborat:

- iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarni va jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishdagi roli va o‘rni;
- sanoat ishlab chiqarishini boshqarishning zamonaviy tizimini, ishlab chiqarish jarayoni qatnashchilarining o‘zaro munosabatlari;
- investitsiya loyihalari va yechimlarini tahlil qilish va baholash hamda ularning iqtisodiy samaradorligini hisoblash usullari;
- iqtisodiyotni boshqarishning turli pog‘onalarida investitsiya maqsadlarini rejalashtirish, prognozlash, moliyalashtirish va kreditlash asoslarini o‘zlashtirish.

1-BOB. “INDUSTRIAL IQTISODIYOT” FANIGA KIRISH

Tayanch atamalar va iboralar: industrial iqtisodiyot, sanoat, iqtisodiy fanlar tizimi, tarmoq iqtisodiy fanlari, umumiqtisodiy fanlar, makroiqtisodiyot, metodologiya.

Reja:

- 1.1. Fanning obyekti. Industrial iqtisodiyotning ta’rifi**
- 1.2. Fanning predmeti va boshqa fanlar bilan bog‘liqligi**
- 1.3. Fanning o‘rganish metodikasi va usullari**
- 1.4. Fanning zamonaviy shart-sharoitga xos vazifalari**

1.1. Fanning obyekti. Industrial iqtisodiyotning ta’rifi

Har bir fan o‘zining o‘rganish obyektiga ega bo‘ladi. Shunday obyektning bo‘lishi u yoki bu fanning dunyoga kelishi, shakllanishi va rivojlanishining muhim shartidir. **“Industrial iqtisodiyot”** fani ham o‘z obyektiga ega. Uning obyekti sanoat va qurilish sohalari hisoblanadi. Shu bois fanni mazmunan va tarkiban ikki qismga ajratib o‘rganamiz: birinchisi – sanoat iqtisodiyoti; ikkinchisi – qurilish iqtisodiyoti.

Industrial jamiyat – bu jamiyatning shunday turi bo‘lib, unda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tabiiy resurslarni qazib olish va qayta ishlash, hamda sanoat katta qiymat ulushiga egadir¹. Industrial jamiyat sanoat inqilobi natijasida yuzaga keladi.

Industrial taraqqiyot ko‘proq zavod va fabrikalarni ochish va ishga tushurishga harakat qilish bilan tavsiflanadi. Mamlakatda “fabrika ishlab chiqarishi”ni kengayib borishi uchun davlat ekologik standartlarga amal qilinishiga e’tiborsiz bo‘ladi. Sanoat korxonalari – asosan energiya sig‘imi yuqori va o‘z faoliyati uchun katta moddiy xarajatlarni talab etadi. Buning natijasida atmosferaga zararli chiqindilar chiqarilishi va suv havzalarini ifloslanishi yuzaga keladi. Yomon ekologik holat – industrial iqtisodiy modelning asosiy hosilasi hisoblanadi.

Industrial sivilizatsiyani vujudga kelishi sanoatda va boshqa tarmoqlarda yirik mashina ishlab chiqarilishini yaratilishi bilan bog‘liq murakkab jarayondir². Bunda jami ishlab chiqarish hajminining asosiy ulushi sanoatga to‘g‘ri keladi. Shahar aholisining ulushi ortib boradi. Mamlakat eksportida sanoat mahsulotlarining salmog‘i ko‘p bo‘lsa, importda qishloq xo‘jalik mahsulotlari va xom ashyo ulushi ko‘p bo‘ladi. Industrial iqtisodiyotning o‘ziga xos belgilari - mehnat unumdarligining yuqoriligi va ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlarini yuqoriligi hisoblanadi.

¹ <http://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/940018>

² <http://gigabaza.ru/doc/789-p3.html>

1.2. Fanning predmeti va boshqa fanlar bilan bog‘liqligi


Ishlab chiqarish va bozorni oqilona tashkil etish, ularning samaradorligini, natijaliligini oshirmoq uchun jamiyatning umumiy iqtisodiy qonunlarini bilish, xo‘jalikka rahbarlik qilishning ilmiy asoslarini chuqur egallash zarur.

Iqtisodiyot sohasida ro‘y berayotgan barcha voqeliklardan xabardor bo‘lish, ularning mohiyati va ahamiyatini to‘g‘ri tushunish, iqtisodiy muammolarni oqilona hal etish korxonalar, firmalar, tarmoqlar va komplekslar oldida turgan vazifalarni o‘z vaqtida amalga oshirish uchun iqtisodiy bilimlar bilan qurollanmoq, ularni chuqur egallamoq kerak. Bunday bilimlarni bizga iqtisodiy fanlar tizimi o‘rgatadi (1-sxema).

Iqtisodiy fanlarni shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi – **Umumiqtisodiy fanlar**, ya’ni iqtisodni yaxlit o‘rganuvchi fanlar. Ikkinci – **Xususiy iqtisodiy fanlar**, ya’ni iqtisodning u yoki bu sohasini, yoxud korxona (firma) iqtisodini o‘rganuvchi fanlar. Birinchi guruhga eng avvalo “Iqtisodiy nazariya“ fani kiradi. Uning o‘zi o‘z nomi bilan boshqa fanlardan ajralib turadi va umum iqtisodga nazariy jihatdan yondoshadi, unga xos qonun va qoidalarni o‘rganadi.

Iqtisodiyot nazariyasi – insonlarning ishlab chiqarish munosabatlarini ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan o‘zaro alohida o‘rganuvchi fandir. Bu fan kishilik jamiyatni taraqqiyotining turli bosqichlarida moddiy ne’matlar ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol qilishni boshqarish qonunlarini, shuningdek, ulardan amaliy faoliyatda foydalanish yo‘llarini o‘rganadi. Lekin iqtisodiy nazariya iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va tarmoqlararo komplekslarida iqtisodiy qonunlarning namoyon bo‘lish, ro‘y berish shakllarini va xususiyatlarini o‘rganmaydi. Bu bilan aniq iqtisodiy fanlar shug‘ullanadi. Ana shunday fanlardan biri “**Industrial iqtisodiyot**” fani hisoblanadi. Bu fan jamiyatning iqtisodiy qonunlari va zaruriy qoidalari sanoat va uning tarmoqlari, hamda qurilish sohasida namoyon bo‘lishini, ro‘y berishini, tuzilmaviy o‘zgarishlarning “falsafasini“, boshqarishning ilmiy asoslarini, rejalashtirish va prognozlashning metodologiyasi va metodikasini, fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari, sanoat resurslarining mohiyati, ahamiyati va turlari hamda ulardan foydalanishni yaxshilash shart-sharoitlari va sanoat va qurilishga xos qator muammolarini o‘rganadi.

“**Industrial iqtisodiyot**” fani bir qator iqtisodiy fanlar bilan chambarchas bog‘langan. Ular jumlasiga Ekonomiks, Iqtisodiy nazariya, Makro va Mikroiqtisodiyot, Statistika, ayniqsa Iqtisodiy statistika, Mehnat iqtisodi, Marketing, Menejment, Buxgalteriya hisobi va audit, Moliya-kredit va Bozor iqtisodiyoti va boshqa bir qator fanlar kiradi.



1-chizma. Iqtisodiy fanlar tizimi.³

³ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.11.

“Industrial iqtisodiyot” kursi “Korxona iqtisodi“ fani bilan chambarchas bog‘liqdir. Bunday bog‘liqlik sanoat va uning alohida tarmoqlarining moddiy-texnika va mehnat salohiyatidan to‘la-to‘kis foydalanish imkoniyatlarini qidirib topish uchun mehnat jamoasiga iqtisodiy ta’sir ko‘rsatishning yangidan-yangi usullarini topishda mahorat va ishning ko‘zini bilishga yordam beradi.

Iqtisodiy hayot jarayonlari va hodisalarini o‘rganish darajasi nuqtai nazaridan, odatga ko‘ra, makroiqtisod va mikroiqtisodni farqlaydilar.

«Makroiqtisodiyot» fani iqtisodni bir butun sifatida qaraydi va umumiyligi (majmuyligi) talab va taklifning, milliy daromad va yalpi milliy mahsulotning shakllanish jarayonlarini tadqiq etadi, hukumat budget siyosatining iqtisodiy o‘sishiga, inflyatsiya va ishsizlik darajasiga ta’sirini tahlil etadi. Boshqacha aytganda, bu fan makroiqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish muammolarini o‘rganadi va o‘rgatadi.

«Mikroiqtisodiyot» fani ishlab chiqarish tarmog‘i va korxona, tovar va moliya bozorlari, banklar, turli firmalar, uy xo‘jaligi kabi alohida subyektlar va tuzilmalarning fe’l-atvorini tadqiq etadi. U alohida tovarlarning ishlab chiqarish hajmi va ularga baho qanday belgilanishini, soliqlar va boshqa to‘lovlarining aholi jamg‘armalariga qanday ta’sir etishini o‘rganadi.

“Industrial iqtisodiyot” fani «Menejment» fani bilan ham bevosita bog‘liqdir. Chunki sanoat boshqaruvining muhim muammolarini menejment nazariyasi va amaliyoti asosida o‘z yechimini topishi mumkin.

«Menejment» fani – bu boshqaruvciga tanlovnini to‘g‘ri amalga oshirish va ta’sirchan qarorni qabul qilishni o‘rgatuvchi fandir. Uning asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida barcha bo‘g‘inlarda ishlay oladigan yuqori malakali boshqaruvcilarni tayyorlashdan iborat.

Bu fanning muhim muammolarini o‘rganishda iqtisodiyotda texnika va texnologiya taraqqiyotining yo’llarini belgilab beradigan fanlarning xulosalaridan ham keng foydalanish g‘oyat zarurdir.

Shunday qilib **“Industrial iqtisodiyot”** fanining predmeti deganda jamiyatning obyektiv iqtisodiy qonunlari va zaruriy qoidalarining shu sohada namoyon bo‘lish shakllarini, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish jarayonida jonli va buyumlashgan mehnatning eng optimal xarajatlari asosida eng yaxshi natijalarga erishishni ta’minlab beradigan shart-sharoitlar va omillarni o‘rganish tushuniladi.

1.3. Fanni o‘rganish metodologiyasi va usullari

Ilm-fan metodologiyasi deyilganda, uni bilish va o‘rganish faoliyatining shakllari va usullari majmuasi tushuniladi. Shu fan bo‘yicha masalani o‘rtaga tashlash, tadqiqot mavzusi va ilmiy nazariyani shakllantirish, shuningdek, aniqlangan natijaning haqiqiy-ligi, ya’ni o‘rganilayotgan obyektga muvofiqligi jihatidan tekshirish metodologiyasini qo‘llashning eng muhim

tomoni hisoblanadi. Demak, **metodologiya** – bu tadqiqot yoki bilish, anglash yo‘li, voqelikni amaliy va nazariy o‘zlashtirish usullari majmuasidir.

“Industrial iqtisodiyot” fanining nazariy, metodologik asosini sanoatning vujudga kelishi va rivojlanish muammolari bo‘yicha hozirgi nazariya, o‘zbek va xorijiy mamlakatlar iqtisodchilarining ilmiy asarlari, O‘zbekiston Respublikasining qonun-qoidalari, Respublika Prezidenti-ning farmon va qarorlari tashkil etadi.

Iqtisodiyotning yetakchi sohalari bo‘lgan sanoat va qurilishda ro‘y beradigan barcha hodisa va o‘zgarishlarni tadqiq etish anchagina murakkab jarayondir. U jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga, ya’ni – haqiqatni bilishning, obyektiv reallikni tan olishning dialektik yo‘lidan foydalanishni taqozo etadi. Bunday uslubiy yondashish sanoat, qurilish, uning tarmoqlari va tarmoqchalari hamda korxonalarida ro‘y beradigan hodisalar, voqeliklar va iqtisodiy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini, ularning uzlusiz harakati, taraqqiyot va o‘zgarishi, miqdor ko‘rsatkichdan sifat ko‘rsatkichga o‘tishi, vaqt va fazoda rivojlanishini anglab olishga yordam beradi.

Dialektika usuli muammolar o‘rganilayotgan omillar, shart-sharoitlarning namoyon bo‘lishi va yuz berishi, ziddiyatlarga, qaramaqshiliklarga boy ekanligini inobatga olishni taqozo etadi.

“Industrial iqtisodiyot” fani va ilmining barcha muammolarini o‘rganishda unga tarixiy yondashish kerak. Ayniqsa gumanitar fanlar masalasida eng ishonarli narsa – bu asosiy tarixiy bog‘lanishni unutmaslikdir. Har bir masalaga tarixdagi ma’lum hodisa qanday paydo bo‘lganligi, bu hodisa o‘z rivojlanishida qanday bosqichlardan o‘tganligi nuqtai nazaridan qarab ana shu rivojlanish, taraqqiyot qanday ro‘y bergenligiga e’tibor qaratish zarur.

“Industrial iqtisodiyot” fanining eng muhim muammolarini o‘rganishda quyidagi bir qator aniq usullardan foydalilanadi. Bular jumlasiga mushohada, abstrakt tafakkur, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, monografik usul, statistik usullar (sifat va miqdor, indeks, guruhash, balanslik va u bilan bog‘liq bo‘lgan normativ usul, ehtimollar), iqtisodiy matematik modellashtirish, optimallashtirish, muvozanatni aniqlash, “aqliy hujum», tajribaviy usullar kiradi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish tufayli sanoat taraqqiyotiga munosabat butunlay o‘zgardi, ya’ni tuzilmaviy o‘zgarishlarning ahamiyati hamda rahbarlik qilishning iqtisodiy va ma’naviy, psixologik roli sezilarli darajada oshdi. Shu sababli sanoat ishlab chiqarishning taraqqiyot tendensiyasini, rivojlangan davrning o‘ziga xos, o‘ziga mosligini hisobga olgan holda u yoki bu omillar, shart-sharoitlar ahamiyatini va rolini dinamikada hisobga olish kerak bo‘ladi.

“Industrial iqtisodiyot” fanining barcha masalalarini yuqorida keltirilgan va boshqa bir qator usullar yordamida o‘rganish, tahlil qilish bu fanni o‘rganuvchilarning va uning muammolari yechimini hal etuvchilarning bilish va ilmiy salohiyatini kuchaytiradi, aqliy zakovatini boyitadi.

1.4. Fanning zamonaviy shart-sharoitga xos vazifalari

Har qanday fan kabi **“Industrial iqtisodiyot”** fani ham eng avvalo, bilish vazifasini bajaradi. Uning asosiy vazifasi talabani sanoat va qurilish sohasiga taalluqli iqtisodiy bilim va ko‘nikma bilan qurollantirishdan iboratdir.

Bu fan, birinchidan, iqtisodiyotning sanoat va qurilish sohalaridagi sir-asrorlarini bilib olishga; ikkinchidan, bu tarmoq iqtisodiyotida qo‘llaniladigan barcha iqtisodiy tushunchalarni tavsiflashga, ular real iqtisodiy voqelikning ilmiy in’ikosi, ifoda etilishi ekanligini bilib olishga yordam beradi; uchinchidan, ishlab chiqarish san’atini egallah bo‘yicha bilim va ko‘nikma beradi. Demak, **“Industrial iqtisodiyot”** ning bilish, nazariy vazifalari bilan uning amaliy vazifalari ham mavjuddir. Shu tufayli har bir iqtisodchi mavjud iqtisodiy ko‘rsatkichlar-ning mohiyati va ahamiyatini yaxshi tushunishi, ularni to‘g‘ri hisoblash va aniqlashni bilishi, ular dinamikasidan tegishli xulosa chiqarishi kerak bo‘ladi.

Har qanday bilim ham, hatto jamiyat hayotining chuqur negizlariga kirib boruvchi ilm ham o‘z-o‘zidan qimmatli bo‘lmay, balki harakat uchun qo‘llanma bo‘lib, jamiyatni tubdan o‘zgartirishning amaliy maqsadlariga xizmat qilganligi uchun qimmatlidir. Shu sababli **“Industrial iqtisodiyot”** ham fundamental fanlar qatoridan o‘rin olib, iqtisodiy taraqqiyotning muhim qonun-qoidalaridan sanoat va qurilish sohalarida foydalanish yo‘llarini ko‘rsatib beradi.

“Industrial iqtisodiyot” fanining muhim vazifalaridan biri – bu metodologik vazifadir. **“Industrial iqtisodiyot”** iqtisodiy fanlar majmuida alohida o‘rin egallyadi, chunki barcha iqtisodiy metodologik masalalarning ilmiy va amaliy talqini, eng avvalo, sanoat va qurilish sohalarida amalga oshiriladi. Bilimning turli tarmoqlari chegarasida tutashgan bir qator fanlar, xususan, mikro va makroiqtisodiyot, marketing va menejment, statistika nazariyasi, buxgalteriya hisobi va audit, moliya va kredit fanlari industrial iqtisodiyot bilan chambarchas bog‘liq. Bu fanlar tadqiqot yoki bilish, anglash yo‘lini shakllantirish jarayonida **“Industrial iqtisodiyot”** fanining tajribasiga suyanadi va tarixiy nuqtai nazardan yondashadi.

Bu fanning vazifalari Respublikada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning obyektiv sharoitlari, O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari va amalga oshirila-yotgan

islohotlarning mohiyati, ahamiyati va mazmuni bilan belgila-nadi. Ulardan eng muhimlari quyidagilardan iborat⁴:

- mustaqil va qudratli davlat iqtisodiy siyosatining maqsadi va mohiyatini tushungan holda sanoat ishlab chiqarishi hamda uning bo‘g‘inlarida bu siyosatni amalga oshirishning yo‘l-yo‘riqlarini to‘la anglash;
- sanoat ishlab chiqarishining va qurilishning holati va rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish, tahlil etish va uning istiqbolini belgilashni fikrlash;
- sanoat ishlab chiqarishi va qurilishni tashkil etish, boshqarish, samaradorligini oshirishning ilmiy va amaliy asoslarini aniqlash bo‘yicha bilim va ko‘nikma berish;
- sanoat va qurilish resurslari, ishlab chiqarish fondlari va quvvatlaridan unumli, samarali foydalanish;
- fan-texnika taraqqiyotining iqtisodiy ahamiyati va mohiyatini tahlil etish, sanoat mahsulotlarining sifati va uning raqobatbar-doshligini ta’minlash, ishlab chiqarishning foydalilagini oshirishga yordam beradigan bilim va ko‘nikma berish.

Shu bilan birga ushbu fanning vazifasi sanoat sohasida tashqi iqtisodiy faoliyatning mohiyatini, ahamiyati va mazmuni hamda sanoat ishlab chiqarish va qurilish bo‘yicha o‘zaro hamkorlik va iqtisodiy integratsiyaning rolini tushuntirib berishdan ham iborat.

Fanning yana bir vazifasi – bu sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar tizimi, mahsulot tannarxi, narxlarning shakllanishi, rentabellik, sanoat va qurilishni moliyalash va kreditlash masalalari to‘g‘risidagi bilim va ko‘nikmalar bilan o‘quvchilarni qurollantirishdir.

Qisqacha xulosalar

1. “Industrial iqtisodiyot» kursi iqtisodiyot fanining muhim qismi, bilim va ko‘nikma beruvchi fan hisoblanadi. U sanoat ishlab chiqarishi va iqtisodiyotning boshqa sohalari uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

2. “Industrial iqtisodiyot» fan sifatida tasvirlash, tushuntirish va kelajakka tegishli voqeliklarni bashorot qilishni ta’minlaydigan nazariya va metodoligiyani qo‘llashga asoslanadi.

3. “Industrial iqtisodiyot» ilmiy kurs sifatida umum iqtisodiy qonunlarni chuqurlashtiradi, aniqlashtiradi va xususiy hamda o‘ziga xos qonuniyatlarni shakllantiradi. U bu qonuniyatlar, shuningdek, fundamental qoidalarni sanoat tarmoqlarining ba’zi bir tipik guruhlariga muvofiq tarzda o‘rganadi.

4. “Industrial iqtisodiyot» talabalarni ma’lum tarmoqning korxona (firma)larida sodir bo‘ladigan voqealarni rejalashtirish, bashoratlash, tahlil

⁴ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўкув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.15.

etish, hisob va hisobot ishlarini yuritish bo‘yicha zarur bo‘lgan bilimlar bilan qurollantiradi.

5. «Industrial iqtisodiyot» ilmiy kurs sifatida mamlakat ichida va xorijda yuz berayotgan iqtisodiy jarayonlarni bilishga imkon beradi.

O‘z-o‘zini nazorat qilishga oid savollar

1. «Industrial iqtisodiyot» fani nima uchun o‘qitiladi?
2. Bu fanning obyekti deganda nimalarni tushunasiz?
3. Ushbu fan yordami bilan qanday qonunlar va qonuniyatlar o‘rganiladi?
4. Ushbu kursni o‘rganishda qanday usullardan foydalilaniladi?
5. «Industrial iqtisodiyot» fani qanday fanlar bilan chambarchas bog‘liq?
6. Jamiyatni demokratlashtirish va ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida ushbu fan oldiga qanday vazifalar qo‘yilgan?

2-BOB. SANOAT - MILLIY IQTISODIYATNING YETAKCHI TARMOG'I

Tayanch atamalar va iboralar: sanoat, xonaki sanoat, iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, yoqilg'i – energetika majmuasi, energetika, metallurgiya sanoati, paxta tozalash sanoati mashinasozligi, qurilish materiallari sanoati.

Reja:

- 2.1. Sanoatning ta'rifi va tavsifi**
- 2.2. Sanoat va uning milliy iqtisodiyot rivojidagi roli va o'rni**
- 2.3. Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi tarixi**

2.1. Sanoatning ta'rifi va tavsifi

Sanoat - bu ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Demak, sanoat obyektiv reallik (borliq)ning in'ikosi va yuksak umumlashmasidir. Uning alohida tarmoq, ya'ni ijtimoiy ishlab chiqarishning alohida sohasi bo'lib yuzaga kelishi ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy mehnat taqsimotining rivoji bilan tarixiy jihatdan bog'liqdir. Sanoat ham obyektiv borliqning muhim hodisalari qatorida ma'lum davr (vaqt va fazo) da dunyoga kelgan, muayyan qonun va qoidalar asosida rivojlangan, ma'lum miqdor va sifatlarga, zarurat va imkoniyatlarga ega bo'lgan hamda ziddiyatlar qurbanini ham bo'lgan.

O'zbekiston sanoati ham o'z taraqqiyoti jarayonida bir qator bosqichlarni bosib o'tgan. Eng avvalo, uy sanoati, so'ngra, hunarmandchilik, ya'ni xonaki sanoat, kooperatsiya, manufaktura, fabrika kabi shakllari yuzaga kelgan. Bu yerda hunarmandchilikning juda ko'p turlari, ya'ni kulolchilik, duradgorchilik, toshtaroshlik, binokorlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, ko'nchilik, to'quvchilik va tikuvchilik, temirchilik, misgarlik va zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, tunukasozlik va boshqalar keng tarqalgan.

Bu yerda hunarmandchilik ("Xonaki sanoat") bronza asrida dehqonchilikdan ajralib chiqqan. Milodning dastlabki asrlarida hozirgi O'zbekiston hududida anchagina hunarmandchilik markazlari tashkil topgan. IX-X asrlarda ip, mato, gilam bo'yicha Xiva va Shosh, mis va temirdan asлаha, pichoq tayyorlash bo'yicha Farg'ona, shoyi matolar, shisha mahsulotlar tayyorlash bo'yicha Buxoro dunyoga tanilgan. XII-XIII asrlarda rivojlanish pasayib, Temuriylar davlatining vujudga kelishi bilan hunarmandchilik yanada rivoj topgan. Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent, Shahrisabz kabi shaharlarning ishlab chiqarish munosabat-larida hunarmandchilik alohida ahamiyat kasb etgan. XIX asr oxiriga kelib, O'zbekistonda hunarmandchilikning 30 ga yaqin turi rivoj topgan. XX asr boshlarida esa hunarmandchilikning asosiy qismi artellarga, keyinchalik zavod va fabrikalarga, badiiy buyumlar korxonalariga aylantirilgan.

XVIII asrning 60-70-yillarida Angliyada ro'y bergan Sanoat to'ntarilishidan keyin O'zbekistonda asta-sekin manufakturadan mashinalashgan industriyaga o'tish boshlandi. Xomashyoga birlamchi ishlov beradigan sanoat sohalari (paxta tozalash, ipak tortish, vino, konserva, moy zavodlari) vujudga keldi.

XX asrda O'zbekiston sanoatida juda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Agar asr boshlarida sanoat mahsulotining eng muhim turlaridan 5-10 xili (paxta tolasi, xom ipak, o'simlik moyi, uzum vinosi, g'isht, ganch va boshqalar) ishlab chiqarilgan bo'lsa, hozirgi paytda yuzlab-minglab turlari tayyorlanmoqda.

Sanoat moddiy ishlab chiqarishning asosiy va yetakchi tarmog'idir. Sanoatning vujudga kelishi va rivojlanishi ishchilar sonining oshishi va uning jamiyatdagi mavqeい ko'tarilishiga olib keladi. Mustaqillik davrida jamiyatni tarixiy jihatdan yangilashda ishchilarning avangardlik roli to'g'risida gap yuritilar ekan, faqat ishchilar sinfigina mehnatkashlar ommasining birlashuviga, jipslashuviga va istiqlolni himoya qilishga, mustahkamlashga va uni uzil-kesil ta'minlashga yordam bera oladi, deyish mumkin. Ana shu fikrni O'zbekiston voqe'ligi kun sayin tasdiqlamoqda. O'zbekiston ishchisi respublika yalpi ijtimoiy mahsulotining, milliy daromadning asosiy qismini bunyod etmoqda, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yuqori darajaga ko'tarishda faol ishtirok etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ishchilar qiyofasida ham barcha rivojlangan mamlakatlar ishchilaridagidek, ongli industrial mehnat-kashning va insonlar munosabatining yuksak normalari va umuminsoniy tamoyillarini, qadriyatlarini qaror toptiruvchi, yangi hayot uchun ilg'or kurashchi xislatlari bir butun bo'lib mujassamlashgan.

Sanoat taraqqiyotining muhim qonuniyatlaridan biri sanoat xodimlarining madaniy-texnikaviy, ma'naviy-ma'rifiy darajasining o'sishi, ishlab chiqarish malakasi va tajribasining tinmay oshib borishidir.

O'zbekiston mehnatkashlarining bilim va ko'nikmasi, ishlab chiqarish malakasi va mahorati, madaniy va ma'rifiy saviyasini yuqori darajaga ko'tarish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarda ham sanoatning yuqori o'rin tutishini ko'rish mumkin.

Sanoat mamlakat mudofaa qobiliyatining moddiy bazasi, el-yurtda tinchlik va barqarorlikni saqlashning muhim omili, qo'shni mamlakatlar mustaqilligini, hamkorligi va birdamligini ta'minlovchi muhim sohadir. O'zbekiston davlati mudofaasini kafolatlashda sanoatning roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Sanoat shunday tarmoqki, barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo'jalik jihatdan birlashishi, ya'ni iqtisodiy integratsiya tavsifida o'z ifodasini topadi. Natijada barcha mamlakatlarning

tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslaridan, fan-texnikaning barcha yutuqlaridan oqilona foydalinish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Sanoat, ayniqsa og‘ir sanoat butun ijtimoiy ishlab chiqarishni industrlashtirish muammolarini hal etish kalitidir. Shu sababli jamiyatning moddiy-texnika bazasini qaytadan qurish ishini hukumat umuman sanoat, xususan, uning eng muhim sohalarini rivojlantirishdan boshladi. Chunki bu sohalar O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy qudratini, xalq farovonligini yanada oshirishning poydevori bo‘lib hisoblanar edi, bundan keyin ham shunday bo‘lib qolaveradi.

Mehnatni ijtimoiy tashkil etishning eng oliv turi – konsentratsiyaning yuqori darajasi bilan kichik biznes va tadbirkorlikni uyg‘unlashtirish asosida ijtimoiy ishlab chiqarishni uyushtirishning ilg‘or usullari - ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish va kombinatlash-tirish ham sanoat sohasida hukmronlik qiladi va yaxshi samaralar beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishni ta’minlovchi buyuk harakatlantiruvchi kuch – bu raqobat, ya’ni bellashuv, raqiblar kurashi ham sanoat sohasida rivoj topadi. Ilg‘or texnika va texnologiyalardan foydalanish, materiallarning yangi turlarini yaratish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishdagi mahsulotlarning raqobatbardoshligini yuqori darajaga ko‘tarish, ishlab chiqarishning boshqa bir qator texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash asosida uning samaradorligini ko‘tarish uchun harakat va boshqa mehnat an‘analari ham avvalo, sanoat sohasida vujudga keldi va kelmoqda.

Mustaqillikning afzalliklari va Davlatning iqtisodiy siyosati sanoatning yetakchi o‘rnini yanada oshirmoqda. Islohotlarning asosiy yo‘nalishlari va ularning yechimini topish dastavval sanoat sohasida amalga oshirilmoqda va yaxshi samara bermoqda.

2.2. Sanoat. Uning milliy iqtisodiyot rivojidagi roli va o‘rni

Sanoat – moddiy ishlab chiqarishning eng yirik yetakchi tarmog‘i bo‘lib, unda mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste’mol tovarlarining ko‘pchilik qismi yaratiladi. Unda mashina va mexanizmlarning barcha turlari, bino va inshootlarning konstruktiv elementlari ishlab chiqariladi, yer osti boyliklarini qazib olish amalga oshiriladi, mineral, o‘simlik va hayvon xomashyosiga ishlov beriladi hamda keng iste’mol mollari tayyorlanadi.

Sanoat iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari bilan ta’minlaydi. Milliy iqtisodiyot, fan, maorif, madaniyat, sog‘liqni saqlash, sport, turizm va boshqa sohalar rivoji sanoatning taraqqiyot darajasiga bog‘liq.

Ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari taraqqiyotida sanoatning tarixiy roli beqiyosdir. Shu sababli uning rivoji va samaradorligi qanchalik

yuqori bo'lsa, davlatning mavqeい shunchalik kuchli bo'ladi va aholi turmush darajasi yanada yaxshilanib boradi.

Sanoat jamiyatning yetakchi kuchi bo'lgan ishchilar sinfini o'zida birlashtiradi. Sanoat rivoji tufayli unda band bo'lgan xodimlarning soni ko'payadi, ularning bilim va ko'nikmalari, mahorati ortadi, kadrlar salohiyati yuqori darajaga ko'tariladi.

Mehnatni ijtimoiy tashkil qilishning eng oliy turi, konsentratsiyaning yuqori darajasi va shu asosda ijtimoiy ishlab chiqarishni uyuştirishning ilg'or usullari – ixtisoslashtirish, kooperativ-lashtirish va kombinatlashtirish, ko'plab ishlab chiqarish va uzluksiz konveyer tizimi yordami bilan tashkil etish sanoat sohasida hukmonlik qiladi.

Faqat yirik mashina industriyasigina fan va texnikaning barcha yutuqlarini o'zida to'plab, mujassamlashtirib, mehnatni texnika bilan qurollantirishi va uning unumdorligini yuqori darajaga ko'tarishi mumkin.

Sanoat va ayniqsa uning eng muhim sohasi bo'lgan og'ir sanoat mamlakatda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishninig asosi hisoblanadi. U moddiy texnika vositalarini o'zi va boshqa tarmoqlar uchun takror ishlab chiqarish bilan bir vaqtda jamiyat a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirib boradi.

Sanoat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini qayta qurishning negizi hisoblanadi. Uni yangi texnika bilan ta'minlash orqali sanoat dehqon xo'jaligini iqtisodiy va madaniy jihatdan yuqori darajaga ko'tarishga, shahar bilan qishloq o'rtasidagi muhim tafovutni yo'qotishga, dehqon mehnatini industrial mehnatga aylantirishga yordam beradi.

Sanoat mamlakat mudofaa qobiliyatining moddiy manbai, dunyoda tinchlikni saqlashning muhim omili, mamlakatlar mustaqilligini va birdamligini ta'minlovchi muhim sohadir. O'zbekiston davlatining mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlashda sanoatning roli muhimdir.

Barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo'jalik jihatdan hamkorligi sanoat sohasida ham o'z ifodasini topadi. Davlatlarning tabiiy, mehnat resurslaridan, ilm-fan va texnikaning barcha yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayishida sanoatning ahamiyati salmoqlidir.

Sanoat uchun uzluksiz fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarish, ilm-fan yutuqlari bilan qurollanishining o'sishi xarakterlidir. Unda elektrorashtirish va elektronizatsiyalash, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish hamda kimyolashtirish sohasidagi ilg'or yutuqlardan keng foydalaniladi va ularning yutuqlarini tinchlik maqsadida qo'llaniladi.

Sanoat, ayniqsa uning ustuvor sohalari butun ishlab chiqarishni globallashtirish muammolarini hal etishning kalitidir.

Sanoat moddiy ishlab chiqarishning bosh tarmog'i, iqtisodiyot-ning poydevoridir. Milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qayta qurishga qodir

bo‘lgan yirik mashinalashgan sanoatgina mustaqillik-ning birdan bir moddiy negizi bo‘lishi mumkin.

Mamlakat aholisining ish bilan bandligini oshirishda sanoatning roli beqiyosdir. Buni quyidagi jadval ma’lumotlaridan bilib olish mumkin.

1 -jadval

Iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha aholi bandligi va uning o‘sish sur’ati⁵

	Ming kishi hisobida				O‘sish, %da
	1995	2005	2014	2015	
Iqtisodiyotda bandlar. Jami	8449	10196	12818	13058,3	154,6
Shu jumladan,					
sanoat	1087	1348	1642	1668,2	153,5
Qishloq va o‘rmon xo‘jaligi	3485	2967	3531	3610,9	103,6
Qurilish	528	849	1209	1248,5	236,5
Transport va aloqa	348	488	685	710,6	204,2
Savdo, umumiy ovqatlanish, ta’mnotin, sotish va tayyorlov	705	904	1431	1481	210,1
Uy-joy kommunal xo‘jalik va aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish	214	316	465	481,5	225,0
Sog‘lijni saqlash, jismoniy tarbiya, sport va ijtimoiy ta’mnotin	487	736	925	925,6	190,1
Ta’lim, madaniyat, san’at fan va ilmiy xizmat ko‘rsatish	1054	1385	1645	1645,8	156,1
Moliya, kreditlash va sug‘urta	40	54	64	65,2	163,0
Boshqa sohalar	501	1149	1221	1221	243,7

O‘zbekistonda mehnatga layoqatli aholining **13** foizi sanoat ishlab chiqarish hissasiga to‘g‘ri keladi. Shuni ta’kidlash kerakki, kelajakda respublika sanoatining jadal sur’atlar bilan o‘sishi yanada yaxshilanib, mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishi, ya’ni bandlik darajasi anchagina yuksaladi. Jamiatning yetakchi, bunyodkor, qudratli kuchi bo‘lgan kadr (xodim)larning anchagina qismi sanoatda xizmat qiladi. Bu tarmoqning yanada ulkan rivoji sanoat tarmog‘i kadrlari sonining oshishiga va ularning jamiatdagi mavqeini ko‘tarishga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi sanoatining taraqqiyoti yuqori malakali ishchi kadrlar, muhandis va texnik xodimlarni yaratdi. Hozirgi paytda O‘zbekiston sanoatida **1,6** millionga yaqin xodim ishlamoqda. Ulardan **16%** oliy ma’lumotli mutaxassis, **84%** o‘rtalama va o‘rtalama maxsus ma’lumotli

⁵ Muallif tomonidan quyidagi yordamida ishlab chiqilgan. Ўзбекистонда меҳнат ва бандлик. Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси Статистика Кўмитаси. Тошкент 2016. Б.34.

xodimlardir.⁶

Jamiyat taraqqiyotining muhim qonuniyatlaridan biri sanoat tarmog‘i xodimlarining madaniy – texnik saviyasi o‘sishi, ishlab chiqarish malakasi va tajribasini tinmay oshib borishidir.

Ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishni ta’minlovchi buyuk harakatlantiruvchi kuch – raqobat ham avvalo, sanoat sohasida vujudga keldi va rivojlana boshladi. Tadbirkorlar, ishbilarmonlar bellashuvning bayroqdori bo‘lib maydonga chiqdilar. Respublika sanoatida ham raqobat o‘zining oddiy bosqichidan eng yuqori bosqichiga ko‘tarilib, chinakam umumiy dastakka aylanmoqda.

Mustaqillikning afzalliklari va davlat iqtisodiy siyosatining yetakchilik rolini yanada oshirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari eng avvalo, sanoat sohasida amalga oshirilmoqda va sezilarli samara bermoqda.

Sanoat tabiatda uchraydigan moddiy boyliklarni qazib chiqarish va tayyorlashni, ularni va qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlashni o‘z ichiga qamrab oladi. U barcha iqtisodiyot tarmoqlari uchun ishlab chiqarish kuchlarining asosiy elementlaridan biri hisoblangan jamiyatning tabiat ustidan hukmronligini birmuncha orttiradigan, fan-texnika taraqqiyotini belgilaydigan, inson mehnatining unumdarligini oshirishga imkon beradigan, mehnat va ishlab chiqarish qurollarini yaratadigan sohadir.

2- jadval

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiyotining asosiy ko‘rsatkichlari⁷ (haqiqiy bahoda, mlrd. so‘m)

	2012	2013	2014	2015
Yalpi ichki mahsulot	97929,3	120861,5	145846,4	171369,0
<i>shu jumladan</i>				
Sanoat tarmog‘ining yalpi qo‘shilgan qiymati	23456,6	29069,5	34981,6	41531,0
sanoatning ulushi, %da	24,0	24,1	24,0	24,3
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya-lar	22797,3	28694,6	35233,3	41670,5
<i>shu jumladan</i>				
sanoatda	7794,0	9813,4	13164,5	17041,0
sanoatning ulushi, %da	34,2	34,2	37,4	40,9

⁶ Ўзбекистонда меҳнат ва бандлик. Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Кўмитаси. Тошкент, 2014. Б.30.

⁷ Ўзбекистон Саноати. Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Кўмитаси. Тошкент 2016. Б.14.

Sanoat taraqqiyoti ishlab chiqarish kuchlarining bir tomonlama rivojlanishiga xotima beradi, mamlakat va uning ajralmas qismi bo‘lmish viloyatlarning tabiiy boyliklaridan, xomashyo va mehnat resurslaridan kengroq va har tomonlama foydalanish imkoniyatini yaratib beradi.

Sanoatning vujudga kelishi va rivojlanishi mehnat taqsimotining o‘sishi, ishlab chiqarishni differensiyalash va intensivlashtirish bilan chambarchars bog‘liq.

Hozirgi zamon yirik sanoati bir biri bilan chambarchars bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina tarmoqlar va ishlab chiqarishlardan tashkil topadi. Bugungi kunda respublika sanoatida **175** tarmoq, **22700** ta yirik va o‘rta sanoat korxonalari mavjud.

Sanoatning milliy iqtisodiyotdagি roli va o‘rnini quyidagi ma’lumotlardan aniqroq ko‘rish mumkin.

1991 yildan boshlab O‘zbekiston sanoat ishlab chiqarishidagi kamayish, boshqa sobiq ittifoq davlatlariga nisbatan past bo‘lib keldi. Buning sababi, iqtisodiyotning xomashyo va materiallarga bog‘liqligi va shu tariqa sobiq ittifoqning tarqalib ketishidan so‘ng davlat tomonidan eksportni tez sur’atda qayta yo‘naltirishga erishilganligidadir. Hozirgi davrga qadar iqtisodiyotning uzlusiz o‘sishi davom etmoqda. Buni quyidagi jadvaldan ko‘rish mumkin.

3- jadval

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy o‘sish⁸

	200 5	200 6	200 7	200 8	200 9	201 0	201 1	201 2	201 3	201 4
Yalpi ichki mahsulotning yillik o‘zgarishi, %	7.0	7.5	9.5	9.0	8.1	8.5	8.3	8.2	8.0	8.1
Sanoat ishlab chiqarishida gi yillik o‘zgarish, %	3.8	6.2	6.6	6.8	4.1	4.2	3.5	4.6	6.5	5.7

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2013-14 yillarda jami sanoat ishlab chiqarish oldingi yillarga nisbatan bir muncha tezroq o‘sdi. Ayniqsa qayta ishlash sanoati qazib oluvchi (undiruvchi) sanoatga nisbatan

⁸ Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Кўмитаси. Тошкент 2015. Б.35.

katta sur'atlar bilan o'sdi. Sanoat ishlab chiqarishidagi yillik o'zgarish 2005 yilda 3,8%ni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilga kelib 5,7 % ga yetdi.

Quyidagi, 4-jadvalda 2010-2015 yillarda sanoat ishlab chiqarishi tarmoqlaridagi o'zgarishlar ko'rsatilgan.

4 - jadval

Sanoat ishlab chiqarishi tarmoqlaridagi o'zgarishlar⁹
(o'sish indeksi, oldingi yil -100)

	2010	2011	2012	2013	2014	2015
Jami sanoat	108,5	106,4	107,9	109,6	108,3	107,9
<i>shu jumladan,</i>						
Qazib oluvchi	103,1	100,5	107,3	97,5	97,4	107,0
Qayta ishlovchi	110,1	108,6	108,1	112,7	110,7	108,1
Sanoat tarmoqlari bo'yicha						
1. Elektrenergetika	102,7	101,1	103,0	101,3	102,2	105,8
2. Yonilg'i sanoati	104,1	100,7	104,8	101,5	98,0	105,8
3. Qora metallurgiya	107,7	105,8	106,5	102,8	116,5	103,4
4. Rangli metallurgiya	99,1	102,5	102,6	103,5	102,0	103,4
5. Kimyo va neft-kimyo sanoati	117,1	110,4	106,8	104,1	104,5	104,1
6. Mashinasozlik va metallni qayta ishslash	112,8	112,7	113,9	124,2	114,7	92,2
7. O'rmonchilik va yog'ochni qayta ishslash	106,3	112,2	106,5	123,4	111,9	133,0
8. Qurilish materiallari	105,8	110,9	113,0	115,6	107,8	107,9
9. Yengil sanoat	117,9	104,0	112,9	111,9	115,4	115,7
10. Oziq-ovqat sanoati	113,1	113,5	105,0	109,3	108,3	117,3

Bunday iqtisodiy o'sishning asosiy omili davlatning o'zi islohotlar strategiyasini sanoatlashtirish siyosati bilan muvofiqlashtirib olib borganidadir. Ana shunday siyosat olib borilishi munosabati bilan 1993 yilda u MDH davlatlari orasida o'zining rivojlanishini qayta tiklagan, keyinchalik, 1996 yilda, birinchi bo'lib 1991 yil darajasidan ancha o'zgan, 1999 yilda esa dastlabki (bazaviy) ishlab chiqarish hajmiga nisbatan 15 foizga o'sgan yagona respublika bo'lib qoldi.

O'zbekiston iqtisodiyotining ko'rsatkichlari ijobiy bo'lishining eng muhim sabablari – bu mavjud sanoat tarmoqlarining kerakli hajmda saqlab

⁹ Muallif tomonidan quyidagi yordamida ishlab chiqilgan: Ўзбекистон Саноати. Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Кўмитаси. Тошкент 2014. Б.24-25; Ўзбекистон Саноати. Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Кўмитаси. Тошкент 2016. Б.25-26.

qolib, yangi tarmoqlarni yaratish strategiyasi bo‘ldi. Mustaqillikning birinchi yillaridanoq O‘zbekiston hukumati uchun real sektorni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Respublikamizning o‘z-o‘zini yoqilg‘i-energetika mahsulotlari bilan ta’minlash siyosati (neft va neft mahsulotlari hamda gaz ishlab chiqarishning keskin o‘sishi), qo‘sishimcha qiymat yaratuvchi (mashinasozlik, yog‘och va yog‘ochni qayta ishslash) sohalarining intensiv rivojlanishi bilan birgalikda olib borildi. Shu bilan birga, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sanoatlarining rivoji ham qayd etildi.

Umuman olganda, tarmoqlar bo‘yicha ishlab chiqarish tarkibida og‘ir sanoat (yonilg‘i-energetika majmuasi, mashinasozlik, metallurgiya) salmog‘ining oshishi yengil sanoat ulushi hisobiga bo‘lmoqda. Natijada, mustaqil iqtisodga xos bo‘lgan darajaga yaqinlashish yuz bermoqda va sobiq ittifoq mamlakatlarida qayta ixtisoslashuvdan paydo bo‘layotgan yetishmovchilik va tobelikning oldini olish ta’minlanmoqda.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va qo‘sishimcha qiymat yaratuvchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy strategiya respublikaga yaxshi natijalar keltirmoqda.

O‘zbekiston o‘zining oltini, paxta tolasi va ipagi, nefti va gazi, samolyot va avtomobilari, paxta terish mashinasi va paxtani qayta ishslash mashinalari bilan, ekskovator va kompressorlari, vino va konservalari hamda bir qator boshqa sanoat mahsulotlari bilan dunyoga mashhurdir.

O‘zbekiston respublikasining industrial qiyofasini energetika, konruda, oltin qazib oluvchi, samolyotsozlik va avtomobilsozlik sanoatlari, elekrtotexnika va elektron sanoatlari, ko‘p tarmoqli mashinasozlik va qurilish materiallari sanoati belgilab bermoqda.

1995-2013 yillarda sanoat mahsulotining ishlab chiqarish hajmi 3,7 marotaba ko‘paydi. Bu davrda faqat miqdoriy o‘zgarishlarga emas, balki juda katta sifat o‘zgarishlari ham sodir bo‘ldi.¹⁰

2.3. Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi tarixi

Sanoat ishlab chiqarishining tarixiy rivojlanishi va uning asosiy yakunlari to‘g‘risida so‘z yuritilganda shuni ta’kidlash kerakki, hozirgi O‘zbekiston hududida «Uy sanoati»ning rivoji bundan 12-15 ming yil muqaddam mezolit davrida boshlangan. Bu davrda juda oddiy mehnat qurollari va buyumlari tayyorlangan.

Yangi tosh asri (neolit, miloddan avvalgi 5-ming yilning boshi) davrida kemachilik, to‘qimachilik vujudga kelgan. Neolit davrining oxirida metalldan qurollari yasash boshlangan.

¹⁰ Ўзбекистон Саноати. Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Кўмитаси. Тошкент 2014. Б.24-25; Ўзбекистон Саноати. Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Кўмитаси. Тошкент 2016. Б.25-26.

Arxeologik topilmalardan ma'lum bo'lishicha, miloddan avvalgi 3-ming yilning oxiridayoq hozirgi O'zbekiston hududida yashagan aholi misdan quroq yasashni bilgan.

Quldarlik tuzumi (m.a. 1-ming yillik o'rtalari V asr) davrida mehnat qurollarining taraqqiy etishi, metallga ishlov berishning takomillashuvi hunarmandchilikning o'sishiga, ayirboshlash va savdo-sotiqning kuchayishiga olib keldi.

Feodalizm tuzumining boshlarida (VI-VIII asrlarda) Farg'ona bilan So'xdan oltin, mis, temir, Iloqda qo'rg'oshin, kumush, oltin, Shahrисabzda toshuz qazib chiqarilgan.

IX asrda Samarqand o'zining sifatli qog'ozi va lampa shishasi bilan mashhur bo'lgan. Shosh viloyati ko'nchilik mahsulotlari bilan dong taratgan. O'sha davrda O'rta Osiyodan Sharqiy Yevropa, Xitoy va boshqa yurtlarga Buyuk Ipak yo'li orqali charm, mato, ipak, jun, kiyim-kechak eksport qilingan.

X-XIII asrlarda yuz bergan feodal tarqoqlik, qabila va elatlar o'rtasidagi nizolarning avjiga chiqishi tufayli hunarmandchilikda yirik o'zgarshlar ro'y bermagan.

XIV asrning 2-yarmida Amir Temur Samarqandda hokimiyatni qo'lga kiritib, markazlashgan davlatga asos soldi. Natijada davlatning iqtisodiy va ijtimoiy ravniqiga katta yo'l ochilgan.

XV asrning oxiriga kelib Movaraunnahrda yuzaga kelgan ziddiyatlar tufayli Temuriylar davlatining iqtisodiy negiziga putur yetadi va rivojlanish to'xtab qoladi.

XVI-XVIII asrlarda Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarining vujudga kelishi iqtisodiyotning, shu jumladan, sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va XIX asrga kelib Turkistonda hunarmandchilikda yog'och va metall o'ymakorligi, idishlarga naqsh solish, matolarga gul bosish, qurollarni badiiy bezash rivojlanadi. Bu asrning ikkinchi yarmida O'zbekiston hududida taraqqiyot tezlashib sanoat, ayniqsa ip-gazlama sanoati rivoj topdi.

XX asr boshlarida birqancha paxta tozalash, yog'-moy zavodlari qurilib ishga tushirildi. 1925-1926 yillarda elektrostansiyalar qurila boshlandi va birinchi bo'lib Toshkent yaqinida qurilgan Bo'zsuv gidroelektrostansiyasi 1926 yil 1 mayda ishga tushirildi.

Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Termiz va Asaka shaharlarida issiqlik elektrostansiyalari qurilishi boshlanib, 1930 yilda ularning soni 30 ga yetdi. O'sib borayotgan energetika bazasi bir qancha yangi sanoat korxonalari qurishga imkoniyat yaratdi.

Ikkinchi jahon urushigacha bu yerda 500 dan ortiq sanoat korxonalari jumladan, «Tashselmash», Toshkent to'qimachilik kombinati, Chirchiq-elektrokimyo kombinati, Kattaqo'rg'on yog' zavodi, Bekobod va Quvasoy

segment korxonalari qurildi. Neft va rangli nodir metallar qazib chiqarish, qurilish sanoati mahsulotlarini tayyorlash rivoj topdi.

Urush boshlanishi bilan respublika iqtisodiyoti, jumladan, sanoat ishlab chiqarishi harbiy maqsadlarga qaratildi. Bu yerga nemis fashistlari egallab olgan hududlardan 100 ga yaqin sanoat korxonalari ko‘chirib keltirildi va ular qisqa vaqt ichida to‘la quvvat bilan ishlay boshladi. 1941-1945 yillar davomida Respublikaning industrial taraqqiyoti GESlar qurish bilan energetika bazasini kuchaytirish, qishloq xo‘jaligi, aholi va front ehtiyojlarini qondiradigan zavod va fabrikalarni qurish yo‘lidan bordi. Bu davrda 280 ta yirik, o‘rta va kichik korxonalar qurilib ishga tushirildi. Natijada O‘zbekiston Armiyaning sanoat arsenallaridan, ya’ni aslahaxonalaridan biriga aylandi.

Urushdan keyingi yillarda ham sanoat taraqqiyotiga e’tibor qaratilgani sababli uning bir qancha yangi tarmoqlari va korxonalar vujudga keldi. Traktorsozlik, liftsozlik, elektrotexnika sanoati, gaz ishlab chiqarsh, uy ro‘zg‘or buyumlari tayyorlash, yig‘ma temir beton va keramika sanoati vujudga keldi. Yengil sanoatning trikotaj, chinni ishlab chiqarish sohalari yuzaga keldi. Oziq-ovqat sanoatining tarkibiy qismlarida anchagini o‘zgarishlar ro‘y berdi. 90-yillarga kelib uning yirik va o‘rta korxonalari 300 dan ortib ketdi.

Qisqacha xulosalar

1. Sanoat milliy iqtisodiyotining yetakchi tarmog‘i hisoblanadi va ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishda, aholining turmush-darajasi oshirishda uning ahamiyati beqiyosdir.

2. O‘zbekiston sanoati juda katta tarixiy yo‘lni bosib o‘tgan va istiqlol yillarda, XX asrning Oxirgi 10 yilida tubdan o‘zgarib, bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda rivojiana boshladi. 80-yillarning o‘rtalaridan boshlangan sanoat inqirozi tugatilib, 1995 yildan boshlab uning o‘sishi sur’ati kuchaya boshladi. 2004 yildagi o‘sish 1991 yilga nisbatan 500 foizni tashkil etdi.

O‘z-o‘zini nazorat qilishga oid savollar

1. Sanoat-milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i.
2. Sanoatning asosiy xususiyatlari va sanoat ishlab chiqarishning iqtisodiyotning boshqa sohalari bilan o‘zaro bog‘lanishi.
3. O‘zbekiston sanoatining rivojlanish bosqichlari va sanoat tarmoqlarining taraqqiyoti.
4. Sanoat va bozor xo‘jaligi hamda uning xorijiy bozorga chiqish imkoniyatlari va yo‘llari.
5. Sanoat ishlab chiqarishning xalqaro hamkorlik sohasidagi vazifalari.

3-BOB. SANOAT TARMOQ TUZILMASI VA TARKIBIY SILJISHLAR

Tayanch atamalar va iboralar: tarkibiyy siyosat, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash, ijtimoiy mehnat taqsimoti, milliy iqtisodiyot, sanoatining kompleks tarmoqlari.

Reja:

- 3.1. Tarkibiy siyosat, uning mohiyati va ahamiyati**
- 3.2. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va sanoat tarmog'ining shakllanishi**
- 3.3. Sanoat tarmoq tuzilmasi va uni belgilovchi omillar**
- 3.4. O'zbekiston sanoatining tarmoq tuzilmasi xususiyatlari**
- 3.5. Tarmoq tuzilmasi o'zgarishining asosiy tendensiyasi**

3.1. Tarkibiy siyosat, uning mohiyati va ahamiyati

Tarkibiy siyosat haqida mulohaza yuritishdan oldin, tarkib (tuzilma)ning o'zi nima ekanligini bilib olishimiz zarur.

Tarkib narsalar tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liq ravishda joylashish, tuzilishini bildiradi.

Tarkibiy siyosatning mohiyati sohalarning tuzilmaviy jihatlarini belgilab berish, yo'lga solib turishdan iboratdir.

Islohotlarning o'tgan davri uchun mo'ljallangan iqtisodiy siyosatning yo'nalishi va xususiyatlari doirasida belgilangan milliy iqtisodiyot tarkibida progressiv o'zgarishlarni amalga oshirish, tarmoqlararo va tarmoq ichki nisbatlarini takomillashtirish, fan-texnika taraqqiyotini belgilovchi tarmoqlarni ustuvor rivojlantirishni davom ettirish vazifasi muhim ahamiyatga molikdir.

Davlat strategiyasiga muvofiq ijtimoiy ishlab chiqarish jumladan, sanoat tarkibini rejali tarzda takomillashtirish ko'z ilg'aydigan istiqbolda:

- iqtisodiyot va uning yetakchi tarmog'i bo'lgan sanoatni balanslashtirilgan tarzda va izchil rivojlantirish;
- iqtisodiyotni, xususan, sanoatni asosan intensiv rivojlantirish yo'liga o'tkazish, uning samaradorligini oshirish, moddiy mehnat va moliyaviy resurslarni iste'mol qilishni ratsionallashtirishni, ularni har tomonlama tejash;
- iqtisodiyotning, jumladan, sanoatning ijtimoiy yo'nalishini yanada kuchaytirish, milliy iqtisodiyotning aholi faravonligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan xil vazifalar tomon yanada chuqurroq burilishini ta'minlash lozim.

Bir butun qismlarning muayyan o'zaro aloqasi, bir biriga nisbatan joylashuvi bo'lgan tarkibni proporsiyalar (mutanosibliklar) juda ham aniq tarzda ifodalaydi. Iqtisodiy jarayonlarning mohiyatini chuqr bilib olish va ularni rejalar, prognozlar va loyihalarda tatbiq etish, ijtimoiy va shaxsiy

iste'molni, fan-texnika taraqqiyotining, milliy iqtisodiyotning tegishli ishlab chiqarishlari va tarmoqlari rivoji istiqbollarini sinchkovlik bilan hisobga olish, rejalarни zarur rezervlar bilan mustahkamlash rejalashtirish texnologiyasining eng muhim tarkibiy, tuzilmaviy qismlari bo'lib, ularga qat'iy rioya qilish vazifalarining proporsionalligi, balanslashtirilganligi, realligi, qo'yilgan maqsadlarga erishishdagi ishonchliligi, ta'sirchanligining shartidir.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy strategiyasida iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish, uning tarmoqlarini rivojlantirish yuzasidan muhim topshiriqlar hamda iqtisodiyot tarmoqlarining marralari batafsil belgilab berilgan.

Takror ishlab chiqarishning hozirgi sharoitlarida iqtisodiy o'sish iqtisodiyot ko'laming o'sishi bilangina emas, balki iste'molda ham, ishlab chiqarishda ham tarkibiy siljishlar, ularning tezligi va samaradorligi bilan aniqlanadi.

Tarkibni aniqlovchi siyosatni shakllantirish iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni sifat jahatdan baholashni aniqlashning muhim xususiyati iqtisodiyotning o'sish sur'ati ko'rsatkichlarining salbiy tomonga o'zgarishi yuz berishi muammosini hal etishi zarurligidir, chunki ayni bir sur'atning o'zi bir necha tarmoqlarning turli o'sish sur'atlarida ifodalanishi mumkin, bu bir xil bo'lмаган iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarga olib keladi. Bu muammo oqibatda u yoki bu sohaga ustuvorlik (afzallik) berish tizimini yaratishni taqozo etadi. Masalan, fan-texnika taraqqiyotida to'liq aks etadigan sohalar ajralib turadi: yoqilg'i-energetika, elektronika, mashinasozlik, Kimyo. Shuning uchun bu tarmoqlar o'sish sur'atlari bo'yicha sanoat o'sishidan yuqori turishi kerak. Mashinasozlikning tarmoq tarkibida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berishi zarur. Kimyoda biotexnologiyani qo'llab, nozik organik sintez mahsulotlarini ishlab chiqarish jadal sur'atlarda rivojlanishi zarur.

Tarkibiy o'zgarishlarning yo'nalishi, ularning jadalligi va ko'lamenti aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni vaqtda iqtisodiy darajasi bir xil bo'lgan yoki iqtisodiyotidagi tarkibiy yo'nalishlari o'zgarishi o'xshash bo'lgan mamlakatlar guruhi bo'yicha tarmoqlararo komplekslar va ayrim tarmoqlar ishlab chiqarishi va iste'molining rivojlanishidagi umumiyligini qonuniyatlarni aniqlash – bu barcha analistik materiallar istiqbolni rejalashtirishning muhim zamini hisoblanadi.

Shu bilan birga tarkibiy yo'nalishlar o'zaro muvofiqlashtirilishi kerak, chunki rivojlanish strategiyasiga muvofiq tarmoqlararo komplekslar va tarmoqlarni rivojlantirish uyg'unlashtirilishi zarur.

Yangi asrning dastlabki yillaridagi **taraqqiyot strategiyasi, jamiyatni yangilash, barcha sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish borasidagi faoliyat** 6 ta ustuvor yo'nalish vositasidan iborat. Birinchi

ustuvor yo‘nalish – aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilish, ikkinchi ustuvor yo‘nalish – mamlakat siyosiy va iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada jadallashtirish, uchinchi ustuvor yo‘nalish – jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirish, to‘rtinchi ustuvor yo‘nalish – kadrlar tayyorlash, **beshinchi ustuvor yo‘nalish – iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni ta’minalash**, oltinchi ustuvor yo‘nalish – jamiyatdagи barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz daxlsizligini, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta’minalashdan iborat¹¹.

Aholi va tadbirkorlarni o‘ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o‘rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo‘llash amaliyoti va ilg‘or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda quyida-gilarni nazarda tutadigan 2017—2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining¹² 3.2. bandida tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish masalalari qayd etilgan. Xususan, ushbu hujjatda tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish masalalari quyidagilarni amalga oshirish evaziga erishilishi rejalashtirilgandir:

milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta’minalash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko‘rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko‘paytirish;

ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihamalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;

yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘srimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;

iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;

muhim jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o‘zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta’minalash;

¹¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 07.02.2017 йилдаги ПФ-4947-сон Фармони

¹² O’sha yerda

ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rag‘batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste’mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o‘rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;

iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdarligini oshirish;

faoliyat ko‘rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalari samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish;

xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o‘rni va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish;

turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikasiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;

eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikasiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

yo‘l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruvi tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Ana shu ustuvor yo‘nalishlardan biri iqtisodiyotda, shu jumladan, sanoatda ham tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish bo‘lib, sanoat boshqaruvi tuzilmasini yaxshilashdan tortib korxonalarni yangilash va texnik jihatdan qayta jihozlashga, mamlakatning boy tabiiy va mineral xomashyo salohiyatidan to‘la, samarali foydalanishga, eksportga moslangan va import o‘rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqaradigan quvvatlarni barpo etishga qaratilmog‘i darkor.

Iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish jarayonida, ayniqsa, investitsiya dasturini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada mamlakatda samarali ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon mamlakatga kiritilgan sarmoyalarning hajmi 8 mlrd. AQSh dollaridan oshib ketdi. Xorijiy sarmoyalarning aksariyat qismi (95-96%) iqtisodiyotning real ishlab chiqarish sohalariga, jumladan, 64 foizi sanoatga kiritilmoqda. Ana shu investitsiyalar asosida yangidan yangi korxonalarning barcha viloyatlarda qurilayotganligi nafaqat hududlarning **sanoat tizimini**, balki ularning qiyofasini ham tubdan o‘zgartirib yubormoqda.

Respublika iqtisodiyotida, shu jumladan, sanoatda tarkibiy o‘zgarishlarni ta’minlash natijasida davlatning qudratini yanada orttirish,

mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, yurtni obod etish va xalqning farovonligini yuqori darajaga ko‘tarish mumkin bo‘ladi.

3.2. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va sanoat tarmog‘ining shakllanishi

Ijtimoiy mehnat taqsimoti ma’lum buyum va mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining o‘sishi va fan-texnika taraqqiyoti natijasidir. Ishlab chiqarish ko‘laming kengayishi esa ixtisoslashgan ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi va kichiklashuvi, yangi sanoat tarmoqlarining tashkil topishi va ilgari bunyod etilganlarni takomillashtirishni taqozo etadi.

Ijtimoiy mehnat taqsimotining mohiyati va ahamiyati to‘g‘risida so‘z borganda, shuni aytish kerakki, u tufayli xo‘jalik rivojlanishi natijasida sanoatning ayrim va mustaqil tarmoqlari ko‘payadi, bu rivojlanish tendensiyasi ayrim mahsulotni chiqarishni, mahsulotning ayrim qismini ishlab chiqarishni emas, balki mahsulotni iste’mol qilishga tayyorlashdagi ayrim ishlarni ham sanoatning alohida tarmog‘iga aylantirishdan iborat.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti uch shaklda: umumiyl, xususiy va ayrim, birlamchi shaklda namoyon bo‘ladi. Iqtisodiyotning yirik tarmoqlari, ya’ni sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport va aloqaning vujudga kelishi umumiyl mehnat taqsimotining mahsulidir. Bu tarmoqlarning har birida sohalarning mustaqil ravishda ajralib chiqishi xususiy mehnat taqsimoti natijasidir. Birlamchi mehnat taqsimoti esa ishlab chiqarishni korxona ichida – sexlar, uchastkalar va yangi ish joylarni tashkil etish bilan bog‘liqdir. Bunday turkumlarga ajratish va uning mahsulini 2-chizmada ko‘rish mumkin.

Xususiy va ayrim hollarda birlamchi mehnat taqsimotining ta’siri bilan O‘zbekiston sanoatida ham tarmoqlar va ishlab chiqarishlar soni uzlusiz ko‘payib bormoqda. 2000 yilning oxiriga kelib respublikada sanoatning 175 ga yaqin tarmog‘i va ishlab chiqarish sohalari faoliyat ko‘rsatmoqda.


U yoki bu ishlab chiqarish faqat ma’lum texnik – iqtisodiy asos (zamin) yaratilgandagina alohida sanoat tarmog‘iga aylanishi mumkin. Buning uchun eng avvalo bir necha turdosh korxonalar bo‘lishi lozim.

Ular aniq mustaqil sanoat tarmog‘iga birlashtirish imkoniyatini beradigan ma’lum belgiga ega bo‘lishi kerak.

Sanoat tarmog‘i ishlab chiqarish uyushmalar, kombinatlari va korxona (firma)lari yig‘indisidir. Tarmoq hosil etish uchun korxonalar bir necha umumiyl xususiyatlarga ega bo‘lishlari kerak:

- ishlab chiqariladigan mahsulot iqtisodiy mazmunining bir xilligi;
- ishlatiladigan xomashyo va asosiy materiallarning o‘xshashligi;
- ishlab chiqarishning texnik bazasi va texnologik jarayonlarining umumiyligi;
- ma’lum kasbdagi kadrlar tarkibining umumiyligi;

- ijtimoiy mehnatni tashkil etish darajasi va shakllarining bir biriga o‘xshashligi va hokazolar.



2-chizma. Milliy iqtisodiyot, jumladan, sanoatning tarmoqlarga bo‘linishi.

Sanoat ishlab chiqarishni ilmiy jihatdan assoslangan ravishda tahlil etish va rejalashtirish, uning samaradorligini aniqlash va boshqarish uchun tarmoqlarni tasniflash, ya’ni ma’lum guruhlarga ajratish lozim.

Sanoat tarmoqlarini guruhlashda asosiy e’tibor tayyorlanadigan mahsulotning iqtisodiy mazmuniga qaratiladi. Mahsulotning iqtisodiy jihatdan bir maqsadga javob berishi belgisiga qarab, sanoat ikki yirik guruhga bo‘linadi: Ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi (“A” guruh), iste’mol buyumlari ishlab chiqaruvchi (“B” guruh) turlarga bo‘linadi. Ma’lumki, deyarli barcha sanoat tarmoqlarida ham ishlab chiqarish vositalari, ham iste’mol buyumlari sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan mahsulotlar tayyorlanadi. Shu sababli rejalashtirish va hisob-kitob yuritishda ba’zi bir sanoat tarmoqlari “A” yoki “B” guruhga kiritilishi mumkin.

Mehnat vositalarning mehnat buyumlariga ta’sir ko‘rsatishiga qarab sanoat qazib oluvchi va ishlov beruvchi tarmoqlarga bo‘linadi. Sanoatning bunday ikki qismga bo‘linishi ishlab chiqarish aloqalarini ko‘rsatishga, material va yoqilg‘i-energetika resurslarini, ishlab chiqaruvchi va iste’mol qiluvchi tarmoqlar o‘rtasidagi nisbatlarni asoslab berishga imkon yaratib beradi.

Ishlab chiqariladigan mahsulotning funksional vazifasiga binoan ham tarmoqlarni guruhlash mumkin. Bunda alohida guruhlar, bir qator tarmoqlar, masalan, yoqilg‘i ishlab chiqaruvchi – yoqilg‘i sanoati, oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlovchi – oziq- ovqat sanoatiga birlashishi mumkin.

3.3. Sanoat tarmoq tuzilmasi va uni belgilovchi omillar

Tarmoq tuzilmasi deganda, uning tarkibi, tarmoqlar o‘rtasidagi nisbatlar va o‘zaro bog‘liqlik tushuniladi. Tarmoq tuzilmasi sanoat taraqqiyoti darajasini belgilaydi hamda unda yuz bergan va yuz beradigan o‘zgarishlarni aks ettiradi.

Tarmoq tuzilmasiga binoan quyidagi jihatlarni aniqlash mumkin bo‘ladi:

- ijtimoiy mehnat taqsimoti va kooperatsiyaning darajasini;
- mamlakatning iqtisodiy jihatdan mustaqil ekanligini;
- sanoat va butun iqtisodiyotning ilmiy-texnika salohiyatini;
- mamlakat va uning viloyatlari sanoatining rivojlanish darajasini;
- sanoat tarmog‘ining “A“ guruhi bilan “B“ guruhi o‘rtasidagi ishlab chiqarish aloqadorligini;
 - ijtimoiy mehnat unumdarligi yoki ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligining darajasini;
 - mehnatkashlarning moddiy faravonligi va madaniy darajasi o‘sganligini.

Sanoat tarmoqlari tuzilmasini tavsiflash uchun ayrim tarmoqlar o‘rtasidagi ma’lum ishlab chiqarish aloqadorligini ifodalovchi miqdoriy nisbatlarni aniqlab olish kerak. Bu muammoni hal etish uchun bir qator ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Ulardan biri tarmoqlar o‘rtasidagi nisbatlarni ifodalasa, ikkinchisi ma’lum davr ichidagi tuzilmaviy o‘zgarishlarni, uchinchisi esa ishlab chiqarish aloqalarini ifodalaydi.

Tarmoq tuzilmasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- mustaqil sanoat tarmoqlarining soni;
- tarmoqlarning sanoat ishlab chiqarish umumiyligi salmog‘i;
- tarmoq rivojining sur’ati;
- tarmoqning ilgarilab ketish koeffitsiyenti.

Mustaqil sanoat tarmoqlarining soni mamlakat industrial taraqqiyoti, uning iqtisodiy va ilmiy-texnik salohiyati, iqtisodiy jihatdan mustaqilligini ifodalaydi.

Tarmoqning yalpi mahsulot sanoat ishlab chiqarishi umumiyligi hajmidagi ulushi, ishchilar soni va asosiy fondlar qiymatidagi salmog‘i ko‘rsatkichlari bilan o‘lchanadi.

Tarmoqning rivojlanish sur’atini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$C = \frac{100 * \Pi}{X},$$

bu yerda C – tarmoqning rivojlanish sur’ati;

Π – tarmoq rivojlanishining rejali darajasi;

X – tarmoq rivojinining hisobot davridagi darajasi.

Tarmoqning rivojlanish koeffitsiyenti tarmoqlar tarkibidagi miqdor o‘zgarishlarni ifodalaydi va ma’lum davrdagi sanoat tarmoq tuzilmasidagi siljishlarni ko‘rsatib beradi. Bu koeffitsiyent quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K = \frac{T_p * c}{C_p * c},$$

bu yerda $T_p * c$ – tarmoqning rivojlanish sur’ati;

$S_p * c$ – sanoatning rivojlanish sur’ati.

Sanoat tarmoqlari orasidagi yuzaga kelgan mutanosibliklar va ularning o‘zgarishiga ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi hamda boshqa bir qator omillar ta’sir etadi.

Sanoat ishlab chiqarish tarmoq tuzilmasini belgilovchi asosiy omillarga quyidagilar kiradi:

- fan-texnika taraqqiyoti va uning yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish;
- material va yoqilg‘i, energetika resurslarini iqtisodiy tejashni kuchaytirish;
- ijtimoiy mehnat taqsimoti, ixtisoslashtirish va kooperativlashtirishning darajasi;
- sanoat ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlari;
- aholining moddiy va madaniy darajasi o‘sishi;
- ijtimoiy-tarixiy sharoitlar;
- mamlakatning tabiiy resurslari va ularni o‘zlashtirish darajasi;
- mamalakatning xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o‘rni va uning boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorligi.

Sanoat tarmoq tuzilmasi o‘zgarishiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri ilmiy-texnika taraqqiyotidir. Fan- texnika taraqqiyoti eng avvalo, yangi mehnat vositalari va mahsulotning yangi turlarini yaratish, mavjud asbob-uskunalar va texnologiya jarayonlarini takomillashtirish, yangilarini joriy etish bilan bog‘liqdir. Bu esa mavjud sanoat tarmoqlaridan yangidan yangi sohalarning ajralib chiqishiga va shakllanishiga turtki beradi. Natijada progressiv hisoblangan, ya’ni avtomobilsozlik, asbobsozlik, radiotexnika va elektronika, lazer texnologiyasi tez sur’atlar bilan rivojlanadi.

Bundan tashqari, fan-texnika taraqqiyoti tufayli yangi progressiv xomashyo, materiallar, yoqilg‘i, energiya turlaridan foydalanish sanoatda ishlab chiqarish xarakterini o‘zgartiradi. Yuqori tejamkorlikka ega bo‘lgan xomashyo, material, yarim fabrikatlar va yoqilg‘i ishlab chiqaradigan tarmoqlar iste’molchi tarmoqlarga yetkazib borishni kengaytirishlari natijasida iqtisodiyotning boshqa tarmoq mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji nisbatan kamayadi. Masalan, sun’iy va sintetik tolani ishlab chiqarishning taraqqiy etishi to‘qimachilik sanoatida bir so‘mlik mahsulot uchun

sarflanadigan tabiiy tola sarfini qisqartiradi. Natijada mahsulotning materialtalabligi kamayadi va sanoat bilan qishloq xo‘jaligi, sanoatning qazib oluvchi tarmog‘i bilan ishlov beruvchi tarmog‘i o‘rtasidagi nisbat o‘zgaradi.

Sanoat tuzilmasining o‘zgarishiga ishlab chiqarishni tashkil etishning ijtimoiy shakllari – konsentratsiyalash, ixtisoslashtirish va kombinatlashtirish juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Ishlab chiqarishda kichik korxonalarining ko‘payishi tarmoq taraqqiyotini tezlashtirgani holda uning umumsanoat mahsulotidagi miqyosini oshirishga olib keladi. Ixtisoslashtirish ijtimoiy mehnat taqsimoti jarayonini ifodalagani holda ayrim mahsulotlar yoki mahsulot qismlarini mustaqil ishlab chiqarishga, tayyorlashga, yangi sanoat tarmoqlari tashkil qilinishiga sabab bo‘ladi. Masalan, ixtisoslashtirishning taraqqiy etishi natijasida mashinasozlikda komplektlovchi (butlovchi) buyumlar sanoati, asbob-uskuna sanoati, priborsozlik, elektronika va boshqa sanoat sohalari tashkil topadi.

Kooperativlashtirish va kombinatlashtirish tarmoqlar o‘rtasidagi aloqadorlikni kengaytiradi va tarmoq tarkibini murakkablashtiradi.

Kishilar moddiy va ma’naviy farovonligining o‘sishi ham sanoat tarmoqlari tuzilmasining o‘zgarishiga muhim ta’sir ko‘rsatadi. Bu omil ta’siri ostida yengil va oziq-ovqat sanoatlarida chiqariladigan mahsulotlar nomenklaturasi va assortimenti o‘zgaradi, shuningdek, madaniy-maishiy buyumlar – televizor, soat, fotoapparat, kir yuvish mashinasi, motosikl, motoroller va boshqalar ishlab chiqaradigan maxsus tarmoqlar tashkil topadi.

Sanoat tarmoqlari tuzilmasiga ta’sir ko‘rsatuvchi eng muhim omillardan yana biri, mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o‘rni hisoblanadi.

Hozirgi davrda iqtisodiy integratsiyaga kiruvchi har bir mamlakatda ayrim tarmoqlar taraqqiyoti uchun qulay iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy sharoitlar borligi tufayli iqtisodiy integratsiya dasturlari tuzilgan. Ulardagi sanoat o‘z mamlakatining ehtiyojlarinigina emas, balki boshqa davlatlar ehtiyojlarini ham hisobga olgan holda rivojlanmoqda.

Mustaqillik yillarda sanoat tarmoq tuzilmasida g‘oyat muhim o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Buni 5-jadval ma’lumotlaridan ham ko‘rish mumkin.

5-jadval

O‘zbekiston sanoatida 1900-2014 yillar mobaynida yalpi mahsulot ishlab chiqarishning tarmoqlar tuzilmasi dinamikasi¹³ (yakuniga nisbatan foiz hisobida)

Tarmoq	1900	1940	1991	2000	2005	2010	2011	2012	2013	2014
Butun sanoat	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
<i>Shu jumladan:</i>										
Elektroenergetika	-	-	2,8	9,1	11,3	8,1	7,9	7,7	7,1	7,3
Yoqilg‘i sanoati	-	-	3,7	15,0	16,2	19,8	17,3	18,0	15,0	13,3
Qora metallurgiya	-	-	0,7	1,2	19,4	2,4	2,6	2,6	2,3	11,6
Rangi metallurgiya	-	-	9,7	10,1		10,9	10,4	10	9	
Kimyo va neft kimyo	-	0,5	4,3	5,5	*	5,1	5,7	5,5	5,4	*
Mashinasozlik va metalni qayta ishlash	0,5	8,8	11,6	9,2	13,0	16,1	16,2	17,5	18,8	19,2
Qurilish materiallari sanoati	0,5	1,8	5,2	5,3	3,6	4,9	5,3	5,5	6,5	6,4
O‘rmon, yog‘och va qog‘oz sanoati	-	1,4	1,2	1,4	*	1	1,2	1,3	1,4	*
Yengil sanoat	85	58,8	39,9	19,0	16,6	13,3	13,4	12,9	13,2	14,1
Oziq-ovqat sanoati	12	25,1	14,7	14,1	8,2	12,8	14,1	13,2	15,7	15,1
Boshqa tarmoqlar	2,0	2,1	6,2	9,6	11,7	5,6	5,9	5,8	5,6	13

* - ma’lumot yo‘q

¹³ Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Кўмитаси. Тошкент 2015. Б.200.; Ўзбекистон Саноати. Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Кўмитаси. Тошкент 2014. Б.33.

O‘zbekiston sanoatining 1900-2014 yillardagi tarmoq tuzilmasining iqtisodiy tahlili hozirgi sharoitda O‘zbekiston sanoat ishlab chiqarishida fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishni ta’minlaydigan tarmoqlar rivojining yuqori sur’atlar va keng ko‘lami taqozo qilgan progressiv o‘zgarishlar ro‘y berayotganidan dalolat beradi.

3.4. O‘zbekiston sanoatining tarmoq tuzilmasi xususiyatlari

XXTUT - Xalq xo‘jaligi tarmoqlarining umum davlat tasniflagichi, hukumat qarorlari asosida ishlab chiqilgandir. XXTUTning maqsadi - xalq xo‘jaligini boshqarishda axborotni qayta ishlash, hamda boshqaruvning har qanday darajasida har qanday vazifani yechish va axborot bilan ta’minlashdir. XXTUT funksiyalar xarakterlariga binoan tarmoqlar bo‘yicha faoliyat turlarining guruhlari rolini bajaradi, bu rol ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida amalga oshiriladi.

Klassifikator yordamida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida shakllanadigan iqtisodiyot tarkibi o‘zlashtiriladi, jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanish darajasi, ijtimoiy mehnat taqsimotini rivojlanish darajasi xarkterlanadi.

XXTUT xalq xo‘jaligi rivojida tarmoqlararo aloqalar va mutanosibliklarni ilmiy tahlilini taqdim etish, ijtimoiy ishlab chiqarish natijadorligi va ijtimoiy mehnatning foydalilik koeffitsiyentini qiyoslash, hamda mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishini tasniflovchi rejadagi va hisobot ko‘rsatkichlarini muvofiqlashtirish maqsadida korxonalar va tashkilotlarni tarmoqlar bo‘yicha guruhlashuvini ta’minlaydi.

Ijtimoiy mehnat taqsimotiga asoslanib shakllanadigan iqtisodiyotning yirik tarmoqlarida bir tipdagи mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar jamlanmasini tashkil etuvchi yoki ma’lum bir ijtimoiy funksiyalarni bajarishga mujassamlashgan qo‘shma muassasalarni birlashtiruvchi mayda tarmoqchalar paydo bo‘ladi.

Mustaqil balansga ega tashkilot yoki muassasa tarmoqning tasnifiy birligi hisoblanadi. Har bir tashkilot birligi asosiy faoliyat turi xarakteridan kelib chiqib iqtisodiyotning u yoki bu tarmog‘iga biriktirilishi mumkin.

Xalq xo‘jaligi tarmoqlarining umum davlat tasniflagichi¹⁴ga binoan sanoat quyidagi yirik tarmoqlarga bo‘linadi:

- Yoqilg‘i-energetika
- Metallurgiya
- Kimyo va neft-kimyo sanoati
- Mashinasozlik va metallga ishlov berish
- O‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va Selluloza-qog‘oz sanoati
- Qurilish materiallari sanoati

¹⁴ http://cci.uz/pg/okonx_uz.php

- Yengil sanoat
- Oziq-ovqat sanoati

O‘z navbatida ushbu tarmoqlar tarkibida quyidagi kichik tarmoqlar mavjud:

- Yoqilg‘i-energetika
 - elektroenergetika
 - yoqilg‘i sanoati
 - ko‘mir sanoati
- Metallurgiya
 - qora metallurgiya
 - rangli metallurgiya
- Kimyo va neft-kimyo sanoati
 - kimyo sanoati
 - neft-kimyo sanoati
- Mashinasozlik va metallga ishlov berish
 - mashinasozlik
 - dastgohsozlik va asbobsozlik sanoati
 - traktor va qishloq xo‘jalik mashinasozligi
 - qurilish, yo‘l va kommunal mashinasozlik
 - engil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi hamda maishiy priborlar ishlab chiqarish
 - metall konstruksiya va buyumlar sanoati
 - mashina va uskunalarini ta’mirlash
- O‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va Selluloza-qog‘oz sanoati
 - Yog‘och tayyorlash sanoati
 - Yog‘ochni qayta ishlash sanoati
 - Selluloza-qog‘oz sanoati
 - O‘rmon-kimyo sanoati
- Qurilish materiallari sanoati
 - Cement sanoati
 - Yig‘ma temir-beton va beton konstruksiyalari hamda buyumlari sanoati
 - Devor materiallari sanoati
 - Noruda qurilish materiallar sanoati
 - Tabiiy toshni qazib olish va undan qoplama materiallar tayyorlash
- Yengil sanoat
 - To‘qimachilik sanoati
 - Tikuvchilik sanoati
 - Charm, mo‘yna va poyafzal sanoati
- Oziq-ovqat sanoati

- Oziq-ovqat sanoati
- Go'sht va sut sanoati
- Baliqchilik sanoati
- Mikrobiologiya sanoati
- Un, yorma va kombikorm (aralash ozuqa) ishlab chiqarish sanoati

Quyida har bir tarmoq ichidagi kichik tarmoqlar va ularning tarkibiga kiruvchi kichik tarmoqchalar va ular tarkibidagi korxonalar funksiyalari yoritilgan:

Tarmoqlar	I z o h
ELEKTROENERGETIKA	
Issiqlik elektr stansiyalari	qattiq, suyuq va gaz yoqilg‘ilarida ishlaydigan bug‘ turbinali, gaz turbinali, dizel va boshqa elektr stansiyalar
Atom elektr stansiyalari	Atom elektr stansiyalari ularga tegishli barcha inshootlari bilan birgalikda
Gidroelektr stansiyalari	Gidroelektr stansiyalari – barcha tegishli inshootlari bilan birgalikda
Boshqa elektr stansiyalar	Shamol, quyosh, geotermal va boshqa elektr stansiyalar
Elektr tarmoqlari	Mustaqil elektr tarmoqlari (mustaqil balansda turuvchi elektr uzatish liniyalari va energetika tizimidagi elektr taqsimlash stansiyalari, boshqa elektr tarmoqlar)
Issiqlik tarmoqlari	Mustaqil Issiqlik tarmoqlari (mustaqil balansda turuvchi tuman energotizimi tarmoqlari va boshqa Issiqlik tarmoqlari)
Mustaqil qozonxonalar	Mustaqil balansda turuvchi tuman qozonxonalari va boshqalar
YOQILG‘I SANOATI	
Neft qazib olish sanoati	Neft va yo‘ldosh gaz qazib olish korxonalari, ozokerit qazib oluvchi korxonalar
Neftni qayta ishlash sanoati	Neftni qayta ishlash va neft mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari
Gaz sanoati	
Tabiiy gaz qazib olish	Tabiiy gaz (yoqilg‘i) va gaz kondensati qazib olish korxonalari
Tabiiy gazni qayta ishlash	Tabiiy gaz (yoqilg‘i)ni qayta ishlash

Tarmoqlar	I z o h
	korxonalari, geliy ishlab chiqarish korxonalari
Neftga yo‘ldosh gazni qayta ishlash	Neftga yo‘ldosh gazni qayta ishlash korxonalari (gaz-benzin zavodlari ham shunga kiradi)
KO‘MIR SANOATI	
Ko‘mir qazib olish	
Ochiq usulda ko‘mir qazib olish	Ochiq usulda ko‘mir qazib olish korxonalari
Yopiq usulda ko‘mir qazib olish	Yopiq usulda ko‘mir qazib olish korxonalari
Ko‘mir boyitish	Ko‘mir boyitish korxonalari
Ko‘mir briketlari ishlab chiqarish	Ko‘mir briketlarini ishlab chiqarish korxonalari
Slanets sanoati	Slanets qazib olish, boyitish va qayta ishlash korxonalari
TORF SANOATI	
Torf qazib olish	Torf qazib olish korxonalari
Torf briketlari ishlab chiqarish	Torf briketlari va yarim briketlar ishlab chiqarish korxonalari
QORA METALLURGIYA	
qora metallurgiya uchun ruda qazib olish va qayta ishlash	
qora metall rudalarini yopiq usulda qazib olish	Temir, marganets va xromit rudalarini yopiq usulda qazib olish va ularni boyitish korxonalari
qora metall rudalarini ochiq usulda qazib olish	Temir, marganets va xromit rudalarini ochiq usulda qazib olish va ularni boyitish korxonalari
qora metallurgiya uchun noruda xomashyosini qazib olish va boyitish	qora metallurgiya uchun flyus ohaklar, o‘tga chidamli tuproq, dolomit, kvarsit, magnezit, qum va boshqa noruda xomashyolarini qazib olish korxonalari
qora metall ishlab chiqarish	Cho‘yan, domna ferroquymalari, po‘lat, qora metall prokati, qora metall kukuni va buyumlar ishlab chiqarish korxonalari
quvur ishlab chiqarish	Po‘lat va cho‘yan quvurlar (bosimli suv quvurlari) va ularga xos fasonlar ishlab chiqaruvchi korxonalar

Tarmoqlar	I z o h
Elektroferroquymalar ishlab chiqarish	Elektroferroquymalar ishlab chiqarish korxonalari
Koks Kimyosi sanoati	Koks, koks gazi va koks Kimyosi mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalari
O‘tga chidamli mahsulotlar ishlab chiqarish	Shamotli, dinasli, xromomagnezitli va boshqa o‘tga chidamli g‘ishtlar, boshqa o‘tga chidamli buyumlarhamda kukunlarni ishlab chiqarish korxonalari
Ikkilamchi qora metallni qayta ishslash	qora metall lom va chiqindilarini maydalash zavodlari
Ishlab chiqarishga mo‘ljallangan metall buyumlarni ishlab chiqarish	Po‘lat va oddiy simlar, toblanmagan po‘lat tasmalar, po‘lat arqonlar, sim mixlar, mahkamlovchi vositalar (bolt va gaykalar, shuruplar, vintlar va b.), payvandlovchi elektrodlar, metall to‘rlar, boshqalarni ishlab chiqarish korxonalari
RANGLI METALLURGIYA	
Aluminiy sanoati	
Xomashyo qazib olish va boyitish	Boksit va boshqa tarkibida aluminiy mavjud xom ashyoni, shuningdek erituvchi shpatni qazish va boyitish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar
Aluminiy , aluminiy oksidi (glinozem) va ftorli tuzlar ishlab chiqarish	Aluminiy , aluminiy oksidi (glinozem) va ftorli tuzlar ishlab chiqarish korxonalari
Mis sanoati	
Ruda qazish va boyitish	Ruda qazish va boyitish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar
Mis ishlab chiqarish	Sof va tozalanmagan mis ishlab chiqarish korxonalari (mis eritish, oltingugurt-mis va mis elektrolit korxonalari)
qo‘rg‘oshin-rux sanoati	
Ruda qazish va boyitish	Ruda qazish va boyitish korxonalari
qo‘rg‘oshin va rux ishlab chiqarish	qo‘rg‘oshin va rux ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar
<i>Nikel-kobalt sanoati</i>	
Ruda qazish va boyitish	Ruda qazish va boyitish korxonalari

Tarmoqlar	I z o h
	(oltingugurt kolchedani, bariy va mishyakni qo'shgan holda)
Nikel va kobalt ishlab chiqarish	Nikel va kobalt ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalar
<i>Titan-magniy sanoati</i>	
Xom ashyo qazish va boyitish	Xom ashyo qazish va boyitish bilan shug'ullanuvchi korxonalar
Titan va magniy ishlab chiqarish	Titan va magniy ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalar
Volfram-molibden sanoati	Volfram-molibden rudasini qazish va boyitish bilan shug'ullanuvchi korxonalar
<i>qalay sanoati</i>	
Ruda qazish va boyitish	Ruda qazish va boyitish korxonalari
qalay ishlab chiqarish	qalay ishlab chiqarish korxonalari
<i>Surma-simob sanoati</i>	
Ruda qazish va boyitish	Surma va simob rudasini qazish va boyitish bilan shug'ullanuvchi korxonalar
Surma va simob ishlab chiqarish	Surma, simob va uning birikmalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
<i>Nodir metallar va yarimo't-kazgichlar sanoati</i>	
Nodir metallar rudasini qazib olish va boyitish	Nodir metallar rudasini qazib olish va boyitish, tabiiy p'ezokvarsni qazish bilan shug'ullanuvchi korxonalar
Nodir metallar ishlab chiqarish	Nodir metallar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalar
Yarimo'tkazgich materiallar ishlab chiqarish	Yarimo'tkazgich materiallar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalar
<i>qimmatbaho metallar va olmos sanoati</i>	
qimmatbaho metallarni qazib olish	Tarkibida qimmatbaho metallar bo'lgan ruda va qumlarni qazish hamda qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi korxonalar
qimmatbaho metallar va quymalar ishlab chiqarish	qimmatbaho metallar va quymalar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalar. Affinaj zavodlari

Tarmoqlar	I z o h
Olmos qazib olish	Tarkibida olmos bo‘lgan xom ashyni qazish va boyitish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar
Rangli metallarga ishlov berish	
Rangli metallar va quymalarga ishlov berish (engil metallar prokatisiz)	Rangli metallar va qo‘ymalarga ishlov berish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar
Aluminiy , magniy va titan prokati ishlab chiqarish	Aluminiy , magniy va titan prokati ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar
Ikkilamchi rangli metallar ishlab chiqarish	Rangli metall chiqindilariga dastlabki ishlov berish va ikkilamchi rangli metallarni eritib quyish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar
Elektrod sanoati	Ko‘mir va grafitli elektrod mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar
qattiq qotishmalar, qiyin eriydigan va issiqlikka chidamli metallar sanoati	qattiq qotishmalar, qiyin eriydigan va kukunli materiallar ishlab chiqaruvchi korxonalar
KIMYO VA NEFT-KIMYO SANOATI	
KIMYO SANOATI	
Tog‘-kimyo sanoati	Apatit-nefelin va fosforit rudasini, tabiiy kaliy tuzi, tarkibida oltingugurt, bor, mishyak va barit mavjud bo‘lgan tabiiy rudalarni qazish va boyitish korxonalari
Asosiy kimyo	
Azot sanoati	Sun’iy ammiak, azot kislotasi, azotli o‘g‘itlar hamda tabiiy va koks gazini kompleks qayta ishlash natijasida olinadigan boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar
Fosfatli o‘g‘itlar va boshqa noorganik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	Fosfatli o‘g‘itlar, fosfor va fosfat tuzlari, oltingugurt va fosfor kislotasi, xrom birikmalari va boshqa noorganik kimyo mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar
Soda sanoati	Kalsiy sodasi, natriy bikarbonat,

Tarmoqlar	I z o h
	kimyoviy usul bilan kaustik soda va natriy sulfati ishlab chiqaruvchi korxonalar
Xlor sanoati	Elektroliz usuli bilan kaustik soda ishlab chiqaruvchi, xlor ishlab chiqaruvchi, xlor-organik sintez mahsulotlari va atsetilen asosida organik mahsulotlar, o'simliklarni kimyoviy himoyalash vositalari ishlab chiqaruvchi korxonalar
Yod-brom sanoati	Yod, brom va ulardan tayyorlana-digan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Asosiy kimyoning boshqa mahsulotlarini ishlab chiqarish	Kislород, водород, аргон, криpton, ксенон газларини сиқилган ва сувултірілган holda ishlab chiqaruvchi korxonalar. Kaliyli o'g'itlar va boshqa kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar. Aftogen korxonalari.
Tola va kimyoviy ip sanoati	Tola va kimyoviy ip ishlab chiqaruvchi hamda kimyoviy ipdan kord gazlamalari ishlab chiqaruvchi korxonalar
Sun'iy smola va plastik massa sanoati	Sun'iy smola va plastik massa ishlab chiqarishga ixtisoslashgan maxsus korxonalar
Plastmassa buyumlari, shisha tolali materiallar, shishaplastiklar va shishaplastik buyumlar sanoati	
Plastmassa buyumlar ishlab chiqarish (gramplastinkalar, magnitofon kassetala-ri va kompakt-disklar kirmaydi)	Presslash, quyish, pnevmatik va vakuum bilan shakl berish asosida turli plastmassa buyumlari, jumladan madaniy-maishiy va xo'jalik buyumlari, shuningdek presslash usuli bilan qatlamlı plastiklar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Polimer plyonka, quvur va listlar ishlab chiqarish	Poliolefin, polixlorvinil, poliamid, lavsan, polistirol va boshqa termoplastlardan polimer plyonka, quvur va listlar ishlab chiqaruvchi

Tarmoqlar	I z o h korxonalar
Uzluksiz shisha tola va uning mahsulotlarini ishlab chiqarish	Uzluksiz shisha tola va uning mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar (bir yo‘nalishli shisha tola, shisha ip, shisha jgut, eshilgan va eshilmagan shisha ip, shisha lenta, barcha turdag'i shisha tolali gazlamalar, xolstlar, optik shisha tolesi)
Shishaplastiklar va uning mahsulotlarini ishlab chiqarish	Shishaplastiklar va uning mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar («AG-4», «Prepregi», «Premiks» turidagi press material va boshqa quyma va press materiallar, listlar, profillar, quvurlar, ularni o‘rash, kesish, vakuum shakl berish va ulash orqali olinadigan buyumlar)
Gramplastinka, magnitofon kassetalari va kompakt-disklar ishlab chiqarish	Gramplastinka, magnitofon kassetalari va kompakt-disklar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Polimer transport taralari ishlab chiqarish	Plastmassadan yashiklar, qoplar, bochka va lotoklar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Lak-bo‘yoq sanoati	Lak, bo‘yoq (poligrafiya bo‘yoqlari) va ular uchun mineral pigmentlar ishlab chiqarish
Kimyoviy reaktivlar va alohida sof moddalar sanoati	Kimyoviy reaktivlar va alohida sof moddalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Sun’iy bo‘yoqlar sanoati	Sun’iy bo‘yoqlar, ularga yarim mahsulotlar, to‘qima-yordamchi moddalar, kauchuk, rezina va plastik massalar uchun kimyoviy qo‘sishchalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Kimyo-fotografiya sanoati	Kino-foto plyonkalar, fotoqog‘ozlar, fotojelatin, magnit lentasi va boshqa fotokimyo buyumlari (hisoblash texnikasi uchun magnitli texnik axborot tarqatuvchilar ishlab chiqarish kirmaydi) ishlab chiqaruvchi korxonalar
Maishiy kimyo sanoati	Gazlamalarni oqartirish, ohorlash

Tarmoqlar	I z o h
	vositalari, dog‘ ketkazish, tozalash va sayqal berish vositalari, charm va zamsh buyumlarga foydalaniladigan vositalar, yelim vositalari va boshqa vositalarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar
Kimyo sanoatining boshqa tarmoqlari	Boshqa kimyo mahsulotlari (faollashtirilgan ko‘mir, karburizator, kimyoviy yutuvchilar, kremniy-organik birikmalar) ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar
NEFT-KIMYO SANOATI	
Sun’iy kauchuk ishlab chiqarish	Sun’iy kauchuklar va ular uchun monometrlar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Asosiy organik sintez mahsulotlari ishlab chiqarish	Sun’iy spirt, fenol, atseton, organik kislotalar, aldegidlar, ketonlar, sun’iy yuvish vositalari va uning yarim mahsulotlari hamda uglevodorod xomashyosidan organik sintez asosida boshqa mahsulotlar olish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar
Texnik uglerod ishlab chiqarish	Texnik uglerod ishlab chiqaruvchi korxonalar
Shina sanoati	
Shina ishlab chiqarish	Avtomobil, traktor, motosikl, velosiped va boshqa mashinalar uchun shina ishlab chiqaruvchi korxonalar
Shina ta’mirlash sanoati	Shinalarni ta’mirlash korxonalari
Rezina-asbest sanoati	
Rezino-texnik buyumlar sanoati	Avtomobillar, traktorlar va boshqa qishloq xo‘jalik mashinalari uchun yenglar, tasmalar, trancportyor tasmasi, plastinilar, detallar va boshqa rezino-texnika buyumlari, rezinalashgan gazlamalar va ulardan buyumlar, lateks va regeneratdan tayyorlangan buyumlar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Asbest-texnik buyumlar sanoati	Paronit, gazmol, arqon, asbest listlari, qog‘oz, karton, prokladka, filtr matosi,

Tarmoqlar	I z o h
	tasma va boshqa asbest-texnik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Rezina poyafzal ishlab chiqarish	Rezina poyafzal ishlab chiqaruvchi va ta'mirlovchi korxonalar
Rezinadan keng iste'mol mollari ishlab chiqarish	Rezinadan madaniy-maishiy (sport jihozlari, o'yinchoqlar va b.), sanitariya va gigiyena, tibbiy va boshqa buyumlar ishlab chiqaruvchi maxsus korxonalar
MASHINASOZLIK VA METALLGA ISHLOV BERISH	
MASHINASOZLIK	
Og'ir, energetika va transport mashinasozligi	
Energetika mashinasozligi	
Turbinasozlik	Bug', gidravlik va gaz turbinalari hamda turbinaga yordamchi vositalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Qozonsozlik	Bug' qozonlari, energetik atom reaktorlari va qozonxonalarga yordamchi vositalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Dizelsozlik	Dizellar, dizel-generatorlar, temir yo'lda yuruvchi dizel-elektr stansiyalari va boshqa ichki yonuv dvigatellari (avtomobil, traktor, kombayn va aviatsiyaga xoslari bunga kirmaydi) ishlab chiqaruvchi korxonalar
Metallurgiya mashinasozligi	Domnalar va po'lat eritish uchun texnologik uskuna va mexanizmlar ishlab chiqaruvchi, qora metallurgiya uchun prokat va quvur stanlari ishlab chiqaruvchi, aglomeratsion va boshqa ishlab chiqarish korxonalari
Kon-shaxta va kon-ruda mashinasozligi	Mexanizatsiyalashgan mustahkamlovchilar, qazish kompleks va agregatlari, shaxta elektrovozlari, vagonetkalari, shaxta ko'tarma

Tarmoqlar	I z o h
	mashinalari, tozalash va o‘tish ishlari uchun kombaynlar, ko‘mir qazish uchun qirib olish uskunalari va boshqalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Ko‘tarish-transport mashinasozligi	
Kranlar ishlab chiqarish (qurilish kranlarisiz)	Umumiy foydalaniladigan ko‘priksimon elektr kranlar, metallurgiya uchun maxsus kranlar, portalli kranlar, konteyner kranlari, temir yo‘lda yuruvchi bir to‘sini kranlar, kran-shtabeler, konsol kranlar va ko‘priksimon qo‘lda yurgiziladigan kranlar ishlab chiqaruvchi korxonalar
qurilish kranlari ishlab chiqarish	Avtomobilga, pnevmog‘ildirakka, zanjirli yurishga o‘rnatilgan kranlar, minorali kranlar, ko‘tarma machtali kranlar va yuk-passajir kranlari, konveyerlar, tasmali lebedkalar, qurilish yuklagichlari va boshqalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Uzluksiz transport uskunalari ishlab chiqarish	Umumiy foydalaniladigan lentali statsionar konveyerlar, osma yuk tashuvchi, tortib boruvchi, tirkama, quyma eltuvchi, plastinkasimon, vibratsion, umumiy foydalanishga mo‘ljallangan vintli, yuklovchi qisqichli konveyerlar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Lift ishlab chiqarish	Yo‘lovchi, yuk va maxsus tibbiy liftlar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Avto va elektr yuklagichlar ishlab chiqarish	Avto va elektr yuklagichlar, avtokaralar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Boshqa turdagи ko‘tarish-tashish, yuklash-tushirish va omborbop uskunalar ishlab chiqarish	Vagon ag‘dargich, ruda va ko‘mirni ko‘priksimon qayta yuklagichlari, sanoq-tarali yuk omborlari ishini mexanizatsiyalash uskunalari, elektr va qo‘lda ishlatiladigan tallar, tirnoq(koshka)lar va boshqalar ishlab

Tarmoqlar	I z o h chiqaruvchi korxonalar
Temiryo‘l mashinasozligi	Temiryo‘l transporti uchun lokomotivlar va boshqa harakat sostavlari (magistralga, manevrga va sanoatga mo‘ljallangan elektrovoz va teplovozlar, yuk, yo‘lovchi tashish va sanoatga mo‘ljallangan vagonlar va boshqalar), elektr poyezdlar va dizel poyezdlari ishlab chiqaruvchi korxonalar
Elektrotexnika sanoati	
Elektrotexnik mashinalar, uskunalar, apparatura va ishlab chiqarishga mo‘ljallangan buyumlar ishlab chiqarish	Elektr dvigatellari va elektr generatorlari, elektr o‘zgartiruvchi qurilmalar (transformatorlar, motor-generatorlar, kuch o‘zgartirgichlar), yuqori kuchlanishli va past kuchlanishli elektr apparaturalari, kondensatorlar, elektr uskuna va boshqalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Kabel sanoati	Kuchli va kuchsiz tok uchun kabel va uzatgichlar, o‘ramli uzatgichlar, shnurlar va boshqa turdagи kabel mahsulotlari
Elektrolampa sanoati	Yorituvchi oddiy elektr lampalari, lyuminessentli, simob-kvarsli lampalar va maxsus elektr lampalari ishlab chiqaruvchi korxonalar
Elektroizolatsiya sanoati	Elektroizolatsiya buyumlari (mikanit va sludinitlar, qatlamlı elektroizolatsiya matolari, elektroizolatsion lak-matolar va b.), elektrotexnik chinni, sopol va shisha izolatorlar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Akkumulator va element sanoati	qo‘rg‘oshinli va ishqorli akkumulatorlar, galvanik elementlar va batareyalar, elektr-ko‘mir buyumlari ishlab chiqaruvchi korxonalar
Elektr payvandlash uskunalarini ishlab chiqarish	Payvandlov qismlari va buyumlarini tayyorlashda yig‘ish-payvandlash ishlarini bajarish uchun avtomat, yarim avtomat va mexanizatsiyalashgan potok

Tarmoqlar	I z o h
	liniyalarini, universal va elektr payvandlash uskunalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Kimyo va neft mashinasozligi	
Kimyo mashinasozligi	Kimyo sanoati uchun hamda boshqa sanoat tarmoqlaridagi kimyoviy jarayonlar uchun texnologik uskuna va apparaturalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Polimer mashinasozligi	Rezina, plastmassa va boshqa polimer materiallarni qayta ishlovchi uskunalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Neft qazish va geologiya-qidiruv, burg‘ulash uskunalarini ishlab chiqarish	Neft qazish, geologiya-qidiruv, burg‘ulash uskunalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Neft va gazni qayta ishlovchi uskunalar ishlab chiqarish	Neft va gazni qayta ishlovchi uskunalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Selluloza-qog‘oz sanoati uskunalarini ishlab chiqarish	Selluloza, qog‘oz va karton ishlab chiqaruvchi uskunalar (bu ishlab chiqarish uchun kimyoviy uskunalar kirmaydi) hamda yog‘och omborlari uchun uskunalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Kompressor mashinasozligi	Kompressor uskunalari ishlab chiqaruvchi korxonalar
Sovitgichlar mashinasozligi	Sovitish uskunalari(maishiy sovitgichlar kirmaydi) ishlab chiqaruvchi korxonalar
Vakuumli nasos va agregatlar ishlab chiqarish	Vakuumli nasos va agregatlar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Kislорod va kriogen mashinasozligi	Kislорod va kriogen uskunalari ishlab chiqaruvchi korxonalar
Metallarga gaz alangasida ishlov berish va buyumlarni metallashtirish uskunalari ishlab chiqarish	Metallarga gaz alangasida ishlov berish va buyumlarni metallashtirish uskunalari ishlab chiqaruvchi korxonalar
Nasoslar ishlab chiqarish	Umumsanoatda qo‘llaniladigan bug‘ porshenli, markazdan qochma hamda

Tarmoqlar	I z o h
	uzatmali nasoslar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Sanoatbop quvurli o‘tkazgich armaturasi ishlab chiqarish	Rangli metallardan, kulrang va toblangan cho‘yandan, po‘latdan, nometall materiallardan sanoatbopquvurli o‘tkazgich armaturasi ishlab chiqaruvchi (kemasozlik uchun zarur armatura ham kiradi, ammo sanitariya-texniklarsiz) korxonalar. qolipda payvandlangan surma qopqoqlar(zadvijkalar) ishlab chiqaruvchi korxonalar
Gaz tozalash va chang tutish uskuna va apparaturalari ishlab chiqarish	Gaz tozalash va chang tutish uskunalar, sanoat chiqindilarini tozalash armatura va apparaturalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Bo‘yash uskunalar ishlab chiqarish	Mashinasozlik va ishlov berilgan metall buyumlarga lak-bo‘yoq qoplamlari berish uskunalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
DASTGOHSOZLIK VA ASBOBOSOZLIK SANOATI	
Metall qirquvchi dastgohlar ishlab chiqarish	Barcha turdagи metall qirquvchi dastgohlar, mashinasozlik va metallga ishlov berish hamda dastgohsozlikda me’yorlashgan qism va detallarni ishlab chiqarish uchun avtomat va yarim avtomat liniyalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Yog‘ochni qayta ishlovchi uskunalar ishlab chiqarish	Yog‘ochni qayta ishlash dastgohlari, yog‘och kesish romlari, yog‘ochni qayta ishlash sanoati uchun avtomatlashgan va yarim avtomat liniyalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Temirchilik-presslash uskunalar ishlab chiqarish	Temirchilik-presslash mashinalari (presslar, bolg‘alar, avtomatlar, toblovchi mashina va vallar, to‘g‘rilovchi va eguvchi mashinalar, qaychilar), metallarga bosim ostida ishlov beruvchi avtomat va yarim

Tarmoqlar	I z o h
	avtomat liniyalar, avtomatlashtirish vositalari va h.k. ishlab chiqaruvchi korxonalar
quyuv uskunalari ishlab chiqarish	Aralashma tayyorlovchi, qoliplovchi va o‘zakli, tozalovchi va chiqaruvchi mashinalar, avtomat va yarim avtomat potok liniyalar, quyuv mashinalari ishlab chiqaruvchi korxonalar
Metall va yog‘ochga ishlov beruvchi asboblarni ishlab chiqarish	Metallga ishlov beruvchi asboblar (metall qirquv, o‘lchov, slesar-montaj, qisqich), arralar va yog‘ochga ishlov beruvchi mashina-asboblar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Texnologik jihozlar ishlab chiqarish	Mashinasozlik va metallga ishlov berishga texnologik jihozlar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Sun’iy olmos, abraziv materiallar va ulardan asboblar ishlab chiqarish sanoati	Elektrokorund, kremniy karbidi, sun’iy olmoslar, o‘ta qattiq moddalar va boshqa olmos-abraziv materiallar hamda ulardan asboblar ishlab chiqaruvchi korxonalar, defibrer toshlar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Mexanik payvandlash uskunalari ishlab chiqarish	Payvandlash konstruksiyalarini o‘rnatish va aylantirish uchun, payvandlash uskunalarini, apparatlar va payvandchilarni siljitim turish uchun, ishqalanish asosida payvandlash va press payvandlash uchun mexanik uskunalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Tarmoqlararo ishlab chiqarish sanoati	
Yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish	Mashinasozlik uchun qoliplar va payvandlash konstruksiyalari, o‘rovchi quyilmalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Umummashinasozlikda qo‘llaniladigan buyumlar ishlab chiqarish	Umummashinasozlikda qo‘llaniladigan qism va detallar (reduktorlar, gidroprivodlar va gidroavtomatika, pnevmo-uskuna va pnevmo-apparatura, moylash uskunalari, filtrlash uskunalari,

Tarmoqlar	I z o h
	tishli g‘ildiraklar va b.) ishlab chiqaruvchi korxonalar
qora va rangli metalldan fasonli quymalar tayyorlash uchun qolip materiallari ishlab chiqarish	qoliplovchi qum (jumladan quruq boyitilgani), bentonit loyi (jumladan kukun holida), qoliplovchi loy (jumladan kukunda), tabiiy va sun’iy changsimon shamot va boshqalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Priborsozlik (aviatsiya, mudofaa, elektron, kemasozlik sanoatlari va radio sanoatining maxsus priborsozlik zavodlari)	
Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va sozlash priborlari ishlab chiqarish	Haroratni, bosimni, siyraklikni, suyuqlik va gazlar darajasi va harajatini, moddalar tarkibi va xususiyatini, ikkilamchi priborlarni, sozlovchi va ijro etuvchi mexanizmlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Elektr o‘lchov priborlari ishlab chiqarish	Tok fazasini, kuchlanishini, qarshilikni, quvvatni, chastotani o‘lhash uchun shitga, laboratoriya hamda ko‘chirib yurishga mo‘ljallangan elektr o‘lchov priborlari ishlab chiqaruvchi korxonalar. Raqamli priborlar va o‘xhash raqamli o‘zgartirgichlar, o‘lchov qurilmalari ishlab chiqaruvchi korxonalar
Radio o‘lchov priborlari ishlab chiqarish	Tokni, kuchlanishni, quvvatni, chastotani o‘lchovchi radioo‘lchov priborlari, o‘lchov generatorlari, signal va spektr shakllarini tekshirish, parametrlarini o‘lhash priborlari, elektrovakuumli va yarimo‘tkazgichli priborlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Optik va optik-mekanik priborlar va apparatlarni ishlab chiqarish	Nazorat-o‘lchov, geodezik va astronomik priborlarni ishlab chiqaruvchi, fotoapparatura, fotokino obyektivlar, kinoapparaturalar ishlab chiqaruvchi, moddalar tarkibi va

Tarmoqlar	I z o h
	xususiyatlarini o‘rganishga oid optik va optik-mexanik priborlar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Mexanik kattaliklarni o‘lhash priborlarini ishlab chiqarish	Materiallarning mexanik xususiyatlarini aniqlash, kuch va deformatsiyani o‘lhash uchun mashina va priborlar, buyum va materiallarni buzmagan holda nazorat qilish priborlari, vibrometriya, harakat parametrlarini o‘lchov priborlari ishlab chiqaruvchi korxonalar
Vaqt priborlari ishlab chiqarish	Maishiy, texnik va maxsus mo‘ljallangan soatlar (birlamchi va ikkilamchi elektr soatlari ham kiradi) soat mexanizmlari, soat sanoati uchun priborlar, texnik va soat toshlari ishlab chiqaruvchi korxonalar
Muhandislik va boshqaruv mehnatini mexanizatsiya-lashtirish va avtomatlash-tirish priborlari ishlab chiqarish	Matnli hujjatlar tuzish vositalari (jumladan yozuv mashinkalari, avtoruchkalar, mexanik qalamlar), hujjatlardan nusxa olish va ko‘paytirish vositalari, hujjatlarni saqlash va qidirish vositalari ishlab chiqaruvchi korxonalar
Tabiiy kuzatuvlar uchun priborlar ishlab chiqarish	Meteorologik, aerologik, gidrologik, geofizik va geologik pribor va apparaturalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Tibbiyot, fiziologiya va biologiyaga oid priborlar ishlab chiqarish	Tibbiyot, fiziologiya va biologiyaga, boshqa ilmiy tekshirishlarga oid priborlar ishlab chiqaruvchi korxonalar (jumladan elektrokardiograflar, tibbiy termometrlar, ko‘zoynak linzalari va opravalari)
Hisoblash vositalari sanoati	
Hisoblash texnikalari va ularga ehtiyyot qismlar ishlab chiqarish	Hisoblash komplekslari va mashi-nalari, ularning markaziy va perife-riya qurilmalarini, tarmoqlararo aloqa qurilmalarini, o‘xshash va o‘xshash-

Tarmoqlar	I z o h
	raqamli qurilma va mashinalarni, dasturda boshqariladigan qurilma-larni, servis qurilmalari ishlab chiqaruvchi korxonalar
Texnik eltuvchilar (nositel) ishlab chiqarish	Texnik ma'lumot eltuvchilar (nositel) ishlab chiqaruvchi korxonalar
Dastur vositalari ishlab chiqarish	Dastur vositalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar
Avtomobil sanoati	
Avtomobil, avtobus, trolleybuslar hamda avtomobil va traktorlarga tirkama (pritsep)lar ishlab chiqarish	Barcha turdagи avtomobillar (jumladan yengil va maxsus), avtobuslar, avtotortuvchilar (tyagach), avtomobil va traktor tirkamalari, treylerlar, trolleybuslar ishlab chiqaruvchi korxonalar. Kichik litrajli avtomobil va qayiq dvigatellari, agregatlar va karbyuratorlar
Motosikl va velosiped ishlab chiqarish	Motosikllar, motoaravachalar, motorollerlar, mopedlar, velosipedlar, motosikl va motovelosiped dvigatellari, ularga zarur agregatlar, karbyuratorlar, qism va ehtiyoj qismlar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Avtomobil va traktorlar uchun elektr uskunalari va priborlar ishlab chiqarish	Avtomobil, motosikl va traktorlar uchun elektr uskunalari va priborlar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Boshqa uskuna va asboblarni ishlab chiqarish	Garajlar uchun uskunalar (yuvisht, nazorat-sinov, optik va boshqa stendlar), qo'1 domkratlari va boshqalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Podshipnik sanoati	Sharikli va rolikli podshipniklar hamda ularga detallar ishlab chiqaruvchi korxonalar
TRAKTOR VA QISHLOQ XO'JALIK MASHINASOZLIGI	
Traktor mashinasozligi	Barcha turdagи traktorlar, traktor va kombayn dvigatellari, agregatlari,

Tarmoqlar	I z o h
	qismlari hamda traktor va dvigatellar uchun ehtiyoq qismlar ishlab chiqaruvchi korxonalar
qishloq xo‘jalik mashinasozligi	Tuproqqa ishlov beruvchi va ekish mashinalari (jumladan go‘ng sochuvchi), hosilni yig‘ib olish, quritish va yig‘ilgan donni qayta ishlash mashinalari, texnika ekinlari uchun mashinalar, agregatlar, qismlar, detallar, ehtiyoq qismlar, texnologik jihozlar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Chorvachilik va ozuqa yetishtirish mashinasozligi	Chorvachilik va parrandachilikni mexanizatsiyalashtirish, ozuqa tayyorlash, va ozuqa ishlab chiqarish uchun uskuna va mashinalar, qism, detal va ehtiyoq qismlar ishlab chiqaruvchi korxonalar
QURILISH, YO‘L VA KOMMUNAL MASHINASOZLIK	
Yo‘l-qurilish mashinasozligi	
Yo‘lsozlik va yer qazish mashinasozligi	Ekskavatorlar, kanal qazgichlar, greyderlar, tuproq tortgichlar (zemlesos)lar, buldozerlar, skreperlar, qor yuklovchi mashinalar, yo‘l yotqizgichlar, quvur yotqizish uchun maxsus mashinalar (quvur tashuvchi mashinalar, quvur yotqizish mashinalari) ishlab chiqaruvchi korxonalar
qurilish mashinalari ishlab chiqarish	Beton va qorishma aralashtiruvchi mashinalar, qorishma nasoslari, shag‘al yuvgichlar, shibalovchi mashinalar, qurilish-pardozlash mashinalari, qo‘ldagi va mexanizatsiyalashgan qurilish asboblari ishlab chiqaruvchi korxonalar
Qurilish materiallari sanoati uchun uskunalar ishlab chiqarish	Sement va ohak sanoati korxonalari (yig‘ma temir-beton buyumi zavodlari, asbosement mahsuloti zavodlari,

Tarmoqlar	I z o h
	Issiqlik izolatsiyasi matolari zavodlari) uchun texnologik uskunalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Melioratsiya ishlari, o'rmon va torf sanoati uchun uskunalar ishlab chiqarish	
Yog'och tayyorlash sanoati va melioratsiya ishlari uchun uskunalar ishlab chiqarish	O'rmon kesish, yog'och tashish, chig'irlarga taxlash uskunalari, yog'och teruvchilar va yog'och oqizishning dastlabki taxlamlarini mexanizatsiyalashtirish bo'yicha texnologik uskunalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Torf sanoati uchun uskunalar ishlab chiqarish	Torflarni briketlash, maydonlar va quritish tarmoqlarini ta'mirlash, shuningdek torfni frezerlash, titish, toplash kabi ishlar uchun uskunalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Kommunal mashinasozlik	
Kommunal xo'jalik uchun uskunalar ishlab chiqarish	Yong'inga qarshi kurashish uskunalari (jumladan o't o'chirish avtomobillari, avtomexanik shotilar), shahar va kommunal xo'jalik uchun mashinalar (shaharlarni sanitar tozalash uchun zarur mashina va uskunalar) ishlab chiqaruvchi korxonalar
Maishiy xizmat korxonalari uchun uskunalar ishlab chiqarish	Kimyoviy tozalash va bo'yash korxonalari, kir yuvish, maishiy xizmatning boshqa korxonalari uchun uskunalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
YENGIL VA OZIQ-OVQAT SANOATI MASHINASOZ-LIGI HAMDA MAISHIY PRIBORLAR ISHLAB CHIQARISH	
Yengil sanoat uchun uskunalar ishlab chiqarish	
To'qimachilik sanoati uchun texnologik uskunalar ishlab chiqarish	To'qimachilik, to'qimachilik-attorlik, kigiz-namat sanoati uchun texnologik uskunalar (jumladan paxta tozalash,

Tarmoqlar	I z o h
	bo‘yash-pardozlash uskunalar) ishlab chiqaruvchi korxonalar
Tikuvchilik va to‘qimachilik sanoati uchun texnologik uskunalar ishlab chiqarish	Tikuvchilik va to‘qimachilik sanoati uchun texnologik uskunalar ishlab chiqaruvchi korxonalar.Tikuvchilik va to‘qimachilik sanoati uchun ignalar va boshqa detallarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar
Poyafzal, charm, mo‘yna va charm-galantereya sanoati uchun texnologik uskunalar ishlab chiqarish	Poyafzal, charm, mo‘yna va charm-galantereya sanoati uchun texnolo-gik uskunalar ishlab chiqaruvchi, ushbu sohalar uchun zarur bo‘lgan ignalar va boshqa detallarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxona-lar
Kimyoviy tolalar ishlab chiqarish uchun texnologik uskunalar ishlab chiqarish	Kimyoviy tolalar ishlab chiqarish uchun texnologik uskunalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Oziq-ovqat va omuxta yem sanoati uchun texnologik uskunalar ishlab chiqarish	Oziq-ovqat (baliq va go‘sht-sut sanoatini qo‘sghan holda) va omuxta yem sanoati uchun texnologik uskunalar, potok liniyalari, tegirmon, elevatorlar va don omborlari uchun uskunalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun texnologik uskunalar ishlab chiqarish	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari (kasalxonalar, sanatoriylar, dam olish uylari va boshqalarning ovqatlanish bloklarini qo‘sghan holda) uchun texnologik uskunalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Poligrafiya sanoati uchun texnologik uskunalar ishlab chiqarish	Poligrafiya sanoati uchun texnologik uskunalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Maishiy pribor va mashinalar ishlab chiqarish	
Tikuv va maishiy elektr mashinalari va priborlari ishlab chiqarish (maishiy sovutgich va muzlatgichlar kirmaydi)	Tikuv va maishiy elektr mashinalari va priborlari (kir yuvish mashinalari, elektr pol artgichlar, changyutgichlar, elektr isitish priborlari va b.) ishlab chiqaruvchi korxonalar

Tarmoqlar	I z o h
Maishiy sovutgich va muzlatgichlar ishlab chiqarish	Maishiy sovutgich va muzlatgichlar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Sanitar-texnik va gaz uskunalari hamda buyumlari ishlab chiqarish	
Sanitar-texnik uskunalari ishlab chiqarish	Isitish qozonlari, priborlari (radiatorlar, qovurg‘ali quvurlar, isitish panellari), isitish-ventilyatsiya uskunalari (umumiyl ventilyatorlar, kaloriferlar, gaz agregatlardan tashqari), uysozlik predmetlari ishlab chiqaruvchi korxonalar
Gaz uskunasi va apparaturalari ishlab chiqarish	Avtomatlashgan sanoat gaz yoqish qurilmalari, gaz kaloriferlari, rekuperatorlar, turli isitgichlar, sanoat gorelkalarini damlash vositalari, muvozanatlovchilar, maishiy plitalar, gazda suv isitish uskunalari ishlab chiqaruvchi korxonalar
Aviatsiya sanoati	Aviatsiya texnikasi ishlab chiqaruvchi korxonalar
Mudofaa sanoati	Mudofaa texnikasi ishlab chiqaruvchi korxonalar
Kemasozlik sanoati	Barcha turdag kemalarni, sport kemalari, yaxta va qayiqlarni ishlab chiqaruvchi korxona va tashkilotlar
Radiosanoat	Ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan radioapparaturalar ishlab chiqaruvchi korxona va tashkilotlar
Aloqa vositalari sanoati	Turli maqsadlarga mo‘ljallangan aloqa vositalari ishlab chiqaruvchi korxona va tashkilotlar. Madaniy-maishiy maqsadlarga mo‘ljallangan radioapparaturalar ishlab chiqaruvchi korxonalar: keng eshittiruvchi radiopriyomniklar, radiolalar, televizorlar, magnitofonlar, elektrofon va b.
Elektronika sanoati	
Elektronika sanoati (maxsus)	Elektron texnika mahsulot va buyumlari

Tarmoqlar	I z o h
texnologik uskunalar ishlab chiqarish kirmaydi)	(integral mikrosxemalar, vakuumli va yarim o'tkazgichli priborlar, sun'iy p'ezokvars va undan yasalgan buyumlar, radiodetallar va radiokomponentlar)ishlab chiqaruvchi korxonalar
Maxsus texnologik uskunalar ishlab chiqarish(nazorat-sinov uskunalari qo'shilgan holda)	Elektronika sanoatining maxsus texnologik uskunalarini (jumladan nazorat-sinov uskunalar) ishlab chiqaruvchi korxonalar
Mashinasozlikning boshqa tarmoqlari	
Ishlab chiqarishga mo'ljallangan uskunalar ishlab chiqarish (arava-ulov va oyna sanoati uskunalar kirmaydi)	Texnika havfsizligi uskunalar, tibbiy asboblar, veterinariya uchun apparatlar va uskunalar ishlab chiqarishga mo'ljallangan boshqa uskunalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Montaj qilinadigan yarim mahsulotlar, qism va detallar ishlab chiqarish	quvur tarmoqlari uchun qismlar, elektromontaj, sanitariya-texnik yarim mahsulotlar, shuningdek nazorat-o'lchov priborlari va avtomatlashtirish uchun montaj buyumlari ishlab chiqaruvchi korxonalar
Oyna sanoati uchun texnologik uskunalar ishlab chiqarish	Oyna sanoati uchun texnologik uskunalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan maxsus korxonalar
Ulov-arava ishlab chiqarish	Ot aravalarning yurish qismlari, kuzovlari, aravalar, chanalar, yuk va yo'lovchi tashishga mo'ljallangan barcha turdag'i ulov vositalari (arava-ulovlar uchun yog'ochdan ishlangan detallar kirmaydi) ishlab chiqaruvchi korxonalar
METALL KONSTRUKSIYA VA BUYUMLAR SANOATI	
Metall konstruksiyalar ishlab chiqarish	
Qurilishga po'lat konstruksiyalar ishlab chiqarish	Bino va inshootlar, ko'priklar, angarlar, elektr uzatish tarmoqlari va boshqa qurilishlar uchun po'lat, metall

Tarmoqlar	I z o h
	konstruksiyalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Yengil metall konstruksiyalari ishlab chiqarish	Uch o‘lchamli fazoviy tarkibli va romli konstruksiyalar, binolarning qoplama va karkaslarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar
Aluminiy va aluminiyli qotishmalardan qurilish konstruksiya va buyumlari ishlab chiqarish	Aluminiy va aluminiyli qotishmalar-dan qurilish konstruksiya va buyum-lari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar
Konteyner va yig‘ma binoxonalar ishlab chiqarish	Konteyner hamda ishlab chiqarish-ga, ma’muriy boshqaruvgaga, madaniy-maishiy, uy-joy va jamoat-chilikka mo‘ljallangan yig‘ma bino, imorat va xonalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Ishlab chiqarishga mo‘ljallangan metall buyumlar ishlab chiqarish sanoati (qora metallurgiyada ishlab chiqarilgan metall buyumlar kirmaydi)	
Qurilish metall buyumlari ishlab chiqarish	qurilish uchun metall buyumlar (temir va cho‘yan panjara, pillapoya tutqichi, pog‘onalar, eshiklar, ayvon(naves)lar) va boshqalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
qishloq xo‘jaligi va tomorqa asbob-uskunalari ishlab chiqarish	qo‘lda ishlatiladigan qishloq xo‘jaligi, bog‘ va tomorqa uchun asbob-uskunalar (belkurak, kirka, ketmon, o‘roq, beshlik, chalg‘i va b.) ishlab chiqaruvchi korxonalar
Metall transport taralari ishlab chiqarish	Metalldan yashik, bochka, baraban va flagalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Boshqa metall buyumlar ishlab chiqarish	Metall bankalar, gaz ballonlari, quticha va boshqa tunuka idishlar, etikdo‘zlik asboblari, metall polotno va to‘rlar, mebellar uchun sim prujinalar, texnik va xo‘jalik zanjirlari, langarlar, metall furnituralar ishlab chiqaruvchi korxonalar

Tarmoqlar	I z o h
Ishlab chiqarishga mo‘ljallanmagan metall buyumlar sanoati	
Xo‘jalik idishlari va oshxona anjomlari ishlab chiqarish	Metall xo‘jalik idishlari (jumladan sut idishlari), oshxona anjomlari, metall qoshiqlar, samovar, choynak, qaynatgichlar va boshqa suv isitish priborlari, termoslar (elektr termoslar kirmaydi), pichoq, sanchqi va boshqalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Shaxsiy foydalaniladigan predmetlar ishlab chiqarish	qaychi, ustara, havfsiz ustaralar uchun tig‘lar (lezviya), soch olish mashinkalari, va boshqa pichoqbuyumlar, metall krovatlar, bolalar aravachalari, metall galantereya, sovundonlar, sartaroshlik anjomlari va boshqalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Jismoniy tarbiya va sport uchun metall inventarlar ishlab chiqarish	Jismoniy tarbiya va sport uchun metalldan buyum va jihozlar (qurollar, baliq ovi anjomlari, ovchilik anjomlari, konkilar) ishlab chiqaruvchi, bolalar maydonchalari uchun uskunalar (pillapoyalar, karusellar, belanchaklar va b.) ishlab chiqaruvchi korxonalar
MASHINA VA USKUNALARINI TA’MIRLASH	
Metall qirqish va yog‘ochni qayta ishlash dastgohlarini, temirchilik-presslash va quyma uskunalarini ta’mirlash	Barcha turdagи metall qirqish va yog‘ochga ishlov berish dastgohlarini, yog‘och tilish ramlarini, temirchilik- presslash va quyuv uskunalarini ta’mirlashga ixtisoslashgan korxonalar
Sanoatning boshqa uskuna va priborlarini ta’mirlash	Barcha sanoat tarmoqlaridagi kuch beruvchi va ishlab chiqarish uskunalarini (metall qirqish va yog‘ochga ishlov berish dastgohlarini, yog‘och tilish ramlarini, temirchilik-

Tarmoqlar	I z o h
	presslash va quyuv uskunalaridan tashqari) ta'mirlashga ixtisoslashgan korxonalar
O'lchov priborlarini ta'mirlash	O'lchov priborlarini ta'mirlashga ixtisoslashgan korxonalar
Temir yo'llar xarakatdagi tarkibini ta'mirlash	Lokomotivlar, vagonlar va boshqa temir yo'l xarakatdagi tarkibi hamda yo'l mashinalarini ta'mirlashga ixtisoslashgan korxonalar
Kemalarni ta'mirlash	Dengiz, ko'l, daryo kemalarini, kemalarning uskunalarini, mexanizm va priborlarini, masxus kemalarni ta'mirlashga ixtisoslashgan korxonalar
Yuk avtomobillari va avtobuslarni ta'mirlash	Yuk avtomobillari va avtobuslarni ta'mirlashga ixtisoslashgan korxonalar
Yengil avtomobillarni ta'mirlash va texnikqarovi (aholi buyurtmasi bo'yicha ta'mirlash kirmaydi)	Yengil avtomobillar, motosikllar, motorollerlar va boshqalarni ta'mirlash hamda texnik qarovdan o'tkazishga ixtisoslashgan korxonalar
Aholi buyurtmasiga ko'ra yengil avtomobillar va boshqa transport vositalarini ta'mirlash hamda texnik qarovini o'tkazish	Aholi buyurtmasiga ko'ra yengil avtomobillar, motosikllar, motorollerlar va boshqalarni ta'mirlash hamda texnik qarovdan o'tkazishga ixtisoslashgan korxonalar
Traktorlar va qishloq xo'jalik mashinalarini ta'mirlash	Traktorlar, qishloq xo'jalik mashinalari va inventarlarini ta'mirlashga ixtisoslashgan korxonalar
Yo'lsozlik va qurilish mashinalarini ta'mirlash	Yo'lsozlik va qurilish mashinalarini ta'mirlashga ixtisoslashgan korxonalar
Tramvaylar, metro vagonlari va trolleybuslarni ta'mirlash	Tramvaylar, metro vagonlari va trolleybuslarni ta'mirlashga ixtisoslashgan korxonalar
Fuqaro samolyotlari, vertolyotlari, ularning uskuna va dvigatellarini ta'mirlash	Fuqaro samolyotlari, vertolyotlari, ularning uskuna va dvigatellarini ta'mirlashga ixtisoslashgan korxonalar
Hisoblash texnikalarini ta'mirlash va markazlashgan holda xizmat ko'rsatish	Hisoblash texnikasini ta'mirlash, foydalanishga topshirish (o'rnatish-yurgizish ishlari) va ularning texnik xizmati hamda dasturiy ta'minotini markazlashgan holda amalga oshiruvchi

Tarmoqlar	I z o h
	korxonalar
Turli ishlab chiqarish uskunalarini ta'mirlash	Savdo va yong'inga qarshi uskunalarni, boshqa ishlab chiqarishga oid uskunalarni ta'mirlash, aloqa uskunalari, transport vositalarini (yuqorida qayd etilganlardan tashqari) va boshqalarni ta'mirlashga ixtisoslashgan korxonalar
Turli noishlab chiqarish uskunalarini ta'mirlash	Tibbiy va maktab uskunalarini, kinoustanovkalar, kommunal uskunalar va boshqa madaniy-maishiy uskunalarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar
Ishlab chiqarish-texnik, savdo-texnik xizmatlar va radioelektron apparaturalarni, maishiy mashinalar, priborlar va metall buyumlarni ta'mirlash	Radioelektron apparaturalarni, maishiy mashinalar, priborlar, va xo'jalikbop metall buyumlarni (radiopriyomniklar, televizorlar, magnitofonlar va b.) ta'mirlash va ishlab-chiqarish texnik hamda savdo-texnik xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalar
O'RMON, YOG'OCHNI QAYTA ISHLASH VA SELLULOZA-QOG'OZ SANOATI	
Yog'och tayyorlash sanoati	Yog'och tayyorlash sanoati, smola va yelim olish bilan shug'ullanadigan korxonalar
Yog'ochni qayta ishlash sanoati	
Yog'och tilish	Yog'och tilish va shpallar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Standart uylar ishlab chiqarish	Mahalliy qurilish materiallaridan devorli standart uylar uchun standart yog'och uylar va detallar to'plami ishlab chiqaruvchi korxonalar
Yog'ochdan qurilish detallari va plitalar ishlab chiqarish	qurilish detallari (eshik, deraza, parket va boshqalar) yog'och tolali, yog'och qirindili va yog'och-sement plitalar, duradgorchilik mahsulotlari va yog'och konstruksiyalar ishlab chiqaruvchi

Tarmoqlar	I z o h
	korxonalar
Yog‘och konteynerli, tayyor va yig‘ma holdagi bino va uylar ishlab chiqarish	Ishlab chiqarish, ma’muriy, madaniy-maishiy, uy-joy va kommunal maqsadlarga mo‘ljallangan yog‘och konteynerli, tayyor yig‘ilgan holdagi, yig‘iladigan bino va uylarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Fanera ishlab chiqarish	Barcha turdagи faneralar, egib yelimlangan detallar va shpon ishlab chiqaruvchi korxonalar
Yog‘och taralarni ishlab chiqarish va ta’mirlash	Yog‘och taralarni (yashik, bochka, savat, korobka va b.) ishlab chiqaruvchi va ta’mirlovchi korxonalar
Mebel sanoati	
Mebel ishlab chiqarish (aholi buyurtmasiga ko‘ra ishlab chiqarish kirmaydi)	Mebel (novdadан to‘qilganлari ham kiradi), mebel detallari, prujinali matraslar, metall karkasli mebellar, mакtab va bolalar mebeli, kutubxonalar, muzey va dorixonalar uchun maxsus mebellar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Mebelni ta’mirlash (aholi buyurtmasiga ko‘ra mebel ta’mirlash kirmaydi)	Mebellarni ta’mirlash va tiklash bilan shug‘ullanuvchi korxonalar
Aholi buyurtmasiga ko‘ra mebel tayyorlash va ta’mirlash	Aholi buyurtmasiga ko‘ra mebel tayyorlash va ta’mirlash bilan shug‘ullanuvchi maxsus korxonalar
Gugurt ishlab chiqarish	Gugurt ishlab chiqaruvchi korxonalar
Yog‘ochga ishlov berishning boshqa sohalari	Mashinasozlik uchun yog‘och detallar va g‘iloflar, yog‘och kukuni, parnik uchun romlar, asalari uyalari, ulov aravasozlik detallari ishlab chiqaruvchi hamda yog‘ochni antiseptiklash(shpal va boshqa yog‘och materiallariga shimdirish) bilan shug‘ullanuvchi korxonalar
Selluloza-qog‘oz sanoati	
Selluloza, yog‘och massasi, qog‘oz va karton ishlab chiqarish	Selluloza, yarim selluloza, yog‘och massasi, qog‘oz va karton, selluloza-qog‘oz sanoatining boshqa ikkilamchi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi

Tarmoqlar	I z o h
	korxonalar
Qog‘oz va karton idish(tara)lar ishlab chiqarish	Barcha turdagи qog‘oz va karton idish(tara)lar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Qog‘oz va karton buyumlar ishlab chiqarish	qog‘oz va kartondan ishlab chiqarishga mo‘ljallangan turli buyumlar (kalka, pergament, fibra, poyafzallar uchun karton va b.), shuningdek gulqog‘oz(oboy), daftar, albomlar va boshqa qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar
O‘rmon-kimyo sanoati	Yog‘ochni quruq haydash korxonalari, kanifol zavodlari va o‘rmon-kimyo ishlab chiqarishining yo‘ldosh va ikkilamchi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar
qurilish materiallari sanoati	
<i>Sement sanoati</i>	
Sement xom ashvosini qazib olish	Sement xom ashvosini qazib oluvchi karyerlar
Sement ishlab chiqarish	Sement ishlab chiqaruvchi korxonalar, maydalash qurilmalari
<i>Asbosement buyumlari ishlab chiqarish</i>	Asbosement listlar (shifer), konstruktiv elementlar va detallar, asbosement quvurlar va boshqa asbosement buyumlar ishlab chiqaruvchi korxonalar
<i>Yumshoq tomyopgich va gidroizolatsiya matolar sanoati</i>	Barcha turdagи yumshoq tomyopgichlar (ruberoid, pergamin, tol va b.) hamda gidroizolatsion matolar(poroizol, izol va b.) ishlab chiqaruvchi korxonalar
<i>Yig‘ma temir-beton va beton konstruksiyalari hamda buyumlari (devor materiallarisiz) sanoati</i>	Yig‘ma temir-beton va beton konstruksiyalar (armaturalangani ham), sementli hamda sementsiz beton buyumlari (devor materiallari kirmaydi) ishlab chiqaruvchi korxonalar
<i>Devor materiallari sanoati</i>	
Devor bloklari ishlab chiqarish	Uyachali va zich silikatli betondan yirik bloklar ishlab chiqaruvchi, yirik va mayda devorbop beton bloklar, shlakobeton bloklar, tabiiy tosh bloklar

Tarmoqlar	I z o h
	(chig‘anoqtosh, tuf va b.) ishlab chiqaruvchi korxonalar
G‘isht va sopol cherepitsa ishlab chiqarish	Pishirilgan va silikatli g‘ishtlar, sopol bloklar va panellar, g‘ishtdan blok va panellar, sopol cherepitsalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
<i>qurilish sopolchiligi (keramika)</i>	
Sopol xom-ashyosini qazib olish	Sopol xom-ashyosini qazib olish va dastlabki ishlov berish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar
Qurilishbop sopol ishlab chiqarish	Pol uchun sopol plitalar ishlab chiqaruvchi, sirlangan qoplama plitalar, binolar fasadini qoplash uchun sopol buyumlar, kanalizatsiya va drenaj uchun sopol quvurlar, kislotaga bardoshli sopol buyumlar va boshqalar ishlab chiqaruvchi korxonalar
Qurilishbop va texnik chinni, fayans va yarim chinni mahsulotlar ishlab chiqarish	Chinni, fayans va yarim chinni xom-ashyosidan qurilish va santexnika, maishiy-sanitariya va texnik chinni va fayans mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar
<i>Polimer xom ashyosidan qurilish mate-riallari va buyumlari ishlab chiqarish</i>	Linoleumning turli xillarini, ularni yopishtirish uchun mastika, penopolistirol buyumlar va qurilishga mo‘ljallangan boshqa polimer mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
<i>Noruda qurilish materiallar sanoati</i>	Tosh, shag‘al, qum, qum-shag‘al aralashmalarini qazib olish, maydalash va boyitish korxonalari
<i>Tabiiy toshni qazib olish va undan qoplama materiallar tayyorlash</i>	
Qoplama materiallar uchun tabiiy toshlarni qazib olish	Tabiiy toshlar (granit, marmar, ohaktosh va b.)ni qazib olish karyerlari
Tabiiy toshdan qoplovchi materiallar ishlab chiqarish	Tabiiy toshdan qoplovchi materiallar ishlab chiqaruvchi korxonalar
<i>G‘ovakli to ‘ldiruvchilar</i>	

Tarmoqlar	I z o h
sanoati	
Tabiiy va sun'iy g'ovakli to'ldiruvchilar uchun xom ashyo qazib olish	Tabiiy va sun'iy g'ovakli to'ldiruvchilar ishlab chiqarish uchun xom-ashyo qazib olish
G'ovakli to'ldiruvchilarni sun'iysini ishlab chiqarish va tabiiysini qayta ishlash	Sun'iy g'ovakli to'ldiruvchilar: keramzit, agloporit, shishirilgan perlit, shungizit, chiqindidan tayyorlangan pemzalar, shishirilgan verzikulit, dashqol, vulqon chiqindilarining maydalangan toshlari va qumlari, termozitni ishlab chiqaruvchi va tabiiysini qayta ishlovchi korxonalar
Ohakli, gipsli va mahalliy bog'lovchi materiallar va ulardan mahsulotlar ishlab chiqarish sanoati	
Ohakli va gipsli toshlarni qazib olish	Ohakli va gipsli toshlarni va shag'allarni qazib oluvchi korxonalar
Ohakli, gips va mahalliy bog'lovchi materiallarni va mahsulotlarni ishlab chiqarish	Ohak, gips, gipsli quruq suvoq materiali, gipsbetonli to'siq panellarini va shu kabilarni, ohak-putssolanli, ohak-shag'alli sementlarni va mahalliy bog'lovchi materiallarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Ohak va dolomit kukunini ishlab chiqarish sanoati	Ohak va dolomit kukunini, maydalangan gips xom ashyosi va ozuqabop bo'r ishlab chiqaruvchi korxonalar
Issiqlik izolatsiyasi materiallari sanoati	Mineral momiq va undan tayyorlangan mahsulotlarni, diatom, sovelit, vulkanit, verzikulit, perlit, ohaktosh materiallaridan tayyorlangan va boshqa issiqlik va ovoz izolatsion buyumlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Asbest (toshpaxta) sanoati	Asbest (toshpaxta) rudasini qazib oluvchi va asbest (toshpaxta) ishlab chiqaruvchi korxonalar
Nometall rudalar sanoati	
Nometall rudalarni qazib olish	Kaolin, talk, pegmatit va slyuda xom ashyosini qazib oluvchi va ularni

Tarmoqlar	I z o h
	boyituvchi korxonalar
Nometall rudalardan mahsulot ishlab chiqarish	Sluda buyumlarini, shipan sludasi, sludaplast va boshqalar, andezit shag‘ali, andezit kukuni va andezitdan tayyorlangan buyumlar, asfaltit, grafit va boshqa buyumlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
<i>qurilish materiallari sanoatining boshqa tarmoqlari</i>	
Tovar betonlari va qurilish qorishmalarini ishlab chiqarish	Tovar betonlari va qurilish qorishmalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Asfaltbeton ishlab chiqarish	Asfaltbeton va boshqa bitum-mineral aralashmalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Boshqa qurilish materiallarini ishlab chiqarish	qum-sementli cherepitsalarni, qamish plita, torfli izolatsion buyumlarni va yuqorida ko‘rsatilmagan boshqa qurilish materiallarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
<i>Shisha va chinni-sopol sanoati (tabobat uchun oynak va chinni-sopoldan buyumlarni ishlab chiqa-ruvchi korxonalarsiz)</i>	
Shisha sanoati	
Shisha sanoati uchun dastlabki xom ashyoni qazib olish	Kvars qumlarini va boshqa shisha xom ashyosini qazib oluvchi konlar va ularni boyituvchi korxonalar
Qurilish va texnik shisha ishlab chiqarish	Deraza oynasi, sayqallangan, me’moriy-qurilish va texnik oynalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar, shishali izolatsion materiallar, silikat palaxsasi, toshquyma buyumlari. Shisha trubalar va bloklar, qurilish, issiqdan himoya qiluvchi shisha tolasi buyumlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Shisha idishlar ishlab chiqarish	Shisha butilkalar, konserva va parfumeriya shisha idishlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar

Tarmoqlar	I z o h
Shisha idishlar va shishadan xo‘jalik-ro‘zg‘or buyumlarini ishlab chiqarish	Sarxil va xo‘jalik idishlarini, ko‘zgu, termoslar, lampa va fonar oynasi, shishali badiiy buyumlar, billur buyumlar va boshqa xo‘jalik-ro‘zg‘or buyumlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Elektrotexnik va elektrovakuum shishalarini ishlab chiqarish	Elektrotexnik shishalarni va elektrokolbalarni (lampali, rentgenli va boshqa), elektrokolbalarning trubkalarini va boshqalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Kimyo-laboratoriya idishlarini ishlab chiqarish	Kimyo-laboratoriya idishlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Chinni-sopol sanoati	
Chinni va sopoldan xo‘jalik-ro‘zg‘or buyumlarini ishlab chiqarish	Chinni va sopoldan xo‘jalik-ro‘zg‘or va nafis chinni buyumlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Kulolchilik xo‘jalik-ro‘zg‘or buyumlarini ishlab chiqarish	Kulolchilik xo‘jalik-ro‘zg‘or idishlarini, guldonlarni, sirlangan naqshli va boshqa kulolchilik buyumlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Yengil sanoat	
To‘qimachilik sanoati	
Paxta tozalash sanoati	Paxta tolasini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Zig‘irni dastlabki qayta ishlash	Zig‘ir tolasini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Boshqa lub tolalarini dastlabki qayta ishlash	Kanop, penka, jut va boshqa lub tolalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Junni dastlabki qayta ishlash	Junni dastlabki qayta ishlovchi (yuvuvchi) korxonalar
Pillakashlik sanoati	Ipak tolesi xom ashyosini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Ip gazlama sanoati	To‘qimachilik va trikotaj sanoati uchun yigirilgan ip, xom va tayyor ip gazlamalar, texnik gazlamalarni (belting, uzatma qayishlari, yong‘in qo‘lqoplari va shu kabilar) qo‘sghan holda, momiq, paxtali vatin, iplar va boshqalarni ishlab chiqaruvchi

Tarmoqlar	I z o h korxonalar
Zig‘ir sanoati	Taralgan va yigirilgan zig‘ir tolalarini, iplarini va xom hamda tayyor gazlamalarini (to‘qimachilik dastgohida to‘qilgan donali bumlarni qo‘sghan holda), brezent va boshqa texnik hamda o‘rovchi gazlamalar uzatma qayishlari, yong‘in qo‘lqoplari va boshqalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Jun sanoati	To‘qimachilik va trikotaj sanoati uchun yigirilgan jun, jun gazlamalarni (xom va texnik gazlamalarni qo‘sghan holda) va donali buyumlarni (adyollar, ro‘mollar, gilamlar va gilam buyumlari va boshqalar) ishlab chiqaruvchi korxonalar
Aholi buyurtmasi bo‘yicha gilam va gilam buyumlarini ishlab chiqarish va ta’mirlash	Aholi buyurtmasi bo‘yicha gilam va gilam buyumlarini ishlab chiqaruvchi va ta’mirlovchi korxonalar
Ipakchilik sanoati	Yigirilgan va eshilgan ipak, shoyi iplar, barcha turdag'i xom va tayyor shoyi gazlamalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Noto‘qima matolar ishlab chiqarish	Turli xil tolalardan noto‘qima mato va momiqlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Penko-jut sanoati	Yigirilgan penka tolasi va gazlamasi, arqon va arg‘amchi, texnik, xo‘jalik va baliq ovi kanop iplari va boshqa arg‘amchi buyumlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
To‘r to‘qish sanoati	Baliq ovi to‘rlari va to‘r anjomlarini (barcha turdag'i tolalardan) ishlab chiqaruvchi korxonalar
To‘qimachilik attorlik mollarini ishlab chiqarish	
To‘qimachilik attorlik mollarini ishlab chiqarish (aholi buyurtmasini qo‘shamagan)	Pardabop to‘r buyumlarini, naqshli to‘r, zarbop jiyak buyumlari (tasma, bog‘ichlar va shu kabilar), lentalar,

Tarmoqlar	I z o h
holda)	soyabonlar (zontik), popopchilik buyumlari (sharf, ro‘mol va qiyiqlar, so‘zanalar va shu kabi), galstuklar, erkaklar va bolalar bo‘yinbog‘lari, piliklar, bayroqlar, turli shakldagi ramziy bayroqchalar va boshqalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Aholi buyurtmasi bo‘yicha to‘qimachilik attorlik mollarini ishlab chiqarish va ta’mirlash	Aholi buyurtmasi bo‘yicha pardabop to‘r buyumlarini, naqshli to‘r, zarbov jiyak buyumlari, soyabonlar (zontik) va boshqalarni ishlab chiqaruvchi va ta’mirlovchi korxonalar
Trikotaj sanoati	
Trikotaj buyumlarini ishlab chiqarish (aholi buyurtmasini qo‘shtagan holda)	Trikotaj polotnolarini (gazlamalarini), texnik trikotaj polotnolarini qo‘shtgan holda, hamda boshqa korxonalarga bo‘yash uchun beriladigan paypoq buyumlari ishlab chiqaruvchi korxonalar (modellar uyini qo‘shtgan holda). Paypoq buyumlari ishlab chiqaruvchi korxonalar
Aholi buyurtmasi bo‘yicha trikotaj buyumlarini ishlab chiqarish	Aholi buyurtmasi bo‘yicha trikotaj buyumlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Trikotaj buyumlarni ta’mirlash	Trikotaj buyumlarini ta’mirlovchi korxonalar
Kigiz va namat sanoati	
Kigiz va namat buyumlarini ishlab chiqarish (aholi buyurtmasini qo‘shtagan holda)	qurilish uchun, texnik, egar-jabduq, o‘tov, poyafzal tagligi uchun kigiz va namatlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar. Sayqallovchi namat chambarak va boshqalar. Kigiz etiklarni, fetrli va yarim fetrli paypoq va boshqalarni qo‘shtgan holda, ishlab chiqaruvchi va ta’mirlovchi korxonalar
Aholi buyurtmasi bo‘yicha kigiz va namat buyularini ishlab chiqarish	Aholi buyurtmasi bo‘yicha kigiz va namat buyumlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Tikuvchilik sanoati	

Tarmoqlar	I z o h
Tikuvchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish (aholi buyurtmasini qo'shmagan holda)	Barcha turdag'i erkaklar, ayollar va bolalar ustki kiyimlarini (mo'yna va charmdan tashqari), forma kiyimlarini, korjomalarni, ichki kiyimlarni va to'shak hamda texnik tikuvchilik buyumlarini ommaviy ishlab chiqaruvchi korxonalar (modellar uylarini qo'shgan holda)
Aholi buyurtmasi bo'yicha tikuvchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish	Aholi buyurtmasi bo'yicha barcha turdag'i tikuvchilik mahsulotlarini (ayollarning shaxsiy buyumlarini qo'shgan holda) ishlab chiqaruvchi korxonalar
Tikuvchilik mahsulotlarini ta'mirlash	Barcha turdag'i tikuvchilik mahsulotlarini ta'mirlovchi korxonalar
Charm, mo'yna va poyafzal sanoati	
Tabiiy charm ishlab chiqarish	Tabiiy charm, zamsh (baxmal charm), layka (mayin teri), baliq terisi va boshqa terilarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Sun'iy charm va plenka materiallarini ishlab chiqarish	Poyafzallarning ustki qismi, tikuvchilik va attorlik buyumlari, jildlash va qoplash maqsadlari va boshqa maishiy maqsadlardagi buyum uchun yumshoq sun'iy charmlarni, hamda poyafzallarning rezina tagligi, ichki qismlari uchun qattiq sun'iy charm va boshqalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Sun'iy mo'yna ishlab chiqarish	Barcha turdag'i sun'iy mo'yna, sun'iy qorako'lni qo'shgan holda, ishlab chiqaruvchi korxonalar
Charm-attorlik sanoati	
Tabiiy va sun'iy charmdan yo'l va attorlik buyumlarini ishlab chiqarish	Tabiiy va sun'iy charmdan yo'l va attorlik buyumlarini (jomadonlar, portfellar, sumkalar, safar xaltalari, turli qo'lqoplar, karmonlar, hamyonlar, kamarlar, tasmalar), sport buyumlarini (sport koptoklari, pokrishkalari,

Tarmoqlar	I z o h
	qo‘lqoplari va shu kabilar) ishlab chiqaruvchi korxonalar
Tabiiy va sun’iy charmdan yo‘l va attorlik buyumlarini ta’mirlash	Tabiiy va sun’iy charmdan yo‘l va attorlik buyumlarini ta’mirlovchi korxonalar
Etar-jabduq ishlab chiqarish	Ot va boshqa boshqariladigan hayvonlar uchun xomut, egar, jilov, tizgin va boshqa anjomlarni ishlab chiqaruvchi va ta’mirlovchi korxonalar
Mo‘yna sanoati	
Mo‘yna va mo‘yna buyumlarini ishlab chiqarish (aholi buyurtmasini qo‘shma-gan holda)	qo‘y terisini va junini ishlab chiqarish va bo‘yash bilan shug‘ullanuvchi (xomashyo-bo‘yash korxonasi), mo‘ynalarni saralash, turli mo‘ynali po‘stinlar (shuba, tulup, bekesh, dox, manto), mo‘ynali bosh kiyimlar, yoqalar, qo‘lqoplar va boshqa sun’iy va tabiiy mo‘ynadan kiyim-kechak ishlab chiqaruvchi korxonalar
Aholi buyurtmasi bo‘yicha mo‘yna buyumlarini tikish	Aholi buyurtmasi bo‘yicha mo‘yna buyumlarini tikuvchi korxonalar
Mo‘yna buyumlarini ta’mirlash	Mo‘yna buyumlarini ta’mirlovchi korxonalar
Poyafzal sanoati (rezina poyafzellarni ishlab chiqarishdan tashqari)	
Poyafzal ishlab chiqarish (aholi buyurtmasini qo‘shma-gan holda)	Charqli, gazmol, aralash matoli, milliy, ortopedik poyafzallar va tagcharmi charm va charm o‘rnini bosuvchi materiallardan tayyorlangan boshqa turdagи poyafzellarni ishlab chiqaruvchi korxonalar (modellar uylarini qo‘shgan holda)
Aholi buyurtmasi bo‘yicha poyafzal tayyorlash, tikish	Aholi buyurtmasi bo‘yicha poyafzal tikuvchi korxonalar
Poyafzellarni ta’mirlash	Poyafzellarni ta’mirlovchi korxonalar
Dag‘al jun va cho‘tka sanoati	Dag‘al jundan tayyorlangan va cho‘tka buyumlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Ko‘n-ekstrakt sanoati	O‘simplik va sun’iy ko‘nchilik

Tarmoqlar	I z o h
	ekstraksiyasini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Tugma ishlab chiqarish sanoati	Tugma ishlab chiqaruvchi korxonalar
Yengil sanoatning boshqa sohaları	Poyafzal va attorlik sanoati va boshqa buyumlar uchun furnitura va metall buyumlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Oziq-ovqat sanoati	
Oziq-ovqat sanoati (baliq, go'sht, yog'-pishloq va sut sanoatidan tashqari)	
Shakar sanoati	Shakar va oqqand ishlab chiqaruvchi korxonalar
Non ishlab chiqarish sanoati	Non va nonbulka mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Qandolatchilik sanoati	qandolatchilik mahsulotlarini barcha turlarini: kakao kukuni, xolva, sharq shirinliklarini, sun'iy asal, qiyom bilan qoplangan mevalar va boshqa undan tayyorlangan qandolat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Makaron sanoati	Makaron mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Yog'-moy sanoati	
Yog'-moy sanoati (sovun va yuvuvchi vositalarni ishlab chiqarishsiz)	O'simlik yog'i ishlab chiqaruvchi, moylarni gidrogenizatsiyalovchi, margarin mahsulotlarini, hayvon yog'larini, mayonez, sham va uning yog'ini va tabiiy alifmoy ishlab chiqaruvchi korxonalar
Sovun va yuvuvchi vositalarni ishlab chiqarish	Xo'jalik sovunlari va boshqa yog'li yuvuvchi vositalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Pardoz-andoz buyumlari sanoati	Ifor(efir) moyi va sun'iy xushbo'y moddalarni, pardoz andoz buyumlarini va atir sovunlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Spirt sanoati	Etil spirti xom ashyosini va toza spirt ishlab chiqaruvchi korxonalar
Likyor-aroq sanoati	Aroq va likyor-aroq mahsulotlarini

Tarmoqlar	I z o h
	ishlab chiqaruvchi korxonalar
Vino mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati	Vino mahsulotlarini, uzum va shampan vinolarini, konyak va meva-rezavorlar vinosini ishlab chiqaruvchi va quyuvchi korxonalar
Pivo ishlab chiqarish sanoati	Pivo va solod ishlab chiqaruvchi korxonalar
Alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish	Non kvasi, mors, braga, meva sharbotlari, ma'danli va gazli suvlarni quyuvchi hamda ishlab chiqaruvchi va alkogolsiz ichimliklarni quruq konsentratini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Xamirturush sanoati	Nonvoylik va qandolatchilik xamirturushlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Kraxmal-qiyom sanoati	Xom va quruq kraxmal, kraxmal qiyomi, dekstrin, glukozalar, maltoza, gidrol, sago, makkajo‘xori ekstrakti va boshqa kraxmal mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Mevasabzavot sanoati	
Meva-sabzavot sanoati (meva-sabzavot konserva-larini ishlab chiqarishsiz)	
Meva-sabzavot konserva-larini ishlab chiqarish	Mevasabzavot konservalarini, go‘sht-yog‘ va moy-dukkakli konservalarini qo‘sghan holda, ishlab chiqaruvchi korxonalar
Tuz sanoati	Osh tuzlarini qazib oluvchi va maydalovchi korxonalar
Choy sanoati	
Choy barglarini qayta ishslash	Choy barglarini qayta ishlovchi korxonalar
Choy qadoqlash va presslash	Tabiiy choyni qadoqlovchi va presslovchi (taxta choyni presslashni qo‘sghan holda) korxonalar
Tamaki-maxorka sanoati	
Tamaki fermentatsiyasi	Tamakini fermentatsiya qiluvchi korxonalar

Tarmoqlar	I z o h
Tamaki-maxorka mahsulotlarini ishlab chiqarish	Papiros, sigareta, tamaki, sigara va maxorka ishlab chiqaruvchi korxonalar
Oziq-ovqat konsentratlarini ishlab chiqarish	Oziq-ovqat, soya, makkajo‘xori, arpa va boshqa don mahsulotlarini konsentratlarini, tabiiy va sun’iy qahva, bolalar ozuqasi, bolalar uni, tsikoriy, choy va qahva aralashmalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Oziq-ovqat sanoatining boshqa sohalari	Oziq-ovqat kislotasi, (sutli, limon, tabiiy vino, olma va boshqa), karbonat kislotasi, sirka, quruqmuz (yax), saxarin ishlab chiqaruvchi va oziq-ovqat mahsulotlarini qadoq-lovchi korxonalar
Go‘sht va sut sanoati	
Go‘sht sanoati	
Go‘sht sanoati (yelim-jelatin sanoatisiz)	Go‘sht, kolbasa, dudlama va boshqa go‘sht mahsulotlari, go‘sht konservalarini ishlab chiqaruvchi, hamda parranda go‘shtlarini qayta ishlovchi korxonalar
Yelim-jelatin sanoati	Jelatin va kazein, mezdra (teridan olinadigan) va suyak yelimlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Yog‘-pishloq va sut sanoati	
Yog‘-pishloq va sut sanoati (sut konservalarini ishlab chiqarishsiz)	Hayvon yog‘larini (sariyog‘), qaymog‘i olinmagan sut mahsulotlari, pishloq, sho‘r pishloq (brinza), muzqaymoq, kazein, quruq sut va boshqa sut mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Sut konservalarini ishlab chiqarish	Sut konservalarini ishlab chiqaruvchi maxsus korxonalar
Baliqchilik sanoati	Baliq, kit va dengiz jonivorlarini va mahsulotlarini ovlovchi va mazkur xom ashyolarni qayta ishlovchi korxonalar: baliqpazlik va baliq konservalari kombinatlari va korxo-nalari, baliq sanoati muzxonalari, baliq uni va moy uni zavodlari, baliq ovlovchi xo‘jaliklar va baliqlarni havo kemalarida

Tarmoqlar	I z o h qidiruvchi xizmatlar
Mikrobiologiya sanoati	
Ozuqali oqsil moddalari sanoati	
Uglevodorod xomashyosidan ozuqali oqsil moddalari ishlab chiqarish	Uglevodorod xomashyosidan ozuqa-li xamirturush ishlab chiqaruvchi korxonalar
Gidroliz sanoati	O'simlik xomashyosidan ozuqali xamirturush, etil spirti, furfurol va uning hosilalarini, ko'patomli spirtlar va yog'och va qishloq xo'jaligi o'simligi chiqindilaridan gidroliz usulida olinadigan boshqa mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Mikrobiologiya sanoatining boshqa tarmoqlari	
Aminokislotalarni va ferment preparatlarini ishlab chiqarish	Aminokislotalarni (lizin va boshqalar) va ferment preparatlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Notibbiy maqsaddagi antibiotiklarni, ozuqali darmondo-rilar (vitamin), premiks, bakteriyali o'g'itlar va o'simliklarni mikrobiologik himoya vositalarini ishlab chiqarish	Notibbiy maqsaddagi antibiotiklarni, ozuqali darmondorilar (vitamin), premiks, bakteriyali o'g'itlar va o'simliklarni mikrobiologik himoya vositalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Erituvchilarni ishlab chiqarish	Oziq-ovqat xom ashyolaridan erituvchilarni (butanol, atseton) ishlab chiqaruvchi korxonalar
Un, yorma va kombikorm (aralash ozuqa) ishlab chiqarish sanoati	
Un va yorma ishlab chiqarish sanoati	
Un ishlab chiqarish sanoati	Un ishlab chiqaruvchi korxonalar
Yorma ishlab chiqarish sanoati	Yorma ishlab chiqaruvchi korxonalar
Kombikorm (aralash ozuqa) ishlab chiqarish sanoati	Kombikorm (aralash ozuqa) va darmondorili (vitamin) oqsil qo'shilmalarni ishlab chiqaruvchi, makkajo'xorini duragay va sara navlarini qayta ishlovchi korxonalar
Tabobat sanoati	

Tarmoqlar	I z o h
Kimyo-dorivorlik (farmatsevtika) sanoati	Sun’iy davolovchi kimyoviy-dorivor preparatlarni, hamda o’simlik xomashyolaridan olingan dori-darmonlar, fermentlar, kofermentlar, hayvon xomashyolaridan olingan endokrin preparatlar, darmondorilar (vitamin), antibiotiklar, qon o’rnini bosuvchi moddalarni va boshqalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Tabobat texnikasi (anjomlari) sanoati	Tabobat uchun turli anjomlar, asboblar, uskuna va jihozlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Shisha, chinni va plastmassadan tabobot buyumlari ishlab chiqarish	Shisha, chinni va plastmassadan tabobat buyumlarini va tish davolash materiallari, yasama tish materiallarini qo’shgan holda, ishlab chiqaruvchi korxonalar
Nashriyot sanoati	Nashriyot va matbaa korxonalari, tipolitografiya, litografiya, ruxgrafiysi korxonalari, kitob va kitob-jurnal, notali qog’ozlarni chiqaruvchi va offset, rangli nashriyotlar, harf terish korxonalari, fototeruv, fotoreproduksiya markazlari va boshqalar
Sanoatning boshqa sohalari	
Badiiy buyumlar ishlab chiqarish	Metall, yog’och, gips va sementdan tayyorlangan, hamda sangtaroshlik va suyaktaroshlik badiiy buyumlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
Musiqa asboblarini ishlab chiqarish	Musiqa asboblarini va uning anjomlarini ishlab chiqaruvchi va ta’mirlovchi korxonalar
Zargarlik sanoati qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlarni, yaltiroq toshlarni va qahrabo qazib olish	qimmatbaho (olmosdan tashqari) va yarim qimmatbaho toshlarni, yaltiroq toshlarni va qahrabo qazib oluvchi korxonalar
Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish va ta’mirlash (aholi buyurtmasi bo‘yicha zargarlik	Zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchi va ta’mirlovchi (aholi buyurtmasi bo‘yicha zargarlik

Tarmoqlar	I z o h
buyumlarini ishlab chiqarish va ta'mirlashni qo'shmagan holda)	buyumlarini ishlab chiqarish va ta'mirlashni qo'shmagan holda) korxonalar
Aholi buyurtmasi bo'yicha zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish va ta'mirlash	Aholi buyurtmasi bo'yicha zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchi va ta'mirlovchi korxonalar
Kiyim-kechak va gazlama-dan tayyorlangan boshqa buyumlarni komyoviy tozalash, bo'yash, yuvish va ularga ishlov berish	
Kimyoviy tozalash va bo'yash	Kiyim-kechak va gazlamadan tayyorlangan boshqa buyumlarni komyoviy tozalovchi, bo'yab beruvchi ustaxona, fabrika va kompleks korxonalar
Kiyim-kechak va gazlama-dan tayyorlangan boshqa buyumlarni yuvish va ularga ishlov berish	Kiyim-kechak va gazlamadan tayyorlangan boshqa buyumlarga ishlov beruvchi va yuvib tozalovchi korxonalar
Fotokino mahsulotlarini ishlab chiqarish	
Kino nusxalari mahsulotlarini ishlab chiqarish	Kino nusxalarini ko'chiruvchi korxonalar
Aholi buyurtmasi bo'yicha fotokino mahsulotlarini ishlab chiqarish	Aholi buyurtmasi bo'yicha ish bajaruvchi fotobirlashma, fotokombinat, foto ishlarini amalga oshiruvchi korxonalar va fotokinolaboratoriylar
Veterinariya uchun shifobaxsh dori darmonlarni ishlab chiqarish	Veterinariya uchun shifobaxsh dori-darmonlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar
O'yinchoqlarni (rezina o'yinchoqlardan tashqari) ishlab chiqarish	Barcha turdag'i bolalar o'yinchoq-larini (rezina o'yinchoqlardan tashqari) hamda archa bezaklarini ishlab chiqaruvchi korxonalar
Mukammal tizimli SUV inshootlari	SUV ko'tarish moslamalari, SUV bosimini hosil qiluvchi qurilmalar, SUV tozalovchi inshoot va SUV uzatish tarmoqlariga ega bo'lgan SUV uzatish korxonalari

Tarmoqlar	I z o h
Sanoatning bulardan tashqari sohalari	Chizmachilik va idora ashyolarini, ko‘rgazmali qo‘llanmalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar. Protezlarni, parva patdan, titilgan po‘stloq (mochalo), soch va o‘tlardan tayyorlangan buyumlarni, to‘saklar (matras) ishlab chiqaruvchi korxona-lar. Yuqorida keltirilmagan ishlab chiqarishning boshqa sohalaridagi korxonalar
Sanoatda mahsulotlarni davlat qabuli, standartlar va o‘lchov vositalari ustidan davlat nazorati	Sanoatda mahsulotlarning davlat qabulini amalga oshiruvchi tashkilotlar, standartlash va metrologiya markazlari, standartlar va o‘lchov vositalari ustidan davlat nozoratini amalga oshiruvchi laboratoriyalari, standartlash va metrologiya bo‘yicha idoraviy laboratoriyalari
Sanoat-xo‘jalik boshqaruvi	Xarajatlari mahsulot tannarxiga kirgan sanoat korxonalarini boshqa-ruvchi muassasalar. Umumrespub-lik sanoat birlashmalari, trestlari, idoralari va boshqalar

3.5. Tarmoq tuzilmasi o‘zgarishining asosiy tendensiyasi

O‘zbekiston sanoatining hozirgi taraqqiyoti ulkan sur’atlari bilan ajralib turadi, chunki u mustaqillik yillarda, ayniqsa XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida yuqori sur’atlar bilan rivojlana bordi. Ayni paytda ishlab chiqarishning yuqori darajada o‘sishi bilan bir qatorda, uning tuzilmasida ham uzlusiz tarkibiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Keyingi 14 yil mobaynida sanoat tuzilmasi ishlab chiqarishni intensivlashtirish va uning samaradorligini oshirish talablari va xalq xo‘jaligini balans-lashtirish zaruratiga mos ravishda o‘zgarib bordi. Sanoat ishlab chiqarishining progressivlik, ya’ni taraqqiyparvarlik darajasi anchagina o‘sdi. Bunday rivoj fan-texnika taraqqiyotini belgilovchi tarmoqlar – neft va gaz sanoati, mashinasozlik, kimyo sanoatining ustuvor o‘sishida namoyon bo‘ldi.

Yuqorida keltirilgan tarmoq korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar 1991 yilda umumsanoat mahsulotining 32,8 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2004 yilda bu ko‘rsatkich 41 foizga yetdi.

Sanoat tuzilmasining ilg‘orligi har qaysi kompleks tarmoq ichidagi o‘zgarish bilan belgilanadi. Sanoatning u yoki bu tarmog‘ining ulushi o‘zgarmasligi, hattoki kamayishi ham mumkin, lekin bu tarmoq ichidagi qoloqlikdan darak bermaydi. Buni O‘zbekiston mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati misolida ko‘rish mumkin. Masalan, bu tarmoqda 1997 yilda yalpi sanoat mahsulotining 13,2 foizi ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2001 yilga kelib bu ko‘rsatkich 12 foizni tashkil etdi, ya’ni qariyb 1,2 foizga kamaydi.

Fan-texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan tarmoqlarning ustuvor rivojlanish tendensiyasi 2005-2010 yillarda ham alohida ko‘zga tashlanadi. Bu davr rivojlanish dasturida sanoat ishlab chiqarishining tuzilmasini takomillashtirish, undiruvchi va qayta ishlovchi tarmoqlarning rivojida balanslilikni ta’minalash milliy iqtisodiyot va fan-texnika taraqqiyotini belgilaydigan raqobatbardosh mahsulotlar tayyorlashni kuchaytirish ko‘zda tutilgan.

Sanoatning uzoq istiqbolga mo‘ljallangan rivojini aniqlash, turli iqtisodiy mutanosibliklarni belgilash va ularga e’tibor qilish zarurligini talab qiladi. Bunday mutanosibliklar tarmoq tuzilmasini prognozlashda inobatga olinadi.

Sanoat ishlab chiqarish tuzilmasini rejalashtirish va prognozlash quyidagi asosiy masalalarini hal qilishga qaratilishi kerak:

- bozor iqtisodiyoti talablari, iqtisodiyot va aholining ayrim mahsulot turlariga bo‘lgan talabini qondirishni hisobga olgan holda umuman sanoat va uning har qaysi tarmog‘ining rivojlanish sur’atini belgilashni;
- ilg‘or ishlab chiqarish tarmoqlarini aniqlash, ular taraqqiyotini tezlashtirish uchun zarur bo‘lgan kapital qo‘ymalari va materiallarni birinchi navbatda ajratishni;
- sanoat tuzilmasida ustuvor o‘zgarishlarni ko‘zda tutish lozimki, har qaysi bunday o‘zgarishlar ijtimoiy ishlab chiqarishning eng yuqori samaradorligini ta’minalasin;
- iqtisodiyotning umumiyligi har qaysi sanoat tarmog‘i taraqqiyotining tengligi bilan bog‘lashni talab etadi.

Tarmoq tarkibining mamlakat miqyosida qulaylashuvi yuqori sur’atda iqtisodiy rivojlanishni, aholining turmush darajasini oshirishni hamda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishni ta’minalaydi. Chunki bu ishlab chiqarishning darajasi va yakuniy, pirovard mahsulotning ko‘payishiga, umuman ijobiy tarkibiy siljishlarga sabab bo‘ladi. Demak, tarkibiy o‘zgarishning o‘zi ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdarligi o‘sishining qo‘sishma omili sifatida maydonga chiqadi.

Sanoat tarmoqlari tuzilmasini takomillashtirishning asosiy yo‘llari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish vositalari va iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan tarmoqlar orasida mutanosiblikni o'rnatish;
- ishlab chiqarish tuzilmasining prognoz va tendensiyalarini ishlab chiqish;
- tarmoqlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini barqororlashtirish;
- ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish;
- shaxsiy va ijtimoiy iste'molni o'rganish hamda aholini yuqori sifatli sanoat mahsulotlari bilan to'la ta'minlash;
- tarmoqlarda xomashyo va resurslardan oqilona foydalanish samaradorligini oshirib borish.

Iqtisodiy rayonlar sanoatini zaruriy (mehnat, moddiy va moliyaviy) resurslar bilan ta'minlash va ulardan oqilona foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yish.

Ayni vaqtida tarmoqlarning ichki tuzilmasini qayta qurish, mahsulot ishlab chiqarish va aholining turmush darajasini oshirish, chet el korxonalari bilan iqtisodiy hamkorlik qilish, chet el investitsiyalari hamda ilg'or texnologiyalarini sifatli sanoat mollari tayyorlashga yo'naltirish vazifalarini hal etish kerak bo'ladi.

Respublika iqtisodiyotida va uning yetakchi tarmog'i bo'lgan sanoat sohasida amalga oshirilayotgan tarkibiy siljishlar yaqin kelajakda quyidagilarni amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratadi:

- mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlari, ommabop talabga ega bo'lgan tovarlar va boshqa hayotiy zarur vositalarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni ta'minlash;
- fan-texnika taraqqiyoti va sanoatning ilgarilib boradigan rivojini tejaydigan texnologiyalarni, umuman ilg'or tarmoqlarni rivojlantirish;
- respublikaning o'zida ishlab chiqariladigan mahsulotlarni ko'paytirish va shu asosda tovarlar importini qisqartirish;
- agrosanoat majmui samaradorligini oshirish va uni qishloq xo'jaligi xomashyosini yanada chuqurroq qayta ishlashga o'tkazish hamda tayyor mahsulotning sifati va tovar ko'rinishini oshirish;
- kichik biznes korxonalari (firmalar va tadbirkorlik, dehqon, fermer xo'jaliklari, «korxona-mahalla» tipidagi ishlab chiqarish tuzilmalari)ni rivojlantirish asosida yangi ishchi o'rinarini hamda yangi sohalarni yaratish;
- va nihoyat, respublikada u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish uchun tegishli sharoit va mineral-xomashyo resurslari mavjudligini hisobga olgan holda sanoatning eksport salohiyatini oshirish va eksport ustunligiga erishish uchun sharoitlar yaratadi.

2016 yilning 24 avgustida Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaror qabul qilindi. Bundan ko'zlangan maqsad davlat

boshqaruvi organlarining idoralararo o‘zaro hamkorligiga jahonda umume’tirof etilgan iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashni joriy qilish, kichik tadbirkorlik subyektlarini tasniflashda undan foydalanish, shuningdek, statistika, soliq va moliyaviy hisobot tizimini yanada takomillashtirishdan iborat. Ushbu qaror 2017 yil 1 yanvardan kuchga kirdi¹⁵.

Davlat statistika qo‘mitasi Yevropa Ittifoqining iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichi (KDYE/S/NACE) negizida ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umum davlat tasniflagichiga (IFUT) o‘tilmoqda.

Qarorga muvofiq, davlat boshqaruvi organlarining idoralararo o‘zaro hamkorligida, statistika, soliq va moliyaviy hisobot shakllarida IFUT dan majburiy tartibda foydalaniladi. Ushbu hujjat asosida kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan tashkilotlarning IFUT asosida takomillashtirilgan tasniflagichi tasdiqlangan. Bundan tashqari, qarorda davlat boshqaruvi organlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari tashkilotlar turlarini aniqlashda Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan tashkilotlar tasniflagichiga qat’iy rioya etishlari kerakligi, axborot tizimlari va resurslarida, shuningdek, o‘zaro idoralararo elektron hamkorlikda IFUT dan foydalanilishini ta’minlashlari qayd etilgan.

Qisqacha xulosalar

1. Sanoat juda ko‘p tarmoqlardan iborat bo‘lib, ularning har biri korxonalar yig‘indisidan tashkil topadi. Tarmoq hosil bo‘lishi uchun korxonalar bir necha umumiylashtirish ega bo‘ladilar.

2. Sanoat tarmoqlari o‘rtasidagi ishlab chiqarishning o‘zaro aloqadorligi va ularning takror ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan miqdoriy nisbatlari tarmoq tarkibini tashkil etadi. U sanoat taraqqiyotida ro‘y beradigan texnika va texnologiya rivojining darajasi, ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar bilan bog‘liq ravishda o‘zgaradi.

3. Turli sanoat tarmoqlari o‘rtasidagi ishlab chiqarish aloqalari o‘zaro mahsulot almashish, tajribalarni o‘rganish bilan tavsiflanadi.

4. Ishlab chiqarish taraqqiyotining istiqbolini aniqlash, hisob-kitob ishlarini amalga oshirish, uning ahvolini tahlil etish maqsadida sanoat tarmoqlari guruhlarga ajratiladi. Guruhlarga ajratishning eng muhim tamoyili tayyorlanadigan mahsulot iqtisodiy mazmunining bir xilligidir.

5. Sanoat tarmoq tuzilmasining o‘zgarishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi: birinchidan fan-texnika taraqqiyoti; ikkinchidan ijtimoiy ishlab

¹⁵ <http://www.biznes-daily.uz/uz/gazeta-birja/42413-iqtisodiy-faoliyat-turini-tasniflashning-yangi-tizimi>

chiqarishni tashkil etish shakllari – konsentratsiyalash, ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish va kobilatlashtirish hamda hududiy joylashtirish.

6. Respublika iqtisodiyotida va uning yetakchi tarmog‘i bo‘lgan sanoat sohasida amalga oshirilayotgan tarkibiy siljishlar yaqin kelajakda milliy iqtisodiyot salohiyatini yanada yuqori darajaga ko‘tarish va sanoatning eksport ustunligini ta’minlash uchun juda katta imkoniyatlar yaratib beradi.

O‘z-o‘zini nazorat qilishga oid savollar

1. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va sanoat sohalarining shakllanishi.
2. Davlatning iqtisodiy siyosati, jumladan, sanoat sohasidagi tarkibiy o‘zgarishlarga tegishli siyosati.
3. Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni ta’minlash deganda nimalar tushuniladi?
4. Tarmoq va tarmoq tuzilmasining tushunchasi.
5. Tarmoqlarning iqtisodiy guruhanishi.
6. Tarmoqning rivojlanish sur’atlarini o‘lchash usullari.
7. Tarmoq tarkibi va uni belgilovchi omillar.
8. O‘zbekiston Respublikasi sanoati tarmoq tuzilmasi o‘zgarishining asosiy tendensiyasi.

4-BOB. SANOATDA ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMI

Tayanch atamalar va iboralar: boshqaruv, menejment, boshqaruv subyekti, boshqaruv obyekti, boshqaruvchi, boshqaruv maqsadi, boshqaruv vazifalari, tashkilotchilik, boshqaruv tamoyillari.

Reja:

- 4.1. Boshqaruv obyektiv zarurat va maqsadga yo‘naltirilgan jarayon sifatida**
- 4.2. Boshqaruvning asosiy tamoyillari va usullari**
- 4.3. Boshqaruvning zamonaviy tuzilishi**
- 4.4. Boshqarishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari**

4.1. Boshqaruv obyektiv zarurat va maqsadga yo‘naltirilgan jarayon sifatida

Har qanday ishlab chiqarish boshqaruvning muayyan tizimisiz oqilona harakat qila olmaydi va rivojlanmaydi. Shu tufayli ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida jamiyat o‘ziga xos va mos boshqaruv tizimini yaratadi.

Boshqaruv tushunchasi uzoq va chuqur tarixiy taraqqiyotga ega. Uning yuzaga kelishi esa insoniyat taraqqiyotining eng muhim jarayonlaridan biri hisoblanadi. Boshqaruv faoliyatining dastlabki davrida insonlar o‘z bilim va tajribasiga asoslangan holda ishlab chiqarishni boshqargan bo‘lsalar, astasekinlik bilan texnika-texnolo-giyaning rivojlanishi, ishlab chiqarish sur’atlarining o‘sishi va har xil tashkiliy sharoitlar yuzaga kelishi natijasida faoliyatning mazkur turi ancha murakkablashib bordi. Bunday holatni anglash, chuqurroq o‘rganish va bilish “Boshqaruv fani“ning vujudga kelishiga olib keldi.¹⁶

Boshqaruvning bir qator nazariy va amaliy vazifalari F.U.Teylor tomonidan asoslab berilgan. U boshqarishga “Nima qilish kerakligini, uni eng yaxshi va qulay usulda amalga oshirishni aniq bilish san’ati“, - deb ta’rif bergen.

Boshqaruvning ma’nosи va mohiyati, ahamiyati va mazmuni, tamoyillari va usullari to‘g‘risida buyuk olimlar, mutafakkirlar, mutaxassislar juda ko‘p fikr aytgan va yozib qoldirishganlar.

Boshqaruv – bu alohida funksiya bo‘lib, turli-tuman sohalar (mamlakat va uning hududlari milliy iqtisod va uning tarmoqlari, korxona va uning bo‘limlari)da insonlar ustidan rahbarlik qilish faoliyatidir.

¹⁶ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўкув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.52.

Boshqaruv – bu tashkilotning maqsadini ifodalash va unga erishish uchun zarur bo‘lgan rejalarشتirish, tashkil etish, ishtiyoyqni uyg‘otish (motivatsiya) va nazorat qilish bo‘yicha faoliyat turi jarayonidir.

Boshqaruv – bu shunday faoliyatki, uning yordamida uyushmagan jamoa (xaloyiq yoki to‘da) samarali va aniq maqsadga yo‘naltirilgan unumli (barakali) guruhg aylantiriladi.

Boshqaruv – bu ma’lum jarayonga, organizm va jamoaga maqsadli ta’sir ko‘rsatishni o‘zida ifoda etgan ijtimoiy faoliyatning bir turidir.

Boshqaruv – bu muayyan axborotga asoslangan va mavjud dasturga muvofiq obyektning ishlashini, ya’ni faoliyat ko‘rsatishini ta’minalashga yo‘naltirilgan tadbirlar majmuasidir.

Shuningdek, mashhur fransuz olimi Anri Fayol ham boshqaruvga quyidagicha ta’rif beradi: “Boshqaruv – bu korxona ixtiyoridagi barcha resurslardan maksimal foyda olgan holda uni maqsad sari yetaklash faoliyatidir“. Demak, boshqaruv obyektiv zarurat va maqsadga yo‘naltirilgan jarayon hisoblanadi.

Makroiqtisodiy sohaning yetakchi tarmog‘i bo‘lgan sanoatni boshqarish zarurati to‘g‘risida gapirilganda yuqoridagi ta’riflarni yanada kengaytirish va mazmunan boyitish zarurati yuzaga keladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishni, jumladan, uning eng yirik va yetakchi sohasi bo‘lgan sanoatni boshqarishning obyektiv zaruratini izohlab shuni aytish kerakki, yirik miqyosda amalga oshiriladigan, har qanday to‘g‘ridan-to‘g‘ri qilinayotgan mehnat, ishlab chiqarish **ko‘proq yoki kamroq darajada** boshqarilishga muhtojdir.

Boshqaruv individ yoki jamoa faoliyatining alohida turi sifatida har qanday ijtimoiy jamiyatga xos jarayondir. Lekin uning tavsifi, maqsadi, vazifalari, jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida turlicha bo‘lishi mumkin. Shu sababli har bir bosqichda bu kategoriyaning asosiy muammolari chuqur, har tomonlama tadqiq qilinadi va ularning yechimi topiladi.

Iqtisodiyotda boshqarishning eng muhim muammolari quyidagi-lardan iborat bo‘lishi mumkin:

1. Boshqaruvning nazariy asoslari va fundamental qoidalarini ilmiy va amaliy tomondan ishlab chiqish: Bunda jamiyat taraqqiyotining yangi sharoitlarida boshqaruvning mohiyati, ahamiyati, mazmuni, maqsadi va vazifalarini aniqlash;

2. Boshqaruvni bozor iqtisodiyoti va xo‘jalik faoliyatini democratlashtirish tamoyillari hamda usullari bilan uyg‘unlashtirish;

3. Iqtisodiyotni boshqarishning eng yuqori samara keltiradigan usullarini aniqlash;

4. Boshqaruv idoralarining tashkiliy tuzilmasini, ularning funksiyalari, huquqlari va majburiyatlarini belgilash;

5. Boshqaruv idoralarini hozirgi zamon texnika va texnologiyasi bilan ta'minlash, ular faoliyatida statistik va iqtisodiy-matematik usullarni keng miqyosda joriy etish, axborot ta'minoti va boshqaruv jarayonida ishlataladigan hujjatlashtirish tizimini takomillashtirish;

6. Jamoani boshqarishning eng yaxshi shakl va usullarini izlab topish hamda ularni ishlab chiqarish boshqaruvida joriy etish;

7. Sanoat va uning barcha tarmoqlarini boshqarishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalaridan keng miqyosda foydalanish.

Boshqaruv ilmi (menejment)da boshqaruvning ikki xil tushunchasi mavjud bo'lib, ularning birini boshqaruvning subyekti va ikkinchisini boshqaruvning obyekti tashkil etadi.

Boshqaruv subyekti – bu jismoniy yoki yuridik shaxslar bo'lib, undan amaldagi qonunlar asosida hokimiyat idoralari tomonidan berilgan vakolatlarga muvofiq huquqiy ta'sir yuzaga keladi.

Boshqaruv obyekti – bu boshqaruv subyektining huquqiy ta'siri qaratilgan narsadir. Bunga ishlab chiqarish va xo'jalik tizimlari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, jismoniy va yuridik shaxslar kirishi mumkin.

Ko'rinish turibdiki, u holatda ham, bu holatda ham insonlarni boshqarish insonlarning o'zi tomonidan amalga oshiriladi. Faqat kishilar, ularning faoliyati, jumladan, mahsulot ishlab chiqarish, xo'jalik va boshqa jarayonlar bilan bog'liq bo'lган faoliyatları boshqaruvning predmeti, ya'ni hozirgi zamon menejmentining asosi hisoblanadi. Boshqaruvning subyekti va obyektisiz menejment fan va xo'jalik tajribasi sifatida o'z mazmun va mohiyatini yo'qotadi.

Albatta, minglab kishilar ishlaydigan sanoat ham bu tushuncha va mulohazalardan holi emas. Ayniqsa sanoat ishlab chiqarishida "subyekt" va "obyekt" tushunchalari boshqa tarmoqlarga nisbatan xiyla ravshanroq ko'rindi. Bunda vazirlik, kompaniya va korporatsiyalar-dagi boshqaruvchilar korxonadagi boshqaruvchilarga, korxonadagi boshqaruvchilar esa sex, uchastka boshqaruvchilariga rahbarlik qiladilar. Ko'rinish turibdiki, sanoatni boshqarish ham ijtimoiy ishlab chiqarishda amal qiladigan qonun va qoidalarga bo'ysunadi. Shu tufayli sanoatni boshqarish ijtimoiy ishlab chiqarishning tarkibiy va ajralmas qismi hisoblanadi.

Boshqaruv jarayoni¹⁷ qayerda amalga oshirilishidan qat'iy nazar, siklli (davriy) va ayni vaqtda uzluksiz hisoblanadi. Boshqaruv davri maqsadning aniqlanishidan unga erishilgungacha bo'lган vaqtni o'z ichiga oladi. Demak, uning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

- maqsadni shakllantirish (belgilash);
- maqsadni rejashtirish va bashorat qilish;
- qabul qilingan qarorlar yoki maqsadli vazifalarni muvofiqlashtirish;

¹⁷ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўкув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.54.

- erishilgan natijalarni tahlil etish va baholash;
- yangi boshqaruvli tizimni tanlab olish va aniqlash.

Bu barcha sikllar uchun eng muhim boshqarmaviy tizim hisoblanadi.

Faqat bunday tizim boshqaruvning negizini tashkil etadi. Ta'sir etish samarali bo'lishi uchun quyidagi asosiy shartlarga rioya qilish zarur:

- boshqarishning subyekti va obyekti boshqaruvchi va boshqariluvchi quyi tizimlar sifatida bir-biri bilan sababli- natijaviy bog'liq bo'lishi zarur;
- boshqaruvchi quyi tizimning aniq boshqarish bo'yicha maqsadi bo'lishi kerak;
- boshqaruvchi quyi tizim boshqaruv obyektining ahvoli, uning faoliyati natjalari, atrof-muhitning imkoniyatlari to'g'risidagi axborotni qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak;
- boshqaruv obyekti boshqarmaviy ta'sirlarni qabul eta oladigan bo'lishi va ularning mazmuniga mos keladigan ishlarni bajara olishi kerak.

Bu shartlarga rioya qilish boshqaruvchanlikni, ya'ni boshqaruv tizimining ishchanligini ta'minlaydi. Boshqaruvning obyekti qanchalik murakkab bo'lsa, boshqaruv idorasining ishchanlik qobiliyati ham shunchalik yuqori bo'lishi darkor.

Har qanday boshqaruv o'z maqsadi va vazifalariga ega bo'ladi.

Maqsad – bu inson faoliyatining avvaldan fikran o'ylangan natijasidir. Shunga binoan, boshqaruvning maqsadi deganda, boshqaruv subyektining oldindan o'ylangan, mo'ljallangan, erishish zarur bo'lgan natijasi tushuniladi. Sanoatda esa bu ko'p va sifatli mahsulot ishlab chiqarish va uni o'z vaqtida sotish hamda mo'ljallangan foydani olishdir.

Har qanday maqsadga ma'lum talablar qo'yiladi. Dastavval, maqsad ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan bo'lishi kerak. Ikkinchidan, u aniq, yaxshi ifodalangan va manzilli bo'lishi zarur. Uchinchidan, qo'yilgan maqsad erishimli bo'lishi, ya'ni unga yetishishning imkoniyatlari, shart va sharoitlari hisobga olingan bo'lishi kerak.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun ma'lum vazifalarni bajarish kerak bo'ladi. Ma'lumki, vazifa – bu avvaldan belgilangan, aniqlangan, ko'rsatilgan, bajarilishi va hal etilishi lozim bo'lgan ish, narsadir.

Sanoat ishlab chiqarishida boshqaruvning vazifalari quyidagilar-dan iborat:

1. Kelajakni aniq ko'rmoq (istiqbolni to'g'ri bashorat qilish va unga monand bo'lgan faoliyat dasturini tuzish);
2. Tashkillashtirmoq (sanoatning ichki, moddiy va ijtimoiy tuzilmasini barpo etish);
3. Personalni idora qilmoq (sanoat ishlab chiqarish xodimlarini harakatga keltirish);
4. Kelishish (harakat va tirishqoqlikni bir biri bilan uyg'unlashtirish);

5. Nazorat qilish va kuzatish (joriy etilgan va berilgan buyruq asosida harakatning, ya’ni faoliyatning qanday tarzda bo‘layotganini mushohada qilish).

Boshqarish jarayonida oldindan ko‘ra bilish nihoyatda katta ahamiyatga ega. Barcha jarayonlarni kuzatib, ularning o‘zgarishiga qarab ishlab chiqarish, ish bajarish yoki xizmat ko‘rsatish boshqarilib turiladi. Masalan, mahsulotga bo‘lgan ehtiyoj, narx-navo, texnika va texnologiyalar o‘zgarishi, ish haqi va ijtimoiy muhofazaning holati ishlab chiqarishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun vaziyatga qarab kerakli o‘zgarishlarni zudlik bilan amalga oshirish kerak bo‘ladi.

Boshqarish jarayonida rejalashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mahsulot hajmini belgilaganda uni barcha resurslar bilan ta’minalash va ularni yetkazib berish masalasiga katta e’tibor berish kerak bo‘ladi. Ma’lumki, rejalar bir kunlik, o’n kunlik, bir oylik, bir kvartallik, bir yillik, besh yillik va o‘n-o‘n besh yillik bo‘lishi mumkin. Oxirgisi konsepsiya, prognoz, ya’ni bashorat tushunchalari bilan bog‘liqdir.

Ishlab chiqarish jarayoni uzlusiz bo‘ladi, chunki u eng avvalo yuzaga keladi, shakllanadi, rivojlanadi va takomillashadi. Ana shu o‘zgarishlarni tashkilotchilik ta’minalaydi. Tashkilotchilik – moddiy texnika ta’monoti, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish va tayyor mahsulotni sotish jarayonlaridan iborat bo‘ladi. Tashkilotchilikka kunda yuz beradigan muammolarni tez hal etish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat ham kiradi.

Muvofiqlashtirish va nazorat ham muhim vazifalardan hisoblanadi. Tarmoqlar, korxonalar, sexlar va uchastkalar, bo‘limlar hamda unda ishlaydigan xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirib turilgandagina yuqori natijalarga erishish mumkin bo‘ladi. Barcha topshiriqlarning o‘z vaqtida bajarilishini ta’minalash uchun nazorat kerak bo‘ladi.

Boshqaruv jarayoni odatda quyidagicha amalga oshiriladi:

- boshqariladigan obyektning holati ishlab chiqarishga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish;
- obyektning har xil holatini taxmin qilish va muayyan vaziyatdagi eng yaxshi holatini belgilash;
- boshqarishga oid qaror va qoidalarni ishlab chiqish va ularni boshqaruvchiga yetkazish;
- berilgan topshiriqlarning o‘z vaqtida bajarilishini ta’minalash.

Ushbu tartib doimo, uzlusiz qaytarilib turadi.

Boshqaruv jarayoni amalga oshishi uchun boshqaruv idorasini tashkil etiladi. Bu idora eng kamida o‘zining rahbariga, buxgalteri va ta’motchisiga ega bo‘lishi kerak. Ish ko‘lami ortib borishi bilan boshqaruv apparatida boshqaruvchilar va xodimlar soni ham ortib borishi mumkin. Lekin, oddiy va juda sodda boshqaruv idoralari bilan murakkab obyektlarni

boshqarish mumkin emas. Shu sababli ishlab chiqarishni boshqarishning maqbul zveno va pillapoyalari tashkil etiladi.

4.2.Boshqarishning asosiy tamoyillari va usullari

Boshqaruv tamoyillari deganda, rahbarlik qilishning fundamental qoidalari tushuniladi. Ular iqtisodiy qonunlar harakati va boshqarish usullari bilan bog‘liq bo‘lgan voqeliklarning mohiyatini aks ettiradi.

Boshqarish mexanizmini quyidagicha ta’riflash mumkin:
qonunlar – tamoyillar – usullar – uslublar

Ushbu mexanizmning eng muhim elementi qonun hisoblanadi. Shu sababli u to‘g‘risida ikki og‘iz so‘z aytish kerak bo‘ladi. Qonun bu obyektiv borliqda turli hodisalar o‘rtasida kishi ongidan va ixtiyoridan tashqari, hamma mavjud bo‘lgan zaruriy bog‘lanish, munosabatdir. Masalan, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot qonunlari: talab va taklif qonuni, qiymat qonuni va boshqalar.

Qonun – bu davlat hokimiyati tomonidan qabul qilingan, hamma uchun shu jumladan, sanoat ishlab chiqarishida mehnat qilayotganlar uchun ham majburiy bo‘lgan ijtimoiy huquqiy me’yor va munosabatlarni belgilovchi rasmiy hujjat. Masalan, Konstitutsiya O‘zbekiston davlatining asosiy qonunidir.

Tamoyillarni boshqaruv fani nazariyasi va amaliyotning poydevori deyish mumkin. Ma’lumki, poydevor qancha mukammal va mustahkam bo‘lsa, boshqaruv apprati shunchalik qudratli bo‘ladi.

Boshqaruv tamoyillarining shakllanishi chuqur tarixiy ildizga ega. Xususan, O‘zbekistonda bu tamoyillar Amir Temur hukmronligi davrida shakllana va rivojiana boshlagan. O‘zining ixcham, tezkor boshqarish devoniga ega bo‘lgan Markaziy Osiyodagi O‘zbekistondek buyuk davlat: ilmiy, yakkaxonlik, iyerarxiya (bo‘ysinish tartibi), bilimdonlik, javobgarlik, demokratiya kabi tamoyillar asosida boshqarilgan.

Mustaqillik davrida O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolga erishishining asosiy tamoyillari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida qayd etilgan (6-jadval):

6-jadval

Bozor iqtisodiyotida O‘zbekistonda davlatni boshqarish tamoyillari¹⁸

No	Tamoyillar	Izoh
1.	Demokratiya tamoyili	- insonning o‘z xohish-irodasini erkin bildirish hamda uni amalga oshirish; - barcha fuqarolarning teng huquqliligi;

¹⁸ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўкув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.57.

		<ul style="list-style-type: none"> - davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi; - davlat va nodavlat iqtisodiyotidan saylovchilar oldidagi javobgarligi va boshqalar.
2.	Iqtisodiy munosabatlarni demokratiyalash tamoyili	<ul style="list-style-type: none"> - monopollashgan iqtisodiyotdan erkin iqtisodiyotga; - sotsialistik musoboqadan erkin, sof raqobat-ga; - qat’iy belgilangan narxlardan erkin narxlarga; - davlatlashgan mulkdan xilma-xil mulkchilikka asoslangan iqtisodiyotga o’tish.
3.	Yuksak ma’naviy tamoyil	<ul style="list-style-type: none"> - mustaqillik tafakkurini kengroq tushunish, - ya’ni: - O’zbekiston davlatining istiqboli va istiqlolli haqida qayg’urish; - o’zining va o’z xalqining, vatanning qadru-qimmati, or-nomusini anglab, uni himoya qilish; - Yuksak g’oyalar, yangi kashfiyotlar, niyatlar og’ushida mehnat qilib, iste’dodi va iqtidori, bor imkoniyatini, kerak bo’lsa, jonini yurt istiqboli, eliga baxshida etishdir.
4.	Milliy xafsizlikni ta’minalash tamoyili	<ul style="list-style-type: none"> - O’zbekistonning dunyo hamjamiatiga kirish sur’atlarini tezlashtirish; - Turli xalqaro davlat va nodavlat tashkilotlari ishlarida faol ishtirok etishni ta’minalash.

O’zbekistonning istiqlol yo’li bozor munosabatlariiga o’tish yuzasidan olg’a surgan besh tamoyiliga asoslanadi. Ularning mohiyati quyidagicha (7-jadval).

7-jadval

Besh asosiy tamoyil¹⁹

Nº	Asosiy tamoyillar	Asosiy tamoyillarning mohiyati
1.	Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi	Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u birorta mafkuraga bo’ysundirilishi kerak emas. Buning ma’nosи shuki, iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi kerak. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan holi qilish zarur.
2.	Davlat bosh islohotchi	Davlat asosiy islohotchi bo’lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo’nalishlarini belgilab berishi, o’zgartirishlar siyosatini ishlab chiqishi va

¹⁹ Каримов И.А. Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишининг ўзига хос йўли. – Т.: «Ўзбекистон», 1993. 42 бет

		uni izchillik bilan o'tkazish, jaholatparastlar va konservatorlar qarshiliginin bartaraf etishi shart.
3.	Qonunlar va ularga rioya qilish ustuvorligi	Qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim. Buning ma'nosini shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarni hech istinosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim.
4.	Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish	Aholining demokratik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'riliishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lidagi eng dolzarb vazifa bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.
5.	Bozor iqtisodiyotiga sekin-asta, bosqichma-bosqich o'tib borish	Bozor iqtisodiyotiga o'tish obyektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, o'tmishdagi «inqilobiy sakrashlar» siz, ya'ni tadrijiy yo'l bilan, puxta uylab bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

Ushbu tamoyillar O'zbekistonning o'ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda izchillik sharoitlarini shakllantirib va rivojlantirib borishni, unga asta-sekin, bosqichma-bosqich, aholining zaif qatlamlarini himoya qila borib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy barqarorlikni ta'min-lash orqali bozor munosabatlariga o'tishni bildiradi. Ayni vaqtda ular kengash, hamjihatlik, maslahat bilan ish yuritishni, shijoat va tavakallchilik bilan harakat qilishni talab etadi. Bu orada sohibqiron Amir Temurning quyidagi so'zlarini keltirish o'rinnlidir. «Tajribamdan ko'rilmanki, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir. Chunki tajribali bir kishi ming kishiga ish buyuradi».²⁰

Sanoat ishlab chiqarishining tarmoqlari, korxonalarini va boshqa sohalarini boshqarishda bir qator boshqa tamoyillardan ham keng foydalanish mumkin. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- yakkaboshchilik va boshqaruvda hamjihatlik;
- boshqarish jarayonida rejallilikni bozor talablari bilan bog'lab olib borish;
- barqarorlik tamoyili;
- mehnatni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tamoyili;
- ilmiylik tamoyili;

²⁰ Qarang, «Temur tuzuklari». – Т.: F.Fulom nomidagi Adabiёт ва санъат нашриёти, 1996. 24 бет

- tejamkorlik tamoyili;
- kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish tamoyili.

Rahbarlik qilishning fundamental qoidalarini amalga oshirish uchun bir qancha usullardan foydalanish kerak bo‘ladi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- tashkiliy-ma’muriy usullar;
- iqtisodiy usullar;
- ijtimoiy-ruhiy usullar;
- tarbiyaviy usullar;
- huquqiy usullar va h.k.

Tashkiliy-ma’muriy usullar to‘g‘risida so‘z yuritilganda, avvalo, bu usulning mohiyati, ahamiyati, shakllarini ochib berish kerak. So‘ngra, boshqarishning huquqiy vositalari, huquqiy me’yorlarini bayon etish zarur.

Tashkiliy-ma’muriy usullar boshqaruvin usullari tizimida alohida o‘rin tutadi va quyi idoralarning yuqori idoralarga bo‘ysunishiga asoslanadi. Bu usulning mohiyati shundaki, boshqaruvin tizimidagi munosabatlarni tartibga solib turadi, jamoalar ichida va orasida ratsional aloqalar tarkib topishiga yordam beradi.

Tashkiliy-ma’muriy usullar yordamida boshqaruvin apparatining muayyan tizimini tuzish; boshqaruvin bo‘g‘inlarining funksiyalarini belgilash; kadrlarni to‘g‘ri tanlash va joy-joyiga qo‘yish; buyruqlar, farmoyishlar va qo‘llanmalar chiqarish hamda ularning bajarilishini nazorat qilish; topshiriqlar va direktiv ko‘rsatmalarni bajarmayotgan bo‘linma va shaxslarga nisbatan ma’muriy choralar qo‘llash amalga oshiriladi.

Boshqaruvning iqtisodiy usullari iqtisodiy manfaatlardan foydalanishga asoslanadi. Zero, har bir muayyan jamiyatning iqtisodiy munosabatlari, eng avvalo manfaatlar tarzida namoyon bo‘ladi. Manfaatlar uch xilda bo‘lishi mumkin:

- umumjamiyat manfaatlari;
- jamoa manfaatlari;
- shaxsiy manfaatlar.

Bu manfaatlarni uyg‘unlashtirish muammosi bir qator vazifalarni hal etishni, har davr sharoitlariga muvofiq keladigan munosabatlarni o‘rnatishni talab etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida quyidagi iqtisodiy usullardan keng foydalanishga e’tibor beriladi:

- tarmoqlar va ularning bo‘linmalariga faoliyat yuritishlarida erkinlik va mustaqillik berishga;
- barcha sohalarni pirovard natijalarga binoan moddiy rag‘batlantirish, soliq imtiyozlarini berishga;

- korxona va xo‘jaliklar o‘rtasidagi o‘zaro shartnomalarning bajarilish intizomini mustahkamlash va ularning rolini oshirishga;
- moliya-kredit munosabatlarini takomillashtirishga;
- bozor munosabatlari mexanizmlari: baho va foyda, soliq va boj to‘lovleri, kredit va rentabellik, raqobat va hokazolarga alohida e’tibor beriladi.

Bu usulda xodimlarning shaxsiy va guruhiy manfaatlarini yuzaga chiqarish orqali ularning samarali ishlashi ta’minlanadi. Shu maqsadda ko‘pincha ish haqi to‘lash, mukofotlar berish, bir yo‘la katta mablag‘ bilan taqdirlash kabilar muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy usullar boshqarishning barcha usullari orasida yetakchi o‘rin egallaydi. Bu usuldan oqilona foydalanish jiddiy rejalar qabul qilishga, barcha resurslardan yanada unumliroq foydalanishga, yangi texnologiyalarni joriy etishga, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga va foydani maksimallashtirishga, natijada ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Boshqaruv tizimining muhim usuli hisoblangan ijtimoiy-ruhiy usullarning asosiy maqsadi jamoalarda sog‘lom ijtimoiy-ruhiy muhitni yaratishdan iborat.

Sanoat ishlab chiqarishini boshqarishda ham bir qator umumfalsafiy usullarni qo‘llash mumkin. Sanoatni boshqarishning sir-asrorlarini ilmiy asosda o‘rganish, tahlil qilish maqsadida quyidagi usullardan ham keng foydalaniladi:

1. Tizimli yondashuv
2. Kompleks yondashuv
3. Tarkibiy yondashuv
4. Vaziyatli yondashuv
5. Integratsion yondashuv
6. Modellashtirilgan yondashuv
7. Iqtisodiy matematik yondashuv
8. Kuzatish usuli
9. Tajriba usuli

Birinchi usulda sanoat ishlab chiqarishi yaxlit tizim sifatida olib qaraladi. Ikkinci usulda esa sanoat boshqa sohalar, tarmoqlar bilan o‘zaro bog‘lanishda va aloqadorlikda qaraladi. Uchinchi usulda sanoat ishlab chiqarishi tarkibiy qismlarga, ya’ni tarmoqlar, korxonalar, sanoat infratuzilmasi va hokazolarga bo‘lib o‘rganiladi. To‘rtinchi usulda sanoatning muayyan sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab boshqarishning ma’qul uslubi qo‘llaniladi. Besinchi usulda esa sanoat yuqoridaqgi usullarni birgalikda qo‘llash yordamida boshqariladi.

Modellashtirish va iqtisodiy matematik usullardan foydalanish jarayonida turli chizmalar, xomaki materiallar tayyorlanadi va hisoblash

texnikasi va kompyuter texnologiyalarning barcha imkoniyatlari ishga solinadi.

Kuzatish usulida sanoat ishlab chiqarishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni rejali, bashoratli, ilmiy jihatdan namunali uyuştirilgan asosda to‘plash yo‘lga qo‘yiladi.

Va nihoyat, sotsiologik kuzatuv usulida sanoat ishlab chiqarishini ilmiy jihatdan asoslangan boshqarish maqsadida turli anketali so‘rovlар, suhbatlar, testlar va infratuzilmaviy tahlillarni o‘tkazish kerak bo‘ladi.

4.3. Boshqaruvning zamonaviy tuzilishi

Xo‘jalikka rahbarlikning tamoyillari va usullari ishlab chiqarish jarayonida insonlarga boshqaruvning tegishli shakllari va boshqaruv idoralari hamda uning tashkiliy tuzilmalari orqali ta’sir etadi.

Mamlakat iqtisodiyoti va uning tarmoqlarini rivojlantirishning muhim masalalari davlat iqtisodiy siyosatini belgilaydigan va hayotga tatbiq etadigan oliy idoralar (Prezident devoni, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi) tomonidan qarab chiqiladi.

Sanoatni rivojlantirishning qonun bilan hal etiladigan masalalari (masalan, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning istiqboli va yillik rejalari, sanoat boshqaruvining yangi idoralarini tashkil etish) mamlakat davlat hokimiyati oliy idorasi – Oliy Majlis tomonidan muhokama qilinadi va hal etiladi.

Iqtisodiyotga, shu jumladan, sanoatga kundalik rahbarlikni davlat hokimiyatining ijro etuvchi va boshqaruvchi oliy idorasi – Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasining tarkibini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tuzadi va u Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, shu jumladan, sanoatning samarali faoliyatga rahbarlikni, sanoat ishlab chiqishga tegishli bo‘lgan barcha qonunlarni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalarining raislari kiradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatining boshlig‘i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o‘z lavozimi bo‘yicha kiradi²¹.

Vazirlar Mahkamasi o‘z vakolatlari doirasida:

barqaror iqtisodiy o‘sishni, makroiqtisodiy muvozanatni ta’minalash, iqtisodiyotni isloh etish va tarkibiy o‘zgartirish bo‘yicha choralar ko‘radi;

iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, texnik, texnologik jihatdan modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash dasturlarini, hududlarni

²¹ Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамаси тўғрисида”ги Конуни (янги таҳрири). 2003 йил 29 август, 524-II-сон

kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqadi hamda ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

erkin tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratadi, eng avvalo xususiy mulkni rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtiroki darajasini strategik va iqtisodiy jihatdan asoslangan miqdorlargacha qisqartirish, keng ko'lamda xususiyashtirish asosida shart-sharoitlar yaratadi, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi barcha to'siqlar va cheklovlanri bartaraf etish, qulay ishbilarmonlik muhitini va investitsiyalash sharoitlarini yaratish, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish bo'yicha choralar ko'radi;

davlat boshqaruvi usullarini takomillashtiradi, shu jumladan elektron hukumat tamoyillari asosida takomillashtiradi, bozor tamoyillariga asoslangan xo'jalik boshqaruvi va korporativ boshqaruvning zamonaviy tamoyillari va usullari joriy etilishini rag'batlantiradi;

davlat boshqaruvi tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi vazirliklarini, davlat qo'mitalarini, idoralarini hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlarini tuzish, qayta tashkil etish hamda tugatish haqida takliflar ishlab chiqadi;

tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini o'tkazish hamda respublika ahamiyatiga va xalqaro ahamiyatga molik yirik ekologik dasturlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha choratadbirlarni amalga oshiradi, yirik avariylar va halokatlarning, shuningdek tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatish yuzasidan choralar ko'radi;

tashqi iqtisodiy faoliyat, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik sohasida rahbarlikni amalga oshiradi.

O'zbekiston sanoati tasarrufida o'nlab mustaqil tarmoqlar, ming-minglab korxona (firma)lar faoliyat ko'rsatmoqdalar. Ularning har birini rivojlantirish, bir-birlari bilan o'zaro muvofiqlashtirish, ularni respublika hududlarida joylashtirish, mahsulot (ish bajarish va xizmat ko'rsatish)ga bo'lgan talabni aniqlash va boshqa juda murakkab, keng qamrovli masalalarni o'z vaqtida oqilona hal etish **tarmoq boshqaruvini** amalga oshirishni taqozo etadi. Shu sababli bir qator tarmoq idoralari tashkil etiladi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- vazirliklar va davlat qo'mitalari;
- konsernlar va korporatsiyalar, uyushma va assotsiatsiyalar;
- xolding va milliy kompaniyalar;
- korxonalar (firma)lar va boshqalar.

Vazirliklar Vazirlar Mahkamasining ajralmas qismi hisoblanib, ular O'zbekistonning barcha hududlarida o'zlariga bo'ysunuvchi barcha korxona (firma)lar va tashkilotlarga rahbarlik qiladilar. Shu sababli **Vazirlik** – bu o'ziga tegishli tarmoqning xo'jalik tizimida boshqarishning eng oliv bo'g'inidir. U quyidagi faoliyatlar uchun javobgar hisoblanadi:

- tarmoqning ahvoli, uni yanada taraqqiy ettirish;

- kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish, tarbiyalash va himoyalash;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotning hajmi, sifati va uning raqobatbardoshligi;
- tayyorlanayotgan mahsulotga bo‘lgan ichki va tashqi talabni qondirish;
- va nihoyat, o‘ziga qarashli korxonalarining xorijiy mamlakatlar bilan aloqasini tashkil etish va kuchaytirishga mas’uldir.

Sanoatga rahbarlik tizimida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi alohida o‘rin egallaydi. Chunki u iqtisodiyotni boshqarishning eng yirik ilmiy rejali-iqtisodiy idorasi hisoblanadi. Bu tashkilotning tuzilishi to‘g‘risida 2002 yilning 24 dekabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilingan. Bu farmonga muvoffiq Iqtisodiyot vazirligi zimmasiga mamlakatni rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasi hamda kompleks dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, quyidagi g‘oyat muhim vazifalarni hal etishga qaratilgan chuqur o‘ylangan va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni o‘tkazish yuklatilgan:

- makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning barqaror, mutano-sib va jadal sur’at bilan rivojlanishni ta’minalash;
- ko‘p ukladli va samarali faoliyat ko‘rsatuvchi iqtisodiyotni shakllantirish, xususiy mulkchilikning yetakchi rolini ta’minalash, bozor infratuzilmasini rivojlantirish;
- boy tabiiy va mineral-xomashyo zahiralaridan, bunyod etilgan ishlab chiqarish va fan-texnika salohiyatidan samarali va oqilona foydalanishga qaratilgan aniq maqsad yo‘lidagi tarkibiy siyosatni amalga oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish hamda mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiy tizimiga keng miqyosida integratsiya-lashuvini ta’minalash;
- yangi ish joylarini yaratish, mehnat resurslarini oqilona band etish muammosini hal etish, aholini aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish, aholining turmush darajasi barqaror, jadal o‘sishini, ijtimoiy infratuzulmani rivojlantirishni ta’minalash;
- mamlakat mintaqalari iqtisodiyotining kompleks rivojlanishini, ishlab chiqaruvchi kuchlarni mamlakat hududi bo‘yicha maqbul hamda samarali rivojlantirish va joylashtirishni ta’minalash.

Milliy iqtisodiyotni, shu jumladan, sanoatni boshqarishda sobiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Ilmiy-texnika taraqqiyotini Muvofiqlashtirish kengashining roli katta edi. Bu kengash sanoat ishlab chiqarish sohasida fan-texnika siyosatini amalga oshirib kelgan. Endilikda bu qo‘mita o‘rniga 2017 yil 30 noyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi Qarori bilan vazirlik tashkil etilgan. Ushbu vazirlik O‘zbekiston Respublikasini innovatsion va ilmiy-texnik rivojlantirish sohasida jamiyat va davlat hayotini har tomonlama rivojlantirish, mamlakatning intellektual va texnologik

salohiyatini oshirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat boshqaruv organi hisoblanadi. Bu vazirlik zimmasiga quyidagi asosiy vazifalarni hal etish yuklatilgan²²:

- mamlakatni rivojlantirishning uzoq muddatli ssenariylarini hisobga olgan holda innovatsiyalarni ishlab chiqish hamda davlat va jamiyat qurilishiga joriy etish, shuningdek, jamiyat va davlat taraqqiyotini ta'minlovchi ilmiy tadqiqotlar va ilg'or texnologiyalarning ustuvor va istiqbolli yo'naliшlarini rivojlantirish strategiyasini belgilash;
- tez o'zgaruvchan jahon kon'yunkturasini hisobga olgan holda iqtisodiyotning jadal rivojlanishini ta'minlash bo'yicha strategik va oldindan rejalshtirish;
- aholi hayot darajasi va sifatini yaxshilash, uning farovonligini oshirishni ta'minlash bo'yicha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini har tomonlama tahlil qilish va proqnoz qilish, shuningdek, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining barqaror o'sishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlay oladigan fan va innovatsiyalarni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish;
- qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va intensiv rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsiyalarni joriy etish;
- ijtimoiy rivojlanishga, shu jumladan ta'lim va sog'liqni saqlash tizimiga innovatsiyalarni joriy etish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish tizimiga innovatsiyalarni joriy etish;
- davlat ilmiy-texnik va innovatsion siyosatining ustuvor yo'naliшlarini belgilash hamda grant asosida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning davlat ilmiy-texnikaviy dasturlarini tasdiqlash;
- mamlakatni rivojlantirishning uzoq muddatli ssenariylarini hisobga olgan holda nou-xaularni ishlab chiqish, innovatsion faoliyat va raqobatbardosh ilmiy-texnika mahsulotlari bozorini kengaytirishga yo'naltirilgan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish;
- innovatsion g'oyalari, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish.

Sanoat ishlab chiqarishning moliyaviy masalalarini hal etishda Moliya vazirligining tutgan o'rni ham alohida ahamiyatga ega. Sanoat va uning tarmoqlariga qarashli sohalarda mehnatni tashkil etish, ishchi kuchini taqsimlash va ularni ijtimoiy himoya qilish borasida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hal qiluvchi o'rin egallaydi.

²² Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги 2017 йил 30 ноябрдаги ПҚ-3416-сон Қарори

4.4. Boshqarishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari

Sanoat ishlab chiqarishiga oqilona rahbarlik qilish mamlakat iqtisodiyotning yanada taraqqiy etishiga va mustahkamlanishiga har doim katta ta’sir ko‘rsatib keldi va kelgusida ham yetarli ta’sir ko‘rsatadi.

Shuning uchun ham sanoatni boshqarish masalalari doimo Respublika Prezidenti, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasining diqqat e’tiborida bo‘ladi. Natijada, sanoatni boshqarish tizimi milliy iqtisodiyot va sanoat oldida turgan vazifalarga bog‘liq ravishda muttasil o‘zgarib turadi.

Mustaqillikka erishilgandan so‘ng boshqaruv tizimida juda katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Iqtisodiyotga rahbarlikning ilmiy asoslari, ishlab chiqarishni boshqarishning tamoyillari va usullari ishlab chiqildi, boshqaruvning yangi tuzilmalari, ularning funksiyalari, huquqlari va burchlari belgilandi. Lekin, hali xo‘jalikka rahbarlik qilish, ishlab chiqarishni boshqarishni yaxshilash borasida o‘z yechimini kutayotgan muammolar kam emas. Shuning uchun kelgusida sanoat ishlab chiqarishiga rahbarlik qilishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalish-larini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Bularning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

1. Bozor iqtisodiyoti qoidalari va demokratik tamoyillarga asoslan-gan boshqaruv tizimini barpo etish;
2. Boshqaruvni amalga oshirish jarayonida iqtisodiyotni mafkuradan to‘la holi qilish, iqtisodning siyosatdan ustuvorligini ta’minalash;
3. Xo‘jalikka rahbarlik qilishda davlatning bosh islohotchi bo‘lishiga erishish. Bozor munosabatlariga o‘tish chuqurlasha borgan sari davlatning boshqaruv tizimidagi mavqe’ini nodavlat tashkilotlari va o‘z-o‘zini boshqarish tizimlariga o‘tkaza borish;
4. Boshqaruv jarayonlarining mustahkam huquqiy asoslarga qurilishini ta’minalash. Qonunlarning barcha boshqaruv subyektlari va obyektlari tomonidan og‘ishmay bajarilishiga erishish;
5. Bozor islohotlari bosqichma-bosqich va izchil ravishda amalga oshirilishini inobatga olgan holda boshqaruv tizimini ham bosqichma-bosqich takomillashtirib borishni ta’minalash.

Markazdan turib boshqarishda asosiy e’tibor quyidagilarga qaratilishi kerak bo‘ladi:

-inson omilini maksimal darajada faollashtirish, jamiyatning intellektual salohiyatini yuqori darajaga ko‘tarish, samarali va sifatli mehnat qilish uchun sharoit va unga undovchi motivlarni yaratish; aholining ish bilan samarali va oqilona band bo‘lishini ta’minalash va ijtimoiy adolat tamoyilini izchil amalga oshirish asosida mamlakat aholisining turmush darajasini yuksaltirish;

-eng yangi, avvalo ilm-fan asosida taraqqiy etadigan tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni jadallik bilan rivojlantirish;

- mamlakat ishlab chiqarish apparatini texnika va texnologiya jihatidan doimo yangilab turish, undan oqilona foydalanishni to‘la ta’minlaydigan tarkibiy va investitsiya siyosatini yuritish;

- respublikaning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va uni ishlab chiqarish bilan birlashtirish, fan-texnika taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlarini va axborot texnologiyalarini jadalroq rivojlantirishga, xavfsiz va ekologik jihatdan toza ishlab chiqarishlarni yaratishga, iqtisodiyotni intensivlashni ta’minlaydigan miqyoslarda resurslarni tejashga erishishga qaratilgan ilmiy-texnika siyosatini amalga oshirish;

- bozor iqtisodiyotining barcha vositalaridan oqilona foydalanish asosida ishlab chiqarishning, jumladan, sanoat ishlab chiqarishning barcha sifat ko‘rsatkichlarini yanada yaxshilashga e’tiborni kuchaytirish;

- barcha viloyatlar va tumanlar manfaatlarini aks ettiradigan va ulardan har birining milliy iqtisod kompleksiga qo‘sadigan hissasini ko‘paytirishga yordam beradigan mintaqaviy siyosatni amalga oshirish;

- xalqaro mehnat taqsimotining, integratsiyaning afzalliklaridan yanada samaraliroq foydalanishga qaratilgan tashqi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish.

Markazlashgan rahbarlikning yangicha qiyofasi, o‘zbek modeliga xos xususiyati shu bilan tavsiflanadiki, bunda vazifalar ma’muriy usullar bilan emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy usullar bilan hal etiladi, ishlab chiqarish qatnashchilarining manfaatlarini birga qo‘sib olib borish asosida demokratik yo‘l bilan amalga oshiriladi.

Boshqaruvning sifat jihatlari, samaradorligi juda ko‘p omillarga bog‘liq:

- davlat va nodavlat idoralarining rahbarlarini to‘g‘ri belgilashga;
- tegishli qonunlar va qarorlar qabul qilinishiga;
- kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish va tarbiyalashga;
- nazoratni tashkil etishga;
- idora xodimlari mehnatining texnik jihatdan qurollanishiga.

Bularning barchasini shartli boshqaruvning texnologiyasi desa bo‘ladi.

Ayni vaqtda, masalaning bir muhim jihat, ya’ni xodimlarni boshqaruv jarayoniga tortish va ularning bu jarayonda manfaatdor sifatida qatnashishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Qisqacha xulosalar

1. Yirik miqyosda amalga oshiriladigan har qanday to‘g‘ridan-to‘g‘ri qilinayotgan mehnat, amaldagi ishlab chiqarish u yoki bu darajada

boshqaruvga muhtojdir. Shu sababli boshqaruv obyektiv zarurat va maqsadga yo‘naltirilgan jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Boshqaruvning asosiy tamoyillari va usullari mavjud bo‘lib, ular jamiyat taraqqiyotining turli obyektlarida turlicha bo‘lishi mumkin.

3. Respublika sanoatiga rahbarlik qilish O‘zbekiston davlatining iqtisodiy strategiyasiga asoslanadi va unga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Sanoatni boshqarish idoralarining vazifalari fan-texnika yutuq-larini joriy etish, ishlab chiqarish va moliyaviy resurslardan to‘la-to‘kis, samarali foydalanish asosida jamiyat a‘zolarining to‘xtovsiz o‘sib borayotgan ehtiyojlarini to‘laroq qondirishdan iborat.

5. Boshqaruvning barcha tamoyillari va usullarini bosqichma-bosqich amalga oshirish sanoat ishlab chiqarishi taraqqiyotini jadallashtirishga olib keladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Boshqaruv: mohiyati, ahamiyati, zarurati, maqsadi va vazifalari.
2. Boshqaruvning bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos va xos tamoyillari va usullari.
3. Sanoat boshqaruvining hozirgi ahvoli.
4. Boshqaruvning istiqboli hamda uni iqtisodiy o‘sish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yo‘naltirish.
5. Boshqaruvda xorijiy mamlakatlar tajribasi va undan keng foydalanish masalalari.

5-BOB. SANOAT ISHLAB CHIQARISHINI REJALASHTIRISH VA PROGNOZLASH

Tayanch atamalar va iboralar: rejorashtirish, prognozlash, mehnat balansi, sintetik ko'rsatkichlar, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar,

Reja:

- 5.1. Rejorashtirish va prognozlashning mohiyati, ahamiyati va vazifalari**
- 5.2. Rejorashtirishning tamoyillari va usullari**
- 5.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalar tizimi**
- 5.4. Ishlab chiqarish rejasini tuzib chiqish va tasdiqlashni tashkil etish**
- 5.5. Rejorashtirishni takomillashtirishning asosiy yo'naliishlari**

5.1. Rejorashtirish va prognozlashning mohiyati, ahamiyati va vazifalari

Texnikaviy, madaniy va iqtisodiy jihatdan rivojlangan jamiyatda rejorashtirish singari vosita boshqaruv jarayonining kengayishi, fan-texnika taraqqiyoti hamda ehtiyojlarning darajasi va hajmi jihatidan ortishi boshqaruv instansiyalari, ya'ni bir-biriga itoat qiladigan tashkilotlar oldiga siyosat, iqtisodiyot va alohida shaxslar, oilalar, mahallalar, korxonalar, hududiy jamoalar, mamlakatlar, shuningdek, butun insoniyat uchun muhim bo'lgan muammolarni qo'yemoqda. Tajriba shuni ko'rsatadiki, kelajakning murakkab masalalarini hal etish uchun odamlar jiddiy fikr yuritishlari va faol harakat qilishlari darkor. Bunda istalgan maqsadlarni o'z vaqtida anglash va ularga erishish choralarini belgilashning ma'qul ko'rinishida ko'maklashadigan loyiha, konsepsiylar, asosiy yo'naliishlar ayniqsa zarur bo'ladi. Ehtiyojlarni qondirish uchun mablag' qancha kam bo'lsa, tegishli texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni oqilona boshqarishda ko'maklashadigan vositalar shunchalik ta'sirchan bo'lishi lozim. Muayyan orzu-umidlar bilan bog'liq bo'lgan boshqaruv vositalaridan biri **rejorashtirishdir**.

Rejorashtirish – loyiha ishlab chiqish bo'yicha axborotni ishlashga asoslangan kelajakda maqsadga erishish uchun parameter-larni aniqlovchi tartibga solingan jarayondir.²³

Milliy iqtisodiyot va uning sohalari hamda bo'limlari iqtisodiyotida rejorashtirishning qator ta'riflari mavjud bo'lib, ular yuqorida keltirilgan ta'riflardan turli darajada farq qiladi, Lekin mohiyatan unga o'xshab ketadi. Shunday ta'riflardan bir nechtasini keltirish mumkin.

Rejorashtirish – «kelajakning ongli tafakkuri».

Rejorashtirish (keng ma'noda) – «mazmunan bo'lajak voqealarni aniqlash bo'yicha qarorlar qabul qilishni tizimli tayyorlash asosida boshqaruv qarorlarini shakllantirishdir».

²³ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.68.

Rejallashtirish – «oldindan sezib qabul qilingan qaror», ya’ni rejallashtirish deganda shunday yechim tushuniladiki, u (qaror qabul qilishga muvofiq keluvchi axborot jarayoni bilan bir qatorda) vaqt jihatdan konyunkturali voqealar yuzaga kelishidan oldin ishlab chiqiladi.

Rejallashtirishni «aslida tafakkurning aqliy bashorati va ta’kidlar kelajak faoliyatini ko‘zda tutadigan tafakkur jarayoni sifatida», - deb ta’riflash mumkin.

Rejallashtirish – bu vazifani sifatli va sonli tasvirlash, natijaviy imkoniyatlarni belgilash va ularga erishish yo‘llarini aniqlashdir.

Rejallashtirish – kelajak muammolarini bilish va hal etishning tizimli, uslubiy (metodik) jarayoni.

Nihoyat, **rejallashtirish** – iqtisodiyotga rahbarlik qilishning o‘zagidir. Rejalar esa davlat iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishning asosiy qurolidir.

Rejallashtirishning ahamiyati shundan iboratki, u iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim masalalariga oid davlat va hukumat ko‘rsatmalarini, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot rejalarini yordamida aniq topshiriqlarga va amaliy ishlarga aylantiradi. Uzoq muddatli, ya’ni uch yillik, besh yillik va o‘n yillik rejalarda davlatning iqtisodiy strategiyasi jamlangan holda ifodalanadi. Yillik rejada, odatda, xo‘jalik vazifalarini hal etishning eng samarali taktikasi nazarda tutiladi.

Rejallashtirish faoliyatlarda, ya’ni amalda muayyan uyg‘unlik va muvofiqlikni ta’minlaydi, ishlab chiqarish taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlaydi, raqobat, bellashuv sharoitida umuman iqtisodiyotning, xususan sanoatning omon (sog‘) qolishiga imkoniyat, qulaylik yaratadi. Aynan rejallashtirish tufayli tarmoq idoralari mahsulotning u yoki bu turini ishlab chiqarish, o‘z vaqtida resurslar bilan ta’minalash vazifasini hal etadilar. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sotish kanallari va usullarini aniqlaydilar. Bundan tashqari, rejallashtirish ishlab chiqarish rezervlaridan, raqobatning afzalliklaridan, iqtisodiyotdagi yangi tendensiyalar ya’ni mayl va g‘oyalarni kuzatish imkoniyatini yaratib beradi, faoliyatning nozik va zaif tomonlari ta’sirini susaytirish, bo‘lishi mumkin xatolarning oldini olish va xavf-xatarni kamaytirish imkonini beradi.

Rejallashtirish obyektiv iqtisodiy qonunlardan ongli ravishda foydalanishni taqozo etadi. Rejali xo‘jalik yuritish imkoniyati va zaruratining o‘zi har bir jamiyatda **iqtisodiyotni rejali va mutanosib rivojlantirish qonunining** amal qilishini taqozo etadi. Lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqat rejali rivojlanish qonuni, balki bir qator boshqa qonunlar, jumladan, qiymat qonuni, talab va taklif qonuni, vaqt ni tejash, mehnatga qarab taqsimlash qonunlari harakatda bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida umumdavlat strategiyasining, jumladan, umumdavlat rejasining «falsafasi» masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu

«falsaфа» О‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim sohalari va maqsadlarini, tarkibiy va investitsiya siyosati, fan-texnika taraqqiyotining yo‘nalishlarini, ilmiy, ma’naviy va ma’rifiy salohiyatini ko‘tarish, mamlakat mudofaa qobiliyatini saqlab turish vazifalarini belgilab beradi.

Bozor iqtisodiyotining barcha imkoniyatlari erkin reja asosida amalga oshiriladi. Demak, rejorashtirish qanchalik erkin va mukammal bo‘lsa, mustaqillikning afzalliklari, istiqlolning samarasi shunchalik to‘liqroq ko‘zga tashlanadi, shundagina jamiyat o‘z ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini muvaffaqiyatli hal etadi. Ana shundagina rejorashtirish iqtisodiyotning barcha sohalarini, jumladan, sanoatni tashkiliy ravishda va tartibli rivojlanishiga imkon yaratadi.

Rejorashtirish mutlaqo ilmiy asosda tuziladi va u jamiyat taraqqiyotini, jumladan, sanoat taraqqiyotining amaliyotini doimo umumlashtirib borishni, fan va texnikaning barcha yutuqlaridan foydalanishni talab qiladi. Sanoatga rejali rahbarlik qilish voqealarni oldindan ko‘rish demakdir. Voqealarni, hodisalarini, bo‘lajak faoliyatni oldindan ko‘rish jamiyat iqtisodiy qonunlarini bilib olishga asoslanadi va jamiyat moddiy va ma’naviy hayoti rivojining yetilgan talablariga suyanadi.

Iqtisodiy qonunlarning mohiyati, mazmuni va boshqa tomonlarini bilib olish iqtisodiy jarayonlar mohiyatini o‘qib olishga, taraqqiyotning ilg‘or tendensiyalarini hali ular kurtak holida bo‘lganidayoq aniqlab olishga, iqtisodiy taraqqiyot jarayonini ilmiy asosda oldindan ko‘ra olishga, uni mustaqil, buyuk davlat qurish manfaatlari uchun reja asosida yo‘lga solishga yordam beradi.

Rejorashtirish nazariyasida rejorashtirishning turlari, bosqichlari, maqsadlari, vazifalari, tizimlari degan tushunchalar mavjud.

Rejorashtirishning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

- munosabatdor kattaliklar bo‘yicha rejorashtirish;
- muvofiqlashtirish shakllari bo‘yicha rejorashtirish;
- moslashuv (adaptatsiya) shakliga ko‘ra rejorashtirish.

Rejorashtirish turlarini bir qator belgilar bo‘yicha tasniflash mumkin. Masalan, rejorashtirishning birinchi eng muhim turi bo‘lgan munosabatdor kattaliklar bo‘yicha rejorashtirish turining belgilariga quyidagilar kiradi:

- zamon (vaqt) ko‘lami (qisqa muddatli, o‘rtacha muddatli, uzoq muddatli rejorashtirish);
- funksional bo‘lim (ishlab chiqarishni, sotishni, saqlashni, ta’minotni, moliyani, investitsiyani rejorashtirish);
- boshqaruv iyerarxiyasi (rahbariyat iyerarxiyasi);
- rejlash iyerarxiyasi (strategik, ya’ni oliy; taktik, ya’ni o‘rta; operativ, ya’ni past darajadagi rejorashtirish).

Agar rejelashtirish jarayonini boshdan oyoq ko‘rib chiqilsa, unda ayrim bosqichlarni ajratish mumkin. Ularga quyidagilar kiradi:

- maqsadlarni ifodalash, ya’ni ishlab chiqish;
- muammolarni qo‘yish;
- muqobil variantlarni izlash va tanlash;
- taxmin qilish;
- baholash va qarorlar qabul qilish.

Sanoatni rejelashtirishdan ko‘zlangan oliy maqsad sanoat ishlab chiqarishining faoliyati asosida avvaldan fikran o‘ylangan bo‘lg‘usi natijani aniqlash va bu natijaga erishish uchun tegishli chora-tadbirlarni belgilashdan iborat bo‘ladi. Shu sababli rejelashtirish jarayonining birinchi bosqichi maqsadlarni ifoodalashdan iborat bo‘ladi.

Maqsadlarni ifodalashning alohida vazifalari quyidagilardan iborat: maqsadlarni izlash, maqsadlarni aniqlash, maqsadlarni tarkiblash; maqsadlarni amalga oshirish, maqsadlarni tanlash.

Ushbu nazariyadan kelib chiqib, sanoat ishlab chiqarishini rejelashtirishning asosiy vazifalarini quyidagicha izohlash mumkin:

- eng avvalo, maqsadni qo‘yish;
- sanoat ishlab chiqarishining xilma-xil faoliyatini, ayniqlashtirishning xilma-xil faoliyatini, ayniqsa iqtisodiyot va aholi uchun zarur bo‘lgan yuqori sifatli, raqobatbardosh mahsulotlar tayyorlashning ijtimoy-iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini asoslab berish;
- zaruriy moddiy-texnik bazani shakllantirish;
- moliyalash manbalarini aniqlash va ijobjiy pirovard natijaga erishish.

Mustaqillik yillarida rejelashtirish sohasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Lekin shuni aytish kerakki, iqtisodiyotning rejali, mutanosib rivojlanish qonuniyati talablariga to‘la javob beradigan darajaga erishilgani yo‘q. Yaqin o‘tmishda rejelashtirishda bir talay xatolarga yo‘l qo‘yilganini, murakkab xo‘jalik muammolarini hal etishga o‘ylamay-netmay tavakkalchilik bilan qaralganligini hamma yaxshi biladi.

Milliy iqtisodiyot va uning yetakchi tarmog‘i bo‘lgan sanoat ishlab chiqarishning uzoq davrga mo‘ljallangan rivojini belgilash uchun boshqaruvning eng muhim funksiyalaridan biri bo‘lgan prognozlash alohida e’tibor berishni talab qiladi. Shu munosabat bilan bu kategoriyaning mohiyati va ahamiyati, mazmuni va turlari, usullari va vazifalarini yaxshi bilish kerak.

Eng avvalo, shuni qayd etish kerakki, ijtimoiy hayot kelajakni oldindan ko‘rishihsiz va uning istiqbolini bashorat qilmasdan mumkin emas. Shu sababli keyingi vaqtda bashorat qilish iqtisodiyotning optimal faoliyat ko‘rsatishining eng zaruriy shartiga aylanmoqda. Istiqbolni boshqaruvning juda murakkab jarayonida bashorat qilish ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘llarini oldindan ko‘rish vazifasini bajaradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bashorat qilish jamiyat rivoji, shu jumladan, moddiy ishlab chiqarishning eng muhim sohasi bo‘lgan sanoat rivojining kelajakda amalga oshishi mumkin bo‘lgan maqsadlarini va ularga erishishni ta’minlovchi iqtisodiy resurslarni aniqlash, iqtisodiy va texnikaviy siyosatning uzoq va o‘rta muddatli yo‘nalishlarining eng ehtimolga yaqin iqtisodiy samarali variantlarini qidirib topish uchun zarur.

Prognоз, ya’ni bashorat deganda real obyektning kelajakda bo‘lishi mumkin bo‘lgan ahvoli, uni amalga oshirishning alternativ, ya’ni muqobil (mumkin bo‘lgan qarama-qarshi ikki holdan birini tanlab olish zarurati) yo‘llarini va muddati to‘g‘risidagi ilmiy jihatdan asoslangan mulohaza tushuniladi. Qisqacha qilib aytganda, oldindan qilingan xulosadir.

Prognozlash, ya’ni bashorat qilish deganda kelajakni ko‘rish, mo‘ljal qilish va oldindan aytib berish jarayoni tushuniladi. Faqat mavjud dalillar, ma’lumotlar va aniq raqamlar asosida voqeа yoki hodisaning qanday bo‘lishi, rivojlanishi va oqibatini oldindan aytib berish, ya’ni bashorat qilish mumkin.

Bashorat qilishning bir qancha yo‘llari mavjud bo‘lib, ulardan eng asosiylariga iqtisodiy va ijtimoiy bashorat qilish kiradi. Ularni bir-biridan shartli ajratish mumkin, chunki bashorat qilishning maqsadi va vazifasi bir hodisa yoki voqeanning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatlari bilan bog‘liq, bir tanganing ikki tomonidir.

Bashorat qilishning maqsadi real obyektning kelajakda fikran o‘ylangan natijasini ta’minlashdan iborat. Hodisa va voqealar fikriy modelining natijasiga erishish.

Bashorat qilishning vazifasi esa bu jarayonning oldida turgan maqsadga erishish uchun bir qator ishlarni bajarishdan iborat.

5.2. Rejalashtirish tamoyillari va usullari

Rejalashtirish nazariyasida xo‘jalikka rahbarlik qilishning ma’lum fundamental qoidalari, ya’ni tamoyillari masalasi alohida o‘rin egallaydi. Bozor munosabatlari sharoitida bunday tamoyillar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Ilmiylik tamoyili;
2. Rejalarni ma’lum maqsadga yo‘naltirish tamoyili;
3. Mutanosiblik va balanslilik tamoyili;
4. Komplekslik tamoyili;
5. Uzluksizlik tamoyili;
6. Barqarorlik tamoyili;
7. Tarmoq va hududiy rivojlanishning uyg‘unligi;
8. Iqtisodiyot va uning tarmoqlari hamda korxona (firma)lar rivojlanishining uzviy birligini hisobga olish tamoyili.

Sanoat va uning tarmoqlari, korxonalari, tashkilotlari faoliyatlarini rejalashtirganda yuqoridaq tamoyillarga to‘la amal qilinsa topshiriq-larni

muvaffaqiyatli bajarish mumkin, iqtisodiy o'sish kuchayadi va ishlab chiqarish samaradorligi albatta, ko'tariladi. Yuqorida keltirilgan tamoyillarni amalga oshirish uchun bir qator usullardan, ya'ni balans, maqsadli, normativ, statistik-iqtisodiy, ko'p variantli, iqtisodiy-matematik matritsa usullaridan foydalaniladi.

Balans usuli rejorashtirishning bosh usuli hisoblanadi. Faqat balans usuligina asosiy **proporsiyalarini** belgilash, resurslarning jamiyat ehtiyojlariga muvofiqligini aniqlash, rejalar ni real va natijali qilish imkonini yaratadi. Balanslardan istiqbol va joriy rejalar ning barcha bo'limlarini ishlab chiqishda foydalaniladi.

Sanoat ishlab chiqarishini rejorashtirishda balans usulidan keng foydalaniladi, chunki u iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i bo'lgan sohalarini muayyan sharoitda aniq vaqt va ma'lum fazoda yaxlit holda, bir biriga bog'liq texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar yordamida aks ettira oladi. Balanslar ishlab chiqarishning ko'ldami va dinamikasi, uning tarkibi va tuzilmasi hamda samaradorligi to'g'risidagi ma'lumotlarni mujassamlashtiradi. Ularda sanoat tarmog'i va boshqa milliy iqtiso-diyot tarmoqlarining o'zaro munosabatlarini ko'rish mumkin.

Rejorashtirishda balanslarning qiymat, natura-qiymat, moddiy, mehnat va moliyaviy turlaridan keng foydalaniladi.

An'anaviy qiymat balanslari qatoriga: yalpi ijtimoiy mahsulot balansi, milliy daromad balansi, asosiy fondlar balansi, tovar oboroti va resurslar balansi, tashqi savdo va to'lov balanslari kiritiladi.

Balanslarning eng muhimlaridan biri moddiy balans bo'lib, u mahsulotlarning eng muhim to'plamini qamrab oladi. Balanslarni ishlab chiqish katta bilim va ilm, tajriba, ijobjiy yondashuvlar talab qiluvchi murakkab ishdir.

Rejorashtirish amaliyotida natura yoki moddiy balanslarning quyidagi uch turidan:

- mehnat qurollarining balanslari;
- mehnat buyumlarining balanslari;
- xalq iste'moli buyumlarining balanslaridan foydalanish mumkin.

Moddiy balanslar ma'lum sxemalar bo'yicha ishlab chiqilib, unda, bir tomon dan, mahsulot resurslari, ikkinchi tomon dan, uning ayrim qismlari bo'yicha taqsimlanishi ko'rsatiladi (3-chizmaga qarang).

3-chizma. Moddiy balansning taxminiy chizmasi²⁴

Resurslar	Resurslarning taqsimoti
1. Rejorashtirish davri boshiga qoldiq.	1. Ishlab chiqarish – ekspluatatsiya iste'moli

²⁴ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.73.

2. Ishlab chiqarish hajmi 3. Import 4. Davlat rezervlaridan tushum kelib tushishi 5. Boshqa tushimlar	2. Kapital qurilish ehtiyojlari 3. Bozor fondlari 4. Eksport 5. Davlat resurslarini to‘ldirish 6. Rejalashtirilayotgan davr oxiriga mahsulot qoldig‘i
JAMI	JAMI

Balanslarning yana bir eng muhim turi – bu mehnat balanslaridir. Bunday balanslarda mavjud mehnat resurslari va ulardan foydalanish yo‘nalishlari aks ettiriladi. Mehnat balanslariga mehnat resurslarining yig‘ma balansi, tarmoqlar va hududlar bo‘yicha ishchi kuchi balansi va h.k.lar kiritiladi.

Korxona (firma)larda ishlab chiqarish quvvati balansi tuzilib, unda korxonaning ishlab chiqarish imkoniyati, uning tarkibidagi nomutanosibliklar mavjudligi, ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish uchun zarur bo‘lgan kapital qo‘yilmalar aniqlanadi.

Rejani texnik-iqtisodiy jihatdan asoslashning eng muhim asoslaridan biri bu normativ usuldir. Rejalashtirish jarayonida iqtisodiy normativlarning roli beqiyos. Ular yordamida rejalshtirilayotgan davr sharoitlarini (mahsulot berish topshiriqlari, narx, foydadan budgetga ajratma, ish haqi fondlarini tashkil etish normativlarini) oldindan bilgan holda korxonalar jamoalari ishlab chiqarishni o‘stirishning yuksakroq sur’atlarini, uning samaradorligini ancha oshirishni ta’minlaydigan rejalarни ijodiy tarzda, barcha imkoniyatlarni oshkora qilishdan cho‘chimasdan tuza oladilar.

Normativ usulning mohiyati shundan iboratki, unda reja ko‘rsatkichlari rejali norma asosida aniqlanadi. Bu usul yordami bilan ishlab chiqarishdagi ilg‘or tajribalarni umumlashtirishning barcha bo‘g‘inlaridagi balanslari (mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish, ishchi kuchi, moddiy va moliyaviy balanslari)dan keng foydalanishni nazarda tutadi.

Rejalashtirishda norma va normativlarning uch guruhi: iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik guruhlaridan foydalaniladi.

Iqtisodiy normativlar resurslardan foydalanish samaradorligining mumkin bo‘lgan eng past miqdorini ifodalaydi. Masalan, rejalshtirish va prognozlashda kapital mablag‘lardan foydalanishning normativ koeffitsiyenti (**Yen**) ko‘rsatkichidan keng foydalaniladi. Faraz qilaylik, rejalshtirishda uning miqdori **Yen = 0,15** kesimida belgilanadi. Bu milliy iqtisodiyot rivojiga sarflangan mablag‘larning har bir so‘mi 15 tiyin bilan qaytishi kerak. Shunday bo‘lsa, sarflangan kapital mablag‘ taxminan 7 yilda o‘zini to‘la qoplaydi. Agarda u har yili 15 tiyindan kam tejam keltirsa, kapital qo‘yilmalar (investitsiyalar) samarasiz foydalanilganligini anglatadi.

Ijtimoiy normativlar jamiyat va uning a'zolari ehtiyojlari muayyan davrga qondirilishining mumkin bo'lgan darajasini, insonning tevarak-atrofdagi muhit bilan o'zaro aloqasi xarakterini belgilaydi. Ayrim mahsulot turlarining bir kishi tomonidan iste'mol qilinishi normasi ijtimoiy normativlar namunasidir. Masalan, bir kishining bir yilda oyoq kiyimiga bo'lgan iste'mol normasi 3,3 juft hajmida belgilangan.

Texnologik normativlar chiqarilayotgan mahsulot birligiga resurslarining solishtirma sarfi miqdorini ifodalaydi. Masalan, 1kVt soat elektroenergiya ishlab chiqarishga sarflanayotgan yonilg'i normasi, xom paxtadan paxta tolasini chiqarish normasi.

5.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalar tizimi

Ma'lumki, milliy iqtisodiyot, jumladan, sanoat iqtisodiyotini rivojlanтиrish uchun aniq topshiriqlar, ya'ni xo'jalik vazifalari va amaliy chora-tadbirlar belgilanadi. Ular reja shaklida namoyon bo'ladi.

Reja – bu davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini, jamoa va shaxs o'z ishlarini amalga oshirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Shu sababli reja va rejalahtirish masalasiga alohida e'tibor beriladi va ularning mohiyati, ahamiyati, mazmuni va vazifalarini chuqur bilish zarurati yuzaga keladi.

Reja – bu biror ish, dastur, tadbir va shu kabilarni amalga oshirishning oldindan belgilangan tartibi, loyihasi. Ko'pincha uni topshiriq deb ham ataydilar.

Ishlab chiqarish rejasi har xil bo'lishi mumkin. Masalan, ijtimoiy ishlab chiqarish rejasi yoki yagona iqtisodiy kompleksining, ya'ni mamlakat iqtisodiyoti rejasi, milliy iqtisodiyot va uning real tarmog'i rejasi (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va h.k.lar rejasi).

Rejaning bir qancha shakllari mavjud:

- vaqt va muddatiga qarab har qanday reja soatlik, kunlik, haftalik, o'n kunlik, bir oylik, bir kvartallik, bir yillik va bir necha yillik bo'lishi mumkin.
- rejalahtirishning maqsadi va vazifasiga ko'ra reja ikki turga: operativ reja va texnik-iqtisodiy rejaga bo'linadi. Bu rejaning ikkinchi turi o'z navbatida ikki shaklda, ya'ni joriy (taktik) reja va istiqbolli (strategik) reja shakllarida bo'ladi.

Reja tuzish va uni ro'yobga chiqarish, ya'ni reja bajarilishini tashkil etish va nazorat qilish jarayoni "Rejalahtirish" deb ataladi.

"Rejalahtirish" atamasi haqida so'z yuritilganida shuni ta'kidlash joizki, turli ilmiy asarlar, darslik va o'quv qo'llanmalar, ensiklopediya va lug'atlarda turlicha ta'riflar berilgan va ular o'zbek tiliga tarjima qilingan. Lekin O'zbekiston SSR ensiklopediyasida "Reja" va "Rejalahtirish" terminlari umuman keltirilmagan, uning o'rniga "Plan" va "Planlashtirish" terminlari ishlatilgan.

Mustaqillik, istiqlol va ular tufayli yuzaga kelgan keskin o‘zgarishlar bu kategoriyaning mohiyati, ahamiyati, mazmuni, maqsadi va vazifalarini tubdan tadqiq qilishni talab etadi. Ayniqsa **markazlashgan rejalashtirishning** tubdan o‘zgarganligi va tarmoqlar, korxonalar katta erkinlik olganliklari muammolari o‘z yechimini topishi kerak.

Bozor va rejalashtirish bir birini taqozo etadi va ularni bir biridan ajratib bo‘lmaydi. Bu yerda shuni aytish kerakki, mustaqillikning birinchi yillarida “Reja“ va “Rejalashtirish“ so‘zlaridan qo‘rqa boshlagan edik. Buni anglagan Respublika Prezidenti 1995 yil yakunlari va 1996 yil vazifalariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisida taajublanib shunday degan edi: “Xorijiy mamlakatlarda, agar fermer foyda olishga ishonmasa, unda umuman ishga qo‘l urmaydi. Bizda-chi? Hech kim iqtisodiy tahlil bilan shug‘ullanmaydi, hech kim yil boshida hisob qilmaydi“. Bundan ko‘rinib turibdiki, yil boshida rejalar aniqlanmaydi.

Reja va rejalashtirish ma’lum ko‘rsatkichlar tizimi, ya’ni topshiriqlar majmui tariqasida aks ettiriladi. Ular rejaning asosiy g‘oyasi, maqsadi va vazifalarini ifodalaydi hamda natijalarini tavsiflaydi. Ko‘rsatkichlar yordamida bir qator funksiyalarni baholash, hisob-kitob qilish va topshiriqlarning mutanosibligini ta’minalash mumkin.

Reja tuzish jarayonida qo‘llaniladigan barcha ko‘rsatkichlarning belgilanish tartibi, ishlab chiqarish xodimlarining xo‘jalik faoliyatida qo‘llanish miqyosi va vazifasiga qarab guruhlarga ajratilishi mumkin.

Belgilanish tartibiga ko‘ra ular tasdiqlanadigan va hisoblanadigan ko‘rsatkichlarga bo‘linadi.

Tasdiqlanadigan ko‘rsatkichlar yuqori tashkilot tomonidan belgilanadi va tasdiqlanadi. Hisoblanadigan ko‘rsatkichlar esa boshqarishning ma’lum bo‘g‘ini tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Qo‘llanish miqyosiga binoan ko‘rsatkichlar umumiyligi va differensiyalashgan turlarga bo‘linadi. Umumiyligi ko‘rsatkichlar sanoat tarmog‘ining barcha bo‘g‘inlariga taalluqli bo‘lib, ular iqtisodiyot va uning tarmoqlari bo‘yicha ko‘rsatkichlarni o‘zaro taqqoslashni ta’minalash maqsadida belgilanadi. Differensiyalashgan ko‘rsatkichlar ham sanoatda amalga oshiriladigan ko‘pgina jarayonlarni aniq ifodalashga yordam berib, ularni takomillashtirishga olib keladi.

Ishlab chiqarishning xo‘jalik faoliyatidagi vazifasiga qarab, reja ko‘rsatkichlarini miqdor va sifat ko‘rsatkichlariga ajratish mumkin. Miqdor ko‘rsatkichlari ishlab chiqarish hajmi, ish haqi fondi, xomashyoga bo‘lgan ehtiyojlardan iborat. Sifat ko‘rsatkichlari moddiy resurslar va ishchi kuchidan foydalanish darajasini ifodalaydi.

Sifat ko‘rsatkichlari o‘z navbatida sintetik va texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarga bo‘linadi. Sintetik ko‘rsatkichlar (masalan, mehnat

unumdorligi, mahsulot sifati, mahsulot birligining tannarxi, foyda yoki daromad) korxona faoliyatini har tomonlama aks ettiradi.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar esa ayrim ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish darajasini ifodalaydi. Masalan, uskunalardan foydalanish, mahsulot birligiga sarflanadigan xomashyo, yoqilg'i va elektr energiya, ko'p mehnat talab etadigan jarayonlarni mexanizatsiyalash, eng mukammallashgan texnologik jarayonlarni qo'llash shular jumlasidandir.

Ko'rsatkichlar rejalashtirish tajribasida eng ko'p ishlatiladigan, belgilanadigan va hisoblanadigan, umumiyligi va xususiy, miqdoriy va sifat ko'rsatkichlaridan iborat bo'lishi mumkin.

Natura ko'rsatkichlar ishlab chiqarishning moddiy buyum nisbatlarini, mahsulotni tayyorlovchi va iste'mol etuvchilar orasidagi aloqalarni belgilab, unda mahsulotning turlari yoki ish hajmining o'lchov birliklari (dona, metr, tonna va hokazolar) ifodalanadi.

Tovar-pul munosabatlari sharoitida qiymat ko'rsatkichlari alohida o'rin egallaydi. Bu ko'rsatkichlar ishlab chiqarishning hajmini, sarflarini va moliyaviy natijalarini aniqlashda keng qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash yo'llaridan biri – sanoatni yuqori sur'atlar bilan rivojlantirishdir. Bunga erishish uchun, dastavval, uning ahvolini va imkoniyatlarini bilish lozim. Buning uchun har xil ko'rsatkichlardan foydalanish kerak bo'ladi. Bir tomonidan, qo'llaniladigan ko'rsatkichlar sanoatning umumiyligi taraqqiyotini ifoda etsa, ikkinchidan, sanoatning o'zining shart-sharoitlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar ham mavjud bo'lishi mumkin. Bunday ko'rsatkichlarga asoslanib sanoatning texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlari aniqlanadi.

Sanoat taraqqiyotini ifodalaydigan ko'rsatkichlar sanoat tarmoqlarining korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotning hajmini natural yoki kompleks o'lchov birligida, qiymat birligida ifoda etadigan ko'rsatkichlaridir.

Sanoat mahsulotlarining hajmini aniqlashda qo'llaniladigan kompleks natural birliklar bo'lib kilovatt-soat, tonna, kubometr, kvadratmetr, dekalitr, dona va boshqalar hisoblanadi.

Bu o'lchovlarga tayangan holda ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlarining miqdorini aniqlash mumkin. Masalan, O'zbekistonda 2001 yilda 47,9 mlrd. kilovatt-soat elektr energiya, 7,3 mln. tonna neft, 57,4 mlrd. kubmetr gaz, 428,3 mln. kvadrat metr gazlama va 38,2 mln. dona trikotaj kiyimlari ishlab chiqarish mo'ljallangan edi.

Sanoat mahsulotlarining natural yoki kompleks o'lchov birliklari orqali barcha sanoat tarmoqlarining rivojlanishini qiyoslab bo'lmaydi, chunki bir tarmoqning mahsuloti kilovatt-soatda o'lchansa, ikkinchisiniki tonnada, uchinchisiniki esa kubmetrda o'lchanadi va h.k. Shuning uchun barcha sanoat

tamoqlarining ishlab chiqaradigan mahsulotlarini va bajaradigan ishlarini hisoblashda yagona o'lchov birligi bo'lishi lozim. Bu o'lchov birligi har tomonlama bo'lishi kerak. Bunday vazifalarni qiymat ko'rsatkichlari bajaradi. Qiymat ko'rsatkichlari baholar yordamida sanoatning umumiyligini rivojlanishini, o'sish sur'atlari va uning tarkibini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Qiymat ko'rsatkichlarini ishlatalishning yana bir afzal tomoni borki, bu har xil tarmoqlar ish faoliyatini bir-biriga taqqoslash imkoniyatini yaratib beradi.

Hozirgi davrda sanoat rejasini tuzishda qo'llaniladigan qiymat ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat: yalpi ichki mahsulot, tovar mahsuloti, realizatsiya qilingan mahsulot, normativ sof mahsulot, sof mahsulot.

Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchta katta guruhga bo'linadi: mehnat buyumlari, mehnat qurollari va xalq iste'mol mollari.

Mehnat buyumlariga xomashyo, materiallar, yoqilg'i, elektroenergiya va boshqa ishlab chiqarishda qo'llaniladigan buyumlar kiradi. Bu buyumlar sanoatni yuqori sur'atlar bilan va samarali rivojlantirish uchun ko'p miqdorda talab qilinadi.

Rejalashtirish qanchalik mukammal bo'lsa, taraqqiyot shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi.

5.4. Ishlab chiqarish rejasini tuzib chiqish va tasdiqlashni tashkil etish

Namunali metodikaga ko'ra sanoat tarmog'inining joriy va istiqbolli rejasini quyidagi qismlardan iborat:

1. Mahsulot ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilish. Bu belgilangan turdag'i mahsulotni ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilish hamda iste'molchilar bilan uzoq davom etadigan xo'jalik aloqalari asosida mahsulot ishlab chiqarish va uning eksportga mo'ljallangan hajmini ifodalaydi.

2. Fan-texnika taraqqiyotini, ishlab chiqarish va boshqarishni takomillashtirish. Bu bo'limda texnika va texnologiya hamda boshqarishni takomillashtirish tadbirdilar belgilanadi.

3. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi. Bunda ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi, jumladan, ish vaqtini, asosiy va aylanma mablag'lar, moddiy resurslar va kapital mablag'lardan foydalanishga doir ko'rsatkichlar rejallashtiriladi.

4. Norma va normativlar. Ular rejani asoslash va ishlab chiqarish rezervlarini harakatga keltirish uchun zarur bo'lgan norma va normativlarni yaratish hamda tizimga solish masalalarini o'z ichiga oladi.

5. Kapital qurilish bo‘limida ishlab chiqarish quvvatlari va boshqa asosiy fondlarni takomillashtirish hamda turar joy va boshqa qurilish obyektlarini yaratish bo‘yicha ko‘rsatkichlar nazarda tutiladi.

6. Asosiy moddiy resurslarga bo‘lgan ehtiyoj. Bunda birlashma (korxona)ning asosiy materiallarga bo‘lgan ehtiyoji aniqlanadi, ularni sotib olish tartibi belgilanadi, ichki rezervlarni safarbar etish yo‘llari mo‘ljallanadi.

7. Mehnat va ish haqi bo‘limida mehnat unumdorligini oshirish ko‘zda tutiladi, ishlovchilarning soni, ish haqi fondining miqdori belgilanadi, ishchilarga bo‘lgan ehtiyoj va kadrlarni tayyorlash hamda qayta tayyorlash ko‘rsatkichlari aniqlanadi.

8. Tannarx, foyda va ishlab chiqarish rentabelligi. Bu bo‘limda realizatsiya qilinadigan mahsulotlarning tannarxi, foyda va rentabellik darajasi rejalashtiriladi.

9. Iqtisodiy rag‘batlantirish fondlari. Bu yerda barcha rag‘batlantirish manbaalari va ulardan keng foydalanishning aniq yo‘nalishlari belgilanadi.

10. Moliya rejasi. Bu bo‘limda moliyaviy mablag‘lar, daromadlar, xarajatlar va ajratmalar, budgetga to‘lovlar, budgetdan olinadigan mablag‘lar aniqlanadi.

11. Ijtimoiy rivojlanish rejasi. Bu o‘z tarkibiga xodimlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning bilim va ilmiy darajasini, ishlab chiqarish malakasini ko‘tarish, jamoa a’zolarining turar joyi, maishiy hamda madaniy sharoitlarini yaxshilash kabi tadbirlarni mo‘ljallaydi.

12. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish. Bu bo‘limda tabiatni muhofaza qilishning ijtimoiy va iqtisodiy qirralari, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va boshqa ekologik tadbirlar belgilanadi.

Hozirgi paytda gap ma’muriy buyruqbozlik tizimi davridagi rejalashtirish to‘g‘risida emas, balki bozor iqtisodiyotiga mos keladigan reja va rejalashtirish to‘g‘risida borishi kerak. Gap asosan u yoki bu soha (tarmoq), korxona (firma)ning o‘z fikri, g‘oyasini amalga oshirish va shu asosda foyda (daromad) olishga yo‘naltirilgan rejali tashkil etilgan tadbirlar, harakatlar tizimidan iborat bo‘lgan Biznes-reja haqida bo‘lishi kerak.

Biznes-reja zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning muhim vositasidir. Shu sababli uning mohiyatini, ahamiyatini, mazmunini chuqur anglash zarur. Bu masala haqida gap borganda eng avvalo, biznes-reja nima uchun kerak? – degan savol tug‘iladi. Bunday reja eng avvalo, bankir hamda investorlarga zarur. Chunki korxona (firma) o‘z loyihasini amalga oshirish uchun ulardan pul mablag‘larini so‘raydi.

Ikkinchidan, biznes-reja korxona (firma) xodimlari uchun kerak. Ular o‘zlarining maqsad, vazifalarini, istiqbolni bilishlari zarur.

Uchinchidan, eng asosiysi ishbilarmon, tadbirkor, korxona (firma) rahbari o‘z g‘oyalarini, ularning to‘g‘ri va reallagini bilishi kerak.

Biznes-rejani tuzishda rahbarning shaxsiy ishtiroki juda zarurdir, shuning uchun ham ko‘pgina xorijiy mamlakatlar banklari, investorlar va boshqa muassasalar agar biznes – rejani boshdan oyoq chetdan, maslahatchi orqali ishlab chiqilib, rahbar unga faqat imzo chekkani ma’lum bo‘lib qolgan taqdirda loyiha mablag‘ berishdan bosh tortadilar. Bunday reja, odatda, talabgorsiz qoladi.

Biznes-rejada quyidagi narsalar yoritiladigan bo‘limlar bo‘ladi:

- biznesning maqsadi va asosiy g‘oyasi;
- korxona (firma) ishlab chiqaradigan mahsulot (xizmat)ning o‘ziga xos xususiyati va ular bilan bozor ehtiyojini qondirish;
- ayrim bozor segmentlarida firmaning xulq-atvori, strategiyasini belgilash;
- tashkiliy qoida hamda ishlab chiqarish tarkibiy tuzilishini belgilash (aniqlash);
- ishning moliyaviy loyihasini shakllantirish (shu jumladan, moliyalashtirish strategiyasi va investitsiyalash bo‘yicha takliflar);
- firmaning rivojlanish istiqbollari bo‘limlari.

Biznes-rejani tuzib chiqish jarayonida quyidagilarga erishamiz:

birinchidan, o‘zimiz boshlayotgan ishni puxta bilishga erishamiz; *ikkinchidan*, xarajatlarni bilamiz, korxonani yaxshi boshqarishga erishamiz; *uchinchidan*, o‘z g‘oyamizni boshqariluvchiga tez yetkazamiz va moliyaviy faoliyatimizni reja asosida olib borishga erishamiz.

Biznes-reja juda ko‘p bo‘limlardan iborat:

1. Rezyume (xulosa).
2. Korxona (firma) haqidagi ma’lumotlar.
3. Tovar (mahsulot yoki xizmat) turlari.
4. Sotuv bozori.
5. Marketing strategiyasi.
6. Ishlab chiqarish dasturi.
7. Ishlab chiqarishni tashkil etish.
8. Korxonaning tashkiliy-reja shakli.
9. Moliyaviy reja.
10. Loyihaning rentabelligi (foydaliligi, samaradorligi, natijaliligi).

5.5. Rejalashtirishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari

Davlatning iqtisodiy strategiyasida boshqaruv va uning eng muhim funksiyasi bo‘lgan rejallashtirishni takomillashtirish alohida o‘rin egallaydi. Chunki u rejallashtirishning barcha darajalari va sohalarida qonuniy jarayon hisoblanadi. Bu esa jamiyatda ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalar bilan belgilanadi.

Sanoat ishlab chiqarishini rejorashtirishni takomillashtirish sohasida eng avvalo, quyidagi vazifalarni hal etish lozim:

- rejorashtirishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tezlatishga, sanoatning ilg‘or tarkibini shakllantirishga, uni balansli va mutanosib rivojlantirishga, ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy hamda ilmiy va texnikaviy salohiyatdan samarali foydalanishga ta’sirini kuchaytirish;
- fan-texnika taraqqiyotini jadal va uzluksiz amalga oshirishni oqilona bashorat qilishga erishish;
- bashorat qilish bilan istiqbolli va joriy rejorashtirish o‘rtasidagi aloqalarini mustahkamlash. Bu vazifalarni amalga oshirish texnologiyalaridan keng foydalanish;
- reja ko‘rsatkichlar tizimini takomillashtirish, ularni pirovard natijalar sari yo‘naltirishni kuchaytirish hamda mehnat, moddiy, moliya resurslaridan foydalanish samaradorligini, mahsulotning sifati va uni yangilash miqyoslarini aks ettiradigan ko‘rsatkichlardan keng foydalanish.

Galdagi eng muhim vazifalardan biri rejorashtirishning ilmiy saviyasini, darajasini oshirishdir. Rejalar ilmiy tarzda tuzib chiqilishi, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan asoslab berilgan va to‘la-to‘kis balanslashtirilgan bo‘lishi kerak. Aniqroq qilib aytganda, milliy iqtisodiyot, jumladan, sanoat rejalarida ko‘zda tutilgan ishlab chiqarishni o‘stirish, yalpi ichki mahsulotni ko‘paytirish sur’atlari va asosiy mutanosibliklar optimal bo‘lishi, ya’ni mavjud imkoniyatlardan yangi jamiyatning obyektiv iqtisodiy qonunlariga muvofiq ravishda eng yaxshi, eng samarali foydalanishni ta’min etish kerak. Hozirgi jadallahsgan fan-texnika taraqqiyoti sharoitida rejorashtirishning eng muhim vazifalaridan biri ilm va texnikaning so‘nggi yutuqlarini sanoat orqali tez sur’atlarda o‘zlashtirib olishni rejalarda, ayniqsa, istiqbolli rejalarda ko‘zda tutishdan iborat. Istiqbolli rejalarining rolini oshirish rejorashtirish uchun ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan normativlar sistemasini vujudga keltirishni talab etadi. Shundagina rejorashtirishda tavakkalchilik yuz berishining oldini olish hamda ishlab chiqarishning natijaliligini yuqori darajaga ko‘tarish bo‘yicha imkoniyatlarni ishga solish mumkin bo‘ladi.

Ishlab chiqarishni rivojlantirishni shunday rejorashtirish kerakki, natijada mahsulot ishlab chiqarish ko‘paya borsin, mehnat unumdoorligi borgan sari ko‘tarilsin, mahsulotning tannarxi pasaysin, korxona foydasi oshib borsin.

Xo‘sh, buning uchun nimalar qilish kerak?

Buning uchun eng avvalo, investitsiyalardan, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona va samarali foydalanmoq kerak.

Rejallashtirishni yanada takomillashtirish uchun bu jarayon bilan shug‘ullanadigan idoralarni iste’dodli va iqtidorli, bilimdon, obro‘li, o‘z ishining ko‘zini biladigan kadrlar bilan mustahkamlash kerak. Faqat shunday mutaxassislargina bu sohadagi o‘zboshimchaliklar va subyektivizmga batamom barham berishi mumkin bo‘ladi.

Reja tuzish ishning bir qismigina xolos. Uning bajarilishi va oshirib bajarilishi har bir rahbar va xodimning aql zakovati, tashabbuskorligi va fidokorona mehnatiga bog‘liqdir. Agarda jamoa va uning har bir xodimi o‘z vazifalarini muntazam, bekami-ko‘st bajarib borsa belgilangan rejalar albatta, muvaffaqqiyatlari bajariladi.

Qisqacha xulosalar

1. Sanoat ishlab chiqarishini rejallashtirish boshqaruvi tizimining ajralmas qismidir. U yordamida milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmog‘i – sanoatning rivojlanishiga taalluqli bo‘lgan ko‘rsatkichlar muayyan vaqtga belgilanadi.

2. Rejallashtirish o‘zining tegishli tamoyil va usullariga ega va ular iqtisodiyot nazariyasida alohida o‘rin tutadi.

3. Sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun aniq topshiriqlar berilishi kerak va ular reja shaklida aks etadi. Sanoat rejasiga 12 bo‘limdan iborat.

4. Sanoat rejasini tuzish eng murakkab ishlardan biri hisoblanadi. Chunki bunda taraqqiyotning barcha tomonlarini oldindan ko‘rish, ya’ni bashorat qilish hamda bu taraqqiyotni ta’minlovchi iqtisodiy va texnik salohiyatning samarali variantlarini qidirib topish kerak bo‘ladi.

5. Mustaqillik yillarda rejallashtirishni takomillashtirish borasida anchagina ishlar amalga oshirildi. Lekin iqtisodiyotni, jumladan, sanoatning rejali, mutanosib rivojlanishining bir qator muammolari hali o‘z yechimini topgani yo‘q. Shu sababli bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish va demokratik davlat, bozor iqtisodiyotining talablariga javob beradigan rejallashtirishni yaratish zarur.

O‘z-o‘zini nazorat qilishga oid savollar

1. Reja va rejallashtirishning tavsifi, maqsadi va vazifalari.
2. Rejallashtirishning bozor iqtisodiyotiga mos tamoyillari va usullari.
3. Rejalar tizimi va uning bozor munosabatlariga mosligi.
4. Sanoat ishlab chiqarish rejasining bo‘limlari va ko‘rsatkichlari.
5. Biznes-reja va uni tuzish usullari.
6. Rejallashtirishni takomillashtirish yo‘llari.

6 - BOB. SANOAT ISHLAB CHIQARISHINING IQTISODIY VA IJTIMOIY SAMARADORLIGI

Tayanch atamalar va iboralar: samaradorlik, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy samaradorlik, mehnat sig‘imi, mehnat unumdarligi, fond sig‘imi, fond samarasi, qiyosiy samaradorlik, qiyosiy samaradorlik koeffitsiyenti, yillik iqtisodiy samara

Reja:

- 6.1. Samaradorlik sanoat ishlab chiqarishining «ko‘zgusi» sifatida.**
Bozor munosabatlari sharoitida samaradorlikning o‘rni va ahamiyati
- 6.2. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezon va ko‘rsatkichlari**
- 6.3. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning omillari va yo‘llari**

6.1. Samaradorlik sanoat ishlab chiqarishining "ko‘zgusi" sifatida.

Bozor munosabatlari sharoitida samaradorlikning o‘rni va ahamiyati

Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy strategiyasi uzoq vaqtga mo‘ljallangan fundamental maqsadlarni o‘rtaga qo‘yish bilan bir qatorda, bu maqsadlarga erishish vositalari, yo‘llarini belgilashni ham o‘z ichiga oladi. Bular orasida **ishlab chiqarish samaradorligini** to‘xtovsiz oshirib borish asosiy o‘rinda turadi.

O‘zbekiston davlatining qudratini mustahkamlash, aholining moddiy va ma’naviy ne’matlarga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laroq qondirish, kelajakda esa – ularni mo‘l-ko‘l yaratish, iqtisodiy va ilmiy-texnika sohasida eng rivojlangan davlatlar qatoridan joy olish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga bevosita bog‘liqdir.

Mustaqillikka erishilganlik, qudratli iqtisodiy va ilmiy-texnik salohiyat yaratilayotganlik, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarning takomillashayotganligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalarini bиринчи o‘ringa qo‘ydi. Binobarin, Respublika Prezidentining ma’ruza va nutqlarida, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida ishlab chiqarishning, jumladan, sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishning mohiyati va ahamiyati, dolzarb muammolari, iqtisodiyotni ekstensiv va intensiv taraqqiyot yo‘liga o‘tkazish munosabati bilan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar chuqur va har tomonlama tahlil etib berilmoqda.

Ma’lumki, ishlab chiqarishni rivojlantirishda ikki xil omil: miqdor va sifat, ekstensiv va intensiv, ya’ni kengaytiruvchi (uzaytiruvchi) va zo‘r beruvchi, kuchaytiruvchi omillar harakatda bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, agar ishlab chiqarish sohasi kengaytirilsa, ekstensiv suratda kengaygan takror ishlab chiqarish bo‘ladi; agar yana ham **ko‘proq samara** beradigan ishlab chiqarish vositalari qo‘llaniladigan bo‘lsa, intensiv suratda

kengaygan takror ishlab chiqarish yuzaga keladi.

O'zbekiston sanoatida ana shu ikki yo'ldan oqilona foydalanish natijasida ishlab chiqarishning samaradorligi bosqichma-bosqich o'sib bormoqda.

Samaradorlik so'zi - bu eng ko'p uchraydigan umumiy tushunchalardan biri bo'lib, iqtisodiy - ijtimoiy taraqqiyotning xilma-xil sohalarida juda keng ishlatiladi. Masalan, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat samaradorligi, o'qish va o'qitish samaradorligi, davolash va davolanish samaradorligi, qabul qilingan qonun va qoidalar hamda yechimlar samaradorligi va hokazolar.

Samaradorlik sanoat ishlab chiqarish faoliyatining "ko'zgusi" hisoblanadi. Bu "ko'zgu"da ishlab chiqarishning barcha natijalarini ko'rish mumkin. Ma'lumki, har bir tarmoq, korxona, qolaversa, har bir shaxs o'z ishlab chiqarish faoliyatida maksimum foyda olishga intiladi. Uning uchun ma'lum xarajatlar qiladi. Ana shu foyda bilan xarajatlar o'rtasidagi farq tarmoq va korxona faoliyatining "ko'zgusi" bo'lgan samaradorlikda ko'zga tashlanadi. Ishlab chiqarishning eng yuqori samaradorligi ishlab chiqarish xarajatlarini minimum darajaga keltirishdan iborat.

Bozor munosabatlari sharoitida samaradorlikning alohida o'rni mavjud. Bozor iqtisodiyoti natijalilikni, foydalilikni taqozo etadi. Tartibli bozorga asoslangan iqtisodiyotda eng kam resurs sarflab ko'p natijaga erishish zarur. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida 5 turdag'i resurslar tizimi harakatda bo'ladi: a) moddiy resurslar, b) mehnat resurslari, v) moliyaviy resurslar, g) energetik resurslar, d) axborot resurslari. Mana shu resurslardan oqilona foydalanib, ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish mumkin. Bunday faoliyat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishida muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishning aniq-ravshan yo'nalishlari Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida ko'rsatib berilgan.

6.2. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezoni va ko'rsatkichlari. Xarajatlarning umumiy va qiyosiy samaradorligi

Samaradorlik - bu foydalilik, natijalilikdir.²⁵ Ma'lumki, qandaydir natija olish uchun mehnat qilish, ishlash, mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish va ma'lum miqdorda xarajat qilish kerak.

Samaradorlikni aniqlash uchun natijani shu natijaga erishishga sarflangan xarajatlar yoki resurslar bilan taqqoslash kerak. Demak, Samaradorlik ishlab chiqarish faoliyati natijalari bilan ularga erishish uchun sarflangan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarning o'zaro nisbatidir.

²⁵ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.84.

$$S = \frac{natija}{xarajatlar} = \frac{natija}{mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar}$$

Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini farqlaydilar. Samaradorlikni iqtisodiy va ijtimoiy turlarga bo‘lish shartli bo‘linish hisoblanadi. Moddiy ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan va mehnat xarajatlari bilan bog‘liq bo‘lgan natijalarning hammasi iqtisodiy va ma’lum ma’noda ijtimoiy samara deb aytish mumkin.

Bu yerda shuni eslatib o‘tish kerakki, iqtisodiy va ijtimoiy tushunchalarning sun’iy bo‘linishi haqida bahslashish mumkin. Lekin, iqtisodiyot ijtimoiy hayotdan tashqarida bo‘lmagani kabi, ijtimoiy hayot ham iqtisodiyotsiz bo‘lmaydi. Demak, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Chunki amalga oshirilgan har bir ish ayni vaqtida ham iqtisodiy, ham ijtimoiy samara keltiradi.

Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarishning iqtisodiy natijasini ko‘rsatadi. Masalan, mahsulot ishlab chiqarish, boshqaruv, yangi texnika va texnologiyani joriy etish, mehnat sifatini oshirish va hokazolarning natijasi. Iqtisodiy samara material, mehnat, pul va boshqa resursslarni tejash tufayli erishilgan miqdor, vaqtini tejash, qurilish muddatlarini qisqartirish, mehnat sarfini tejash, ish vaqtining zoye ketishini kamaytirish, mablag‘lar oborotini tezlashtirish, mahsulot yetishtirish hajmini o‘sirish, ishlar sifatini yaxshilash va boshqa natijalar bilan tavsiflanadi.

Ijtimoiy samaradorlik shaxsning har tomonlama kamol topishiga yordam beradigan tadbirlarni amalga oshirishning samaradorligini ifodalaydi. U mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilanishida, xodimlar malakasini oshirishda aks etadi va asosiy oziq-ovqat, sanoat tovarlarining aholi jon boshiga iste’mol qilinishi, ijtimoiy iste’mol fondlaridan beriladigan nafaqa va imtiyozlar, kadrlar tayyorlash bo‘yicha xarajatlarning o‘sishi bilan tavsiflanadi.

Ushbu samaralar ishlab chiqarishning o‘zida vujudga kelayotganini va birlashib bajarilgan mehnat tufayli ishlovchilar o‘rtasidagi munosabatlar ta’riflanishini nazarda tutsak, ularni ijtimoiy-iqtisodiy samara deb atasak bo‘ladi.

Iqtisodiy samaradorlikning mohiyati uning mezoni va ko‘rsatkichlar tizimida aks etadi.

Mezon masalasi iqtisodiy samaradorlik nazariyasining eng muhim sohasi hisoblanadi. Falsafiy ma’noda mezon - bu asosiy o‘lchov, muhim farqli belgi, asosiy nuqtai nazardir. Shular asosidagina bizning u yoki bu sohadagi bilimlarimizni obyektiv haqiqatligini, to‘g‘riligini va ishonchlilagini aniqlash, haqiqatni anglashilmovchiliklar-dan farqlash mumkin.

Ishlab chiqarishning asosiy maqsadiga erishish uchun barcha resurslardan oqilona foydalanish, tayyorlanadigan mahsulotning har bir

birligiga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish kerak bo‘ladi. Demak, samarani o‘lchaganda mezon sifatida jami ijtimoiy mehnatni tejash, uning unumdorligini oshirish qabul qilinadi.

Ishlab chiqarishning umumiyligi (mutloq) samaradorligi deganda xarajatlar va resurslarning ayrim turlari bilan solishtirilgan yoki taqqoslangan iqtisodiy samaraning umumiyligi miqdori tushuniladi.

Ishlab chiqarishning umumiyligi samaradorligi xarajatlar va resurslarning ayrim turlaridan foydalanish darajasini aniqlash va baholash uchun qo‘llaniladi va umuman iqtisodiyot bo‘yicha, tarmoqlar, korxonalar, kapital qurilish obyektlari bo‘yicha hisoblab chiqiladi. Bunday samaradorlikni aniqlash xarajatlar va resurslar samaradorligi darajasini, samaradorlikning asosiy yig‘imlarini aks ettiruvchi differensiyalangan ko‘rsatkichlarni hisoblab chiqishga asoslanadi. Bunday ko‘rsatkichlarga ishlab chiqarishning yoki unda tayyorlanadigan mahsulotning mehnat sig‘imi, material sig‘imi, fond sig‘imi, kapital sig‘imi kiradi.

Mehnat sig‘imi milliy daromad, sof, yalpi, tovar mahsulotning yoki natural shaklda ifodalangan mahsulot birligiga sarflangan xarajat miqdorini tavsiflaydi.

Mahsulotning sermehnatliliqi – bu muayyan turdagি mahsulotni (masalan, bitta traktorni, kostyumni yoki ko‘ylakni) ishlab chiqarishga sarf bo‘lgan ish vaqtini miqdorini ifodalovchi ko‘rsatkich hisoblanadi.

Mehnat sig‘imining uch turi bo‘ladi: texnologik, to‘la va iqtisodiyot mehnat sig‘imi. Mehnat sarfini hisobga olish jihatiga qarab esa u yana uch turga: rejali mehnat, normativ mehnat va haqiqiy (amaldagi) mehnat sig‘imlariga bo‘linadi.

Mehnat sig‘imi bevosita sarf (asosiy xodimlar sarf qilgan mehnat) bo‘yicha, to‘la sarf (yordamchi xodimlar sarf qilgan mehnat) bo‘yicha hamda umumiyligi ijtimoiy mahsulot yoki milliy daromad qiymatiga nisbati bilan belgilanadi. Ayrim komplekslar va ularning tarmoqlarida, korxonalarda esa moddiy sarflar miqdorining qiymatiga nisbatan belgilanadi:

$$Ms = \frac{Mx}{Tmx}$$

Ko‘pincha amaliyotda mehnat sig‘imining boshqacha ma’nosini bildiruvchi mehnat unumdorligi (**Mu**) ko‘rsatkichidan foydalaniladi:

$$Mu = \frac{Tmx}{Mx}$$

Mehnat unumdorligi - bu inson mehnatining muayyan vaqt ichida ozmi - ko‘pmi mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatidir.²⁶

Ishlab chiqarishning material sig‘imi - bu mahsulot (ish bajarish, yoki xizmat ko‘rsatish) birligiga ketadigan va unda ifodalananadigan moddiy

²⁶ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.86.

resurslar (xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, sotib olinadigan butlovchi buyumlar va yarim fabrikatlar, yoqilg'i va energiya) yalpi sarfini tavsiflab beruvchi ko'rsatkichdir. U quyidagi formula yordamida ifodalanadi:

$$Ms = \frac{Mr}{Tmx}$$

Ishlab chiqarishning fond talabligi bu mahsulot birligiga (natural yoki qiymat doirasida) to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish fondlarini tavsiflovchi ko'rsatkichdir. Fond sig'imi (**Fs**) asosiy va aylanma fondlardan foydalanishning samaradorligini ko'rsatadi va ularning o'rtacha yillik qiymatini (**F**) mahsulot hajmiga (**Mx**) nisbatini ifodalaydi:

$$Fs = \frac{F}{Mx}$$

Bu miqdorning teskarisi fond samarasini (natijasi) yoki fond qaytimi (**Fk**) deb yuritiladi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Fk = \frac{Mx}{F}$$

Ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini baholashda kapital qo'yilmalardan foydalanish ko'rsatkichlari ishlab chiqarish fondlarini qayta takror ishlab chiqarishning yangi asosiy va oborot fondlarini yaratish uchun zarur bo'lgan jamg'arma fondlari samaradorligini tavsiflaydi. Bunday ko'rsatkichlardan eng muhim kapitaltalablik yoki kapital sig'imi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich (**Ks**) kapital mablag'lar(**K**)ning yordami bilan tayyorlangan mahsulotning ko'paygan qismiga nisbati bilan ifodalanadi:

$$Ks = \frac{K}{\Delta Mx}$$

Yuqorida keltirilgan va boshqa bir qator tabaqlashtirilgan (differensiyalangan) ko'rsatkichlar ishlab chiqarishning samaradorligini baholash va tashkil etishda muhim o'rinni egallaydi, xarajatlar va resurslar asosiy turlarining qaytarib berilishini tavsiflaydi. Lekin, faqat bu ko'rsatkichlar asosida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi o'zgarishiga baho berish qiyin, chunki ular o'zgarishning xarakteri va dinamikasini taqqoslay olmaydi. Undan tashqari, ba'zi bir davrlarda ular har xil yo'nalishda o'zgaradilar. Masalan, sanoatda mehnat unumdarligi juda sekinlik bilan ko'paymoqda.

Iqtisodiy samaradorlikni rejorashtirish va tahlil etish nafaqat xarajat va resurslar asosiy turlaridan foydalanish darajasini tahlil etishni o'z ichiga olishi kerak, balki uning butunlay o'zgarishini, yig'indi (integral) samaradorlikni baholashni ham o'z ichiga oladi. Mana shu maqsadda iqtisodiy samaradorlikning umumlashtiruvchi, kompleks ko'rsatkichlari hisoblab chiqiladi va ishlab chiqarishning oqibat natijalari shu ko'rsatkichlar yordamida tahlil etiladi. Bunday ko'rsatkichlar turli xarajatlar va resurslarning darajasini yig'ilgan turda, har xil omillarning ta'sirini hisobga

oladi.

Ishlab chiqarish - texnik vazifani hal etishning biror variantining ijtimoiy-iqtisodiy afzalligini asoslab berish, taqdim etilgan variantlardan eng samaralisini tanlab olish maqsadida aniqlanadigan samaradorlik qiyosiy samaradorlik deb ataladi. Qiyosiy samaradorlik ikki va undan ortiq variantlarni taqqoslash va shu asosda bir variantning boshqa variantlardan ustunligi va uning optimalligini aniqlab beradi.

Optimal variantni tanlab olish hamda uni asoslab berish uchun qo'shimcha kapital mablag'larning qoplanish muddati yoki qiyosiy samaradorlik koeffitsiyentini hisoblab chiqish va ular miqdorini normativ qiymati bilan taqqoslash kerak bo'ldi.

Qo'shimcha kapital mablag'larning o'zini qoplash muddati (V) qo'shimcha kapital mablag'larning ($K_2 - K_1$) mahsulot tannarxini pasaytirishdan olingan tejam ($T_1 - T_2$)ga nisbati bilan aniqlanadi:

$$V = \frac{K_2 - K_1}{T_1 - T_2}$$

Bu yerda V - qoplanish muddati (yil hisobida);

K_1 va K_2 variantlarni joriy etish uchun kerak bo'lgan mablag'lar miqdori;

T_1 va T_2 taqqoslanadigan variantlarning ekspluatatsiya xarajatlari.

Qo'shimcha kapital mablag'larning qiyosiy samaradorlik koeffitsiyenti (**Ye**) qoplanish muddatining teskari ifodasi hisoblanadi va tannarxni pasaytirishdan olingan tejamning qo'shimcha kapital mablag'lar miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi:

$$Ye = \frac{T_1 - T_2}{K_2 - K_1} \text{ yoki } \frac{1}{V}$$

Keltirilgan xarajatlar, ularning vazifasi va uni hisoblash usuli. Keltirilgan xarajatlar kapital mablag'larning qiyosiy-iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, texnikaviy va iqtisodiy masala-larni hal qilish variantlarining eng yaxshisini tanlab olishda qo'llaniladi. Biron bir texnikaviy vazifani hal etishning, ratsionalizatorlik va ixtirochilik takliflari, texnikaviy va tashkillashtirishning mumkin bo'lgan variantlarini, mahsulot sifatini oshirishning turli usullarini taqqosla-ganda boshqa shartlari teng bo'lib qolsa, keltirilgan xarajatlar minimum bo'lishini talab qiladigan variant eng yaxshisi hisoblanadi. Bir necha variantlardan eng yaxshisini tanlab olish uchun quyidagi keltirilgan xarajatlar formulasidan foydalanish kerak.

$$S + Yen \cdots K \rightarrow \min$$

Bu yerda **S** - muayyan variant bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi;

Yen - kapital mablag'lar samaradorligining normativ koeffitsiyenti;

K - bir vaqtida sarflanadigan kapital mablag'larning yig'indisi.

Iqtisodiyotda yangi texnika, ixtiolar va ratsionalizatorlik takliflaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini belgilash metodikasida samaradorlikning normativ koeffitsiyenti iqtisodiyotning hamma tarmoqlari uchun **0,15** ga teng qilib olingan.

Keltirilgan xarajatlarni aniqlash eski texnika o‘rniga yangisini yaratish va qo‘llash natijasida hosil bo‘ladigan iqtisodiy samarani baholashga iqtisodiyot nuqtai nazaridan yondashishni taqozo etadi.

Yillik iqtisodiy samara - bu yangi texnika, texnologiya va progressiv mahsulot turlarining, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishning iqtisodiy samaradorligini tahlil etish va baholashda qo‘llaniladigan muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Bu ko‘rsatkich qiyoslanadigan variantlar bo‘yicha sarflangan xarajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida quyidagi formula yordamida hisoblab chiqiladi:

$$Y = [(T_1 + Yen * K_1) - (T_2 + Yen * K_2)] * A_2$$

Bu yerda **Y** - yillik tejam;

T₁ - yangi texnika bo‘yicha tadbirlar joriy qilingungacha bo‘lgan mahsulot yoki ish birligining tannarxi (so‘m hisobida);

T₂ - shuning o‘zi, tadbirlar joriy qilingandan so‘ng (so‘m hisobida);

K₁ - tadbirlar joriy qilingungacha mahsulot birligiga sarflangan kapital mablag‘lar miqdori;

K₂ - shuning o‘zi, tadbirlar amalga oshirilgandan so‘ng;

A₂ - yangi tadbirlar amalga oshirilgandan boshlab tayyorlanadi-gan yillik mahsulot yoki ishlarning natura birligi.

Yen - kapital xarajatlarning normadagi qiyosiy samaradorligi koeffitsiyenti.

U yangi kapital qo‘yilmalarning minimal darajadagi iqtisodiy samaradorligini hamda bir so‘mlik kapital qo‘yilma bir yilda mahsulot tannarxini necha tiyinga kamaytira olishni bildiradi. Masalan, sanoat tarmog‘i uchun belgilangan samaradorlik koeffitsiyenti normasi 0,15 bo‘lsa, bu shu tarmoqda har bir so‘m kapital qo‘yilmalar mahsulot tannarxining pasayishi hisobiga eng kami bilan 15 tiyinlik tejam, foyda berishi zarur. Samaradorlik koeffitsiyenti "0"dan "1"ga qancha tez intilsa, samaradorlik shuncha yuqori, xarajatlarning reja qoplanish muddati esa shuncha qisqa bo‘ladi.

Ishlab chiqarishning samaradorlik darajasi xilma-xil, bir-biriga bog‘liq bo‘lgan omillar ta’sirida tashkil topadi va shakllanadi. Har bir kompleks, tarmoq va korxona uchun uning texnik-iqtisodiy xususiyati sababli samaradorlikni oshirishning o‘ziga xos omillari mavjud.

6.3. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning omillari va yo‘llari

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning juda ko‘p, xilma-xil omillari va asosiy yo‘nalishlar mavjud. Barcha omillar uch belgiga asosan guruhlarga bo‘linishi mumkin: manba bo‘yicha, ishlab chiqarishni

rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha, omillarning o‘rni va amalga oshirish darajasi bo‘yicha.

Omillarni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish manbalari bo‘yicha tasniflash nimalar hisobiga ijtimoiy mehnatni tejashga erishish mumkinligini yoki erishilganligini aniqlashga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin: mahsulotning mehnat sig‘imi, material sig‘imi, fond sig‘imi hamda kapital mablag‘ talablikni kamaytirish, tabiiy resurslardan ratsional foydalanish va vaqtni tejash. Lekin bunday tasniflash talabga javob bermaydi. Bu savollarga javob topish uchun ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning barcha omillarni ishlab chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha guruhlash kerak. Ular ijtimoiy mehnatni tejashga qaratilgan texnik, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlar kompleksidan iborat. Bu yo‘nalishlar g‘oyat xilma-xildir. Eng muhimlariga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish tarkibini yaxshilash;
- fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, ishlab chiqarish va mahsulotning texnik - iqtisodiy darajasini ko‘tarish, fan va texnika yutuqlarini joriy etish muddatini qisqartirish;
- ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, kooperatsiyalash, kombinatlashtirish va hududiy joylashtirish darajasini oshirish;
- boshqarishning tarkibini, moliyalash, baholash va kreditlash hamda rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish;
- inson omilini kuchaytirish asosida mehnatkashlarning ijodiy faolligini va tashabbusini oshirishni yo‘lga qo‘yish.

Sanoat ishlab chiqarishini erkinlashtirish va bu tarmoqda islohotlarni chuqurlashtirish samaradorlikni oshirishning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi.

Sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishning hal qiluvchi yo‘llaridan yana biri fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishdir. Texnik va texnologik omil mehnat unumdorligini o‘stirishning kamida uchdan ikki qismini ta’minlaydi.

Ma’lumki, iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida texnika taraqqiyotining xarakteri va mazmuni o‘z xususiyatlariga ega bo‘ladi. Masalan, bozor iqtisodiyotiga o‘tish natijasida fan-texnika taraqqiyoti undagi miqdoriy o‘zgarishlargagina emas, balki ko‘proq sifat o‘zgarishlariga qaratiladi. Umuman, samaradorlik iqtisodiyotdagi sifat o‘zgarishlari bilan bog‘liqdir, bu talab fan-texnika taraqqiyotiga ham to‘liq joriy etiladi.

Sanoat ishlab chiqarishi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini yuqori darajaga ko‘tarishda inson omilining roli beqiyosdir. Insonlarning tashabbusi, kuch-g‘ayrati, jonli ijodiyoti har qanday taraqqiyotning qudratli kuchi va eng muhim manbai hisoblanadi. Shu sababli ham insonni jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi deb aytadilar. U barcha yangiliklarni, shu jumladan, yangi, ilg‘or texnika-texnologiya-larni yaratadi, ishlab chiqarishni oqilona

tashkil etadi, ilmiy va amaliy kashfiyotlar qiladi. Barcha ishlab chiqarish vositalari inson mehnati bilan harakatga keltiriladi, foydali narsalar hosil qilinadi. Biroq inson faqat asosiy ishlab chiqaruvchi kuchgina emas, shu bilan birga **ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy munosabatlarning subyekti hamdir**. Odamlar faoliyati shu munosabatlar orqali ro‘yobga chiqadi. Bu faoliyat yo‘nalishi va natijalari xodimning o‘z faoliyatida qanday o‘y-fikrlarga, tasavvurlarga, maqsadlarga, hayotiy yo‘l-yo‘riqlarga, muddaolarga va psixologik e’tiqodlarga amal qilishiga bog‘liq. Shu sababli inson omilining mohiyati, ahamiyati va mazmuni tahlil etilganda gap faqat inson haqidagina emas, balki avvalo inson yashab, mehnat qilayotgan ijtimoiy munosabatlarning butun tizimi bilan belgilanuvchi ijtimoiy sifatlar, faoliyatni rag‘batlantiruvchi omillar va muddaolar haqida borishi kerak.

Qisqacha xulosalar

1. Ishlab chiqarishning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi muhim kategoriya sifatida, umuman olganda ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini, erishilgan natija bilan jonli va buyumlashgan mehnat o‘rtasidagi nisbatlarni o‘rganadi.
2. Sanoat ishlab chiqarishi samaradorligining doimiy oshib borishi obyektiv zarurat hisoblanadi va milliy daromadning keskin ko‘payishiga imkoniyat yaratib beradi.
3. Samaradorlik umumiylar nazariyasida mezon muammosi, ya’ni baholash o‘lchovi, asosiy nuqtai nazar masalasi alohida o‘rin egallaydi. Jami ijtimoiy mehnatni tejash, uning unumdarligi o‘sishi samaradorlikning mezoni hisoblanadi.
4. Iqtisodiy hisoblash va tahlil tajribasida ikki xil samaradorlikni farqlaydilar. Birinchi - bu umumiylar (mutloq) samaradorlik, ikkinchisi - qiyosiy samaradorlik.
5. Sanoat ishlab chiqarishi samaradorligining darajasi turli xil o‘zaro bir biri bilan bog‘liq omillar ta’siri ostida shakllanadi.

O‘z-o‘zini nazorat qilishga oid savollar

1. Samaradorlik tushunchasi, uning turlari, mezoni va ko‘rsatkichlari.
2. Mutloq iqtisodiy samaradorlik va uni hisoblash usuli.
3. Ishlab chiqarishning qiyosiy-iqtisodiy samaradorligi.
4. Ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillar.
5. Sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘llari.

7-BOB. SANOATDA FAN-TEXNIKA TARAQQIYOTI VA INNOVATSION FAOLIYAT

Tayanch atamalar va iboralar: fan, texnika, texnologiya, fan-texnika taraqqiyoti, fan-texnika siyosati, “nou-xau”, innovatsiya, lizing, texnopolis, venchur, injiniring, tender, ixtiro, kashfiyat, moliyaviy lizing, oddiy lizing, elektrlashtirish, elektronizatsiyalash, mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, kimyolashtirish, ilmiy-texnikaviy tadbirlar, innovatsiya, innovatsion faolyat, innovatsiyani investitsiyalash.

Reja:

- 7.1. Fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati**
- 7.2. Fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari**
- 7.3. Fan-texnika taraqqiyotining samaradorligini baholash**
- 7.4. Innovatsion faoliyat va uni investitsiyalash masalasi**

7.1. Fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati

Hozirgi davrning eng muhim o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – bu milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida chuqur keskin o‘zgarishlar hosil qilayotgan fan va texnikaning shiddatli rivojidir. O‘zbekiston Respublikasida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni ishlab chiqish jarayonida birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan: «Fan – bu taraqqiyotni anglatadi. Ilmfanni rivojlantirmay Vatan kelajagi to‘g‘risida gapirish qiyin»²⁷ fikri bildirilgan.

Fan-texnika taraqqiyoti – bu juda murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. U ijtimoiy va shaxsiy hayotning hamma tomonlarini o‘z ichiga oladi. Shu sababli ham fan-texnika taraqqiyoti harakatdagi jarayon hisoblanadi.

Texnika taraqqiyotining asosini fan, ilmiy bilimlar tashkil etadi. Yuqorida aytilganlardan shunday savol tug‘ilishi mumkin: Fan nima?

Fan – bu inson faoliyatining ma’lum sohasi. U shunday sohaki, voqeahodisalar haqidagi bilimlar yaratiladi va ular nazariy nuqtai nazardan bir yo‘lga solinadi. Fan ijtimoiy fikrlash va bilishning shakllaridan biridir.

Fan yoki ilm – bu o‘qish, o‘rganish va hayotiy tajriba asosida fikrlanadigan bilim va malakalar majmuasidir. Uning asosiy vazifasi avvalo voqealarni, shu jumladan, texnik va texnologik hodisalarini tasvirlash, keyin tushuntirish, oldindan aytib berish, bashorat qilishdan iboratdir.

Endi texnika va texnologiya nima degan savolga javob topish kerak.

Texnika – bu eng tor ma’noda mehnat quroli, mehnat vositasi. Keng ma’noda esa u ishlab chiqarish vositalari, texnologiya usullarini, ishlab

²⁷ Каримов И.А., «Халқ сўзи», 6 июнь 1997 йил.

chiqarishni tashkil etish va boshqarish shakllarining yig‘insidir. U ishlab chiqarish kuchlarining eng faol elementi hisoblanadi.

Texnologiya (yunoncha “techue“ – san’at, mahorat, uddalash va ...logiya) – ishlab chiqarish jarayonida tayyor mahsulot olish uchun ishlatiladigan xomashyo, material yoki yarim fabrikatlarning holati, xossasi va shakllarini o‘zgartirish, ularga ishlov berish, tayyorlash usullari majmuidir.

Fan-texnika taraqqiyoti juda murakkab jarayon bo‘lib, ijtimoiy va shaxsiy hayotning barcha tomonlarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Fan va texnikani bir biridan faqat shartli ajratib ko‘rish mumkin. Aslida esa ular yonma-yon turadi. Shu sababli “Fan-texnika“ atamasi ko‘p ishlatiladi.

Fan-texnika taraqqiyotining asosini ilmiy bilimlar tashkil etadi. Ilm va bilim asosida yangi texnika va texnologiya yaratiladi, eskilari esa takomillashadi.

Fan-texnika taraqqiyoti – bu mehnat vositalarini, ishlab chiqarishning eng yangi xomashyosi va materiallarini, yoqilg‘i va energiyaning, texnologik jarayonning, boshqarishning, mehnatni texnik jihatdan qurollantirish va yuqoridagilarning hammasini yangidan yaratishni o‘z ichiga oladi.²⁸ Ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan ishlovchilarning umumiyligi ma’lumotini, mahoratini uzluksiz sistematik rivojlantirish va takomillashtirish ham fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohozalar umumjamiyat miqyosida, iqtisodiyot, uning tarmoqlari, korxona (firma)larda va tashkilotlar miqyosida ham hisobga olinishi mumkin.

Fan-texnika taraqqiyotining vazifasi quyidagilardan iborat:

- tejamkorlikni amalga oshirish (vaqtini, xomashyo va materiallarni, yoqilg‘i, elektr energiyasi va h.k. larni tejash);
- ishlab chiqarish jarayonlarini osonlashtirish, mehnatni yengillashtirish;
- mehnatning mazmuni va xarakterini o‘zgartirish;
- ishlab chiqarishning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini yanada yuqori darajaga ko‘tarish.

Fan va texnikaning roli shu qadar kattaki, bironta ijtimoiy-iqtisodiy vazifa ularning rivojlanishi hisobga olinmasdan turib hal qilinishi mumkin emas. O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida, Vazirlar Mahkamasi qarorlarida, olimlarning ilmiy-amaliy tadqiqotlarida fan-texnika taraqqiyotining tavsiflovchi g‘oyat mukammal formulalari ta’riflab berilgan.

Mustaqillikni mustahkamlash, kelajagi buyuk davlatni qurish, iqtisodiy o‘sishni izchil olib borish, ishlab chiqarish taraqqiyotini tezlashtirishni ilm-

²⁸ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.94.

fansiz mutlaqo tasavvur qilib bo‘lmaydi. Demak, hamma joyda, hamma vaqtida fan-texnika taraqqiyoti tomon olg‘a siljimoq kerak bo‘ladi.

O‘zbekistonning fan-texnika siyosati davlat va nodavlat tashkilotlari, mehnatkashlar jamoalari, iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy va tarbiyaviy chora-tadbirlarining, harakatlarining tizimi bo‘lib, bular fanni rivojlantirish uchun, uning yutuqlarini yangi texnika va texnologiyada mujassamlashtirish hamda ana shu negizda mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarini sifat jihatidan og‘ishmay takomillashtirib borish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgandir. Fan-texnika siyosatining mohiyati ana shundan iborat.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida fan-texnika siyosati umum davlat siyosati sifatidagina samarali amalga oshirilishi mumkin bo‘lib, uning butun tarkibiy qismlari, shuningdek, uni amalga oshirishda ishtiroy etuvchilarining butun faoliyati strategik maqsadga bo‘ysundirilgan.

Fan-texnika taraqqiyotining mazmuni va maqsadlarini davlat iqtisodiy siyosatining mushtarak (umumi) vazifalari, shuningdek, bozor iqtisodiyotining u yoki bu bosqichining aniq tarixiy sharoitlari belgilab beradi. Fan-texnika rivoji darajasini, bu borada hal etiladigan vazifalarni chuqur ilmiy umumlashtirish asosida davlat fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini ta’riflaydi hamda ularni amalga oshirish uchun optimal shart-sharoitlarni ta’minlovchi tadbirlar ishlab chiqadi.

Fan-texnikani rivojlantirishda doimo tashabbus ko‘rsatgan respublikamizning fan arboblari va muhandis-texnik xodimlarning faoliyati tufayli mustaqillik yillarda qudratli fan-texnika potensiali yaratildi. O‘nlab ilmiy-tadqiqot institatlari va oliy o‘quv yurtlari, yuzlab loyiha-konstrukturlik tashkilotlari tadqiqotlar olib bormoqdalar, yangi texnika va texnologiyalarni yaratmoqdalar. Hozirgi ilmiy-tadqiqot institatlari eng mukammal texnika bilan jihozlangan va yuksak malakali ilmiy kadrlar qorishmasidan iboratdir.

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalari tadqiqotlar yoki amaliy tajribalar natijasida olingan va yangi materiallar, mahsulotlar, jarayonlar, qurilmalar, xizmatlar, tizimlar yoki usullarni yaratishga yo‘naltirilgan mavjud bilimlarga asoslangan tizimli ravishda amalga oshiriladigan ishlari kiradi. Ishlanmalar tarkibiga konstrukturlik, loyiha viy va texnologik ishlari kiradi.

Ilmiy tadqiqot tajriba konstrukturlik ishlanmalari bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar soni 2016 yilda 2000 yilga nisbatan 19 taga ko‘paydi va 437 tani tashkil etdi. Ular tomonidan o‘z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot tajriba konstrukturlik ishlari hajmi 2016 yilda 396 mlrd. so‘mga yetdi va 2000 yilga nisbatan 37 barobarga oshdi²⁹.

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalari bilan band bo‘lgan tadqiqotchi mutaxasislar soni 2016 yilda 2000 yilga nisbatan 27,4 foizga

²⁹ <https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2035-ilm-va-fan>

oshdi va 31966 nafarni tashkil etdi³⁰.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojini yuqori darajaga ko‘tarish fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishni yanada izchil, yanada qat’iyat bilan talab qiladi. Ayni chog‘da ilmiy-texnika rivojining yutuqlarini ishlab chiqarishda ro‘yobga chiqarish mexanizmini takomillashtirish hozirgi bosqichda fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishning hal qiluvchi omili ekanligi davlat siyosatining eng muhim qoidasi hisoblanadi. Ana shu mexanizmni takomillashtirish fan-texnika taraqqiyotini tashkil etish va boshqarish, rejalashtirish va prognozlash, mablag‘ bilan ta’minlash va rag‘batlantirish kabi elementlarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashishni an'anaga aylantirdi. Ushbu uchrashuvlarda hukumat a’zolari, vazirlik va idoralar, davlat va jamoat tashkilotlari, tijorat banklari rahbarlari, Fanlar akademiyasi a’zolari, yetakchi oliy o‘quv yurtlari rektorlari ishtirok etadi. Majlislarda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ilm-fanning o‘rnini yanada mustahkamlash, akademiklar faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash sifatini oshirishni rag‘batlantirish maqsadida bir qator muhim chora-tadbirlar belgilangan.

Yuqori texnologik ilmiy mahsulotlarni amaliyotga joriy etish uchun yangi zamonaviy tajriba-ishlab chiqarish, konstruktorlik-texnologik tashkilotlar hamda innovatsiya markazlarini tashkil etish zarur. Marketing va litsenziyalash xizmatlari talab darajasida emas. Bu mamlakatimiz ilmiy-innovatsion mahsulotlarini amaliyotga keng tatbiq etishda yaqqol sezilmoqda. Yangi texnologiyalarni joriy qiluvchi korxonalarga imtiyozlar va preferensiyalar berish ilm-fanga investitsiya kiritadigan korxonalar soni sezilarli darajada oshishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud ilmiy salohiyat va mablag‘larni iqtisodiyot tarmoqlarining buyurtmalari va muayyan muammolarni yechishga qaratilgan eng muhim ustuvor tadqiqotlarga yo‘naltirish zarur.

Jahonning yetakchi institutlari, universitetlari, ilmiy markazlari va Fanlar akademiyalari bilan ilmiy hamkorlikni yanada rivojlantirishni zamonning o‘zi talab qilmoqda, dedi Prezidentimiz. Xorijning yetakchi o‘quv va ilmiy muassasalarida ta’lim va ilmiy daraja olgan yurtdoshlarimiz uchun mamlakatimizda qulay shart-sharoitlar yaratib berish, ularni rag‘batlantirish choralarini ko‘rish kerak.

Ushbu uchrashuvlarda Prezident Sh.M.Mirziyoyev iqtisodiyoti-mizning barcha sohalari taraqqiyotida ilm-fanning o‘rni, ahamiyati g‘oyat katta ekani, bu borada davlatimiz birinchi galda Fanlar akademiyasi va olimlarga

³⁰ O’sha joyda

suyanishini, fan va ishlab chiqarish hamkorligi bugun nihoyatda dolzarb ekanini alohida ta'kidladi.

7.2. Fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida fan-texnika taraqqiyotining uchta asosiy yo‘nalishidan foydalanish mumkin:³¹

- a) an’anaviy yo‘nalish;
- b) zamonaviy yo‘nalish;
- v) istiqbolli, ustuvor yo‘nalishlar.

An’anaviy yo‘nalishga elektrlashtirish, mexanizatsiyalash, qisman avtomatlashtirish, Kimyolash kiradi.

Zamonaviy yo‘nalishga elektronizatsiyalash, kompleks mexanizatsiyalash, kompleks avtomatlashtirish (robotlashtirish, kompyuterlashtirish), atom energetikasini jadal rivojlantirish, yangi materiallarni ishlab chiqarish va ularga ishlov berish, hozirgi davr talabiga javob beradigan texnologiyalarni qo‘llash, undan foydalanishda texnologiyaning ekologiyaga salbiy ta’sirini kamaytirish, imkon bo‘lsa butunlay yo‘qotish yo‘llari kiradi.

Afzallik, ustuvor yo‘nalishlarga quyidagilar kiradi:

- elektronizatsiyalash, biotexnologiyani keng joriy etish, iqtisodiy informatikani ko‘paytirib, rivojlantirib, ishlab chiqarishni to‘la axborotlashtirish, fundamental fanlar bo‘yicha izlanishlarni kuchaytirish;
- yangi, ilg‘or (progressiv) texnologiyalarni joriy etish;
- texnika va texnologiya, elektr energiyasi va yoqilg‘ilarning, xomashyo va materiallarning eng yangi turlarini yaratish;
- mavjud mashina va mexanizmlarni, asbob-uskuna hamda jihozlarni modernizatsiyalash kiradi.

Bozor iqtisodiyotiga kirib borish munosabati bilan ilm-fan sohasiga juda ko‘p atamalar (terminlar), tushunchalar kirib kelmoqda. Masalan, “Nou-xau“, innovatsiya, lizing, texnopolis, vechur, injiniring, tender va h.k.

“Nou-xau“ – bu texnik, tashkiliy-iqtisodiy, tijorat bilimlari va tajribaning yig‘indisi bo‘lib, almashish predmeti hisoblanadi. “Nou-xau“ tipidagi axborot raqobatli ishlab chiqarishning, savdoning omili sifatida ro‘y berishi mumkin. “Nou-xau“ning eng xarakterli, tavsify tomoni – bu texnik bilimlarning yangiligida va aniq ishlab chiqarish va tijorat vazifalarini bajarish uchun foydaliligidadir. Uni amalga oshirishda shartnoma tuziladi: har xil chizmalar, loyihamalar, smeta (bo‘ladigan kirim-chiqim hisobi), texkartalar, metodikalar (biror narsaga o‘rgatish usullari), formulalar (shartli belgilar bilan ifodalangan matematik miqdorlar), texnik ma’lumotlar va h.k. tanishtiriladi. Eksporter bu ma’lumotlarni yetkazib beradi, importer esa qabul

³¹ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.95.

qilib oladi.

Innovatsiya – iqtisodiyotga mablag‘ solish jarayoni. Yangilikni joriy etish: birinchidan, texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar bo‘lsa; ikkinchidan esa, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari natijalari bo‘lgan yangi texnika va texnologiya. Ixtirochilikning rivojlanishi, biror yo‘nalishdagi yirik ixtiro va kashfiyotlar maydonga kelishi innovatsiyaning muhim omillari hisoblanadi.

Lizing – mashina, asbob-uskuna, transport vositalari, ishlab chiqarish inshootlarini uzoq muddatli ijaraga olish; uzoq muddat foydalilaniladigan tovarlar eksportini kreditlash shakllaridan biri. Lizingning asosan moliyaviy va oddiy turi mavjud.

Moliyaviy lizing muayyan muddatda ijaraga beruvchining kapital xarajatlarini to‘liq qoplashga yetarli to‘lovlardan iborat bo‘lib, mulk egasiga bir miqdor foyda ham beradi.

Oddiy lizing – ijara davrida ijaraga olingan mulk qisman amortizatsiyalanadi. Lizing kompaniyasi asbob-uskunalar sotib olib, ularni ijarachi firmaga odatda bir yildan 10-15 yilgacha ijaraga beradi. Lizingda ijarachining shartnomaga muddati tugagandan so‘ng asbob-uskunalarni qoldiq qiymat bo‘yicha sotib olish (bu holda egalik huquqi yangi sohibga o‘tadi); yangi kelishuv asosida shartnomaga muddatini cho‘zish; moddiy boyliklarni lizing kompaniyalariga qaytarish va boshqalar ko‘zda utilishi mumkin. Tomonlar lizing shartnomasida ko‘rsatilgan davr mobaynida uni buzishga haqi yo‘q. Lizing kompaniyalari mashina va uskunalar sotib olish uchun shaxsiy va qarzga olingan mablag‘lardan foydalananadilar. Davlat odatda, ularga qarz olishlari uchun imtiyozli sharoitlar yaratib beradi.

Venchur – kichik biznesning bir turi. Uning mohiyati ilmiy-muhandislik ishlari, yangi texnika, texnologiya, tovar namunalarini yaratish, ishlab chiqarishni boshqarish, tijorat ishini tashkil etish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, yirik firmalar va davlat ijara shartnomasi buyurtmalarini bajarishdan iborat. Bu ishlar bilan “Vençur korxonalar“ shug‘ullanadi. Ular tarkibida tijoratda vositachi bo‘lgan korxonalar ham bo‘ladi. Vençur korxonalar texnikaning yangi yo‘nalishlarida ish ko‘rib, fan-texnika taraqqiyotiga katta hissa qo‘sadilar. Ular vençur moliyalashtirishda ham faol qatnashadilar va moliyaviy mablag‘ to‘plab, uni ishga soladilar.

Injiniring (injinerlik – maslahat xizmatlari) – tijoratchilik qoidalariga asoslangan injinirlik – maslahat xizmatlari; ishlab chiqarishni ta’minlash, mahsulot sotishni uyushtirish, ishlab chiqarish obyektlarini qurib, ishga tushirish yuzasidan maslahat berish. Bu ish bilan injiniring firmalari shug‘ullanadi, ular mustaqil firma sifatida bir vaqtning o‘zida bir necha mijozlarga xizmat qiladi. Eksport injiniring firmalari boshqa mamlakatlarga xizmat ko‘rsatadi. Ular chet eldag‘i ilmiy g‘oyalar va texnik ishlanmalar

bozorida litsenziya sotadi, texnik yangiliklarni xorijda joriy etadi. Injiniring kompaniyalari daromadi ko'rsatilgan injiniring xizmatiga bog'liq bo'ladi. Xalqaro injiniring xizmati ishning texnik-tashkiliy va tijorat tomonlari ko'rsatilgan kontrakt shaklida rasmiylashtiriladi, mohiyati bilan muyyan xizmatlarga buyurtmaning bir ko'rinishidir. Injiniring xizmatlari bozori – xalqaro bozorning bir turi, injiniring xizmatlarining davlatlararo oldi-sotdi qilinishidir.

Tenderlar – bozorda yoki xalqaro bozorda **mashina** va **uskunalarini** xarid etish, qurilish-montaj ishlarini bajarish, injiniring xizmati ko'rsatish uchun konkurs asosida buyurtma berish. Xaridor yoki buyurtmachi eng avval konkurs e'lon qilib hammani o'z shartlari bilan tanishtiradi. Shunga asosan konkursda ishtirok etuvchi firmalar, konsorsiumlar yoki korxonalar o'z takliflarini – tenderlarini xaridor, buyurtmachiga yuboradi. Tenderni injiniring firmalari hujjatlashtiradi.

Fan-texnika taraqqiyotining muhim an'anaviy yo'nalishlaridan biri ishlab chiqarishni elektrlashtirishdir. **Elektrlashtirish** deganda elektr energiyasini yetarli darajada ishlab chiqarish, uni kerakli joylarga uzatish va undan keng foydalanish jarayoni tushuniladi. Uning moddiy asosini "Elektroenergetika" tarmog'i tashkil etadi. U elektr energiyasi ishlab chiqaradigan jihozlarni (elektrostansiyalarni), iste'molchilarga uni yetkazib beruvchi jihozlarni (podstansiyalarni) va elektr uzatkichlarni o'z ichiga oladi.

Elektr energiyasi turli stansiyalarda ishlab chiqariladi:

- suv bilan ishlaydigan elektr stansiyalar (GESlar);
- issiqlik elektrostansiyalari (GRESlar);
- atom elektrostansiyalari;
- quyosh elektrostansiyalari;
- shamol va boshqa elektrostansiyalar.

Ekspertlarning dalolat berishlaricha, kelgusi yuz yillikning o'rtalarida sayyoramizda energiya ishlab chiqarish hozirgi darajadan o'n baravar ortadi. Bunday o'sishni qayta tiklanmaydigan organik yoqilg'i yordamida ta'minlash mumkin emas. Shu sababli energetika muammosi eng jiddiy jahonshumul muammolardan biriga aylanmoqda.

Hozirgi vaqtida jahon energetikasi asosan organik yoqilg'idan foydalanishga asoslanadi. Umuman energetika balansida neft va gazning ulushi taxminan 50 foizni, ko'mir 35 foizni tashkil etadi va atigi 15 foizi atom elektrostansiyalari, gidroenergetika va boshqa manbalar ulushiga to'g'ri keladi. Biroq insonning energetika iste'moli shu qadar tez sur'atda o'smoqdaki, organik yoqilg'i kabi an'anaviy energetika resurslarining zahiralari navbatdagi yuz yillikdayoq yetarli bo'lmay qoladi. Shu sababli insoniyat oldida yangi energiya manbalarini egallahdek dolzarb vazifa turibdi. Hozirgi paytda quyosh, atom (og'ir elementlarning bo'linishi) va

yadro energetikasi (engil yadrolarni termoyadroviy sintez qilish) ana shunday manbalar hisoblanadi.

Yer sathiga yetib keladigan quyosh energiyasining umumiy miqdori insoniyat ehtiyojlarini qondirish uchun batamom yetarlidir. Buning yana bir afzalligi, ancha arzonga tushadi.

Olimlarning hisoblariga qaraganda, XXI asrning o‘rtalariga borib, butun dunyoda jon boshiga elektr iste’mol qilish 3-4 baravar ortadi. Buni qanday ta’minlash mumkin? Organik yoqilg‘ini ishlab chiqarishni kamaytirish kerakmi yoki yo‘qmi? Albatta, bu savolga javob topish kerak bo‘ladi. Bu muammoni hal etish olimlar va mutaxassislar oldiga katta vazifalar qo‘yadi.

Atom energetikasi. Tabiiy resurslarning qisqarib borishi tufayli dunyo hamjamiyati energetika istiqbolini quyosh, shamol va boshqa muqobil energiya manbalaridan foydalanishda ko‘rmoqda. Ular orasida atom energetikasi g‘oyat muhimdir. Hozirda jahoning 30 dan ziyod mamlakatida atom elektr stansiyalaridan samarali foydalanilmoqda. Bu iqtisodiyotga katta foyda keltirishi barobarida tabiiy resurslar tejalishiga ham xizmat qiladi.

Agar mamlakatimizda elektr energiyasiga bo‘lgan talab 69 milliard kilovatt/soatni tashkil etsa, bu quvvatning qariyb 85 foizi gaz va ko‘mir yoqish orqali, qolgan 15 foizi gidroelektr stansiyalarida ishlab chiqariladi. Buning uchun yiliga 16,5 milliard kub/metr tabiiy gaz, 86 ming tonna mazut va 2,3 million tonna ko‘mir sarflanadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2030 yilga kelib elektr energiyasiga bo‘lgan talab 11 milliard kilovatt/soatga yetadi³². Buning uchun esa yangi quvvatlarni tashkil qilish kerak bo‘ladi.

2018 yil o‘rtasidagi holatni qaraydigan bo‘lsak, mamlakatimizda yalpi ishlab chiqarish hajmining 19 foizi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, 33,5 foizi esa ishlab chiqarish quvvatlari hisobiga to‘g‘ri kelgan. Ya’ni, ishlab chiqarish hajmi agrar sohaga nisbatan 1,5 barobar ko‘proqni tashkil etgan. Oxirgi 10 yilda bu ko‘rsatkich 2,5 barobar oshdi. Yangi ishlab chiqarish tarmoqlari, korxonalar tashkil qilinayapti. Ularning bir me’yorda doimiy ishlashi uchun energiya resurslari kerak bo‘ladi. Lekin oxirgi 10 yillikda mamlakatimizda biror-bir energiya manbasi ishga tushirilmadi.

O‘zbekiston Respublikasini Prezidentining 2018 yil 19 iyuldagи “O‘zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni mamlakatimizda ekologik toza elektr energiyasi ishlab chiqarish bilan birga elektr energiyasiga bo‘lgan talabni qondirish, shuningdek, tabiiy foydali qazilmalarni tejab ishlash, ulardan oqilona foydalanish borasida qo‘ylgan katta qadam bo‘ldi.

2017 yili Tojikistondan 1,5 milliard kilovatt/soat, Qирғизистондан 1,2

³² <http://uza.uz/oz/society/atom-energetikasi-bar-aror-tara-iyet-kafolati-08-10-2018> (мурожаат 21.10.2018 й.)

milliard kilovatt/soat energiya sotib olindi. Agar o‘zimizda atom elektr stansiyasi ishga tushirilsa, boshqa davlatlarga ham energiya sotish imkoniyati paydo bo‘ladi.

O‘zbekiston dunyoda uran zaxiralari bo‘yicha 4-o‘rinda, uni ishlab chiqarish bo‘yicha esa 7-o‘rinda turadi. Xalqaro atom energiyasi agentligining ma’lumotiga ko‘ra, hozirgi kunda dunyoning 31 mamlakatida 451 energiya blokka ega bo‘lgan 191 atom elektr stansiyasi ishlamoqda. Yadro reaktorlari bo‘yicha AQSh yetakchilik qilmoqda. Fransiya 58 yadro reaktoriga ega. Shuningdek, Rossiya, Xitoy va Janubiy Koreya davlatlari ham yetakchilar qatorida.

Atom elektr stansiyasining afzalligi, bu – avvalo, uning ekologik tozaligi, xavfsizligi, iqtisodiy samaradorligi, pirovardida, davlatimizning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qilishidadir. Atom elektr stansiyasining ekologik tozaligi haqida gap ketganda quyidagi misollarni keltirish o‘rinli. Masalan, issiqlik elektr stansiyalaridan atrof-muhitga ajralib chiqadigan radiaktiv moddalar miqdori atom elektr stansiyasidan 11 barobar ko‘p. Bugun dunyo bo‘yicha ishlab turgan barcha atom elektr stansiyalarini to‘xtatib qo‘yib, ular beradigan energiyani issiqlik elektr stansiyalaridan oladigan bo‘lsak, bir yilda atmosferaga 380 million tonna karbonat angidrid gazi ajralib chiqadi. Atom elektr stansiyalari esa umuman karbonat angidrid ajratmaydi. Shuningdek, kislorodni tejashta ham erishiladi.

Shu bois atom elektr stansiyalari "yashil energetika" deyiladi. Issiqlik elektr stansiyalaridan olinadigan energiya tannarxining 60-70 foizi yoqilg‘i miqdori narxiga to‘g‘ri keladi. Atom elektr stansiyalarida esa bu 4-5 foizni tashkil qiladi. Bu degani bir necha 10 yillar davomida uran miqdori narxiga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi.

O‘zbekistonda 2 energiya blokdan tashkil topgan atom elektr stansiyasi qurish rejalashtirilgan. Uning hajmi 2 ming 44 megavattni tashkil qiladi. Bu hozirgi kunda O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaning 20-30 foizini tashkil qiladi.

Elektronizatsiyalash deganda ishlab chiqarish jarayonlarida elektronikadan keng foydalanish, ya’ni ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan axborotni kompyuterlarda yig‘ish, o‘tkazish va ishlash tushuniladi. Elektronikaning makro va mikro turlari mavjud bo‘lib, ular sanoat ishlab chiqarishi boshqaruvida alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, lahzali biznes borasida juda qo‘l keladi.

Mexanizatsiyalash – bu qo‘l mehnatini mashina mehnati bilan almashtirishdir. U ikki xil bo‘ladi: a) kichik mexanizatsiyalash; b) kompleks mexanizatsiyalash. U ishlab chiqarishni avtomatlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Avtomatlashtirish – bu ilgari odam bajaradigan, boshqarish va nazorat qilish vazifalari asboblar, avtomatik qurilmalar zimmasiga yuklanadigan

mashinali ishlab chiqarishni rivojlantirish jarayoni. Avtomatlashtirish jarayonida inson faqat operatorlik vazifasini ado etadi. Sanoat ishlab chiqarishini avtomatlashtirishdan maqsad – mehnat unumdorligini oshirish, mahsulotlar sifatini yaxshilash, ishlab chiqarishning barcha resurslaridan foydalanishning optimal sharoitini yaratish.

Ishlab chiqarishni avtomatlashtirishning uch turi, ya’ni qisman (ayrim ishlab chiqarish operatsiyalarinigina avtomatlashtiradigan), kompleks va to‘la xillari mavjud.

Bugungi kunda kompyuter va axborot texnologiyalari, telekommunikatsiyalar tarmoqlarini, ma’lumotlar uzatishni, Internet xizmatlariga kirib borishni rivojlantirish va zamonaviylashtirish respublikamizda ustuvorlik kasb etmoqda. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yilning 30 mayida imzolangan «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida»gi Farmon alohida ahamiyatga molikdir. Ushbu hujjatga muvofiq Respublikada kompyuterlashtirish va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sohasidagi vazifalarni Muvoifiqlashtiruvchi Kengash tuzilgan. Bu kengash zimmasiga mazkur sohani rivojlantirishning zamonaviy xalqaro tendensiyalar va mamlakatni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish strategiyasiga mos keluvchi ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, bu borada dasturlar, loyihamar, me’yoriy – huquqiy hujjatlarning ishlab chiqilishi hamda ekspertizadan o‘tkazilishini tashkil etish, malakali kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, jumladan, mutaxassislarni chet ellarda o‘qitish borasidagi ishlarni muvoifiqlashtirish kabi muhim vazifalar yuklatilgan.

Unda «... real iqtisodiyot tarmoqlarida, boshqaruv, biznes, fan va ta’lim sohalarida kompyuter va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, turli aholi qatlamlarining zamonaviy kompyuter va axborot tizimlaridan keng bahramand bo‘lishlari uchun shart-sharoitlar yaratish ...» belgilab qo‘yilgan.

O‘zining axborot–kommunikatsiyalar texnologiyalari infratuzilmasini shakllantirgan mamlakatlarga global iqtisodiyotga kirib borishi mumkin. Shuning uchun ham ko‘pgina mamlakatlar zamonaviy ishlab chiqarish yoki axborot–kommunikatsiyalar texnologiyalarini keng ko‘lamda qo‘llashga qaror qildilar. Chunki ular qo‘shimcha ish joylarini tashkil etish va xodimlarni qayta tayyorlashda chet el investitsiyalarini jalg etadigan «yadro» bo‘lib xizmat qiladi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar axborot – kommunikatsiyalari bozorini tahlil etish shuni ko‘rsatadiki, ushbu texnologiyalardan keng miqyosda foydalanish iqtisodiy o‘sish, mehnat unumdorligi va sifatini yuksaltirish, aholi bandligini ta’minlash hamda jahon bozori bilan kechadigan integratsiya jarayonlarini tez sur’atlarda amalga oshirishga katta imkoniyat yaratib bermoqda. Ushbu an’analarni mamlakatimiz milliy

iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida ham kuzatish mumkin.

O'zbekistonda axborot-kommunikatsiyalar bozori shakllanishi-ning barcha huquqiy va me'yoriy hujjatlari mavjud. Izchillik bilan rivojlanib borayotgan ushbu tarmoqqa chet el sarmoyalarini jalb qilish va qo'shma korxonalar ochish uchun barcha shart – sharoitlar yetarli. Ana shu shart – sharoitlardan sanoat ishlab chiqarishida keng foydalanish uning samaradorligini oshirishga katta imkoniyatlar yaratib beradi.

Kimyolashtirish – bu ishlab chiqarishning hamma sohalarida Kimyo fanining barcha yutuqlaridan keng foydalanish. Ishlab chiqarishning barcha jarayonlariga kimyoviy materiallarni, xomashyo va materiallarni qayta ishlashning kimyoviy usullarini joriy etishdan iboratdir. Kimyolashtirish yordamida oldindan belgilangan xususiyatli xomashyo materiallarni tayyorlash mumkin. Masalan, bo'yoq va laklar, sintetik kauchuk, sintetik tola, plastmassalar va h.k.

O'zbekiston Respublikasi juda katta fan-texnika salohiyatiga ega. Bu yerda O'zbekiston FA va 400dan ortiq ilmiy-tadqiqot muassasi tashkiloti bo'lib, ularda fan-texnika taraqqiyotining fundamental va amaliy muammolari tadqiq qilinadi, xususan, sanoat ishlab chiqarishiga uning ilmiy-texnika bazasini mustahkamlash borasida ilmiy va amaliy yordam ko'rsatiladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston sanoatiga xorijiy mamlakatlarning fan va texnika sohasidagi tajribalarini olib kelish hamda ularni joriy etish masalasiga juda katta e'tibor berilmoqda. Keng ko'lamda globallashuv jarayoni kechayotgan bugungi kunda olimlarning yutuqlari tijoratlashib bormoqda va hozirgi paytda dunyo bozoridagi eng qimmat mahsulot turlaridan biriga aylanmoqda.

7.3. Fan-texnika taraqqiyotining samaradorligini baholash

Yangi texnika va texnologiyani joriy etish uchun uning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligni aniqlash kerak bo'ladi. Shu sababli yangi texnika va texnologiyani joriy etish asosida iqtisodiyotda, jumladan, sanoat ishlab chiqarishida yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun texnik chora-tadbirlarning qaysi biri foydali ekanligini aniqlash zarur.

Texnik tadbirlarning asosiy guruhlari quyidagilardan iborat:

- mashina va mexanizmlar, jihozlar va asboblarning yangi hamda takomillashgan turlari va konstruksiyalari;
- xomashyo, materiallar, yoqilg'i va energiyaning yangi turlari;
- texnologik jarayonlarning yangi va takomillashgan turlari;
- mahsulotning kimyoviy va fizik xossalarni, parametr va assortimentlarini yaxshilash;
- texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish;

- jihozlarni modernizatsiyalash;
- bino va inshootlarning yangi tiplarini yaratish;
- mehnatni tashkil etish va boshqarishning yangi va takomillashgan usullari;
- ixtirochilik va ratsionalizatorlik takliflari.

Korxonalar, tarmoqlar va tarmoqlararo komplekslarda ishlab chiqarish sur'atini tezlashtirish, mahsulot hajmini ko'paytirish, uning sifatini oshirish, ishlab chiqarishning foydaliligini ko'tarish uchun fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish kerak bo'ladi. Bu ish ma'lum chora-tadbirlarni amalga oshirish hisobiga bo'lishi mumkin. Chora-tadbirlar albatta samarali bo'lishi kerak. Uni hisobga olmasdan, bahslashmasdan fan-texnika bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqarishga joriy etilmaydi.

Fan-texnika taraqqiyoti tadbirlari iqtisodiy samarasini hisoblash tartibi rasmiy hujjatlar, ya'ni metodik qo'llanmalarda izohlab berilgan.

Ularga quyidagilar kiradi:

- kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo'yicha Namunali metodika;
- iqtisodiyotda yangi texnika, ixtirochilik va ratsionalizatorlik tavsiflaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash metodikasi;
- korxonalar va ishlab chiqarish birlashmalari boshqaruvining avtomatlashtirilgan sistemasining iqtisodiy samaradorligini hisoblash metodikasi;
- boshqaruvning kompyuterlashtirilgan tizimining samaradorligini aniqlash metodikasi;
- mehnatni ilmiy tashkil etish (MIT) bo'yicha chora-tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash metodikasi;
- atrof-muhitni muhofaza etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun sarflangan xarajatlarning iqtisodiy samarasini aniqlash uchun vaqtinchalik metodika.

Undan tashqari, tarmoq vazirliklari, ilmiy tekshirish institutlari, loyiha tashkilotlari, oliy o'quv yurtlari ham metodik materiallar tayyorlashi mumkin.

Texnika taraqqiyoti eng avvalo yangi texnikani yaratish orqali amalga oshiriladi, ro'y beradi. Shu sababli yaratilgan va joriy etilayotgan texnika samarali yoki samarasizligini bilish kerak bo'ladi. Demak, samarani o'lchash va baholash kerak.

Yangi texnikaning iqtisodiy samaradorligi barcha sanoat tarmoqlarida, ilmiy-tekshirish institutlarida, loyihalash tashkilotlarida tegishli tadbirlarni avvalgi yillardagi o'zlashtirish natijalarini ifodalovchi hujjatlar asosida aniqlanadi.

Ilmiy-texnikaviy tadbirlarning ko'p yillik tajribalariga asoslangan turli

ko‘rsatkichlar, jumladan, mashina va texnikaviy vositalarni ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish natijasida erishiladigan yillik iqtisodiy samaradorlik quyidagicha aniqlanadi:

$$\hat{Y} = [z_1 \cdot \alpha - z_2 \cdot I] \cdot A_2 - S$$

Bu yerda: z_1 va z_2 – mavjud va yangi texnika yordamida mahsulot birligini ishlab chiqarish xarajatlari (keltirilgan xarajatlar);

α – yangi texnikaviy vositalarning sifatini, nisbiy afzalligini ifodalovchi koeffitsiyent bo‘lib:

$$\alpha = \frac{Q_2 P_1 + E_H}{Q_1 P_2 + E_H}$$

bu yerda: Q_1 va Q_2 – mavjud va yangi texnikaviy vositalar birligi yordamida yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;

P_1 va P_2 – mavjud va yangi texnikaviy vositalar qiymatidan ularni tiklash uchun ajratmalar salmog‘i;

E_H – yangi texnikadan foydalanish davrida erishiladigan samaradorlik. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\Pi = \frac{[U_1^1 - U_2^1] - E_H [K_2^1 - K_1^1]}{P_2 + E_H}$$

bu yerda: U_1^1 va U_2^1 – mavjud va yangi texnikadan foydalanish davridagi joriy xarajatlari;

K_1^1 va K_2^1 – mavjud va yangi texnikadan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan kapital qo‘yilmalar;

E_H – kapital qo‘yilmalarining norma darajasidagi samaradorlik koeffitsiyenti (0,15);

A_2 – yangi texnika joriy etilgandan keyin uning yordami bilan ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi;

C – yangi texnikani loyihalashtirish xarajatlari.

Yangi texnika samaradorligini hisoblash qiyosiy samaradorlikni aniqlash tamoyillariga asoslanadi. Hozirgi kunda bunday hisob-kitoblar iqtisodiyotda yangi texnikadan, ixtirochilik va ratsionalizatorlik takliflaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash metodikasi asosida amalga oshiriladi.

Bu metodikaga binoan iqtisodiy samara quyidagi formula yordami bilan ifodalanadi:

$$C = (X_1 - X_2) \cdot A_2,$$

bu yerda: C – yillik iqtisodiy samara, so‘m;

X_1 va X_2 – yangi texnika yordami bilan tayyorlangan mahsulot birligiga

sarflangan keltirilgan xarajatlar ($\mathbf{T} + \mathbf{E}_n \times \mathbf{K}$);

A_2 -hisobot yilida yangi texnika yordamida ishlab chiqarilgan mahsulotning yillik hajmi.

Yangi texnika va texnologiyaning iqtisodiy samaradorligini rejalashtirish va bashorat qilishda uning bir qator asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga, jumladan foydaning ko'payishi, mehnat unumdarligini oshishi mehnat, moddiy va kapital sig'imining pasayishi, mahsulot tannarxining kamayishiga ta'sir etishi hisobga olinadi. Masalan, yangi mahsulotni ishlab chiqarish hisobiga olinadigan rejali foydaning ko'payishi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$\Delta F_t = [(B_t - T_t) * A_t - (B_1 - T_1) * A_1]$$

bunda ΔF_t - kelgusi davrda foydaning oshishi (so'm hisobida);

B_t va T_t korxona ulgurji bahosi va yangi mahsulot birligining ishlab chiqarish tannarxi;

B_1 va T_1 -korxona ulgurji bahosi va almashtiriladigan mahsulotning yangi texnikani joriy etilgungacha bo'lgan yildagi tannarxi (so'm hisobida);

A_t va A_1 – kelgusi davrda ishlab chiqariladigan yangi mahsulot va yangi texnikani joriy etishgacha bo'lgan yildagi almashtiriladigan mahsulotning xajmi (so'm hisobida).

Yangi texnikaning samaradorligini hisoblash va tahlil etish uning ijtimoiy natijalari va oqibatlarini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Ular jumlasiga, mehnat sharoitlarini yaxshilish, xavfsizlik va qulaylikni ta'minlash, xodimlarning bilimi va ilmi hamda malakasini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, inson faoliyati uchun eng yaxshi sharoitlar yaratish kiradi.

7.4. Innovatsion faoliyat va uni investitsiyalash masalasi

Bozor iqtisodiyotida innovatsion investitsiyalashtirish jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga asoslangan ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan intensiv darajada olib borilishi bilan iqtisodiyot tarmoqlarini qamrab olishi kerak. Buning asosiy sababi quyidagilarda ifodalanadi:

- erkin raqobat sharoitida turli mulkchilik shakllariga asoslangan korxonalarining rivojlanishini turli darajada bo'lishi oqibatida, o'zlarining iqtisodiy mavqeini saqlab qolishlari ilm-fan va texnika yutuqlaridan foydalanish darajasiga bog'liq;
- innovatsion investitsiyalashtirish natijasida ishlab chiqarish jarayonida fan va texnika yutuqlaridan foydalanish, korxonalarga mahsulot hajmi, mehnat unumdarligi va mahsulot sifatining oshib borishi, yuqori darajada foya olishni ta'minlaydi.

Innovatsion investitsiyalashtirish iqtisodiy munosabatlar daraja-sida, ma'lum qiymatga ega bo'lgan yangilik yoki yangi ishlab chiqarilgan tovar

qiymatida innovatsion faoliyatda qatnashayotgan subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi.

Innovatsion munosabatlar investitsiya munosabatlarinish maxsus ilmiy va amaliy yangiliklarni yaratishga yoki takomillashtirishga yo‘naltirilgan munosabatlari bo‘lsada, u ham o‘z navbatida ishlab chiqarish jarayonida mulkchilik munosabatlarimi ifoda etadi. Yaratila-yotgan ilmiy va amaliy yangilik tovar sifatida ijtimoiy mehnat harajatlarining mahsuli, tovar bo‘lib, ishlab chiqarish munosabatlarini ifoda etadi. Demak, innovatsion tovarlarni ishlab chiqarishda tovar ishlab chiqaruvchi subyektlar qatorida, innovatsion faoliyat olib boruvchilar-kapital, mulk va tovar egalari ham subyektlar sifatida ishtirok etadilar.

Innovatsion investitsiyalashtirish munosabatlarida innovatsion tadbirkorlik subyektlari yoki ishlab chiqarish subyektlari ixtiyorida ilmiy yangiliklarni yaratish bilan shug‘ullanuvchi maxsus ishchi guruhlarni tashkil etish, yangiliklarni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan moddiy va moliyaviy resurslar bilan ta’minalash orqaligina innovatsion ishlab chiqarish munosabatlarini talab darajasida shakllantirish mumkin.

Innovatsion investitsiyalashtirishda bir necha subyektlar qatnash-gan holda har bir subyekt ma’lum bir yo‘nalishdagi vazifalarni bajarishi bilan, ma’lum bir yangiliklarni yaratishga va undan keladigan foyda qismini o‘zlashtirishga bo‘lgan intilishlari innovatsiya munosabatlarini rivojlantirishga olib keladi. Bu, albatta, xavf-xatarlar bilan ham bog‘liq. Ular ko‘zlagan natijaga ham erishmasligi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion investorlar innovatsiya ishlarini olib boruvchi subyektlar bilan innovatsiya ishlarini olib borish munosabatlarini ijtimoiy-iqtisodiy manfaatdorlik asosida tashkil etishlari kerak. Shuningdek ishlab chiqarish natijalarining samaradorligini oshirish uchun ilmiy tadqiqot laboratoriyalari, institutlar yoki maxsus texnologik yoki konstrukturlik bo‘limlari, yirik korporatsiya, konsern, aksionerlik birlashmalari huzurida yangiliklarni izlovchi bo‘limlar shaklida tashkil etish zarur.

Innovatsiya munosabatlari samaradorligini oshirish uchun quyidagilarga e’tibor berish zarur:

- innovatsion faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy izlanish jarayoni darajalaridan kelib chiqqan holda subyektlar o‘rtasida innovatsion munosabatlarni tashkil etish darajasiga;
- innovatsion ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborotlar bilan innovatsion subyektlarni ta’minalashga va yuqori intellektual darajaga ega bo‘lgan mutaxassislarni jalg etishga;
- innovatsion ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish resurslari bilan ta’minalashga;

- innovatsiya ishlarini olib boruvchilar faoliyatlarining samarali bo‘lishini ta’minlash uchun ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga.

Innovatsion samaradorlik investitsiyalashtirishda innovatsion muhitni shakllantirish, innovatsion munosabatlarni tashkil etish va uning natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish bilan bog‘liq.

Innovatsion tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish yoki yangi yo‘nalishda tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lib, uning yo‘nalishini aniqlash uchun quyidagi e’tibor berish zarur:

- tashkil etilayotgan ishning yangilik darajasiga;
- yangi ishlab chiqarish yunalishidagi tovar ishlab chiqarishning yo‘qligiga, uning iste’mol bozorining mavjudligiga;
- shu yo‘nalish bo‘yicha yangi innovatsion mahsulotlarni yoki xizmat turlarini investitsiyalashtirishning zarurligiga;
- innovatsion investitsiyalashtirish munosabatlarini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan muhitning mavjudligiga;
- innovatsion investitsiyalashtirish faoliyatini olib borish uchun zarur bulgan malakali xodimlar va mutaxassislar bilan ta’minlanish darajasiga.

Innovatsiya loyihalari vazirliklar, konsernlar, assotsiatsiyalar, mahalliy xokimliklar va boshqa ishlanmalar natijalarining iste’molchilari tomonidan xissadorlik asosida moliyalashtirilgan.

Hozirgi zamon ishlab chiqarilayotgan mahsulotlari yashashi va undan foydalanish davrining qisqaligi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham mahsulotlarni ishlab chiqarishni yangilash davri 3 yilni tashkil etadi. Ammo barcha ishlab chiqarish subyektlari ana shu qisqa vaqt ichida mahsulot ishlab chiqarishni yangilashga qodir emaslar. Demak, innovatsiya faoliyati bilan shug‘ullanish zarurmi degan masalaga emas, balki uning samaradorligini oshirishga e’tiborni kuchaytirish zarur.

Innovatsion faoliyatnnng samaradorligi uning boshqaruvi bilan bog‘liqdir. Respublikada innovatsion loyihalar doirasida energiya va resurslar tejamkor texnologiyalarini o‘zlashtirish va fan sig‘imi yuqori bo‘lgan mahsulot turlarini ishlab chiqarishni takomillashtirishga yo‘naltirilgan loyhalarga e’tibor berish alohida ahamiyatga egadir.

Innovatsiya mexanizmining birinchi bosqichida yaratilgan texnologiyalarning ishlab chiqarish sharoitiga mosligini o‘rganish, texnologik reglamentlarini moslashtirish, ishlab chiqarish bazasini takomillashtirish bilan bog‘liq ishlar amalga oshirilgan. Ikkinci bosqichida, innovatsion yangi texnologiyalarii to‘la o‘zlashtirish asosida ilmni ko‘p talab etadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatning **jahon** hamjamiyatidagi o‘rni va ahamiyati ko‘p jihatdan uning texnologik

rivojlanish darajasi, dunyo ilmiy-texnika taraqqiyoti sur'atlari nechog'lik muvofiqligi, o'zining ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishiga ishonchli ilmiy asos yaratilganligi bilan belgilanadi.

Innovatsiya sohasini tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion investitsiyalashtirish muhitini yaratishdan maqsad iqtisodiyot tarmoqlarining samarali rivojlanishi va bozor talablarini qondira oladigan darajada iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish, yokilgi, energetika va moddiy resurslardan tejamkorlik asosida foydalanishni ta'minlash;
- davlatning innovatsion investitsiyalashtirishni moliyaviy asosda qo'llab-quvvatlab turishi, davlat budgetidan ajratiladigan innovatsiya mablag'larining asosiy qismi yuqori texnologik ishlab chiqarish ishlamalarini yaratishga yo'naltirilishi;
- ishlab chiqarish subyektlari bilan oliy o'quv yurtlari o'rtasida innovatsion loyihalarni bajarishda xamkorlikka asoslangan guruhlarni tashkil etish hisobiga ishlab chiqarish texnologiyalarini takoomillashtirish yoki yangilashga erishish;
- xorijiy davlatlar, xususiy subyektlarning investitsiya miblag'larini innovatsion faoliyatga jalb etish uchun qulay investitsion muhitni yaratish kerak.

Shuning uchun hozirgi sharoitda innovatsiya islohotlarini amalga oshirish uchun ishlab chiqarish subyektlarini yetarli darajada shrur bo'lgan investitsiya mablag'lari bilan ta'minlanishini e'tiborga olgan holda, davlat tomonidan innovatsion tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni imtiyozli ravishda olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ularga yordam berish zarur.

Bu, birinchidan, respublika mintaqalarida mavjud bo'lgan, ammo investitsiya mablag'lari bo'lmaganligi sababli o'z faoliyatlarini innovatsion ishlab chiqarishlarini talab darajasida tashkil eta olmayotgan korxonalarning ishlab chiqarishni amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lsa; ikkinchidan, mavjud ishlab chiqarish asosida innovatsion jarayonni rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirish va bozor iste'mol talablarini qondirishga erishishni ta'minlaydi.

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan mustaqil innovatsion faoliyatni amalga oshirish, ularning xuquqiy subyekt sifatida javobgarligini va manfaatdorligini oshirish orqali innovatsion munosabatlarning samarali rivojlanishini ta'minlash mumkin.

Mamlakat miqyosida innovatsion faoliyat bozor talablarini e'tiborga olgan holda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qamrab olishi zarur. Aks holda soha va tarmoqlarni samarali rivojlantirish uchun zarur bo'lgan

miqdorda foydani olishga erishish qiyin muammo bo‘lishi bilan birga ishlab chiqarish jarayonini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish shaklida olib borishga salbiy ta’sir etadi.

Hozirgi iqtisodiy sharoitda innovatsiya faoliyatini rivojlantirishda ma’lum darajada tashkiliy iqtisodiy qiyinchiliklar mavjud, bular quyidagilardan iborat:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlarining ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanmasliklari oqibatida innovatsiya faoliyatini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan xususiy mablag‘larning yetishmasligi;
- korxonalarda innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi maxsus bo‘limlarning yo‘qligi;
- innovatsiya faoliyatini olib borish uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy jihatdan .boy bo‘lgan tajribalarga ega bo‘lgan malakali kadrlarning yetishmasligi;
- innovatsiya faoliyatini olib borish uchun maxsus laboratoriya, ishlab chiqarish bilan bog‘liq bulgan jixozlarning yetishmasligi;
- xorijiy mamlakatlardan innovatsion mahsulotlarning kirib kelishi respublika iqtisodiyoti tarmoqlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi.

Innovatsion yangiliklarni yaratish uchun ajratilgan mablag‘lardan foydalanishni nazorat qilish, undan samarali foydalanish uslublarini takomillashtirish, innovatsiya ishlarini olib boruvchi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni takomillashtirish ularning manfaatdorligi va javobgarligi bilan bog‘liq.

Yuqorida qayd etib o‘tganimizdagidek, innovatsion faoliyat ularning yetarli darajada investitsiya mablag‘lari bilan ta’milanish darajasiga bog‘liq. Bu muammoni hal etish, respublikada ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish uchun imtiyozli innovatsion kredit mablag‘larini beruvchi innovatsion bank tizimini tashkil etish hozirgi davr talabiga javob beradi.

Davlat tomonidan iktisodiyotni ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirish siyosati innovatsion ishlarni olib borishni rivojlantirish strategiyasiga asoslanishi kerak.

Innovatsiya mablag‘laridan foydalanish xavf-xatar bilan ham bog‘liq. Uning oldini olish uchun innovatsion investitsiya mablag‘lari sifatida xizmat qiluvchi qimmatli qog‘ozlarni chiqarish zarur. Bu qimmatli qog‘ozlar investor subyektlari uchun ma’lum miqdorda dividend keltirishi bilan xavf-xatar darajasini kamaytirish yoki to‘liq undan himoya qilishni ta’minlaydi.

Shu bilan birga, innovatsion muhit va faoliyat, innovatsion munosabatlarning samarali bo‘lishini ta’minlash uchun investor subyektlarning ham innovatsiya biznesida qatnashishlari zarur deb hisoblaymiz.

Innovatsion faoliyatni amalga oshirish munosabatlarini rivojlan-tirishda uni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish vositalarini kerakli darajada xom-ashyolar bilan ta’minlash ham katta ahamiyatga ega.

Davlat tomonidan innovatsion investitsiyalashtirish munosabat-larini takomillashtirish strategiyasiga asoslanib ishlab chiqarishda qulay innovatsiya muhitini shakllantirishda quyidagilarga e’tibor berish zarur³³:

- innovatsion investitsiyalashtirish davlatning moliya-kredit, soliq va amortizatsiya siyosati tomonidan belgilangan maqsadga;
- innovatsiya subyektlari uchun zarur bo‘lgan investitsiya mablag‘lari olish uchun berilgan imtiyozlarga;
- innovatsiya mahsulotlarini ishlab chiqarishga tatbiq qilinishiga e’tibor berish zarur.

Innovatsion investitsiyalashtirish va uning samaradorligini tahlili asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin:

- innovatsion investitsiyalashtirish ko‘p qirrali bo‘lib, u iqtisodiyot tarmoqlarinn keng ko‘lamda qamrab olgan holda innovatsion munosabatlarni rivojlantiradi;
- innovatsion faoliyatni olib borishni davlat tomonidan iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish siyosatidan kelib chiqqan holda uni rivojlantirish strategiyasiga asoslanish kerak;
- innovatsion investitsiyalashtirish faoliyatlarini olib borish uchun zarur bo‘lgan kasb-hunar xodimlari va mutaxassislar bilan ta’milanish darajasiga.

Qisqacha xulosalar

1. Sanoatda ilmiy-texnika bazasi – bu uning ilmiy salohiyati va barcha mehnat vositalarining majmuidir. Bu salohiyat eng avvalo sanoatni, so‘ngra, iqtisodiyotning boshqa sohalari rivojini ta’minlaydi.

2. Sanoat sohasida fan-texnika taraqqiyotini an’anaviy yo‘nalishlariga ishlab chiqarishni elektrlashtirish va elektronizat-siyalash, mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, Kimyolashtirish va yangi (progressiv) texnologiyalarni joriy etish kiradi.

3. O‘zbekiston Respublikasi bu borada o‘zining juda katta salohiyatiga ega. Mamlakatning izchil va barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun ana shu salohiyatdan to‘la-to‘kis foydalanish va fan-texnika taraqqiyotini yanada tezlatish zarur.

O‘z-o‘zini nazorat qilishga oid savollar

1. Fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati.

³³ Гайназарова З.Т. Инновацион инвестициялаштириш самарадорлигини ошириш.-Т.: ТошДТУ, 2013.-Б.41.

2. Texnika va texnologiyaning tavsifi va uning turlari.
3. Fan-texnika taraqqiyotining yo‘nalishlari:
4. Ishlab chiqarishni elektrlashtirish va elektronizatsiyalash; ishlab chiqarishni kimyolashtirish, yangi mehnat buyumlari, qurollari, energiya va yoqilg‘ining yangi turlarini yaratish;
5. Yangi texnikani ishlab chiqarishga joriy etishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash usuli.
6. Mikroiqtisodiyot va moliyaviy barqarorlikka erishish – ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish va ilg‘or texnologiyalar bilan qayta qurollantirishning bosh sharti.

8-BOB. ISHLAB CHIQARISHNI IJTIMOIY TASHKIL ETISH

Tayanch atamalar va iboralar: ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish, konsentratsiyalash, optimal yiriklikdagi korxonalar, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, korxonalarning ixtisoslashuvi, buyumlar bo'yicha ixtisoslashtirish, detalli ixtisoslashtirish, texnologik ixtisoslashtiriish, kooperativlashtirish, buyumli (agregatli) kooperativlashtirish, texnologik kooperativlashtirish, tarmoqlararo kooperativlashtirish, rayonlararo kooperativlashtirish, kombinatsiyalashtirish, kombinat, xomashyoni tayyor mahsulot olguncha ketma-ket bosqichlarda qayta ishlash, ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalanishga asoslangan holda mahsulot tayyorlash, xomashyoni yoppasiga qayta ishlash, xomashyoni kompleks qayta ishlashga asoslangan kombinatlashtirish

Reja:

- 8.1. Sanoatda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning shakllari va ularning o'zaro bog'liqligi**
- 8.2. Konsentratsiyalashtirish, uning shakllari va ko'rsatkichlari**
- 8.3. Ixtisoslashtirish, uning shakllari va ko'rsatkichlari**
- 8.4. Kooperativlashtirish, uning shakllari va ko'rsatkichlari**
- 8.5. Kombinatlashtirish, uning shakllari va ko'rsatkichlari**

8.1. Sanoatda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning shakllari va ularning o'zaro bog'liqligi

Mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga ularni umumlashtirish va ijtimoiy mehnat taqsimoti jarayonlari sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Sanoatni konsentratsiyalashtirish va kombinatsiyalashtirish ijtimoiy mehnatni yirik korxonalarda mujassamlashtirishni ifodalasa, ixtisoslashtirish hamda kooperativlashtirish esa sanoat tarmoqlari tarkibida mehnat taqsimoti va ularning hamkorligini ifodelaydi.

Mehnat taqsimotining rivojlanish darajasi va uni umumlashtirish jamiyat ishlab chiqarish kuchlari hamda munosabatlarining takomillashishida o'z aksini topadi.

Ishlab chiqarishni tashkil etishning bu shakllari mustaqillik tufayli va milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish munosabati bilan o'z mohiyati va mazmunini, maqsad va vazifalarini anchagina o'zgartirdi. Ayniqsa ishlab chiqarishni konsentratsiyalashtirish, kichik va o'rta korxonalarning paydo bo'lishi munosabati bilan ular o'rtasida uyg'unlashuv yuzaga keldi.

Sanoatda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning shakllariga quyidagilar kiradi:

- konsentratsiyalashtirish;
- ixtisoslashtirish;

- kooperativlashtirish;
- kombinatsiyalashtirish;

Konsentratsiyalashtirish - bu bir xil, o‘xhash mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarini yiriklashtirishdir.³⁴

Ixtisoslashtirish esa - bu alohida ishlab chiqarish sexlari, korxonalar, tarmoqlarni konstruktiv va texnologik jihatdan o‘xhash bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga yoki jarayonlarni bajarishga mujassamlashtirishdir.

Kooperativlashtirish – muayyan turdag'i mahsulotni hamkor-likda tayyorlash bo‘yicha korxona (firma)larning birgalikda faoliyat ko‘rsatishidir.

Kombinatsiyalashtirish - turli tarmoqlarga mansub bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarishni yoki jarayonlarni bir korxona miqyosida mujassamlashtirishdir.

Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida, Prezident asarlarida ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish masalalariga alohida e’tibor berilgan. Natijada ular oqilona ravishda, sanoat siyosatining barcha talablariga javob beradigan yo‘sinda rivojlanib bormoqda. Bu jarayonlarning zarurligi va ularni takomillashtirish masalalari milliy iqtisodiyot taraqqiyotining keyingi bosqichlarida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

8.2. Konsentratsiyalashtirish, uning shakllari va ko‘rsatkichlari

Ishlab chiqarishni konsentratsiyalashtirish – bu mahsulot tayyorlash, ish bajarish yoki xizmat ko‘rsatishni eng yirik korxonalarda to‘plash jarayonidir. Uning bir necha turlari mavjud. Ular agregat, texnologik, tashkiliy xo‘jalik va korxona (firma)larni yiriklashtirish shakllarida ifodalanadi.

Sanoatni konsentratsiyalashtirish agregat, texnologik, tashkiliy-xo‘jalik va zavodlarni yiriklashtirish shakllarida ifodalanadi.

Agregat shaklida ishlab chiqarishni konsentratsiyalashtirish - dastgochlarning quvvatini oshirishdir, ya’ni agregatlarning unumdorligini yuqori darajaga hamda muayyan turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarishning umumiyligi quvvatida yuqori unumdor agregatlar salmog‘ini ko‘paytirishdir. Bu jarayon sanoatning yetakchi, ayniqla, elektroenergetika, metallurgiya, kimyo, yoqilg‘i va qurilish materiallari tarmoqlarida sezilarli.

Konsentratsiyalashtirishga texnologik jihatdan o‘xhash ishlab chiqarishlarning quvvatini oshirish orqali erishish mumkin. Masalan, metallurgiyada - cho‘yan, po‘lat eritish, prokat ishlab chiqarish, to‘qimachilikda – yigirish, to‘qish, bo‘yash, mashinasozlikda - quyuv, mexanik ishlov berish, yig‘uv jarayonlarining mujassamlashishi.

³⁴ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.105.

Korxonalarini va ularning tarkibidagi sex va uchastkalarni yiriklashtirish ishlab chiqariladigan mahsulotning yillik hajmini ko‘paytiradi, mahsulot sifatini yaxshilaydi, mehnat unumdarligini oshiradi. Bunga yirik korxonalarini qurish, ishlab turgan korxonalarini qayta qurollantirish, kengaytirish, birlashmalarni tuzish yo‘li bilan erishiladi.

Iqtisodiy rayonlarning industrial rivojlanish darajasi, ularning tarkibidagi yirik, o‘rta hamda kichik sanoat korxonalarining salmog‘i bo‘yicha ifodalanadi.

Sanoatni konsentratsiyalash masalalarini ma’lum mahsulotlarga ehtiyoj, ularni ishlab chiqarish imkoniyatlarini hamda erishiladigan iqtisodiy natijalarni e’tiborga olgan holda hal etish tavsiya etiladi.

Korxonalar ishlab chiqarishning hajmiga binoan yirik, o‘rta va kichik turlarga bo‘linadi. Ular bir-biridan ishlab chiqariladigan mahsulot (ish bajarish, xizmat ko‘rsatish)ning hajmi, asosiy fondlarning qiymati, xodimlarning soni bilan farqlanadi.

Yirik, o‘rta va kichik korxonalarini qurish zarurati O‘zbekiston Respublikasining moddiy-texnika bazasini yaratishda vaqt omilining ahamiyati nihoyatda yuqoriligi bilan aniqlanadi.

Har bir sanoat korxonasi o‘z afzalliklari va kamchiliklari bo‘yicha bir biridan farqlanadi.

Yirik korxonalarining afzalliklariga quyidagilar kiradi:

- yuqori unumli texnika va ilg‘or texnologiyani qo‘llash va undan foydalanish imkoniyatlarining ko‘pligi;

- ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanish;

- xodimlar mehnat unumdarligining yuqoriligi;

- sanoatga ishlab chiqarish samaradorligini oshiradigan eng yangi fan-texnika yutuqlarini, o‘zlashtirishga ta’sir ko‘rsatadigan quvvatli konstruktorlik, texnologik va ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari, byurolarini tashkil etish imkoniyatlari;

- shartli-doimiy xarajatlarning kamligi;

- mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan asosiy va yordamchi xizmat ko‘rsatish xarajatlarining pastligi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida kichik korxonalarining o‘rni va roli juda katta ahamiyatga ega. Shu sababli mustaqillik yillarda o‘rta va kichik korxonalarining rivojlanishiga alohida e’tibor berildi. Natijada ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 50 foizdan oshmoqda.

Yirik, o‘rtacha va kichik korxonalar oqilona rivojlantirilgandagina ijtimoiy ishlab chiqarishning yuqori samaradorligiga erishish mumkin. Bu vazifani hal etish ishlab chiqarishni konsentratsiyalashtirishga bevosita bog‘liqdir. Buning uchun korxonalarining optimal yirikligini aniqlash kerak bo‘ladi.

Optimal yiriklikdagi korxonalar deb, texnika taraqqiyotining hozirgi

davrida mahsulot ishlab chiqarilishi va uni iste'molchilarga yetkazilishining minimal darajadagi ijtimoiy mehnat xarajatlari evaziga ta'minlaydigan korxonalarga aytildi.

Optimal yiriklikdagi korxonalar o'zaro bog'langan yirik, o'rtacha va kichik ishlab chiqarishlarni o'z ichiga olib, agar ularning har biri oqilona ixtisoslashgan bo'lsa, yirik korxonalarning barcha afzalliklarini o'zida saqlab qoladi. Demak, kelajakda O'zbekistonda madaniy-lashgan, to'laqonli, bozor iqtisodiyotini yaratish, iqtisodiyotning barcha sohalarida xususiy mulk miqyoslarini kengaytirish jarayoni yirik va o'rta korxonalarni oqilona uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

8.3. Ixtisoslashtirish, uning shakllari va ko'rsatkichlari

Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda uni ratsional tashkil etish, jumladan, ixtisoslashtirish muhim ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish (frans. – specialisation, lotincha specialis – ayrim, maxsus) – ijtimoiy mehnat taqsimotining shakli. Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish xilma-xil mahsulotlarni, ularni ishlab chiqarishning turli bosqichlarini bir biridan ajralib chiqishi tufayli yangidan yangi ko'pgina ishlab chiqarish sohalarining vujudga kelish jarayonidir³⁵.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida qishloq xo'jaligi, sanoat, qurilish va boshqa har xil ishlab chiqarishlar mustaqil soha bo'lib ajralib chiqqan. Bu sohalarning o'z ichida ham ajralib chiqish sodir bo'lishi natijasida biron alomatiga ko'ra bir-biriga yaqin korxonalarni birlashtiruvchi ixtisoslashgan tarmoq vujudga kelgan.

Alohida ixtisoslashgan tarmoqlar va korxonalar bir xil yoki turli mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga quyishga erishganlar hamda maxsus, o'ziga xos texnologiya jarayoni va ixtisoslashgan kadrlar bilan ajralib turgan va turishi mumkin.

Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishning eng birinchi va elementar shakli sanoatning boshlang'ich shakli bo'lmish hunarmandchilik bilan birga vujudga keldi. Mehnat taqsimoti asosida rivojlanayotgan tovar xo'jaligi natural xo'jaligi, ishlab chiqarishning universalizmini yemirib tashladi.

Korxonalarning ixtisoslashuvi - ularda mukammalroq texnika va texnologiya, mehnatni tashkil etishning ilg'or usullarini qo'llashni yengillashtiruvchi turdosh mahsulot ishlab chiqarishni mujassamlash-tirish jarayonidir.

Ixtisoslashtirish jarayonining taraqqiyoti ijtimoiy ishlab chiqarish-ning o'sishi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi bilan belgilanadi. Ixtisoslashtirish, o'z navbatida, ishlab chiqaruvchi kuchlar-ning rivojlanishiga yordam beradi. Ishlab chiqarish vositalari va ish kuchining

³⁵ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.108.

juda keng miqyosda birlashtirilishi hozir iqtisodiy zarurat bo‘lib qoldi. Hozirgi zamon texnika taraqqiyotining muhim omillari – elektronizatsiyalash, kompleks avtomatlashtirish, yangi materiallarni yaratish va joriy etish, ilg‘or texnologiyalarni, jumladan, biotexnolo-giyalarni vujudga keltirish ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish bilan bevosita bog‘likdir.

Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish sanoat korxonalarining ishini eng ratsional, oqilona tashkil etish hisoblanib, binolardan, jihoz va asbob-ukunalardan, materiallardan bekami-ko‘st foydalanishda, fan va texnikaning eng oxirgi yutuqlarini joriy etishda, takomillashgan maxsus mashina va asboblarni qo‘llashda, mehnat unumdorigini oshirishda, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish xarajatlarini tejashda katta samara keltiradi.

Korxona bo‘limlarining ixtisoslashuvi - ayrim sexlar, uchastkalar, ish joylarining ayrim mahsulotlar ishlab chiqarishga va jarayonlarni bajarishga ixtisoslashuvida ifodalanadi.

Sanoatda ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish jarayonining quyidagi shakllari keng tus olgan:

-birinchi, eng oddiy va keng tarqalgan shakli **buyumlar bo‘yicha ixtisoslashtirish**. Uning bunday shakli korxonalarini texnologik jihatdan bir-biriga o‘xhash bo‘lgan va cheklangan miqdordagi mahsulot turlarini ishlab chiqarishga moslashtirishdan iborat;

-ikkinchi, **detalli ixtisoslashtirish**, ya’ni buyum yoki mahsulotning bir qismini, uzel detalini (masalan, motor, reduktor, karbyurator, porshen, gilza, kuzov, bunker va h.k.larni) ishlab chiqarish;

-uchinchi, **texnologik ixtisoslashtiriish**. Bu ixtisoslashtirishning eng oliy shakli bo‘lib, mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasining ma’lum operatsiyalarini bajarishni o‘zida mujassamlashtiradi. Korxona-larda ishlab chiqariladigan mahsulot turlarining kengayishi ixtisosla-shishning doimo rivojlanishi va mukammallashuvining zarurligini ifodalaydi. Masalan, mashinasozlikda buyumlar bo‘yicha ixtisoslashish - ma’lum ishlab chiqarish tarmoqlari yoki ish turlari (paxta terish, yo‘l qurilishi) uchun mashinalar ishlab chiqarishning mujassamlashuvi yo‘nalishida rivojlanmoqda. Bunday ixtisoslashish konstrukturlarga ayrim tarmoqlarda mashinalarning ishslash sharoitlarini chuqurroq o‘rganish hamda mukammalroq texnika yaratish imkonini kengaytiradi. Bir korxona miqyosida tugallangan holatda mahsulot ishlab chiqarishning tashkil etilishi unga doimo xizmat qilib, zarur qismlarni yetkazib beruvchi ixtisoslashgan korxonalar tashkil etilishini taqozo etadi. Chunki barcha turdagи mahsulot ishlab chiqarishni bir korxonaga to‘plash mumkin emas. Shu tufayli qismlar yoki mahsulotning bo‘laklarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan zamonaviy korxonalar tashkil etilgan. Bu xil qismlar bo‘yicha ixtisoslashgan korxonalar ko‘proq mashinasozlikda ko‘rinadi.

Qismlar yoki mahsulot bo‘laklarini ishlab chiqarish bo‘yicha

ixtisoslashgan korxona va tarmoqlarga sharikopodshipniklar, porshen ishlab chiqaruvchi zavodlar, karbyurator zavodi, reduktor, asbob-anjomlar, quyma, ehtiyot qismlar, televizor transformatorlari, televizorga futlyarlar, kondensatorlar, yuqori bosimli nasoslar, divan-krovatlar uchun oyoqlar va boshqalarni ishlab chiqarish misol bo'la oladi. Masalan, sharikopodshipniklar, porshenlar, reduktorlar, motorlar va boshqalar tayyorlaydigan turli jarayonlarga tashkiliy jihatdan bo'linishi mumkin.

Korxonalarining texnologik ixtisoslashuviga mashinasozlik zavodlari uchun tayyor qismlar ishlab chiqaruvchi, quyuvchi va temirchi-presslovchi zavodlar, to'qimachilik fabrikalari uchun ip-yigiruv fabrikalari misol bo'la oladi.

Ixtisoslash darajasining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- ixtisoslashgan korxonalar ishlab chiqargan mahsulotining shu mahsulot turining umumiyligi salmog'i;

- ishlab chiqarilgan, texnologik jihatdan o'xshash bo'lgan assortimentdagi buyumlarning guruhlari, turlari.

Korxona tarkibidagi ixtisoslashuvni ta'riflash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalilanadi:

- dastgohlar ilg'or turlarining ushbu korxona yoki sex dastgoh-larining umumiyligi miqdoridagi salmog'i;

- potok liniyalarda o'rnatilgan dastgohlarning salmog'i. Masalan, potok usulida ishlab chiqarishda band bo'lgan metall qirquvchi dastgohlarning hamma asbob-uskunalar qiymatiga nisbati (foiz hisobida);

- korxona ishlab chiqaradigan turli mahsulotlarda unifikatsiyalash-tirilgan yoki bir shaklga keltirilgan detallar va qismlar salmog'i.

Ixtisoslashgan korxona (firma)lar va ularning bo'limlari sonining o'sishi ham ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi.

8.4. Kooperativlashtirish, uning shakllari va ko'rsatkichlari

Sanoatda korxonalar ixtisoslashuvining rivoji ishlab chiqarishni kooperativlashtirish asosida amalga oshadi.

Kooperativlashtirish - bu ma'lum mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmat bajarishni birgalikda olib borish bo'yicha tarmoqlar va ular korxonalarining davomli ishlab chiqarish aloqalari shakllaridan biri.³⁶

Kooperativlashtirishda mahsulot yetkazib berish tartibi ishlab chiqarish jarayonida buyurtmachining ma'lum ishlab chiqarish-texnikaviy topshiriqni bajarishini hisobga olishini talab etadi. Kooperativlashtirish xomashyo, yoqilg'i va standartlashtirilgan yarimfabrikatlar hamda buyurtmalarni yetkazib berish bosqichlarini qamragan holda moddiy-texnika ta'minotidan

³⁶ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.110.

farqlanadi.

Kooperativlashtirish murakkab mahsulotlarni ishlab chiqarishni o‘zlashtirishni tezlashtirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilash bilan bog‘liq bo‘lgan muhim vazifalarni hal etishga imkoniyat yaratib beradi.

Sanoatning rivojlanish davrlarida ishlab chiqarishni kooperativlashtirishning bir qancha samarali shakllari vujudga keldi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- buyumli (agregatli) kooperativlashtirish;
- texnologik kooperativlashtirish;
- tarmoqlararo kooperativlashtirish;
- iqtisodiy rayonlararo kooperativlashtirish.

Buyumli (agregatli) kooperativlashtirish - bu mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqaruvchi bosh korxonaga turli butlovchi buyum va detallarni yetkazib beruvchi korxonalarning faoliyatidan iborat. Masalan, detallar bo‘yicha kooperativlashtirish usulida ixtisoslashgan korxonalar bosh korxonaga sharikopodshipniklar, porshenlar, turli uzellar va asbob-uskunalarning qismlarini yetkazib berishlari mumkin.

Texnologik kooperativlashtirish – bu bir va bir necha korxonalar o‘rtasida alohida jarayonlarlarni bajarish bo‘yicha hamkorlikdir. Ishlab chiqarishning qaysi tarmoqqa taalluqliligi nuqtai nazaridan tarmoq va tarmoqlararo ishlab chiqarish koooperatsiyasi vujudga keladi.

Tarmoqlararo kooperativlashtirish sanoat tarmoqlarining bir biriga xizmat ko‘rsatishini ifodalaydi. Masalan, sanoat ishlab chiqarishining mashinasozlik tarmog‘i metallurgiya sanoati bilan hamkorlik qilishi mumkin. Kooperatsiya asosida ma’lum mahsulotlarni tayyorlashi, bir biriga butlovchi buyumlar yetkazib berishi va muayyan ishlarni bajarib berish mumkin.

O‘zaro bog‘liq bo‘lgan korxonalarni joylashtirish nuqtai nazaridan iqtisodiy rayonlar miqyosida va rayonlararo kooperativlashtirish keng tus olishi mumkin.

Rayonlararo kooperativlashtirish turli iqtisodiy hududlarda joylashgan korxonalar o‘rtasidagi aloqalarni ifodalaydi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etishning bu shakliga baho berish uchun uning ahvolini va imkoniyatlarini bilish lozim. Buning uchun har xil ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- birinchidan, ushbu korxona bilan hamkorlik qiluvchi korxonalar soni. Bunda yetkazib beruvchi va buyurtmachi korxonalarning soni alohida-alohida hisob-kitob qilinadi. Masalan, avtomobil zavodlari yuzlab korxona (firma)lar bilan hamkorlik qilsalar, stanoksozlik korxonalarining ishlab chiqarish aloqalari atigi bir nechta korxonalar bilan chegaralangan bo‘ladi.
- ikkinchidan, kooperatsiya usulida olinayotgan yarim fabrikatlar va butlovchi buyumlarning ushbu korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan

tayyor mahsulot tannarxidagi ulushi. Masalan, avtomobil tannarxida tashqaridan kooperativlashtirish yo‘li bilan olinadigan yarim fabrikatlar va butlovchi buyumlarning ulushi taxminan 40-45 foizni tashkil etadi.

8.5. Kombinatsiyalashtirish, uning shakllari va ko‘rsatkichlari

Sanoatning har bir tarmog‘ida katta korxonalar bo‘laveradi. Lekin ikkinchi tomondan zamonaviy sanoatga kombinatsiya degan narsa xosdir. Sanoatni kombinatsiyalashtirish turli sanoat tarmoqlarining bir korxonada qo‘shilishidirki, bu tarmoqlar yo‘xomashyoni ketma-ket ishlab beruvchi tarmoqlar (masalan, rudadan cho‘yan quyish va cho‘yanni po‘latga aylantirish, so‘ngra, ehtimol, po‘latdan turli mahsulotlar ishlab chiqarish) yoki biri ikkinchisiga nisbatan yordamchi rol o‘ynovchi tarmoqlar (masalan, chiqindilarni yoki qo‘shimcha mahsulotni ishlash; upakovka buyumlari ishlab chiqarish va h.k.) bo‘ladi.

Kombinat tarkibidagi bo‘limlarning texnik-iqtisodiy birligi, ishlab chiqarish quvvati, mahsulot miqdori, turlari va sifati bo‘yicha o‘zaro mosligi ular o‘rtasidagi iqtisodiy aloqadorlikni ifoda etadi. Bo‘linmalar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqadorlik esa turli yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin.

Kombinatning xomashyo, energetika va transport manbalari birligi, uning barcha ishlab chiqarish bo‘linmalarining umumiyligini kommunikatsiya (suv, bug‘, gaz, elektr bilan ta’minlash) tizimlari birlashganligini, umumiyligini transport xo‘jaligidan foydalanishini, dastlabki xomashyolarni yoki ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlashini, bir-birlarini yarim fabrikat yoki chala mahsulot bilan ta’minlashini ko‘rsatadi.

Kombinatsiyalashtiriladigan korxonalarining hududiy birligi yagona texnologik tizimni tashkil etuvchi birlashtiriladigan ishlab chiqarishlarning uzviy texnologik bog‘liqligidan kelib chiqadi. Bu tizimda uzilish bo‘lmasligi uchun, kombinatning barcha ishlab chiqarish bo‘limlari bir maydonda joylashtiriladi. Bu kimyoviy-texnologik va termik ishlab chiqarish jarayonlari (kimyoviy, metallurgiya, neft-kimyo, oziq-ovqat va h.k.) ustun bo‘lgan kombinatsiyalashtirilgan korxonalar uchun ayniqsa muhimdir. Kombinatsiyalashtirishni rivojlantirishning asosiy sharti ishlab chiqarishni yiriklashtirishdir.

Kombinatsiyalashtirish natijasida xomashyodan, ishlab chiqarish chiqindilaridan to‘liq foydalanish imkoniyati yaratiladiki, bu esa sanoatning xomashyo manbaini kengaytiradi.

Kombinatsiyalashtirish sanoat ishlab chiqarishda jarayonlarni uzlusiz olib borish, ularni qisqartirish, ishlab chiqarishni jadallashtirish va natijada ish kuchini tejash, ishlab chiqarishning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bunday ishlab chiqarish sharoitida bir qator qurilish obyektlari uchun kapital xarajatlar, mahsulot va xomashyoni uzoqqa tashish, umumzavod xarajatlari qisqaradi, mahsulot ishlab chiqarish hajmi

ortadi, tannarxi kamayib, sifati esa ancha yaxshilanadi va iste'molchilar talabi to'laroq qondiriladi.

Kombinatlashtirishning quyidagi shakllarini ajratish mumkin:

-xomashyoni tayyor mahsulot olguncha ketma-ket bosqichlarda qayta ishslash;

-ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalanishga asoslangan holda mahsulot tayyorlash;

-xomashyoni yoppasiga qayta ishslash.

Xomashyoni kompleks qayta ishslashga asoslangan kombinatlashtirish eng rivojlangan ishlab chiqarish bo'lib juda katta iqtisodiy ahamiyatga egadir. Chunki bu shaklda xomashyo, materiallar va chiqindilardan to'la-to'kis foydalanish mumkin bo'ladi. Kombinatlashtirishning bunday zarurligi xomashyo tarkibida turli elementlarning mavjudligi bilan belgilanadi. Masalan, Ohangaron rudalarining ko'p qismi kompleks, polimetallik tavsifga ega bo'lib, ulardan ba'zi bir elementlarning qiymati mis qiymatidan 9-10 barobar yuqoridir. Hozirgi zamon texnika va texnologiyasi yordamida u yerda mis bilan birga oltingugurt, qalay, qo'rg'oshim, oltin, selen, telur va boshqa bir qator nodir buyumlar olimmoqda.

Alovida kombinatning rivojlanish darajasi o'sha kombinat qamrab olgan tarmoqlar va ishlab chiqarish stadiyalarining soni bilan tavsiflanadi. Shu sababli odatda to'la-to'kis va to'la bo'limgan kombinatlarni farqlaydilar. Masalan, to'la-to'kis to'qimachilik kombinati barcha bosqichlar (yigirish, to'qish va pardozlash)ni qamrab oladi. To'la bo'limgan to'qimachilik kombinati esa o'z ichiga bir yoki ikki bosqichni oladi.

O'zbekistonda ishlab chiqarishni kombinatlashtirish juda yuqori darajaga ko'tarilgan. U aynilsa metallurgiya, kimyo, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatida keng tarqalgan. Respublikada bu tarmoqlarga taalluqli juda yirik, dunyo miqyosida tan olingan kombinatlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ular jumlasiga Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinati, Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinati boshqalarni kiritish mumkin.

Qisqacha xulosalar

1. Ishlab chiqarishni konsentratsiyalash - bu ishlab chiqarishning tobora yirik korxonalarda jamlanish jarayonidir. Ishlab chiqarish konsentratsiyasi darajasi katta korxonalarning butun tarmoqda umumiyl ishlab chiqarilgan mahsulotlarda solishtirma og'irlilik ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi.

2. Ko'p ukladli va ijtimoiy yunaltirilgan bozor iqtisodiyotida kichik va o'rta korxonalar mahsulotlarining solishtirma og'irligini yuksaltirish muhim ahamiyatga ega. Katta, o'rta, kichik korxonalarni birga olib borish ijtimoiy taraqqiyotning ko'pgina iqtisodiy va ijtimoiy muammolarini to'g'ri yechish uchun yordam beradi.

3. Sanoatning ixtisoslashuvi muayyan mahsulot ishlab chiqaruvchi va o‘ziga xos ishlab chiqarish apparati, texnologik jarayon va ixtisoslashgan kadrlar bilan tavsiflanuvchi tarmoq va ishlab chiqarishning ajratilishi bilan ifodalanadi.

4. Ishlab chiqarishni kooperativlashtirish - bu muayyan bir mahsulotni hamkorlikda ishlab chiqaruvchi korxonalar o‘rtasidagi ishlab chiqarish aloqalaridir.

5. Kombinatlash - bu yoki xomashyoni qayta ishlovchi ketma-ket bosqichlardan iborat yoki yordamchi ahamiyatga ega bo‘lgan turli sanoat tarmoqlarining bir korxonada birlashishidir. U xomashyoni va materiallarni muntazam bosqichlarda qayta ishlashni, ularni kompleks ravishda ishlatishni ta’minlaydi hamda kamchiqimli va umuman chiqindisiz texnologiyalarni joriy qilishga imkoniyat tug‘diradi.

6. O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi sanoatning mamlakat hududi bo‘ylab geografik joylashtirilishiga chuqur o‘zgarishlar kiritdi. Sanoat ishlab chiqarishining joylashtirilishi ko‘pukladli iqtisodiyot va bozor munosabatlariga o‘tish qonuniyatlariga tayangan tamoyillarga muvofiq holda amalga oshirilmoqda.

7. Sanoatning to‘g‘ri joylashtirilishi - butun ijtimoiy ishlab chiqarish o‘sishini tezlashtirishning va respublika xavfsizligini ta’minlashning eng muhim shartlaridan biridir.

8. Qurilish rayoni va joyini asoslashda qurilish, shuningdek, yaratilayotgan obyektning keyinchalik qilinadigan eksplutatsiyasining nominal tejamkorligi hisobga olinadi.

O‘z-o‘zini nazorat qilishga oid savollar

1. Sanoat ishlab chiqarishini ijtimoiy tashkil etish shaklining tarkibiy qismlari.
2. Ishlab chiqarish konsentratsiyasining mohiyati, mazmuni, shakllari, ko‘rsatkichlari.
3. Kichik va o‘rta korxonalar konsentratsiyasi va samaradorligining optimal hajmlari.
4. Sanoatda ixtisoslashuv va kooperatsiya. Ularning mazmuni, ko‘rsatkichlari va samaradorligi.

9-BOB. SANOATDA KADRLAR VA MEHNATGA HAQ TO'LASH

Tayanch atamalar va iboralar: kadrlar siyosati, kadrlar potensiali, yuqori malakali kadrlar, kadrlar (xodimlar), kadrlarga bo'lgan talab, ishchi xodimlar, muhandis-texnik xodimlar, xizmatchilar, ish bajaruvchi kichik xodimlar, «mutaxassislik», «ixtisoslik», «malaka», «Kadrlar tuzilmasi», kadrlar tarkibi, kadrlarni tanlash, kadrlar attestatsiyasi, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, mehnat, ish haqi, mehnat bozori, mehnatni normalash, ish haqining shakllari va tizimlari, tarif tizimi, tarif stavkalari, tarif-malaka ma'lumotlari.

Reja:

- 9.1. Kadrlar siyosati va uning sanoat taraqqiyotidagi roli**
- 9.2. Kadrlar, ularning tarkibi**
- 9.3. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish**
- 9.4. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash**
- 9.5. Mehnat va unga haq to'lash.**

9.1. Kadrlar siyosati va uning sanoat taraqqiyotidagi roli

Sanoat taraqqiyotining muammolari umumiyligi majmuida uni xodimlar bilan ta'minlash masalasi, ularning manbalari, tayyorlash va qayta tayyorlash shakllarini hamda ulardan oqilona foydalanish masalalarini aniqlash alohida o'rinni egallaydi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharotida sanoat korxona (firma) larni kadrlar (xodimlar) bilan ta'minlash va ulardan oqilona foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Xodimlar (kadrlar) o'zlarining bilimi va ilmi, mehnat malakasi, ishlab chiqarish tajribasi va ma'naviyati bilan ishlab chiqarish kuchlarining muhim unsuri hisoblanadi. Ular fan-texnika taraqqiyoti rivojining, mehnat unumdarligini oshirish, asosiy va aylanma fondlardan foydalanishni yaxshilash, mahsulot sifatini oshirishning va uning tannarxini pasaytirishning barcha sohalari, barcha tomonlarining samaradorligini belgilaydilar.

Shu sababli ham «Hamma ishlarni kadrlar, hal qiladi» - degan mashhur qoida hozirgi kunda ham aslo o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Aksincha, bu asosiy fikr hukumatimiz qarorlarida o'z isbotini topmoqda.

Sanoat ishlab chiqarishida nafaqat mehnat qurollari va mehnat buyumlari (ishlab chiqarish vositalari), balki kadrlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan kadrlar ishlab chiqarishni boshqaradilar, joriy va istiqbolga tegishli rejalshtirishni va bashorat qilishni amalga oshiradilar, ishlab chiqarish vositalari va moliyaviy resurslarni harakatga keltiradilar. Kadrlarning bilimi, ilmi, kasbiy mahorati qanchalik yuqori bo'lsa, sanoat faoliyatining ishlab chiqarish – iqtisodiy parametrlari shunchalik yuksak bo'ladi. Demak, sanoat ishlab chiqarishining ahvoli, holati, rivoji uning

kadrlar potensiali bilan belgilanadi.

Shu yerda «potensial» atamasining ma’nosini tushuntirib o‘tish kerak bo‘ladi, chunki bu tushuncha bozor iqtisodiyoti sharotitida juda ko‘p ishlataladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida «potensial» so‘zi lotincha «potentia» so‘zidan olinganligi va imkoniyat, kuch-qudrat, yashirin imkoniyatlar ma’nolarini bildirishi ta’kidlangan. Odatda bu atamada mavjud bo‘lgan va safarbar etilishi, harakatga keltirilishi, ma’lum maqsadlarga erishish uchun foydalaniishi mumkin bo‘lgan vositalar, zahiralar va manbalar ham izohlanishi mumkin.

Kadrlar potensiali – bu mehnat zahirasi yoki imkoniyatidir. U jamiyat mehnat potensialining tarkibiy qismi hisoblanadi. Unda mehnat resurslarining umumiyligi va ularning tarkibi, ma’lumot darajasi, professional ko‘nikmasi va ishlab chiqarishning u yoki bu sohasida mehnat qilish qobiliyati aks etadi³⁷.

Sanoat ishlab chiqarishining muvaffaqiyati pirovard natijada rahbar kadrlarning yetukligiga, bilim va ilmining darajasiga, ish malakasi hamda tashkilotchilik qobiliyatiga, ularni to‘g‘ri tanlash, joy-joyiga qo‘yish va tarbiyalashga bog‘liqdir.

Davlat kadrlar siyosatini jamiyat hayotining barcha tomonlariga rahbarlik saviyasini oshirish bilan, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotning barcha sohalarida jamoa tashkilotlarining rahbarlik rolini kuchaytirish bilan bevosita bog‘laydi. Davlat va nodavlat tashkilotlari kadrlar bilan ishlashni muttasil nazorat qilib boradilar va mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda kadrlar masalasida davlat siyosatini amalga oshiradilar.

Ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatining har qanday sohasida, shu jumladan, sanoat tarmog‘ida ham natijalilik, samaradorlik ko‘p jihatdan o‘rta bo‘g‘in kadrlarga bog‘liq. Ular rahbarlarning eng ko‘p sonli kategoriysi bo‘lib, ishlab chiqarishga hammadan yaqinroq turadilar. Shu boisdan respublikada o‘rta bo‘g‘in kadrlarga alohida ahamiyat beriladi.

Kadrlar siyosatining mazmuni, uni amalga oshirishda amal qilinadigan bir qator tamoyillar mustaqillikka erishilgandan keyin butunlay o‘zgardi. Kadrlar ishining usullari, shakllari, bu ishga yondoshishning siyosiy va tashkiliy rahbarlik usullari haqidagi qoidalar qaytadan ishlab chiqildi.

Ma’lumki, siyosat kishilar orqali yuritiladi. Har qanday tashkiliy masalalarni siyosatdan ajratish mumkin emas. Shu sababli, odatda xodimlarning ishchanlik va siyosiy xislatlariga; oshkoraliqka va xodimlarni ochiq-oshkora tanlashga, rahbarlikning davomiyligiga rioya qilgan holda ularni o‘zgartirib turishga; keksa va yosh kadrlarni qo‘yib ishlatishtga, kadrlarga ishonishga hamda ularga nisbatan qat’iy talabchan bo‘lishga; davlatning asosiy vazifalari va xodimlarning shaxsiy qobiliyatlariga muvofiq

³⁷ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.116.

tarzda kadrlarni joy-joyiga qo‘yishga; ularning ajoyib fazilatlari va kamchiliklarini o‘rganishga; xo‘jalik va siyosiy rahbarlarning g‘oyaviy-nazariy saviyasini muttasil oshirib borishga katta ahamiyat beriladi.

Kadrlar siyosatining dolzarb muammolari Prezident asarlari va nutqlarida nazariy jihatdan chuqur mushohada etilgan va har taraflama asoslab berilgan. Kadrlar siyosati Oliy Majlis tomonidan ko‘rib chiqiladi, ko‘pgina qonun va qororlarda o‘z ifodasini topadi.

1997 yilning avgust oyida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi va ta’lim tizimining aniq strategiyasi yaratildi. Bu dasturning maqsadi – ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir. Bu strategik fenomen mamlakatimizda ta’lim tizimini eng zamonaviy talab – ehtiyojlar asosida o‘zgartirib yubordi. Davrimizning bu ulug‘vor hujjati qabul qilingandan beri kadrlar tayyorlash borasida tub yangilanishlar yuz berdi. Lekin keyingi vaqtida bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan mutaxassislar yetishmayotganligi sezilib qoldi. Shu sababli Respublika Prezidenti va Oliy Majlis hamda Vazirlar Mahkamasi istiqlol, mustaqillik bilan hamkorlik qilishga rozi bo‘lgan, tayyor turgan barcha mutaxassislarni ishga jalb eta oldi. Ayni bir vaqtida yoshlar orasidan rahbar kadrlarni izlash, tanlash, tayyorlash va tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Mavjud xodimlardan g‘oyat oqilona foydalanish manfaatlarini ko‘zlab, ularni bir ish sohasidan boshqa ish sohasiga hamda bir hududdan boshqa bir hududga yuborish usulini keng qo‘lladi.

Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning barcha sohalari uchun yuksak malakali kadrlar tayyorlash borasida juda katta ishlar amalga oshirildi. Milliy iqtisodiyotning, jumladan, sanoatning hal qiluvchi lavozimlariga rahbarlik izlanuvchan, yangilikka intiluvchi, fidoyi, tafakkuri o‘tkir, tashkilotchilik qobiliyati zo‘r, o‘z ishini yaxshi biladigan mutaxassislar qo‘lida jamlangandir.

O‘zbekiston iqtisodiyotida 2004 yilda 10 millionga yaqin mutaxassis ishlagan bo‘lsa, ulardan 3 millioni oliy ma’lumotli va 4,5 millioni o‘rta maxsus ma’lumotli kishilar hisoblanadi. O‘zbekiston iqtisodiyotida 2015 yilda 13 milliondan oshiq mutaxassis ishlagan bo‘lsa, ulardan 4,4 millioni oliy ma’lumotli va 5,7 millioni o‘rta maxsus ma’lumotli kishilar hisoblanadi³⁸. Ushbu davrda sanoatda band bo‘lganlar soni 1,7 millionga yaqin bo‘lgan bo‘lsa, ulardan 285 mingi oliy ma’lumotli va 730 mingi o‘rta maxsus ma’lumotli kadrlar hisoblanadi³⁹.

³⁸ Muallif tomonidan Ўзбекистонда меҳнат ва бандлик. Статистик тўплам. Давлат статистика қўмитаси. Тошкент 2016, 27, 29, 30, 34 бетлар yordamida hisoblab chiqilgan.

³⁹ O’sha yerda.

Mamlakatimizda XXI asr kadrlari o'sib yetishmoqda, ular iqtisodiy, ijtimoiy va fan-texnika taraqqiyotining eng murakkab muammolarini hal etishga qodirdirlar.

9.2. Kadrlar, ularning tarkibi

Kadrlar (xodimlar) – bu muayyan kasbni egallash bo'yicha tayyorgarlikni o'tgan, amaliy tajriba va mehnat ko'nikmasiga ega bo'lgan ishlab chiqarish sohasida ish bilan band bo'lgan kishilardir.⁴⁰

Kadrlarga bo'lgan talabni aniqlash, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash, ulardan oqilona foydalanish, kadrlarning mehnati bo'yicha rejalashtirish va hisobga olish va boshqa yo'nalishlar bilan mujassamlashtirish uchun xodimlarni guruhlarga ajratish kerak bo'ladi, ya'ni tasniflash zarur.

Sanoat xodimlari quyidagicha tasniflanadi⁴¹:

1. Ishlab chiqarish jarayonida bajaradigan funksiyalariga binoan personal oltita kategoriyaga bo'linadi: ishchilar (asosiy va yordamchi), muhandis-texnik xodimlar, xizmatchilar, kichik xizmat ko'rsatuvchi personal, shogirdlar, qorovullar.

2. Faoliyat turining xarakteriga binoan xodimni u yoki bu kategoriyaga kiritishga uning ma'lumoti emas, balki egallab turgan lavozimi asos bo'la oladi.

3. Texnologik jarayonda ishchilarning ishtiroki tamoyili bo'yicha: mahsulot ishlab chiqarishda ishtiroki bo'yicha ishchilar asosiy va qo'shimcha ishchilarga bo'linishadi, muhandis-texnik xodimlar esa – rahbarlar, mutaxassislar va texnik ijrochilarga bo'linishadi.

4. Ishlash muddati bo'yicha: doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik xodimlarga bo'linadi.

Moddiy ishlab chiqarishning barcha xodimlari ikki guruhga bo'linadi:

1) asosiy faoliyatda band bo'lgan personal (sanoat-ishlab chiqarish personali)

2) asosiy bo'limgan faoliyatda band bo'lgan personal yoki boshqa personal: ushbu kategoriyaga korxona tarkibiga kiruvchi nosanoat tashkilotlarining personali kiradi.

Ishlab chiqarish tarkibi o'ta murakkab bo'lgan sharoitlarda mehnat xarajatlarini aniq hisobga olish va boshqarish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Shu sababdan, ishchi-xodimlarni asosiy mahsulot ishlab chiqarishda ishtiroki darajasidan kelib chiqib 5 guruhga bo'linadi:

1. "A" kategoriyasi - korxona ishlab chiqarishining asosiy maqsadi bo'lgan mahsulotni bevosita ishlab chiqarishda qatnashuvchi ishlab chiqarish

⁴⁰ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.117.

⁴¹ <https://studlib.info/proizvodstvo/1810835-klassifikaciya-rabotnikov-predpriyatiya/>

ishchilarini.

2. “B” kategoriyasi – “A” kategoriyasi ishchilarining ish joylariga bevosita xizmat ko‘rsatuvchi yordamchi ishchilar. Ularga – sozlovchilar, nazoratchilar, kranchilar, ishlarni taqsimlovchilar va bevosita ishlab chiqarish uchastkalarida band bo‘lgan yordamchi ishchilar.

3. “Ca” kategoriyasi – mehnat vositalari (instrument, jihozlar, texnologik uskunalar)ni yaratish, ta’mirlash va ularga xizmat ko‘rsatish bilan band bo‘lgan ishchilar.

4. “Cb” kategoriyasi – “B” kategoriyasidagi ishchilarning ishlarida band bo‘lgan ishchilar, lekin “Ca” kategoriyasi ishchilarining ish o‘rinlariga bevosita xizmat ko‘rsatuvchilar.

5. “D” kategoriyasi – umumzavod xizmatlari (laboratoriya, aloqa va boshq.) ishchilarini.

Tarmoq va korxona faoliyatini rejalashtirish va tahlil etishda, ayniqsa mehnat unumdoorligini hisoblash, o‘rtacha ish haqini aniqlash, kadrlar qo‘nimsizligini aniqlash uchun xodimlarning o‘rtacha soni ko‘rsatkichi ko‘p ishlatiladi.

Kadrlar salohiyatini miqdoriy baholash bilan birgalikda ularni sifat jihatdan ham tavsiflash kerak bo‘ladi. Bu jihatlar xodimlarning professional va malakaviy fazilatlari bilan belgilanadi. Bu borada, birinchi o‘rinda «mutaxassislik», «ixtisoslik», «malaka» degan tushunchalar yuzaga keladi.

Mutaxassislik – bu ma’lum bir yoki bir necha turdagি ishlarni amalgalash uchun insonga zarur bo‘lgan bilimlar va malakalar yig‘indisi. Masalan, iqtisodchi, marketolog, vositachi, moliyachi, buxgalter, yoki texnika sohasida – muhandis, mexanik, energetik va h.k.

Ixtisos – insonning hosil qilgan bilimlar va amaliy ko‘nikmalari majmui. Ixtisos kishiga hayotning moddiy va ma’naviy sohasida muayyan ishni bajarish imkoniyatini beradi.

Malaka – biron bir mutaxassislik va ixtisoslik bo‘yicha murakkab ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ilm hamda mehnat ko‘nikmasining darajasidir. Kadrlarning malaka darajasini baholash uchun o‘rtacha koeffitsiyent va o‘rtacha tarif koeffitsiyenti razryadi belgilanadi.

Yangidan-yangi ishlab chiqarish sohalari vujudga kelishi, fan va texnikaning rivoji, ish, shu jumladan, bir texnologik jarayonning boshqa jarayonga almashinishi bilan boshqaruv, rejalashtirish, tashkil etish, takomillashuvi bilan yangi mutaxassisliklar kasb va ixtisoslar yuzaga keladi, eskirganlari barham topadi.

Kadrlar ilmini o‘rganish nazariyasida **«Kadrlar tuzilmasi»** degan tushuncha mavjud. Masalan, korxona xodimlari umumiyligi sonini 100 foiz deb olsak, ishchilar 75 foizni, muhandis-texnik xodimlar 12 foizni, xizmatchilar 8 foizni, boshqa xodimlar esa 5 foizni tashkil etishi mumkin. Bu misoldan ko‘rinib turibdiki, xodimlar kategoriyalari, ya’ni ularning tarkibiy qismlari

o‘rtasidagi nisbat ularning tuzilmasini ifodalaydi.

Kadrlar tarkibi faqat korxonalarda emas, balki tarmoqlarda ham bir-biridan farq qilishi mumkin. Bu tarmoqning murakkabligiga, korxona (firma)ning katta-kichikligiga, ularning texnikaviy va texnologik jihatdan qurollanganligiga, ishchi-xizmatchilarning bilimi va ilm darajasiga va mehnat ko‘nikmasiga, sohaning hamkorlik munosabatlari rivojlanganligiga va boshqa bir qator xususiyatlarga bog‘liq.

9.3. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish

Kadrlarni tanlash, ularni joy-joyiga qo‘yish, ulardan oqilona foydalanish va tarbiyalash masalasi kadrlar siyosatining, umumiy iqtisodiyotning, shu jumladan, makro- va mikroiqtisodiyotning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida bu masalaga alohida e’tibor berilgan.

Kadrlarni tanlashda, ularni joy-joyiga qo‘yish, foydalanish va tarbiyalash borasida quyidagi tamoyillarga alohida e’tibor berish kerak:

- aql-idrok, did va farosat;
- qat’iylik, matonatlilik, muhimlik, o‘z vazifasiga puxtalik;
- rahbarlik sohasini juda yaxshi bilish;
- o‘z eliga, yurtiga, Vataniga sadoqatli bo‘lish.

Kadrlar siyosatining eng muhim masalalaridan biri ularni attestatsiya qilish masalasidir.

Kadrlar attestatsiyasi – bu xodimlarning malakasini bilim va ko‘nikmalarining darajasini, faoliyatining samaradorligini, ishdagi, xizmatdagi va boshqa sohalardagi fazilatlari, egallab turgan lavozimiga to‘g‘ri kelishi yoki kelmasligini aniqlab olish bo‘yicha bajariladigan jarayon va ish tartibidir.

Attestatsiya ishining ahamiyati nimadan iborat?

Kadrlar attestatsiyasi xodimlarning sifat tarkibini yaxshilash, ularni oqilona joy-joyiga qo‘yish, xodimlarni topshirilgan ish uchun javobgarligini kuchaytirishga qaratiladi. Attestatsiya xodimlarni egallab turgan lavozimlariga qanchalik munosib ekanligini aniqlashning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Kadrlar attestatsiyasi vaqt-vaqt bilan har yili yoki ikki-uch yilda bir marta ham o‘tkazilishi mumkin.

Respublikada bozor iqtisodiyoti davrida kadrlar tayyorlash borasida bir qator yangi talablar yuzaga keldi. Ular ichida eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy-psixologik diagnostika;
- kadrlarni boshqarish tizimini axborot bilan ta’minlash;
- bandlikni boshqarish;
- zaruriy bo‘sh lavozimlarga nomzodlar tanlash;

- kadrlar salohiyati va xodimlarga bo‘lgan ehtiyojlarni tahlil etish;
- kadrlar marketingini belgilash;
- xizmat martabasini rejalashtirish va nazorat qilish;
- xodimlarning kasbiy va psixologik moslashuvi, ko‘nikishi;
- mehnat-huquqiy munosabatlari masalalari;
- mehnat etikasi va estetikasi.

Agar ma’muriy – buyruqbozlik tizimi sharoitida bu mezon va vazifalarga ikkinchi darajali deb qaralgan bo‘lsa, bozor munosabatlari sharoitida ular birinchi o‘ringa chiqarildi. Bu mezon va vazifalarga e’tibor berish sanoat taraqqiyotining barqaror va izchil rivojlanishiga katta imkoniyatlar yaratib beradi.

Boshqaruvning barcha darajalarida inson rolining ortib borishi, iqtisodiyotda, shu jumladan, sanoatda keng qamrovli tarkibiy o‘zgarishlar sodir bo‘lishi va raqobat darajasining o‘sishi kadrlarning boshqarishga yondoshuvini o‘zgartirishni taqozo etadi. Bunday yondoshuvlar quyidagilardan iborat:

- xodimlarning samarali ishlashlarini, faoliyat ko‘rsatishlarini tashkil etish;
- lavozimlar darajasini optimallashtirish, zaruriy mahorat va malakalar tizimini yaratish;
- ishlab chiqarish madaniyatini shakllantirish va rivojlanirish;
- institutsional maqsadlarga erishish;
- o‘z jamoa va o‘z xodimlarining manfaat va ehtiyojlarini to‘laroq qondirish.

9.4. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

Sanoatda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarning bilim va ilm darajasini yuqoriga ko‘tarish, kasb mahorati va ko‘nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tarmoq va korxonalarda bu borada olib borilgan faoliyat natijalariga ko‘ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi.

Sanoatda kadrlar malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash tizimini tashkil etish va rivojlanirish uchun quyidagilar zarur:

- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatida yangicha tarkib, mazmun hamda bu tizimni boshqarishni shakllantirish;
- yuqori malakali o‘qituvchi-mutaxassis kadrlar tayyorlash va sohani ular bilan to‘ldirib borishni ta’minlash;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimining bu sohada raqobatga asoslangan muhitini shakllantirish va samarali faoliyat olib borishni ta’minlovchi normativ bazasini yaratish;

- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta’lim muassasalarini davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasidan o’tkazish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- iqtisodiyotning davlat va nodavlat sektorlari, mulkchilikning turli shaklidagi tashkilot va muassasalarning talab-ehtiyojlariga muvofiq kadrlar va mutaxassislarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta’minlovchi davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etish va rivojlantirishga ko‘maklashish;

- professional treningning ilg‘or texnologiya va uskunalarini, shuningdek, murakkab, fan yutuqlarini talab qiluvchi texnologiya jarayonlari imitatorlarini ishlab chiqish, yaratish va amaliy o‘zlashtirib olish.

Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida xalqaro hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Bu muammoni hal etish uchun hamkorlikning xalqaro-xuquqiy bazasi yaratilishi, uning ustuvor yo‘nalishlari ro‘yogha chiqishi, xalqaro ta’lim tizimlari rivojlantirilishi, mutaxassislar almashishi kengayishi kerak. Bu boradagi milliy hujjatlar xalqaro miqyosda e’tirof etilishi, investitsiyalarning keng jalb qilinishi borasidagi faoliyat kuchaytirilishi kerak.

9.5 Mehnat va unga haq to‘lash

Mehnat – har bir shaxs va umuman jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘ladigan moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratish sohasidagi maqsadga muvofiq faoliyatadir.

Moddiy ishlab chiqarish jarayonini tadqiq qilish asosida shunday fikrga kelish mumkinki, mehnat avvalo, inson bilan tabiat o‘rtasidagi sodir bo‘ladigan shunday jarayonki, unda inson o‘z faoliyati bilan o‘zi va tabiat o‘rtasidagi moddalar almashinuvini bevosita ifodalaydi, tartibga soladi va nazorat qiladi.

Mehnat jarayonining oddiy jihatlariga uning maqsadga muvofiqligi, mehnat buyumi va mehnat vositalarini kiritish qabul qilingan. Mehnat buyumlari va ishlab chiqarish qurollari jonli mehnat jarayoniga kiritilmasa ular o‘z o‘zidan faoliyat ko‘rsata olmaydi. Jonli mehnat esa hamisha faqat kishilarning tabiatga munosabatidan iborat bo‘libgina qolmay, shu bilan birga, jarayon qatnashchilari o‘rtasidagi munosabatdan iborat.

Mehnat munosabatlarini yo‘lga qo‘yish sharoitida mehnatga haq to‘lashning tashkiliy tizimi yuzaga keladi. Mehnatga haq to‘lashni tashkil etishda ish beruvchilar bilan uni amalga oshiruvchilar, ya’ni xodimlar manfaatlari e’tiborga olinadi. Bu yerda shuni ta’kidlash zarurki, bozor munosabatlariga o‘tishda tomonlar mehnatga haq to‘lash masalalarini hal etishda teng huquqlariga ega bo‘lishlari lozimligi shak-shubhasizdir. Korxona ma’muriyati (yoki mulkdorning vakili) bilan xodimlar manfaatlarini himoya qiluvchi kasaba uyushmalari o‘rtasida tuzilgan jamoa shartnomalari mehnat

munosabatlarini tartibga solishning, shu jumladan, mehnatga haq to‘lash masalalarini tartibga solishning huquqiy amaliy va birdan-bir ta’sirchan shakliga aylanadi.

Bozor sharoitida, ayniqsa o‘tish davrida, taqsimlash munosabatlari, davlatning tartibga solish yo‘nalishlari va xususiyati o‘zgarib boradi, ma’muriyatichilik andozalariga barham beruvchi yangi boshqaruv shakllari paydo bo‘ladi. Korxonalar darajasini tartibga solish jarayonlariga yangi talablar qo‘yiladi. Davlatning aralashuvi daromadlarni taqsimlash shart-sharoitlari va tamoyillariga rioya qilishni aniqlash, tahlil etish va ta’minlash uchun zarurdir.

Taqsimlash munosabatlarining davlat yo‘li bilan tartibga solinishining asosi mehnat sohasidagi qonunlar va bitimlar, soliq tizimida yakka daromadlarning o‘sishi bilan inflyatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashdan iborat bo‘lishi lozim. Davlatning ishtirokisiz insonga daromadni kafolatlab bo‘lmaydi, bu daromad unga korxonaning iqtisodiy faoliyatidan qat’iy nazar munosib hayot kechirishni ta’minlaydi. Davlatning funksiyasiga, bundan tashqari, aholining kam ta’minlangan qatlamlari daromadlarini oshirishni kiritish zarur, bu narsa ish kuchini normal darajada takror hosil qilish uchun, mehnat resurslarini maqbul tarzda taqsimlashni ta’min etish, ijtimoiy keskinlikni yumshatish va hokazolar uchun kerak bo‘ladi. Davlat ish kuchini takror hosil qilish ishtirokchisi bo‘lganligi sababli taklif etilgan ish kuchining ko‘proq qismini o‘ziga qabul qiladi, uning tadbirkorlar talabiga javob berishiga intiladi.

Ish haqining mohiyati uning ijtimoiy ishlab chiqarish bosqichlari bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarish, uni taqsimlash, ayrboshlash va iste’mol qilishda bajaradigan funksiyalarida namoyon bo‘ladi.

1. Takror hosil qilish funksiyasi. U xodimlarni, shuningdek, ularning oila a’zolari ish kuchini takror hosil qilish, avlodlarni qayta ko‘paytirish uchun zarur bo‘lgan hayotiy ne’matlar bilan ta’minlashdan iborat. Unda ehtiyojlarning ortib borishidan iborat iqtisodiy qonun o‘z ifodasini topadi. Mazkur funksiya ish haqining davlat tomonidan tartibga solinishi xususiyatlari, ish haqining ish kuchini takror hosil qilishni ta’min etadigan miqdorini qonuniy darajada belgilash bilan mustahkam bog‘liqdir.

2. Rag‘batlantiruvchi funksiya. Uning mohiyati xodimning ish haqi uning quyidagi mehnat hissasiga, korxonaning ishlab chiqarish xo‘jalik faoliyati natijalariga bog‘liqligini belgilashdan iborat bo‘lib, bunda ko‘rsatib o‘tilgan bog‘liqlik xodimni o‘z mehnati natijalarini doimiy ravishda yaxshilab borishga qiziqtirishi lozim.

3. O‘lchov - taqsimlash funksiyasi. Bu funksiya istemol fondlarini yollanma xodim bilan ishlab chiqarish vositalari egasi o‘rtasida taqsimlash vaqtida jonli mehnat o‘lchovini aks ettirish uchun mo‘ljallangan. Ish haqi

vositasida ishlab chiqarish jarayoni har bir ishtirokchisining mehnat hissasigi muvofiq uning iste'mol fondidagi alohida ulushi aniqlanadi.

4. Resurslarni joylashtirish funksiyasi. Mazkur funksiyaning hozirgi vaqtdagi ahamiyati jiddiy ravishda oshib bormoqda. Uning mohiyati mehnat resurslarini mintaqalar, iqtisodiyot tarmoqlari va korxonalar bo'yicha qulay ravishda joylashtirishdan iboratdir. Mehnat resurslarini joylashtirish sohasidagi davlat boshqaruvi eng kam darajaga keltirilgan sharoitda, mehnat bozorining samarali faoliyat ko'rsatishini shakllantirish faqat har bir yollanma xodimda o'z mehnatini sarflash joyini tanlashda erkinlik bo'lgan taqdirdagina turmush darajasini oshirishga intilish, ish topish maqsadida uni boshqasi bilan almashtirishni taqozo qiladi, bu ish esa uning ehtiyojlarini eng ko'p darajada qondirishi lozim.

5. Aholining to'lovga qobiliyatli talabini shakllantirish funksiyasi. Bu funksiyaning vazifasi to'lovga qobiliyatli talabni muvofiqlashtirishdir, bunday talab deganda xaridorlarning pul mablag'lari bilan ta'minlangan ehtiyojlarining namoyon bo'lish shakli tushuniladi, shuningdek, iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish nazarda tutiladi. To'lovga qobiliyatli talab ikki asosiy omil – jamiyatning ehtiyojlari va daromadlari ta'sirida shakllanadi va bozor sharoitida ish haqi yordamida tovarni taklif qilish bilan talab o'rtaida zarur mutanosiblik o'rnatishga yordam beradi.

Yuqorida aytib o'tilgan funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi eng muhim tamoyillarga rioya qilinishi zarur.

1. Ishlab chiqarish va mehnat samaradorligi yuksalib borgan sari real ish haqining ortib borishi. Bu tamoyil ehtiyojlarning ortishi obyektiv iqtisodiy qonunning amal qilishi bilan bog'liq bo'lib, mazkur qonunga muvofiq ehtiyojlarning yanada to'laroq qondirilishi faqat o'z mehnati uchun ko'proq miqdorda moddiy ne'matlar va xizmatlarga ega bo'lishi imkoniyatlari kengaygan sharoitdagina real bo'ladi. Biroq bunday imkoniyat ishlab chiqarish faoliyati natijalari bilan mehnat samaradorligining bog'lanishini taqozo etadi. Bunday bog'lanishning yo'qligi esa, bir tomonidan, ishlab topilmagan pulning berilishiga, demak, inflyatsiyaga, olingan nominal ish haqining ta'min etilishiga va real ish haqining pasayishiga olib kelishi, ikkinchi tomonidan esa, pasaytirilgan, mehnat hissasining samaradorligiga mos kelmaydigan nominal ish haqining to'lanishiga olib kelishi mumkin. Natijada xodimlarning ortib borayotgan ehtiyojlarini qondirish imkoniyati va ish haqinig ko'payish imkoniyati mavjud bo'lmaydi.

2. Mehnat unumdarligi o'sishini o'rtacha ish haqining o'sish sur'atlaridan ilgarilovchi sur'atlarini ta'minlash, (yoki mahsulot ishlab chiqarish hajmlari sur'atining iste'mol fondlari o'sishi sur'atlaridan ortib ketishi). Bu tamoyilning mohiyati – ishlab chiqarishni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish asosida mehnat daromadlarini maksimal (eng ko'p) darajaga yetkazishdan iborat. Bu tamoyilga rioya qilinishi jamg'arish

jarayonining, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning uzluksizligini taqozo etadi va korxonaning rivojlanishi hamda ravnaq topishining zarur sharti hisoblanadi. Mazkur tamoyilning buzilishi tovarlar bilan ta'min etilmagan pulning to'lanishiga, uning qadrsizlanishiga, mamlakat iqtisodiyotida turg'unlik holatlarining avj olishiga olib keladi. Muayyan korxona sharoitida bu ishlab chiqarish vositalarini yangilash jarayonining sekin asta susayib borishi, ulardan eng istiqbollilarini ishlab chiqarish va sotib olish mo'ljalining yo'qligi hamda buning natijasi sifatida raqobat qiluvchi firmalar o'rtaida kamroq sifatli mahsulotga bo'lgan talabning pasayishidir.

3. Xodimning korxona faoliyati natijalariga qo'shgan mehnat hissasiga, mehnat mazmuni va sharoitlariga, korxona joylashgan mintaqaga, uning qaysi tarmoqqa mansubligiga qarab ish haqini tabaqalashtirish. Mazkur tamoyil xodimning o'z mehnat malakasidan, mahsulotning yuqori sifatli bo'lishini ta'minlashdan moddiy manfaatdorligini kuchaytirish zarurligiga asoslangan. Bunda ish kuchini takror hosil qilish uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar miqdoridagi, mehnatning turli sharoitlaridagi geografik va iqlim sharoitlaridagi tafovutlar hisobga olinishi lozim.

4. Barobar (teng) mehnat uchun barobar haq to'lash. Bozor sharoitida bu tamoyilni ishlovchining jinsi, yoshi, milliy mansubligi va hokazolarga qarab uning mehnatiga haq to'lashda kamsitishiga yo'l qo'ymaslikdir. Buni korxona yoki firma ichidagi taqsimotdaadolat tamoyiliga rioya etish deb tushunish kerak. U bir xildagi mehnatga bir xil haq to'lash orqali bir xil baholashni nazarda tutadi.

5. Mehnatga haq to'lashni davlat yo'li bilan boshqarish va tartibga solib turish.

6. Mehnat bozorining ta'sirini hisobga olish. Mehnat bozorida ham davlat va xususiy kompaniyalarda ham uyushmagan sektordagi ish haqi keng namoyon etilgan bo'lib, ulardagi ish kuchi kasaba uyushmalari bilan qamrab olinmagan va mehnatga haq to'lash to'la-to'kis ma'muriyat tomonidan belgilanadi.

Mehnat bozori – bu shunday bir sohaki, u yerda pirovard natijada mehnatning har xil turlariga baho berish tarkib topadi. Har bir xodimning mehnatiga to'lanadigan ish haqi uning mehnat bozoridagi mavqeい bilan mustahkam bog'liq bo'lib, mazkur bozordagi vaziyat va bundan tashqari, bandlilik imkoniyatini ham belgilab beradi.

7. Mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlarining oddiyligi, mantiqiyligi va qulayligi mehnatga haq to'lash tizimlarining mohiyati haqida keng xabardor bo'lishni ta'minlaydi. Xodimda ish haqi haqida tushunarli va batafsil axborot mavjud bo'lgandagina u jon-dili bilan berilib mehnat qiladi. Xodimlar qanday holatda ish haqining miqdori, ya'ni o'z moddiy farovonliklari darjasini oshishini aniq tassavur qilishlari lozim.

Ish haqini tashkil etish tamoyillarini ularni amalga oshirishga qaratilgan funksiyalarga muvofiq tasniflash maqsadga muvofiqli. Har bir tamoyil faqat bitta funksiya bilan emas, balki bir qancha funksiyalar bilan bog‘langan. Shunday bo‘lsa ham asosiy funksiyani ajratib ko‘rsatish mumkin. Har bir tamoyil birinchi navbatda ana shu funksiyani bajarishga qaratiladi.

Ish haqini tashkil etishning qayta qurilishi bozor talablariga muvofiq quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

- har bir xodimning o‘z mehnati samaradorligi rezervlarini aniqlash va foydalanishdan manfaatdorligini oshirish, ishlamasdan pul mablag‘lariga ega bo‘lish imkoniyatlariga barham berish;

- mehnatga haq to‘lashda tekischilik hollarini bartaraf etish, ish haqining ham yakka tartibdagi, ham jamoa mehnati natijalariga bevosita bog‘liqligiga erishish;

- turli toifadagi va kasb-malakali guruhlariga mansub bo‘lgan xodimlar mehnatga haq to‘lash nisbatlarini optimallashtirish, bunda bajariladigan ishlarning murakkabligini, kasblarning noyobligini e’tiborga oladigan mehnat sharoitlari, shuningdek, pirovard natjalarga erishishga intilayotgan turli xodimlar guruhlari va ishlab chiqarish raqobatbardoshligining ta’sirini hisobga olishni nazarda tutadi.

Sanoat ishlab chiqarishida mehnatga haq to‘lashni tartibga solish sohasidagi amaliy qadamlar haqida gapirganda, shuni qayd qilib o‘tish kerakki, xodimlarning turli toifalari mehnatiga haq to‘lash darajalarini tabaqalashtirish uchun yagona tarif stavkasi (YaTS) ishlab chiqilgan va joriy etilgan bo‘lib, u bir xil murakkablikdagi ish uchun barobar haq to‘lash imkonini beradi.

Mehnatga haq to‘lashni davlat yo‘li bilan tartibga solish kam ta’minlangan, oz ish haqi oladigan xodimlarning ijtimoiy himoya qilinishini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar asosida ish haqining eng kam miqdorini belgilaydi.

Sanoat sohasida ish haqini tashkil etishda yagona tarif setkasi asosida asosiy ish haqini shakllantirish usulini yoki mehnatga haq to‘lashning tarifsiz tizimini tanlash muhimdir. Yagona tarif setkasi ustuvor bo‘lib, undan foydalanganda xodimlar ish haqini yanada obyektivroq tabaqalashtirishga erishiladi. Biroq iqtisodiy ahvol doimiy ravishda o‘zgarib turishi sababli korxonalarda ko‘pincha tarif stavkalarni o‘zgartirishga to‘g‘ri keladi, bu esa katta mehnat xarajatlariga olib keladi. Mehnatga haq to‘lashning tarifsiz tizimi ish haqini korxona ishining haqiqiy natijalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq qilib qo‘yadi. Ish haqini hisoblash esa kamroq mehnat talab qiladi, lekin bu faqat kichikroq korxonalarga taalluqlidir.

Ish haqini tashkil etish iqtisodiy samaradorlikning mezoni sifatida xo‘jalik hisobi daromadining ish haqi fondiga nisbatan ustuvor o‘sishi hisoblanadi. Bunday ustuvor o‘sish ta’milanmagan hollarda sabablarni

sinchiklab tahlil qilish, foydani ko‘paytirishga qaratilgan yoki mehnatga to‘lanadigan xarajatlarni qisqartirishga qaratilgan qo‘srimcha tadbirlarni ishlab chiqish zarur bo‘ladi.

Hozirgi sharoitda sanoatda ish haqini to‘g‘ri tashkil etishga uning asosiy elementi bo‘lgan mehnatni normalash asosida erishish mumkin, u mehnat xarajatlari hajmi bilan unga to‘lanadigan haq o‘rtasidagi muvofiqlikni o‘rnatish imkonini beradi. Mehnatni normalashni takomillashtirish sohasidagi ishlar normalarning sifatini oshirishga va avvalo mehnatning barcha turlari hamda xodimlarning barcha guruhlari uchun baravar jiddiyligiga, qizg‘inlikni ta’minalashga qaratiladi. Turli ishlab chiqarish uchastkalarida normalarning baravar jiddiyligiga, mehnat jarayonining ayrim elementlariga miqdoriy ahamiyati bo‘yicha teng yoki yaqin jiddiylik koeffitsiyentlarini o‘rnatish hisobiga yoki mehnat intensivligining normalardagi muayyan darajasini hisobga olish yo‘li bilan erishiladi. Normalarning baravar jiddiyligi ishlab chiqarishning turli bosqichlarida mehnatning bir xildagi intensivligini nazarda tutadi. Shu munosabat bilan birinchi miqdor ish sur’atlari va bandlik vaqtini hisobga olgan holda belgilanishi mumkin.

J=Ks*Kb

bu yerda

- J**-mehnat intensivligi,
- Ks**-ish sur’ati koeffitsiyenti,
- Kb**-bandlik vaqt koeffitsiyenti.

Ish sur’ati koeffitsiyenti haqiqiy ish sur’atining jismoniy jihatdan maqbul bo‘lgan narsaga munosabatini, bandlik koeffitsiyenti esa smenadagi haqiqiy bandlik vaqtining smena uzunligi muayyan foizga teng bo‘lgan shartli hisoblash darajasiga munosabatini bildiradi. Agar mazkur ish o‘rnidagi mehnat intensivligi normativdagi intensivlikdan farq qilsa, u holda uni pasaytirish yoki oshirish, xususan, mehnat normasini o‘zgartirish choralarini amalga oshirish kerak bo‘ladi.

Mutaxassislar va xizmatchilar mehnatini, shuningdek, xodimlarning ayrim toifalari mehnatini normalashni yaxshilashda ularni ish bilan ta’minalish darajasini, vazifalarning oqilona taqsimlanishini, boshqaruv tuzilmasini takomillashtirishni va hozirgi zamon texnikaviy vositalarini joriy etishni tahlil qilish asosida amalga oshirish lozim. Boshqaruvning ortiqcha bo‘g‘inlarini qisqartirish va tartibga solishda yordamchi xizmat ko‘rsatuvchi va boshqaruv xodimlari sonini qisqartirish yuzasidan ish olib borish zarur. Har bir mutaxassisga ish reglamentini belgilab berish uning yil davomida kundalik ish bilan to‘liq band bo‘lishini ta’minalaydi. Reglament qoidalari aniq ravshan bo‘lishi, mutaxassisning mazkur ish o‘rnidagi, ushbu lavozimdagi va tegishli malaka kategoriyasidagi ishining o‘ziga xos tomonlarini aks ettirishi lozim.

Sanoat korxonalarining yangi tuzilmasini va uni boshqarish tizimlarini, xodimlar lavozimlari nomlarini ular haqiqatdan bajaradigan funksiyalarga muvofiq ravishda aniqlash sohasidagi ishlar yakunida shtat jadvalini tuzib chiqish uchun talab qilinadigan rahbarlar, mutaxassislar ishga olinadi.

Bozor munosabatlarining shakllanishi sharoitida ish haqini tashkil etish masalalarini mustaqil hal qilish huquqiga ega bo‘lgan korxonalar turli andoza va yondashuvlardan foydalanadilar. Biroq bu sohadagi xorijiy tajriba, mamlakatimizda mehnatga haq to‘lash sohasidagi firmalar ichki andozalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar banki mavjud emas. Bu bank faqat endigina shakllanib kelmoqda, mehnat va ish haqini tashkil etish bo‘limining xodimlari odatda o‘z korxonalarida mehnatga haq to‘lashning eng maqbul andozalarini tanlash uchun yetarli bilimga ega bo‘lishlari zarur. Ana shu sabablarga ko‘ra ko‘pchilik korxonalar, ayniqsa, o‘rta va yirik korxonalar an‘anaviy tarif tizimididan foydalanmoqda.

Bunday korxonalarda mehnatga haq to‘lashni tashkil etishning asosiy elementlari mehnatni normalash, tarif tizimi, ish haqining shakllari va tizimlaridir.

Mehnatni normalash - bu ilmiy asoslangan mehnat xarajatlari va uning natijalarini vaqt normalari, soni, xizmat ko‘rsatishning boshqarilishi, mahsulot ishlab chiqarishning normalarini aniqlashdir. Mehnatni normalash amalga oshirilmasa mehnat miqdorini, har bir xodimning umumiyligi natjalarga qo‘sghan alohida hissasini hisobga olib bo‘lmaydi.

Ish haqining shakllari va tizimlari – bu mehnatning miqdor natijalari va sifatiga (uning murakkabligi, intensivligi, shart- sharoitlariga) bog‘liq ravishda ish haqini belgilash mexanizmidir.

Tarif tizimi turli normativ materiallar majmuidan iborat bo‘lib, ular yordamida korxonadagi xodimlar ish haqi darajasi ularning malakasi, ishlarning murakkabligi, mehnat sharoitlari, korxonalarning geografik joyi va boshqa tarmoq xususiyatlari qarab belgilanadi. Tarif tizimining asosiy elementlariga tarif setkalari, tarif stavkalari, tarif-malaka ma’lumotnomalari, lavozim maoshlari, xizmatchilar lavozimlarining tarif ma’lumotnomalari, tarif stavkalariga ustama va qo‘srimcha haqlar, ish haqiga doir mintaqaviy malaka koeffitsiyentlari kiradi.

Tarif stavkalari – razryadlar shkalasidan iborat bo‘lib, ularning har biriga o‘z tarif koeffitsiyenti berilgan va har qanday razryadning tarif stavkasi birinchi razryaddan necha marta ko‘pligini ko‘rsatib turadi. Birinchi razryadning tarif koeffitsiyenti birga tengdir. Razryadlar miqdori va ularga tegishli tarif koeffitsiyentlarining miqdori korxonalarda tuziladigan jamoa shartnomasida belgilanadi. Jamoa shartnomasi tarif bitimi asosida ishlab chiqiladi va xodimlar ahvolining shartnomasi shartlariga nisbatan yomonlashuvini nazarda tutmaslik lozim.

Tarif stavkasi – ish vaqtি birligi hisobiga mehnatga haq to‘lashning pul

bilan ifodalangan mutloq miqdoridir. Birinchi razryad tarif stavkasi va tarif stavkasi asosida shundan keyingi har bir razryadning tarif stavkasi hisoblab chiqiladi. Birinchi razryad tarif stavkasi korxonaning jamoa shartnomasi bilan belgilanadi va bir tomondan, uning moliyaviy imkoniyatlariga, ikkinchi tomondan, tarmoq bitimida aks ettirilgan mehnatga haq to‘lash shartlariga bog‘liq bo‘ladi. Bunda u belgilangan eng kam ish haqi darajasidan kam bo‘lmasligi lozim. Tarif stavkasi ishchilar mehnatiga haq to‘lash darajasini belgilash uchun boshlang‘ich miqdor hisoblanadi, bunda korxona mehnatga haq to‘lashning qanday shakllari va tizimlari qo‘llanilishini e’tiborga olmaydi.

Tanlangan vaqt birligiga qarab tarif stavkalari soatbay, kунбай va oylik maoshlardan iborat bo‘ladi. Eng ko‘p tarqalgan soatbay tarif stavkalari bo‘lib, ular asosida turli qo‘srimcha haqlar hisoblab chiqiladi. Kundalik va oylik stavkalar soatbay stavkalarni ish smenasidagi soatlar soniga va oy mobaynidagi ishlangan o‘rtacha oylik soatlar soniga ko‘paytirishi yo‘li bilan hisoblab chiqiladi.

Tarif-malaka ma’lumotlari normativ hujjatlardan iborat bo‘lib, ular yordamida ish razryadi va ishchining razryadi belgilanadi. Ularda har bir mutaxassislikdagi har bir razryad ishchisi nazariy va amaliy jihatdan bilishi lozim bo‘lgan axborot mavjud bo‘ladi. Mazkur ma’lumotnomalar uch bo‘limdan: «Ishlarning ta’rif-tavsifi», «Bilish kerak» va «Ishlarga doir misollar» dan tashkil topadi. Ilgari, 1991 yil 1 yanvardan e’tiboran kuchga kirgan «Korxonalar va tadbirkorlik faoliyati to‘g‘risida» gi qonun joriy qilinishiga qadar, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida foydalanish uchun majburiy bo‘lgan tarif-malaka ma’lumotnomalari, hozirgi vaqtida tavsiyaviy xususiyatga ega bo‘lib, faqat ularidan foydalanuvchi korxona uchungina normativ hujjat hisoblanadi. Malaka razryadi ishchiga odatda sex yoki korxona malaka komissiyasi tomonidan beriladi.

Mehnatga haq to‘lashni tashkil etish sohasidagi an’anaviy yondashuvlardan foydalanuvchi korxonalar xodimlar ish haqining miqdorini belgilash uchun tarif setkalari, tarif stavkalari va tarif-malaka ma’lumotnomalaridan foydalanadilar. Bunday korxonalarda boshqaruv mehnati xodimlari hisoblanuvchi xizmatchilar uchun shtat-maosh tizimi tatbiq etiladi. Uning o‘ziga xos xususiyati shtat jadvalining tuzilishidan iborat bo‘lib, unda muayyan korxonada mavjud bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati, har bir lavozim bo‘yicha xodimlar soni va maosh miqdori ko‘rsatiladi.

Korxonaning attestatsiya (shahodat berish) komissiyasi lavozimlarining malaka ma’lumotnomalaridan foydalanishi asosida attestatsiya jarayonida xizmatchilarga malaka toifalarini beradi. Xizmatchilar lavozimlarining malaka ma’lumotnomasi alohida tavsiflardan tashkil topadi. Har bir malaka tavsifi uch bo‘limdan iborat: «Lavozim vazifalari», «Bilish kerak», «Malaka talablari».

Tarif-malaka ma'lumotnomasi singari xizmatchilar lavozimlarining malaka ma'lumotnomasi tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lib, korxonalar ulardan ixtiyoriy ravishda foydalanishlari, uning bo'limlariga tuzatishlar va o'zgarishlar kiritishlari mumkin. Xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazib turish davriyligini korxona rahbariyatining o'zi belgilaydi.

Ma'lumki, mustaqillikka erishgandan so'ng mehnatga haq to'lash borasida anchagina o'zgarishlar yuz berdi. 1993 yilning 1 yanvaridan boshlab ish haqining stavka va maoshlari yangi tarif koeffitsientlari asosida to'lana boshlandi. Bundan maqsad mehnatga haq to'lashning tizimini tartibga solish, turli kasb va toifadagi xodimlarning ish haqlariga muayyan obyektiv nisbat belgilash ko'zlangan. 1997 yilda mehnatga haq to'lashning yagona tarif stavkasi 0 dan 28 gacha bo'lgan razryad darajalari qabul qilindi. Bu darajalar o'rtasidagi tarif koeffitsentlarining farqi 1.00 dan 5.83 gachani tashkil etgan edi.

8-jadval

O'zbekistonda qo'llanilayotgan tarif setkasi⁴²

Mehnatga haq to'lash razryadi	Tarif koeffitsiyenti	Mehnatga haq to'lash razryadi	Tarif koeffitsiyenti
1	2,476	12	6,115
2	2,725	13	6,503
3	2,998	14	6,893
4	3,297	15	7,292
5	3,612	16	7,697
6	3,941	17	8,106
7	4,284	18	8,522
8	4,640	19	8,943
9	4,997	20	9,371
10	5,362	21	9,804
11	5,733	22	10,240

Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 18 martdagи «Mehnatga haq to'lashning yagona tarif setkasini takomillashtirish to'g'risida»gi qaroriga muvofiq mehnatga haq to'lashning 0 dan 22 gacha bo'lgan razryad (daraja)lari qabul qilindi, unga ko'ra razryadlar o'rtasidagi farq 2-2,5 baravar ko'paydi. Boshlang'ich razryadning 550 so'm miqdori yagona tarif stavkasiga asos qilib olindi. Qo'shimcha haq va ustamalarning amaldagi tizimi, shuningdek, xodimlar ish haqiga qo'shiladigan rayon koeffitsentlari

⁴² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Мехнатга ҳақ тўлашнинг ягона тариф сеткасини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги 2009 йил 21 июль, 206-сон Қарори.

saqlab qolindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 noyabrdagi «Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida»gi Farmoniga⁴³ muvofiq minimal ish haqining miqdori 172240 so‘m etib tayinlandi.

Hozirgi paytda iqtisodiyot sohasida qo‘llanilatgan tarif setkasi 8-jadvalda keltirilgan.

Ko‘pgina korxonalar hozirgi vaqtida an’anaviy tarif tizimi elementlari asosida mehnatga haq to‘lashni tashkil etishning yangi, yanada samaraliroq usullarini izlash yo‘lidan bormoqdalar. Bu ijobjiy hodisa bo‘lib, korxonalarga o‘zlari qarab chiqadigan masalalarni hal qilishda mustaqillik berishning natijasidir. Korxonada ishlovchi barcha xodimlarning mehnatga haq to‘lashni tashkil etish uchun umumiylar tarif setkasidan foydalanish ancha keng tatbiq etilmoqda. Odatda ishchilarga beriladigan razryadlar soni avvalgidek, ya’ni 6-8 bo‘lib qolmoqda. Setkadagi razryadlarning eng ko‘p miqdori va ularga mos keluvchi tarif koeffitsiyenti muayyan korxonada ixtiyoriy ravishda belgilanishi va albatta jamoa shartnomasida mustahkamlab qo‘yilishi lozim.

Qisqacha xulosalar

1. Sanoat iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i sifatida yuqori malakali, boy ma’naviyatga ega bo‘lgan mehnatkashlar jamoasini o‘zida mujassamlashtiradi.

2. Kadrlarning bilim, ilm va malaka darajasi mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining eng muhim elementi, ya’ni unsuri hisoblanadi.

3. Kadrlar bilan ishslash sanoat taraqqiyotini rejalashtirish va bashorat qilish, sanoat korxonalarini tashkil etish va boshqarishdan iboratdir.

4. Sanoat kadrlarining sonini aniqlash, ularni tayyorlash va taqsimlash, mehnat topshiriqlarini sanoat ishlab chiqarishi rejasingning boshqa bo‘limlari bilan bog‘lash uchun kadrlarni tasniflash alohida ahamiyatga ega.

5. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston sanoatida kadrlarni tarkibi va tuzilmasi miqdoriy va sifat jihatdan sezilarli darajada o‘zgardi.

6. Sanoatning izchil rivojlanishi kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish, tayyorlash va qayta tayyorlash masalasiga alohida e’tibor berishni taqozo etadi.

7. Xodimlarning moddiy manfaatdorligi tamoyilini hayotga muntazam ravishda, ya’ni izchillik bilan tatbiq etish sanoat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli sanoat ishlab chiqarishida mehnatga haq to‘lashni yaxshilash va uning eng progressiv usullarini qo‘llashga alohida e’tibor berish kerak bo‘ladi.

⁴³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иш хақи, пенсиялар, стипендиялар ва нафақалар миқдорини ошириш тўғрисида”ги 2017 йил 20 ноябрдаги ПФ-5245-сон Фармони

O‘z-o‘zini nazorat qilishga oid savollar

1. Davlatning kadrlar siyosati: mohiyati, ahamiyati va mazmuni.
2. Sanoat ishlab chiqarishi va kadrlar. Ularni guruhlarga bo‘lish.
3. Kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish va ularni tarbiyalash.
4. Kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash.
5. Kadrlar sonini bashorat qilish va ulardan oqilona foydalanish muammolari.
6. Mehnat atamasining tushunchasi, mohiyati, ahamiyati.
7. Mehnatga haq to‘lash tamoyillari va shakllari.
8. Tarif tizimi va uning unsurlari.
9. Ish haqining bozor iqtisodiyotiga mos turlari.
10. Mehnatga haq to‘lashni erkinlashtirish masalalari.

10-BOB. SANOAT ISHLAB CHIQARISHINING ASOSIY FONDLARI VA ISHHAB ChIQARISH QUVVATLARI

Tayanch atamalar va iboralar: asosiy ishlab chiqarish fondlari, aktiv asosiy ishlab chiqarish fondlari, passiv asosiy ishlab chiqarish fondlari, asosiy fondlar tuzilmasi, jismoniy eskirish, ma’naviy eskirish, amortizatsiya, amortizatsiya ajratmalari, amortizatsiya fondi, fond qaytimi, fond sig‘imi, ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti, intensiv foydalanish koeffitsiyenti, ishlab chiqarish quvvati.

Reja:

10.1. Asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, tarkibi va tuzilishi

10.2. Asosiy fondlarni baholash

10.3. Asosiy fondlarning eskirishi va amortizatsiyasi

10.4. Asosiy fondlardan foydalanish ko‘rsatkichlari

10.5. Ishlab chiqarish quvvatlari va ulardan foydalanishni yaxshilash yo‘llari

10.1. Asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, tarkibi va tuzilishi

Mamlakatning qudrati, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi, jamiyat a’zolarining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini to‘larq qondirish shu mamlakat resurslari, ayniqsa, asosiy va aylanma fondlarining miqdori va sifati bilan belgilanadi. Mamlakat va uning sanoati, boshqa tarmoqlari, korxona (firma)lari qanchalik ko‘p resurslarga ega bo‘lsa, u shunchalik qudratli va rivojlangan bo‘ladi. Agar u ana shu resurslardan to‘la-to‘kis, oqilona foydalana olsa, albatta buyuk davlatga aylanadi.

Sanoat ishlab chiqarishi faoliyatida asosiy fondlarning alohida o‘rnibor. Chunki ularsiz birorta ishni bajarish, xizmat ko‘rsatish va mahsulot ishlab chiqarish mumkin emas. Ma’lumki, har qanday ishlab chiqarish jarayonida mehnat buyumlari, mehnat qurollari (mehnat vositalari) va inson mehnati ishtirok etadi. Mehnat buyumlariga xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg‘i, elektr quvvati, ta’mirlash uchun ehtiyyot qismlar va h.k.lar kiradi. Mehnat vositalariga mashina va mexanizmlar, asbob-uskunalar, yuk tashuvchi va uzatuvchi vositalar, kompyuter va laboratoriya anjomlari, bino va inshootlar kiradi.

Mehnat buyumlari va vositalarining birgalikda qiymat shaklida ifodalaniishi ishlab chiqarish fondlarini tashkil etadi. Ular ishlab chiqarish jarayonida qatnashish roliga ko‘ra asosiy va Aylanma fondlarga ajratiladi. Mehnat qurollari asosiy fondlarni, mehnat buyumlari esa aylanma fondlarni tashkil etadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari deb ishlab chiqarish jarayonida uzoq davr bevosita va bilvosita qatnashadigan, moddiy boyliklar yaratishda ishtirok etadigan hamda tabiiy shaklini saqlagan holda o‘z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga asta-sekin, o‘tkazib boradigan mehnat vositalariga aytildi⁴⁴. Ular ish bajarishda, xizmat ko‘rsatishda va mahsulot ishlab chiqarishda qatnashadilar. Ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun sharoit yaratadilar. Mehnat buyumlari va tayyor mahsulotlarni saqlash va ularni bir o‘rindan ikkinchi o‘ringa tashish kabi ishlarni bajarish uchun xizmat qiladilar.

Asosiy fondlar ulardan foydalanish maqsadiga ko‘ra ishlab chiqarishda bevosita va bilvosita qatnashishiga qarab, ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan va qatnashmaydigan fondlarga ajratiladi.

Ishlab chiqarishda qatnashadigan asosiy fondlarning maqsadi moddiy boyliklar yaratishda ishtirok etishga qaratilgan bo‘lsa, ishlab chiqarishda qatnashmaydigan asosiy fondlarning maqsadi xodimlarning moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirishdan iboratdir.

Sanoatning asosiy fondlari mamlakat milliy boyligining muhim qismini tashkil etib, bu ko‘rsatkich mustaqillik yillarda yildan yilga oshib bormoqda. 1995-2015 yillar mobaynida sanoatning asosiy fondlari 576 marta o‘sdi. O‘zbekiston Respublikasi sanoatining jami asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatining dinamikasini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin.

9- jadval

Sanoat korxonalarining asosiy fondlari⁴⁵ **(mlrd. so‘m)**

2012	2013	2014	2015
32578,6	40500,3	48259,5	55206,5

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston sanoatining asosiy fondlari juda tez sur’atlar bilan o‘smoqda. Bu o‘sish MDH davlatlarining o‘rtacha o‘sish sur’atlaridan anchagina tez va sifatliroqdir.

Hukumatimiz tomonidan jismoniy ishdan chiqqan va ma’naviy eskirgan mashina-uskunalarini jadal yangilash masalariga alohida e’tibor qaratilib me’yoriy hujjatlar qabul qilingan⁴⁶. Ushbu me’yoriy hujjatga binoan “Korxonalarda zamонавиј ваjahon darajasida muvaffaqiyatli sinovdan

⁴⁴ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.132.

⁴⁵ Ўзбекистон саноати. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Қўмитаси. Статистик тўплам. Тошкент 2016. Б.45.

⁴⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 22.12.2016 й.даги “Саноат тармоқлари корхоналарининг жисмоний ишдан чиқсан ва маънавий эскирган машина-ускуналарини жадал янгилаш, шунингдек, ишлаб чиқариш харажатларини камайтиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПК-2692-сон Қарори

o‘tgan texnologiyalarni ildam sur’atlar bilan o‘zlashtirish, mamlakatimiz korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatdoshligini yanada oshirish, shu asosda sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishini va eksport salohiyatining o‘sishini ta’minlash, shuningdek, energiya samaradorligi va energiya tejamkorligi standartlarining iqtisodiyotga faol tatbiq etilishini ta’minlash maqsadida: ...sanoat tarmoqlari korxonalarini texnologik jihozlari va texnologiyalarining texnik auditini o‘tkazish ...va texnik audit natijalarini o‘rganish asosida 2017 — 2020 yillar davrida sanoat tarmoqlari korxonalarining jismoniy ishdan chiqqan va ma’naviy eskirgan asbob-uskunalarini zamонави, jahon darajasida sinovdan o‘tganlari bilan almashadir...”⁴⁷ish nazarda tutilgandir.

Asosiy fondlarni hisoblash, tahlil qilish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni rejalashtirish va bashorat qilish maqsadida ularni guruhlarga ajratish kerak bo‘ladi.

Hozirgi kunda asosiy fondlar turli tasnifga muvofiq va ishlab chiqarish vazifasining turliligi va tabiiy-moddiy belgilarga qarab quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Zarur mehnat sharoitlarini ta’minlaydigan bino va arxitektura-qurilish obyektlari. Binolarga sexlarni ishlab chiqarish korpuslari, depolar, garajlar, omborxonalar, ishlab chiqarish xonalari va laboratoriylar kirdi.

2. Inshootlar – ishlab chiqarish jarayonining bajarilishiga zarur va mehnat buyumlarini o‘zgarishi bilan bog‘lanmagan birorta texnik vazifalarga belgilangan muhandis-qurilish obyektlari (nasos stansiyalar, tunnellar, ko‘priklar va h.k.).

3. Har xil energiya, suyuq va gazsimon moddalarni uzatuvchi uskunalar.

4. Mashinalar va asbob-uskunalar; shu jumladan:

- energiyani, suyuq va gazsimon moddalarni ishslash va almashtirishga mo‘ljallangan kuch mashinalari va asbob-uskunalar (generatorlar va gazogeneratorlar, elektrogeneratorlar, bug‘ qozonlari, havo kompressorlari);

- ishchi mashinalari va asbob-uskunalar. Ular mehnat buyumlariga bevosita ta’sir o‘tkazadilar. Bularga dastgohlar, presslar, konveyerlar va boshqa turli yordamchi asbob-uskunalar: o‘lchov va to‘g‘rilash asbob-uskunalar, laboratoriya asboblari, hisoblash mashinalari, kompyuterlar kiritiladi.

5. Transport vositalari.

6. Har xil asboblar.

7. Ishlab chiqarish inventarlari.

8. Xo‘jalik inventarlari.

9. Boshqa asosiy fondlar.

⁴⁷ O’sha yerda

10-jadval

Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining turlari va sanoat tarmoqlari bo‘yicha tarkibi⁴⁸ (2015 yil oxiriga foizda)

Sanoat tarmoqlari	Binalar	Insho-otlar	Uzatish moslama lari	Mashina va usku nalar	Transport vositlari	Boshqa asosiy fondlar
Butun sanoat	13,1	22,1	12,9	45,4	5,5	1,1
<i>Shu jumladan</i>						
Elektro energetika	18,5	8,1	34,9	36,9	1,3	0,2
Yoqilg‘i	4,5	49,9	16,9	25,0	3,1	0,7
Qora metallurgiya	13,6	4,9	3,4	74,8	3,1	0,2
Rangli metallurgiya	10,3	14,9	6,8	53,3	14,4	0,3
Kimyo va neft-kimyo	24,7	12,5	8,8	49,4	3,7	0,9
Mashinasozlik va metallga ishlov berish	14,2	6,5	0,6	71,6	4,0	3,0
O‘rmon, yog‘ochni qayta ishslash va Selluloza-qog‘oz	24,1	3,1	2,0	68,6	1,5	0,6
Qurilish materiallari	13,2	10,5	2,9	63,7	8,6	1,2
Yengil sanoat	28,4	4,5	1,9	61,0	1,8	2,3
Oziq-ovqat boshqalar	25,4	4,2	2,1	60,0	4,8	3,5
	25,9	6,6	2,3	57,7	4,9	2,6

Mehnat buyumlariga ta’sir etish darajasiga qarab asosiy ishlab chiqarish fondlari **aktiv** va **passiv** fondlarga bo‘linadi.

Aktiv asosiy ishlab chiqarish fondlariga mehnat buyumlari shaklini o‘zgartiruvchi, ya’ni bevosa ta’sir etuvchi fondlar (mashinalar, asbob-uskunalar, texnologik liniyalar, o‘lchov va to‘g‘rilash asboblari, transport vositalari) kiradi.

Passiv asosiy ishlab chiqarish fondlariga mehnat buyumlariga bilvosita

⁴⁸ Ўзбекистон Саноати. Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Кўмитаси. Тошкент 2016. Б.62-64.

ta'sir etuvchi, ya'ni ishlab chiqarish jarayonining normal o'tishiga kerak sharoit yaratuvchi ishlab chiqarish fondlari kiradi (bino va inshootlar, h.k.). Asosiy fondlar tarkibini o'rganishda ularning tuzilmasi masalasiga ham e'tibor berish zarur.

Asosiy fondlarning tarkibi deb, uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarning, guruhlarning har birinining umumiy qiymatiga bo'lgan nisbatga aytiladi. Masalan, 100 mln. so'm bo'lsa, ulardan binolar 25 foiz, inshootlar 15 foiz, uzatuvchi qurilmalar 10 foiz, ishchi mashinalar va jihozlar 30%, qolganlari esa 20 foiz bo'lishi mumkin (10-jadval).

Asosiy fondlar tuzilmasi quyidagi turlarga ajratiladi:⁴⁹

1. Tasviriy tuzilma.
2. Texnologik tuzilma.
3. Tarmoq tuzilmasi.
4. Hududiy tuzilma.
5. Takror ishlab chiqarish tuzilmasi.

Tasviriy tuzilmaning har xil vaqtida o'zgarishidan sanoatning texnik darajasini va asosiy fondlardagi kapital sarflashning samarasini tasavvur qilsa bo'ladi.

11-jadval

O'zbekiston Respublikasi sanoatida asosiy fondlarning texnologik tarkibi⁵⁰ (yil oxiriga foizda)

	2012	2013	2014	2015
Binolar	11,5	13,2	13,0	13,1
Inshootlar	22,6	22,1	23,3	22,1
Uzatish moslamalari	13,3	13,4	13,3	12,9
Mashina va uskunalar	45,4	44,3	43,7	45,4
Transport vositalari	5,9	6,0	5,7	5,5
Boshqa asosiy fondlar	1,3	1,0	1,0	1,1

Asosiy fondlarning tarkibiga konsentratsiyalash, ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish, kombinatsiyalashtirish, yangi korxonalar qurish va modernizatsiyalashga sarflangan kapital mablag'larning texnologik tuzilishi, korxonalarning hududiy joylashishi, tayyorlanadigan mahsulotning xususiyati va hajmi ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmi qancha ko'p bo'lsa, shuncha ishchi mashinalar va asbob-uskunalarning tutgan o'rni ko'proq bo'ladi.

Texnologik tuzilish asosiy fondlarning qismlari nisbatini ko'rsatadi (11-jadval).

⁴⁹ Ортиқов А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.134.

⁵⁰ Muallif tomonidan quyidagilar asosida tuzilgan: Ўзбекистон Саноати. Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Қўмитаси. Тошкент 2016. Б.62.

Tarmoq tuzilishi sanoat tarmoqlaridagi asosiy fondlarning tarkibi bilan ifodalanadi (12-jadval).

12- jadval

Asosiy fondlarning tarmoq tarkibi⁵¹ (foiz hisobida)

Tarmoqlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015
Elektroenergetika	13,6	12,4	12,8	14,8	14,7	14,6
Yoqilg‘i sanoati	28,9	31,3	30,7	31,2	31,4	31,9
O‘rmon, yog‘ochni qayta ishslash va Selluloza qog‘ozи	0,7	0,6	0,5	0,5	0,4	0,3
Kimyo va neft-kimyo sanoati	5,3	5,0	4,6	4,3	3,9	4,4
Mashinasozlik va metallni qayta ishslash sanoati	9,5	8,6	11,2	10,7	10,8	10,4
Qurilish materiallari sanoati	2,9	3,2	2,8	3,3	3,3	3,3
Yengil sanoat	8,4	7,3	7,1	6,5	5,9	6,0
Oziq-ovqat sanoati	4,6	4,1	4,2	4,0	3,7	3,9
Boshqa tarmoqlar	26,1	27,5	26,1	24,7	25,9	25,1

Hududiy tuzilma asosiy fondlarining hududiy taqsimlanishi va ularning nisbati bilan belgilanadi.

Takror ishlab chiqarish tarkibi yangi qurilish va qayta qurish, qayta qurollantirish va asosiy fondlarni kengaytirishning nisbati va tutgan o‘rnini ifodalaydi.

10.2. Asosiy fondlarni baholash

Amaliyotda asosiy fondlarni baholashning quyidagi turlari qo‘llaniladi:
 1) dastlabki to‘la qiymat orqali belgilangan baho; 2) qiymatini qaytadan tiklash orqali belgilangan baho; 3) qolgan qiymati orqali belgilangan baho; 4) ishlab chiqarishdan chiqarib tashlash bahosi.

Dastlabki to‘la qiymat orqali belgilangan baho (Ob) asosiy fondlarning sotib olingan bahosi (**S_b**), asosiy fondlarni olib kelish uchun qilingan transport xarajatlari (**X_t**) va montaj xarajatlari (**X_m**)ni o‘z ichiga oladi.

$$Ob = S_b + X_t + X_m$$

⁵¹ Muallif tomonidan quyidagilar asosida tuzilgan: Ўзбекистон Саноати. Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Кўмитаси. Тошкент 2014. Б.44.; Ўзбекистон Саноати. Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Кўмитаси. Тошкент 2016. Б.46.

Bu baho korxona (firma)ning asosiy ishlab chiqarish fondalarini sotib olish va ishga tushirish uchun qilgan haqiqiy xarajatlarini ifodalaydi. Bu ko‘rsatkich korxona (firma) balansida hisobga olinadi. Ammo asosiy fondlarning dastlabki to‘la qiymat orqali belgilangan bahosi ularning hajmini va turli yillarda qurib ishga tushirilgan korxona (firma)lar asosiy fondlarini taqqoslashda yetarli emas, shuning uchun asosiy fondlarni baholashda qiymatini qaytadan tiklash orqali belgilangan bahodan foydalaniladi.

Baholashning bu usuli asosiy fondlarning har xil davrda ishlab chiqarilgan va olingan baholarni hozirgi yangi sharoitdagi bahoda ifodalash imkoniyatini beradi. Bu baho bir xil iste’mol qiymatga ega bo‘lgan asosiy fondlarni baholashda bir xil qiymatlarda ifodalash, korxonalar ko‘rsatkichlarini taqqoslash va fondlar samaradorligini oshirish rezervlarini aniqlash uchun imkoniyat yaratadi. Qiymatni qaytadan tiklash orqali belgilangan baho amaldagi asosiy fondlarning jismoniy holati va ma’naviy eskirishini hisobga olgan holda qayta baho qo‘yish orqali aniqlanadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonida ishtirok eta borib asta-sekin ishdan chiqqa boradi, shuning uchun ularga baho belgilashda ularning ishdan chiqish va yemirilish qismi hisobga olinadi. Shu tufayli asosiy fondlarni baholashda qolgan qiymati orqali belgilangan baho ham qo‘llaniladi. U ikki xil baho bilan ifodalanadi: a) asosiy fondlarning ishdan chiqqan (tuzilgan) qismini ularning dastlabki to‘la qiymatidan ayirib tashlash orqali aniqlangan qiymat; b) asosiy fondlarning ishdan chiqqan (tuzilgan) qismini ularning qaytadan tiklangan qiymatidan ayirib tashlash orqali aniqlangan qiymat.

Asosiy fondlar juda eskirib, yaroqsiz holga kelgan, qayta tiklash, kapital remont qilish yoki modernizatsiya qilish natija bermaydigan hollarda ularni ishlab chiqarishdan olib tashlash zarur bo‘lib qoladi. Bunday hollarda asosiy fondlarni ishdan chiqarib tashlash bahosi aniqlanadi. Bu baho ishdan chiqqan, ishlab chiqarishdan chiqarib tashlanadigan asosiy fondlarni (temirtersak narxida) realizatsiya qilish bahosidir.

10.3. Asosiy fondlarning eskirishi va amortizatsiyasi

Ishlab chiqarishda qatnashadigan asosiy fondlar ishlab chiqarish jarayonida yillar o‘tishi bilan eskiradi va o‘z sifatini yo‘qota boradi. Asosiy fondlar ishlab chiqarishda uzoq muddat ishtirok etganligi tufayli vaqt o‘tishi bilan jismoniy va ma’naviy jihatdan eskiradi.

Jismoniy eskirish deganda asosiy fondlarning ishlab chiqarish jarayonida foydalanishi natijasida butunlay yoki qisman yemirilishi tushuniladi⁵². Ma’lum vaqt o‘tgandan keyin ishlab chiqarishda ishlab turgan mehnat qurollari ishga butunlay va qisman jismoniy yaroqsiz bo‘lib qoladi,

⁵² Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.137.

bunday hollarda ular yangisi bilan almashtiriladi yoki ayrim qismlari kapital remont yoki modernizatsiya qilinadi. Jismoniy eskirish natijasida asosiy fondlarning qiymati yo‘q bo‘lib ketmaydi, balki tayyorlangan mahsulot qiymatiga ko‘chiriladi.

Korxonalarda faqatgina amalda ishlayotgan mashina va asbob-uskunalgina emas, balki bekor turganlari ham yemiriladi. Mashina va asbob-uskunalarning jismoniy eskirish miqdori ularning xizmat qilish muddati va yemirilish darajasiga nisbatan aniqlanadi.

Fan-texnika taraqqiyoti va mehnat unumdorligining o‘sishi tufayli ishlab turgan mashina va asbob-uskunalar qiymatining kamaytirilishi hamda eskilariga nisbatan unumli va tejamli yangi mashinalar kashf etilishi, ularning ishlab chiqarishga joriy qilinishi natijasida ishlatilayotgan mashinalarning jismoniy yemirilish muddati tugamasdan qadrsizlanishi – asosiy fondlarning **ma’naviy eskirishi** deb ataladi. Ma’naviy eskirish fondlarning bahosini vaqtı-vaqtı bilan qayta ko‘rib chiqishni ko‘p jihatdan zarur qilib qo‘yadi. Eskirgan asosiy fondlarni yangilari bilan almashtirish rejali ravishda eng kam mehnat va mablag‘ sarf qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Asosiy fondlar ishlab chiqarish jarayonida asta-sekin eskirib, o‘z qiymatining ma’lum qismini **amortizatsiya** sifatida ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulot qiymatiga oz-ozdan ko‘chirib boradi.

Amortizatsiya – (lotincha amortisatio - qoplash), asosiy kapital (fondlar) amortizatsiyasi – asosiy kapital (mashina va mexanizmlar, jihozlar va uskunalar, binolar va inshootlar)ning ekspluatatsiya jarayonida eskirishi va ayni paytda ular qiymatining muayyan davr davomida ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotga o‘tib borishi.⁵³

Asosiy vositalar moddiy yoki jismonan va ma’nan eskiradi. Moddiy eskirish mehnat vositalaridan foydalanish jadalligi va uning korxonada ishlatilgan muddatlari bilan belgilanadi. Ma’naviy eskirish fan va texnika taraqqiyoti natijasida mehnat vositalarining arzonlashuvi hamda iqtisodiy jihatdan mukammal bo‘lgan yangi mehnat vositalarining yaratilishi va joriy qilinishi bilan bog‘liq. Amortizatsiya me’yori asosiy fondlar turiga, xizmat qilish muddatiga ko‘ra tabaqlashtiriladi. Amortizatsiya qiymati ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxiga kiritib boriladi. Mahsulot sotilgach, bu qiymat **amortizatsiya ajratmalari** ko‘rinishida eskirgan jihozlar o‘rniga yangisini sotib olish uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar summasi tarzida jamg‘ariladi.

Amortizatsiya ajratmalari – mahsulot tannarxiga kiritiladigan asosiy fondlar amortizatsiyasi summasi; asosiy fondlarni qisman tiklash (kapital ta’mir va yangilash) va to‘liq tiklash (renovatsiya) fondlarini yaratishga

⁵³ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1 жилд. – Т.: «Давлат илмий нашриёти», 2000. – 288 бет

xizmat qiladi. Amortizatsiya ajratmalari me'yorlari asosiy fondlar qiymatiga proporsional ravishda hisoblanishi, ya'ni taxminiy foydalanish muddatiga tekis taqsimlanishi yoki kamayib boruvchi balans usulida – jadallashtirilgan tartibda hisoblanishi mumkin. Jadallashtirilgan tartibda foydalanishning birinchi yilda amortizatsiya me'yori 2 marta oshiriladi, ikkinchi yili qoldiq qiymatining 20% va shu tarzda ajratmalar nazarda tutiladi. Natijada asosiy fondlar qiymatining 2/3 qismi ular xizmat muddatining yarmidayoq amortizatsiyalanadi. Amortizatsiya me'yorlarining pasaytirilishi asosiy fondlarning yangilanishini sekinlashtiradi, oshirilgan me'yorlar mahsulot tannarxini qimmatlashtiradi. Shu sababli amortizatsiya ajratmalari davlat tomonidan tartibga solinadi. Amortizatsiya ajratmalari **ta'minlanishi kerak** bo'lgan asosiy shart asosiy fondlar eskirishini to'liq qoplashi va ularni takror yaratishni ta'minlashidir. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda davlat amortizatsiya ajratmalari normativlarini belgilab, jadallashtirilgan amortizatsiya orqali tadbirkorlarga soliqqa tortiladigan foya summasini kamaytirishga imkoniyat yaratib beradi. Ayni paytda asosiy fondlar qiymatini hisobdan chiqarishni tezlatish tadbirkorni asosiy fondlarning ma'naviy eskirishi bilan bog'liq ehtimoli bo'lgan zarar ko'rishdan saqlaydi, yangi texnika va texnologiyani tezroq joriy etishga rag'batlantiradi.

Amortizatsiya ajratmalari asosiy fondlarning o'zini yoki uning ba'zi qismlarini yangilash vaqt kelguncha shu shaklda ma'lum fondda jamg'arilib turiladi va bu fond amortizatsiya fondi deyiladi. Demak, amortizatsiya fondi – amortizatsiya ajratmalari hisobiga shakllanadigan maxsus fonddir.

Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan moddiy aktivlar amortizatsiyasi degan tushuncha ham mavjud.

Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- asosiy ishlab chiqarish fondlarining dastlabki qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya ajratmalarining summasi (hisoblangan eskirish);

- lizing bo'yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar qonun hujjaligiga muvofiq amalga oshiriladigan, jadallashtiriladigan amortizatsiya summasi.

Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar eskirish, har oyda xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan dastlabki qiymati va ulardan natijali foydalanish muddatidan (biror xo'jalik faoliyati yurituvchi subyekt muddatidan ortiq emas) kelib chiqib hisoblanadigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga tegishli bo'ladi. Natijali foydalanish muhlatini aniqlash imkoni bo'limgan nomoddiy aktivlar bo'yicha eskirgan normasi 5 yilga hisoblanadi.

Ma'lumki, amortizatsiya ajratmalari belgilangan normalar bo'yicha tayyor mahsulotning tannarxiga kiritiladi va u quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$N_a = (F_1 - F_t) / (T_a * F_1) * 100\%,$$

Bu yerda:

F_1 – asosiy fondlarning dastlabki yoki tiklash qiymati;

F_t – asosiy fondlarning tugatish qiymati;

T_a – asosiy fondlarning normativ ishlash muddati (amortizatsiya vaqt).

Amortizatsiya normasining darajasi asosiy fondlarning eskirgan qismini tiklash uchun resurslar hajmini aniqlaydi. Amortizatsiya normasi bilan asosiy fondlarning aylanish tezligi belgilanadi va ularni qayta ishlab chiqarish jarayoni jadallashtiriladi.

Asosiy fondlarni to‘liq tiklanishi uchun zarur jami amortizatsiya ajratmalarini quyidagi formulaga asoslanib hisoblanadi:

$$A_a = N_a * F,$$

Bu yerda:

N_a – amortizatsiya normasi;

F – asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymati.

10.4. Asosiy fondlardan foydalanish ko‘rsatkichlari

Asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish, rejalashtirish, hisob-kitob qilish, ulardan foydalanishning samaradorligini ifodalash uchun juda ko‘p ko‘rsatkichlar kerak bo‘ladi. Ularni bir necha guruhlarga bo‘lish mumkin:

- asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
- ulardan foydalanish darajasini, ularning samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
- ishlab chiqarish fondi bilan qurollantirish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
- integral ko‘rsatkichlar.

Bu ko‘rsatkichlar tizimida ayniqsa, fond qaytmi ko‘rsatkichi va fondrentabelligi ko‘rsatkichi alohida o‘rin egallaydi.

Fond qaytmi – bu bir so‘mlik asosiy fond ishtirokida qancha mahsulot ishlab chiqarish mumkinligini ifodalaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$F_k = Q / F_{as},$$

Bu yerda, F_k – fond qaytmi (so‘m hisobida);

Q – ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati (so‘m hisobida);

F_{as} – asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymati.

Fond sig‘imi – bu fond qaytimiga teskari ko‘rsatkich bo‘lib, ma’lum miqdordagi mahsulot ishlab chiqarish uchun qancha asosiy fond kerakligini ifodalaydi va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$F_s = F_{as} / Q$$

Mehnatning fond bilan ta'minlanganligi har bir ishlovchi hisobiga qanchadan asosiy vositalar to'g'ri kelishini bildiradi va u quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$Fbt = Fas / Xym,$$

Bu yerda, **Xym** – xodimlarning yillik o'rtacha miqdori (kishi hisobida).

Asosiy fondlardan foydalanishni ifodalaydigan ko'rsatkichlardan yana biri – bu jihozlardan foydalanish ko'rsatkichlari:

a) ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti (**Ke**). U jihozlarning rejali ish vaqtida (**Tjr**) haqiqiy ishlagan vaqtida (**Tjx**) darajasini ko'rsatadi:

$$Ke = Tjx / Tjr,$$

b) intensiv foydalanish koeffitsiyenti (**Kin**). U jihozlarning minimum mahsulot ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan miqdoriga (**Mch**) nisbatan haqiqiy ishlab chiqargan mahsulot miqdori (**Mx**) darajasini ko'rsatadi:

$$Kin = Mx / Mm.$$

10.5. Ishlab chiqarish quvvati va ulardan foydalanishni yaxshilash yo'llari

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'llaridan biri mavjud ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilashdir. Ulardan samarali foydalanish masalasi ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida yanada dolzarplashadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda ulardan unumli foydalanishga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan qanchalik to'la va unumli foydalanilsa, ko'proq mahsulot ishlab chiqariladi, mahsulotning tannarxi kamayadi, korxonaning foydasi va samaradorligi oshadi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati vaqt birligi ichida belgilangan assortiment va nomenklatura, mavjud dastgohlar, ishlab chiqarish maydonlaridan to'liq foydalanilgan holda mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini ifodalaydi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati natura birligida o'lchanadi. Masalan, metallurgiya sanoatida ishlab chiqarish quvvati tonnada, to'qimachilikda yigirilgan ip tonnada, gazlamalar metrda, avtotraktor tarmoqlarida avtomobillar va traktorlar donalab o'lchanadi.

Ishlab chiqarish quvvati korxonaning texnik darjasini, unumdarligi, kadrlar malakasi, xomashyolarning sifati va mahsulotlarning assortimentiga qarab o'zgara boradi.

Korxonalarda ishlab chiqarish quvvatini hisoblash uchun quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

a) mavjud uskunalar va agregatlarning soniga (ta'mirlashdagi uskunalar) rejalashtirish davrida yangidan kiritilgan uskunalar qo'shiladi, lekin jismoniy va tabiiy sharoit ta'sirida yemirilgan uskunalar hisobga

kiritilmaydi;

b) korxonalar va sexlarning ishlab chiqarish maydonlari haqidagi ma'lumot;

v) korxonalarning ish rejimi, ya'ni smenalar soni (ta'mirlashga to'xtash vaqtisiz), ish vaqtি fondi;

g) uskunalar, agregatlarning unumdorlik normasi.

Ishlab chiqarishda turli uskunalardan foydalanish, korxonaning quvvati asosiy texnologik jarayonlarni bajaradigan yetakchi sexlar, bo'linmalar yoki agregatlarning quvvatlariga binoan hisoblanadi.

Turli korxonalar (birlashmalar)ning ishlab chiqarish quvvatini hisoblashda ularning xususiyatlari inobatga olinadi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$Q = D_s * D_u * D_{iv},$$

bu yerda,

Q – korxonaning ishlab chiqarish quvvati;

D_s – bir turdag'i dastgohlar soni;

D_u – vaqt birligidagi bir dona dastgohning unumdorligi;

D_{iv} – dastgohlarning ishlash vaqtি.

Ayrim tarmoqlarning korxona va sexlarida yig'uv, quyuv, mebel, konserva ishlab chiqarish quvvati, maydon bo'yicha quyidagi formulaga asosan hisoblanadi:

$$Q = (M : Mn) * (F : Vt),$$

bu yerda,

M – korxonaning yoki sexning ishlab chiqarish maydoni (kvm);

M_n – norma ish joyiga taalluqli ishlab chiqarish maydoni (kvm);

F – ish joyining yillik rejali ish vaqtি fondi (soat);

Vt – mahsulotning mehnat talabchanligi – texnologik vaqt (soatda).

Yil boshida belgilangan ishlab chiqarish quvvati – kirish quvvati, yil oxiridagisi esa chiqish quvvati deyiladi. O'rtacha yillik ishlab chiqarish quvvati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Kur = K_k + (K_t * P_1) / 12 - (K_{ch} * P_2) / 12,$$

bu yerda,

K_k – kirish (rejalashtirilayotgan yil boshidagi) quvvat;

K_t – yil davomida ishga tushirilgan quvvat;

K_{ch} – chiqish (yil oxiridagi) quvvat;

P₁ – rejallashtirilayotgan davrdagi ishlab chiqarish quvvatidan foydalanilmagan oylar soni;

P₂ – rejallashtirilayotgan davrda, ishga tushirilgan ishlab chiqarish quvvatidan foydalanilgan oylar soni.

Asosiy fondlardan va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni yaxshilash ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga, kapital

mablag‘ sarflamay qo‘sishmcha mahsulot ishlab chiqarishga, mehnat unumdorligi va samaradorlik o‘sishiga hamda mahsulot tannarxini kamaytirishga imkon yaratadi. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda respublikada ulardan unumli foydalanishga katta e’tibor berilmoqda.

Sanoat asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatlari samaradorligini oshirishda korxonalarda texnologik uskunalarning ish smenasini ko‘paytirish katta ahamiyatga egadir.

Uskunalardan intensiv foydalanishni yaxshilash uchun korxonaning texnika va texnologiyasini takomillashtirish, mashina-larning ish tezligini oshirish, metall quyishga, Kimyoviy jarayonlarga sarflanadigan vaqt ni qisqartirish, shuningdek, kadrlar malakasining texnikaviy saviyasini oshirish, korxonalarni yiriklashtirish, ixtisoslash-tirish va hamkorlik asosida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish zarur.

Qisqacha xulosalar

1. Ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt bevosita va bilvosita qatnashadigan, moddiy boyliklar yaratishda ishtiroy etadigan hamda tabiiy shaklini saqlagan holda o‘z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga astasekin o‘tkazib boradigan mehnat vositalari asosiy ishlab chiqarish fondlari bo‘lib hisoblanadi.

2. O‘zbekiston sanoatida ilg‘or texnika va texnologiya, ustuvor tarmoqlar va ishlab chiqarishning o‘sishi natijasida asosiy fondlar to‘xtovsiz o‘sib bormoqda.

3. Ko‘p ukladli iqtisodiyotga o‘tish munosabati bilan asosiy fondlar tarkibida ko‘zga ko‘rinarli siljishlar amalga oshdi va oshmoqda. Yangi jihozlar, asbob-uskunalar, qurilmalar, hisoblash texnikasi va ishlab chiqarish inventarlari salmog‘i oshib bormoqda.

4. Asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash anchayin dolzarb masala bo‘lganligi uchun ham ushbu masalaga alohida ahamiyat beriladi.

O‘z-o‘zini nazorat qilishga oid savollar

1. Asosiy fondlarning mohiyati, ahamiyati, tarkibi.
2. Kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarishda asosiy fondlarning
3. Asosiy fondlarning yemirilishi va amortizatsiyasi
4. Asosiy fondlarni ta’mirlash va modernizatsiya qilish
5. Asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash yo‘llari.
6. Ishlab chiqarish quvvatlari tushunchasi va uni aniqlash usullari.
7. Ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish masalalari.

11-BOB. O'ZBEKISTON SANOATINING XOMASHYO MANBAI VA UNI JOYLASHTIRISH

Tayanch atamalar va iboralar: xomashyo, yordamchi materiallar, tayyor mahsulot, asosiy xomashyo, yarim fabrikat, sanoat xomashyosi, qishloq xo'jaligi xomashyosi, mineral xomashyolar, rudali mineral xomashyolar, rudasiz mineral xomashyolar, sun'iy materiallar, plastmassalar, sintetik kauchuk.

Reja:

- 11.1. Sanoatda xomashyo, uning xususiyatlari va turkumlanishi**
- 11.2. Resurslar tejamkorligining strategiyasi va taktikasi**
- 11.3. Mineral xomashyo va ulardan oqilona foydalanish**

11.1. Sanoatda xomashyo, uning xususiyatlari va turkumlanishi

Qayta ishlovchi barcha sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi elementlardan biri xomashyodir, chunki xomashyosiz hech qanday mahsulot ishlab chiqarish mumkin emas.

Xomashyo deb, qazib olish yoki ishlab chiqarish uchun ma'lum darajada mehnat sarflangan va shu mehnat natijasida bir qadar o'zgargan mehnat buyumiga aytiladi. Xomashyo – asosiy va yordamchi materiallarga bo'linadi.

Asosiy xomashyo deb, tayyor mahsulotning material (moddiy) asosini tashkil qiluvchi mehnat buyumiga aytiladi. Tayyor mahsulot tarkibiga kiruvchi yoki asosiy xomashyoni qayta ishslashga zarur sharoit yaratib beruvchi qolgan barcha mehnat buyumlari yordamchi materiallar deb ataladi.

Mehnat buyumlarining mahsulot ishlab chiqarishda qay tarzda qatnashishiga qarab ular ham xomashyo (asosiy xomashyo), ham yordamchi material bo'lishi mumkin. Masalan, neft yoqilg'i sifatida yordamchi material bo'lsa, benzin yoki kerosin ishlab chiqarishda esa xomashyodir.

Xomashyo keng miqyosda iste'mol buyumlari hamda ishlab chiqarish mahsulotlari olish uchun ishlataladigan tabiiy materiallardan iborat bo'lib, u quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- miqdori jihatidan yetarli bo'lishi;
- qazib olish arzon va oson bo'lishi;
- texnologik jarayonlar oson borishi kerak.

Har bir xomashyo mehnat buyumlaridir, Lekin har bir mehnat buyumi xomashyo emas. Mehnat buyumi mehnat vositasi bilan ma'lum darajada o'zgargandan keyingina xomashyo bo'ladi. Yer ostidagi foydali qazilmalar, yovvoyi hayvonlar, daraxtlar va hokazolar xomashyo bo'lmay, balki potensial tabiiy boyliklardir.

Mehnat vositasi yordamida ovlangan hayvonlar, qazib olingan ma'danlar, kesilgan daraxtlar va boshqalar xomashyo hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida bir yoki bir necha bosqichda qayta ishlangan bo'lsa-yu, lekin tayyor mahsulot sifatida iste'mol qilina olmasa, u yarim fabrikat deb ataladi.

Hayotda yarim fabrikat uni ishlab chiqargan ishlab chiqarish nuqtai nazaridan qaraganda tayyor mahsulot, iste'mol qiluvchi ishlab chiqarish nuqtai nazaridan qaraganda xomashyo hisoblanadi.

Xomashyo resurslarini xomashyodan farq qilmoq kerak. Xomashyo resurslariga mamlakatdagi foydali qazilmalar konlari, o'rmon maydonlari, uy hayvonlari va shu kabi tabiiy boyliklar kirsa, ular qazib chiqarilgan yoki ishlab chiqarish uchun mehnat sarflangandagina ular xomashyoga aylanishi mumkin.

Xomashyo ishlab chiqarish jarayonining asosiy elementi sifatida sanoat ishlab chiqarishiga va uning iqtisodiga katta ta'sir ko'rsatadi. Sanoatning qayta ishlovchi tarmoqlarida xomashyo va yoqilg'i xarajatlari ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlari hajmida eng katta salmoqqa egadir. Shuning uchun sanoat korxonalari faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari ko'p jihatdan tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan xomashyo va yoqilg'i xarajatlari darajasiga bog'liq bo'ladi. Sanoat mahsuloti tannarxida xomashyo, yordamchi materiallar va yoqilg'i xarajatlari butun sanoat bo'yicha o'rtacha 70 foizni tashkil etadi. Shuning uchun xomashyoni tejab ishlatish sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirishda, ishlab chiqarish quvvatlaridan yaxshi foydalanishda va ishchilar mehnatining unumdorligini oshirishda katta rol o'ynaydi.

Material ko'p sarflanadigan tarmoqlarda xomashyo va material-lardan oqilona foydalanish mahsulot tannarxini pasaytirishning asosiy manbaidir. Mashina va uskunalarning unumli ishlashi va tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun vaqtning sarflanish darjasи xomashyo sifati va uning turiga bog'liq. Sanoatdagi xomashyolar xilma-xil bo'lib, ular quyidagi turlarga bo'linadilar:

- sanoat xomashyosi;
- qishloq xo'jaligi xomashyosi.

Sanoat xomashyosi turli belgilarga ko'ra quyidagicha turkumlanadi:

- kelib chiqishiga ko'ra – tabiiy va sun'iy;
- agregat holatiga ko'ra - qattiq, suyuq hamda gazsimon;
- kimyoviy tarkibiga ko'ra – organik va anorganik;
- ishlatilishiga ko'ra – ozuqabop va texnik turlarga bo'linadi.

Qishloq xo'jaligi xomashyosi ikki turga, ya'ni o'simliklardan olinadigan xomashyolar va hayvonlardan olinadigan xomashyolarga bo'linadi.

Mineral xomashyolar. Yer ostidan qazib olinadigan mineral birikmalar mineral xomashyolar deyiladi⁵⁴. Iqtisodiyotda ishlatiladigan minerallar uch turga bo‘linadi: a) rudali; b) rudasiz; v) yonuvchi mineral xomashyolar. Bu minerallarning ko‘pi qattiq holda bo‘ladi. Suyuq mineral boyliklarga faqat neft hamda tuz eritmalar, gaz holdagisiga esa tabiiy gaz kiradi.

Rudali mineral xomashyolar foydali jinslar bo‘lib, metallar olish uchun asosiy manbadir.

Rudasiz mineral xomashyolar ham tog‘ jinslari bo‘lib, ular metall olish uchun ishlatilmaydi. Bunday mineral xomashyolar hech qanday kimyoviy qayta ishlanmasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiyotda yoki metallsiz ishlab chiqarishda xomashyo sifatida ishlatiladi. Rudasiz minerallar shartli ravishda quyidagi turlarga bo‘linadi:

- qurilish materiallari – to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki fizik-kimyoviy qayta ishlangandan so‘ng qurilish ishlarida ishlatiladigan mineral xomashyo;
- industriya xomashyolari – kimyoviy qayta ishlanmasdan sanoatning turli tarmoqlarida ishlatiladigan xomashyo.
- kimyoviy mineral xomashyolar – kimyoviy qayta ishlash uchun ishlatiladigan minerallar;
- qimmatbaho va rudasiz minerallar – tabiiy holda yoki mexanik qayta ishlangandan so‘ng bezak uchun ishlatiladigan minerallar.

Yonuvchi mineral xomashyolar yoqilg‘i sifatida ishlatiladigan foydali qazilma boyliklardir. Bular tosh va qo‘ng‘ir ko‘mir, torf, yonuvchi slanetslar, neft hamda tabiiy yonuvchi gazlar kiradi. Yonuvchi gazlar, neft va ko‘mir eng arzon hamda foydalanish uchun qulay yoqilg‘igina bo‘lmay, balki kimyo sanoatida qimmatbaho xomashyo hamdir.

O‘simlik va hayvonot xomashyolariga yog‘och, zig‘ir, kanop, yog‘lar, o‘simlik moylari, hayvonot terilari va shunga o‘xshashlar kiradi. Bular iqtisodiyotda ishlatilishiga ko‘ra ozuqabop va texnik xomashyolarga bo‘linadi. Ozuqabop xomashyolarga ozuqa sifatida ishlatiladigan birikmalar – o‘rmonchilik, baliqchilik va qishloq xo‘jalik mahsulotlari kiradi.

O‘simlik va hayvonlardan olinadigan texnik xomashyolarga yuqorida ko‘rsatilgan iqtisodiyot tarmoqlarining oziq uchun yaramaydigan mahsulotlari kiradi. Bunday mahsulotlarni mexanik va kimyoviy usulda qayta ishlash orqali, ulardan turmushda va sanoat ishlab chiqarishida ishlatiladigan xomashyolar olinadi.

Bunday xomashyo turlarini kimyoviy qayta ishlash natijasida turli mahsulotlar olish mumkin, ularning manbalari ko‘pligi, amaliy jihatdan bitmas-tuganmas zahiraga egaligi ular asosida ko‘pgina yangi kimyoviy korxonalar tashkil etishga imkon beradi.

⁵⁴ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.145.

Umuman fan va texnikaning nihoyatda tezlik bilan rivojlanishi yangidan-yangi materiallarni, shuningdek, yangi xomashyo materiallarini qidirib topish masalasini qo'yadi. Bu masala asosan olti yo'l bilan amalga oshiriladi:

- iloji boricha arzon xomashyolarni qidirib topish va ishlatish;
- xomashyodan kompleks foydalanish;
- konsentrangan xomashyo va mahsulotlar ishlatish;
- juda toza mahsulotlar ishlatish;
- texnika maqsadlari uchun ishlatiladigan ozuqabop xomashyolarni noozuqabop xomashyo bilan almashtirish;
- iloji boricha mahalliy xomashyolardan foydalanish.

Hozirgi vaqtida kimyo va kimyoviy texnologiyaning yutuqlari muhim texnika xo'jalik mahsulotlarini noozuqabop xomashyolardan olishga imkon beradi. Bunday xomashyolar sifatida toshko'mir, torf, slanets, neft, tabiiy gazlar, yog'och, o'simlik va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining chiqindilari ishlatilmoqda. Masalan,sovun yuvuvchi mahsulotlar, izolatorlar ishlab chiqarishda, to'qimachilik sanoatida, rezina mahsulotlari ishlab chiqarishda, charm sanoatida, korroziyaga qarshi kurashishda, betonlarni suv o'tkazmaydigan qilishda, metallarni sillqlashda, metallarni qirqishda sovutgichlar sifatida har yili bir necha ming tonnalab qimmatbaho ozuqabop moylar ishlatiladi.

Sanoatning ko'pgina tarmoqlarida keng miqyosida ishlatiladigan etil spirt ishlab chiqarish uchun ham juda ko'p miqdorda yuqori sifatli don va kartoshka ishlatiladi. Xuddi shu singari sanoatda un, kraxmal, sut kabi mahsulotlar texnika maqsadlari uchun ishlatiladi. Masalan, kazein-oqsil modda sutda bo'ladi, kazein yelim ishlab chiqarishda, qog'oz va charm sanoatida bo'yoqchilikda hamda muvovalar qilishda asosiy mahsulot sifatida ishlatiladi. Bu maqsadda kazein ishlab chiqarish uchun har yili bir necha yuz ming tonna yog'sizlangan sut sarflanadi.

Kraxmal to'qimachilik sanoatida, rezina va kimyo sanoatida, gugurt sanoatida, elektrodlar olishda keng qo'llaniladi. Hozir sanoatda kraxmal poliakrillamid hamda Sellulozaning suvda eruvchan efirlari – karboksilmetil Selluloza (KMS) bilan muvofaqqiyatli almashtirilgan. Shu bilan birga KMS ko'p miqdorda kraxmal o'rnida, to'qimachilik, qog'oz va gugurt sanoatida ozuqabop un o'rnida ishlatilmoqda.

Hozir etilenden va yog'ochdan olinayotgan sintetik etil spirt tarkibi va sifati jihatidan ozuqabop xomashyolardan olinadigan etil spirtdan farq qilmaydi va shu bilan birga ancha arzon hisoblanadi. Shuning uchun iqtisodiyotning ko'p tarmoqlarida bunday etil spirt ko'p ishlatilmoqda. Shuningdek, gaz va neftni qayta ishlash mahsulot-laridan sirka kislota, glitserin va yog'lar ishlab chiqarilmoqda. Mahsulotlarni bu yo'l bilan ishlab

chiqarishda ko‘p miqdorda ozuqabop xomashyolar tejab qolinadi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxi bir muncha arzonlashadi.

Sanoatni yanada rivojlantirish, texnika taraqqiyoti sur’atlarini jadallashtirish va sanoat mahsulotlarining turlarini ko‘paytirish vazifalari sun’iy materiallar ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirishni taqozo etadi.

Sun’iy materiallar ishlab chiqarish va uni sanoatda qo‘llash quyidagi hollarda iqtisodiy samarador hisoblanadi:

a) sun’iy material yagona xomashyo bo‘lgan tarmoqda ishlab chiqarishning jadal sur’atlari bilan va keng mashtabda rivojlantirishga sabab bo‘lsa;

b) qayta ishlovchi tarmoqlar texnika bazasining mukammallashuviga sabab bo‘lsa;

v) ushbu materialni iste’mol qiladigan tarmoqlar mahsulotining sifatini yaxshilashga va assortimentni kengaytirishga sabab bo‘lsa;

g) qayta ishlash tarmoqlarida texnologik jarayonlarni jadallashtirishga va uskunalarni mukammallashtirishga sabab bo‘lsa;

d) tayyor sanoat mahsuloti ishlab chiqarish uchun sarflanadigan ijtimoiy xarajatlarni kamaytirishga sabab bo‘lsa;

e) sun’iy materiallardan ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxini kamaytirsa.

Sun’iy materiallar ishlab chiqarish va qo‘llashning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda vaqt omilini, ya’ni qisqa vaqt ichida kerakli miqdorda sanoat mahsulotini ishlab chiqarishga erishish mumkinligini e’tiborga olmoq lozim. Bu sohada sun’iy materiallar behad afzalliklarga ega, chunki tabiiy xomashyo bo‘lgan paxta, jun, teri va boshqalarini ishlab chiqarishga oylab vaqt ketsa, sun’iy materialarni ishlab chiqarishga kunlab va soatlab vaqt kifoya qiladi.

Sun’iy materiallar ishlab chiqarishga tabiiy materialarga nisbatan ancha kam ijtimoiy mehnat sarf qilinadi. Masalan, 1 tonna yuvilgan jun ishlab chiqarishga 7000 odam/soat sarflansa, sintetik tolaga 225-1400 odam/soat sarflanadi.

Sun’iy materiallar sanoatning qo‘sishimcha xomashyo bazasi bo‘lib xizmat qiladi. Sun’iy materiallar ishlab chiqarishda jarayonlarni kimyolashtirish, ayniqsa, organik sintezni rivojlantirish katta rol o‘ynaydi. Turli tarmoqlarda kimyoviy metodlarni qo‘llash tabiatda ko‘p tarqalgan mahsulotlardan sifati tabiiy materialarnikidan ancha ustun bo‘lgan juda ko‘p yangi tur sun’iy materiallar ishlab chiqarish imkonini beradi.

Zamonaviy texnika sintetik materiallarga turlicha talablar qo‘yadi. Sintetik materiallar juda ko‘p o‘ziga xos afzalliklarga ega: ular uzoq vaqt o‘ta yuqori va o‘ta past temperaturaga, yuqori bosim va juda katta elektr kuchlanishlariga chidamli bo‘ladi. Sun’iy materiallar ishlab chiqaruvchi

tarmoqlarni tez sur'atlar bilan rivojlantirish sanoatni rivojlantirish va sanoat xomashyo bazasini kengaytirishning asosiy yo'llaridan biridir.

Sanoatni rivojlantirishda plastmassalar, sintetik kauchuk, sun'iy va sintetik tolalar, sun'iy charmlar va charm o'rnini bosuvchi materiallar, sintetik yuvish vositalari va ozuqa xomashyosi o'rnini bosuvchi sun'iy materiallar, muhim rol o'yamoqda.

Plastmassalar – keng nomenklaturaga ega bo'lgan sun'iy polimer mahsulotlar bo'lib, ular sifat jihatdan tabiiy materiallar bilan tenglashibgina qolmay, balki ko'p hollarda ulardan ustunlik ham qiladi⁵⁵. Ular yuqori mustahkamlik, elektr o'tkazmaslik, yengillik, qattiqlik, egiluvchanlik, tiniqlik, karroziyaga, kislotaga, issiqlikka chidamlilik, kam yediruvchanlik kabi sifatlarga ega va mexanik ishslashning turli usullariga yengil moslashadi.

Mamlakatimiz plastmassalar ishlab chiqarish uchun keng xomashyo resurslariga ega, chunki plastmassalar uchun tabiiy va neft gazi, neftni qayta ishslash va koksokimyo sanoati chiqindilari, yog'ochni kimyoviy ishslash mahsulotlari, yengil va oziq-ovqat sanoati va qishloq xo'jaligining turli xil chiqindilari xomashyo bo'lib xizmat qila oladi.

Sintetik kauchuk – rezina, rezina-texnika va uy-ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarish uchun yagona xomashyodir. Sintetik kauchuk tabiiy kauchukka nisbatan o'n minglab marotaba tezroq ishlab chiqariladi. Tabiiy kauchuk bir necha xususiyatga ega bo'lsa, sintetik kauchuk behisob xususiyatlarga ega. Har biri bir necha markali bir necha tur kauchuklarga bo'linadi.

Sun'iy va sintetik tolalar sanoatning xomashyo bazasini kengaytirish bilan birga, turli texnik va kiyim-kechak gazlamalari, elektr izolatsiya materialari, kabellar va kanatlar, baliq tutish to'rlari va boshqa buyumlar ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

Iqtisodiyotda sun'iy charm o'rnini bosuvchi materiallar katta ahamiyatga egadir. Chunki poyafzal sanoatining o'sish sur'atlarini amalga oshirish uchun tabiiy charm resurslari yetarli emas. Sun'iy charm va charm o'rnini bosuvchi materiallardan poyafzalning ayrim detallarini tayyor holda ishlab chiqarishning mumkinligi poyafzal sanoatini avtomatlashtirish, ishlab chiqarish siklini qisqartirish, texnologik jarayonlarni takomillashtirish va natijada poyafzal sanoatining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash imkonini beradi.

11.2. Resurslar tejamkorligining strategiyasi va taktikasi

Ma'lumki, har bir jangda har ikkala tomon ham o'z strategiya va taktikasidan foydalanib, imkon qadar yo'qotishlarsiz g'alabani qo'lga

⁵⁵ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.148.

kiritishga harakat qiladi. Xuddi shuningdek, iqtisodiyotda ham strategiya va taktika qo'llaniladi.

Ma'lumki, har bir davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlarda resurslar tekin emas, ular o'z maqsadlariga erishishda strategiya va taktikadan foydalanadi. Bundan ko'zlangan maqsad, ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xomashyo xarajatlarini minimallashtirish va shu orqali foydani maksimallashtirishdir. Olib borilgan izlanishlar, qo'llanilgan strategiya va taktikaning xomashyo xarajatlarini kamaytirishdagi so'nggi bosqichi resurslardan foydalanishning alternativ yo'lini tanlash, resurslar tejamkorligi ekanligini tavsiflaydi.

Resurslarni tanlash alternativligi amaliyotda undan foydalangan sohalarda quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- xarajatlarning kamayishi va ishlab chiqarilgan mahsulot sifatining oshishi;

- alohida tovarlar va mahsulotlar assortimenti bilan bozorga kirib borish va o'z o'rmini egallash;

- mahsulot sifatidagi aniq ustunlikka erishish;

- xuddi iqtisodiyotdagi o'rni kabi texnologiyada ham liderlik, ya'ni peshqadamlik mavqeining o'sishiga ega bo'lishga intilish;

- dinamikani hisobga olgan holda mavjud resurslardan yaxshiroq foydalanish va xo'jalik faoliyatidan foyda olish.

Shuningdek, alternativ (bir-biriga zid ikki yo'ldan birini - yo unisini, yo bunisini tanlab olish zarurati) resurslardan foydalanish strategiya va taktikasining tarkibiy qismi hisoblanib, ishlab chiqarishda iqtisodiy tejash va samaradorlikning oshishiga olib keladi.

Modomiki, strategiya va taktika har qanday ishda, shuningdek, moddiy, moliyaviy va boshqa resurslardan foydalanish sohasida ham amalga oshirish birinchi navbatda odamlarni, amaliyotga mo'ljallangan xodimlarning tegishli kvalifikatsiyasi, bilimi va ish malakasi, resurslardan foylanish javobgarligi, bozor iqtisodiyoti sharoiti va zamonaviy fan-texnika tadqiqoti haqida yetarli bilimlar talab qilinadi.

Oldingi rejali iqtisodiyot sharoitida resurslar davlatga qarashli bo'lib, ularni bepul va qaytarib olmaslik qoidasi asosida hududlarga, tarmoqlarga va korxonalarga taqsimlab berilar edi. Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoiti resurslarni topish va ulardan foydalanishga bo'lgan talabning ko'tarilishi resurslar tejamkorligini amalga oshirish yo'llarini izlashni taqozo etadi.

Sobiq ittifoqda barcha resurslar davlat tomonidan bepul taqsimlanganligi uchun resurslar tejamkorligi amaliyotda emas, balki hujjatlarda bajarilgan. Hozirgi kunda bu masala oldingi davrdagidek, "yuqori"ning ko'rsatmasi bilan emas, har bir xo'jalik yurituvchi subyektning resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqishi bilan hal etilmoqda.

Hozirgi sharoitda ko‘pgina korxonalarning asosiy masalasi mahsulotni ishlab chiqarishda nimani, qancha va kimga ishlab chiqarish emas, shu bilan bir qatorda bu mahsulotni ishlab chiqarishga qancha resurs va mablag‘ talab qilinishi masalasi ham muhimdir. Bu har bir korxonaga bir tomondan mavjud talabni qondirish, ikkinchi tomondan esa – resurslar xarajatining kamxarj yo‘lini axtarishga undaydi.

Bularning barchasi tovar ishlab chiqarish xarakteri bilan bog‘liq bo‘lgan ixtisoslashganlik, texnologiya, qurollanganlik va boshqa xususiyatlar korxonaning o‘ziga tegishlidir. Bulardan tashqari, har bir korxonaga xarakterli bo‘lgan normalashtirish va resurslarning pulliligi – resurslar tejamkorligining muhim rezervidir.

Xomashyodan ratsional foydalanish – sanoat xomashyo bazasini kengaytirish va mustahkamlashning muhim manbaidir. Iqtisodiy nuqtai nazardan xomashyodan maqsadga muvofiq va ratsional foydalanishda ko‘p jihatdan qayta ishlovchi sanoat tarmog‘i yoki korxona uchun xomashyoni to‘g‘ri tanlash katta ahamiyatga ega.

Xomashyo xususiyatini va sifatli texnologik jarayonni tanlashga va uning progressivlik darajasiga, mashinalardan va vaqtdan foydalanish darajasiga, ishlab chiqarish siklining uzunligi va umuman ishlab chiqarishning barcha texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi paytda har bir sanoat tarmog‘ida bir necha tur xomashyo qo‘llaniladi. Ayrim tarmoq uchun qaysi xomashyoni tanlab olish maqsadga muvofiq ekanligini aniqlash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha turli xomashyolarni qiyoslash zarur: solishtirma kapital xarajatlari; mehnat unumdonligi; mahsulot tannarxi; mahsulot sifati; mahalliy xomashyodan maksimal foydalanish; kamyob bo‘lmagan xomashyodan foydalanish; ishlatilmaydigan chiqindilardan foydalanish mumkinligi; sun’iy materiallardan foydalanish mumkinligi; xomashyoning progressiv texnologiya talablariga javob berishi; xomashyoning bo‘lg‘usi tayyor mahsulot sifat ko‘rsatkichlariga javob berishi; ma’lum davrda ma’lum tarmoqda qo‘llashning iqtisodiyot nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqligi; ayrim hududlarning o‘ziga xos xususiyatlari; ayrim tarmoqlardagi texnika taraqqiyoti.

Qazib chiqarish tarmoqlarida va qishloq xo‘jaligida olinadigan xomashyo va materiallar bevosita mahsulot olish uchun qayta ishlashdan oldin bir marta ishlanadi. Bundan maqsad, xomashyoni unda bo‘lgan keraksiz qo‘shimchalardan tozalashdir.

Xomashyodan to‘liq va har tomonlama foydalanib, uning turli qismlaridan turli xil mahsulotlar olish uchun xomashyodan kompleks foydalanish kerak.

Xomashyo resurslarini kengaytirish va tejashning yana bir yo‘li xomashyo va materiaillardan qayta foydalanishdir. Masalan, yedirilgan

mashinalar, binolar va eski texnikalarning metall qismlari, buzilgan binolarning g‘ishtlari, qog‘oz materiallari va boshqalardan sanoatda qayta foydalanish mumkin.

11.3. Mineral xomashyo va undan oqilona foydalanish

Mineral xomashyo – bu konlardan qazib olinuvchi turli foydali qazilmalardir.

Potensial resurslardan oqilona foydalanish va foydali qazilmalarni qazib olishning iqtisodiy samarador usullarini qo‘llash uchun konlar zahirasining miqdorini iqtisodiy jihatdan to‘g‘ri aniqlash va sanoat masshtabida ekspluatatsiya qilish navbatini aniqlash ahamiyatga egadir.

Zahiralarni o‘rganish va aniqlash geologiya-qidiruv ishlari davlat rejasiga asosida olib boriladi. Sanoatning mineral xomashyoga bo‘lgan talabini rejalahtirishda konlarning o‘rganilganlik darajasi muhim ahamiyatga egadir. Mineral xomashyo zahiralarini qidirish va sanoat ekspluatatsiyasiga tayyorlik darajalari bo‘yicha bir necha kategoriyalarga bo‘linadi.

Foydali qazilma zahiralari ma’lum bir davr uchun ularning texnik-iqtisodiy jihatidan foydalanish mumkinligi darajasiga qarab balansdagi va balansdan tashqari zahiralarga bo‘linadi. Balansdagi zahiralarga sanoat talablariga va foydalanishning texnik shartlariga javob beruvchi va hozirgi kunda ularni qazib chiqarish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lgan zahiralar kiradi. Balansdan tashqari, zahiraga – tarkibida foydali komponentlari, qazilmalar miqdori kam bo‘lgan yoki ekspluatatsiya sharoitlari og‘ir bo‘lgan hamda shu xomashyoni sanoat usullari bilan qayta ishslash hozircha mumkin bo‘lmagan zahiralar kiradi.

Turli xil foydali qazilma resurslari mamlakat hududining turli qismida joylashgan konlarda yig‘ilgandir. Ayrim konlar bir-birlari bilan foydali qazilma zahiralari; qazilmalarning fizik-kimyoviy xususiyatlari; ekspluatatsiya sharoitilari bilan farq qiladi.

Ekspluatatsiya uchun kon tanlash konlarning faqatgina tabiiy yoki texnik xususiyatlarigagina bog‘liq bo‘lib qolmay, balki birinchi navbatda iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligiga bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi mineral xomashyo resurslariga juda ham boy bo‘lib, ularning umumiyligi bahosi 3,3 trln. dollardan ziyodroqdir. Hozirgi vaqtida mamlakatimizda oltin, uran, mis, tabiiy gaz, volfram va boshqa ko‘pgina mineral resurslarning aniqlangan zahiralari jahonda yetakchi o‘rinlardan birida turadi. Bu yerda oltinning 30 dan ortiq konlari qidirib topilgan. Uning asosiy zahiralari Marakaziy Qizilqumda Muruntov oltin koni bo‘lib, uning rudasi tarkibida oltin miqdori yuqori hisoblanadi.

Keyingi yillarda Toshkent, Samarqand viloyatlarida yangi oltin ruda konlari qidirib topildi. O‘zbekistondagi hozircha qidirib topilgan oltin zahiralari 4 ming tonnadan oshadi.

Kumush konlari Toshkent, Navoiy va Namangan viloyatlarida joylashgan. Respublikamizda 30 ta uran koni mavjud. Uning qidirib topilgan zahirasi 50-60 yil davomida foydalanishga yetarli. Uran bilan yo‘ldosh reniy, skandiy va boshqa metallar uchraydi. Shuningdek, mis, qo‘rg‘oshin, qalay, volfram va litiy kabi muhim strategik nodir va rangli metallarning yirik konlari bor. Respublikamizda har yili 8 ming tonna mis ishlab chiqiladi. Amaldagi ishlab turgan konlar misni yana 40-50 yil, qo‘rg‘oshin va qalayni 100 yil mobaynida ishlab chiqarishni ta’minlashga qodir.

Rangli metallar zahiralari asosan Olmaliq kon hududida joylashgan. Shuningdek, Qalmoqqir mis koni noyob hisoblanadi. Bu konning rudasini qayta ishlash mamlakatdagi eng yirik korxonalaridan biri Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida amalga oshiriladi. Shuningdek, bu sanoat hududida mis, molibden, oltin, kumush, reniy, tellur, selen va boshqa katta zahiralarga ega bo‘lgan Dalniy koni bor.

Qo‘rg‘oshin-qalay metallari Olmaliqdagi Qo‘rg‘oshinkon, Jizzax viloyatidagi Uchquloch va Surxondaryo vildoyatidagi Xondiza konlaridan olinadi. Bu konlarda yana yo‘ldosh metallar – mis, kumush, kadmiy, selen, oltin va indiy ham uchraydi. O‘zbekistonda molibdenli formatsiyalar ham bor. Chotqol-Qurama tog‘lari vismutga boy. Janubiy Farg‘ona belbog‘ining o‘zidan 100 dan ortiq simob va 10 dan surma rudalanishlar aniqlangan.

Qora metallardan eng ko‘p tarqalgan temir, titan, marganets, magniy, xrom va boshqalardir. Temirning bir necha konlari va ruda ko‘rinishlari aniqlangan. Ular orasida muhimi Qoraqalpog‘iston Respublikasida Tebinbuloq titan-magniy koni hisoblanadi. Marganets konlari Zarafshon, Qoratepa, Lolabuloq va boshqa joylarda mavjud. Magmatik xrom Qizilqumda, Farg‘onada, ayniqsa, Tomditov va Sulton Uvaysda ko‘plab uchraydi.

O‘zbekistonda nometall xomashyo – glaukonit, dala shpati, vollastonit, grafit, asbest, talk, talk toshi, abrazivlar, qimmatbaho va ishlov beriladigan tosh konlari ko‘p. Vollastonitning 5-ga yaqin ko‘rinishi va konlari aniqlangan. Grafitning 30 dan ortiq ruda – rudalanishi va konlari ma’lum. Qimmatbaho va ishlov beriladigan toshlardan topaz, feruza, ametisit, tog‘ xrustali, xalsedon, yashma, nefrit, lazurit, amazonit, rodonit, agalmatalit, marmar onaksi va boshqalarning ancha yirik zahiralari qayd etilgan.

Korxona faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish va rejalashtirish, ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish va uni tashkil etishning turli norma va normativlarini tuzishga asoslanadi. Norma va normativlar asosida ishlab chiqarishga kerakli xomashyo va materiallar, jihoz va asbob-uskunalar miqdori aniqlanadi, ishlab chiqarish jarayonida xodimlar joylashtiriladi va ishlab chiqarish resurslarining ratsional zahiralari rejalashtiriladi. Mahsulot sifati bo‘yicha qo‘yiladigan shartlar ham normalarning bir turi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning turli tomonlarini chegaralab turuvchi norma va normativlar yig‘indisi har bir ishlab chiqarish bo‘limining normalashtirish asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Progressiv texnik-iqtisodiy norma – mahsulot birligi yoki ish turiga sarflanishi mumkin bo‘lgan jonli va buyumlashgan mehnatning maksimal miqdori yoki sarflanayotgan resurs birligidan olinishi mumkin bo‘lgan foydali samaraning minimal miqdoridir.

Xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg‘i va energiyalardan foydalanish normalari o‘z ichiga quyidagi normalarni oladi:

a) xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg‘i va energiyaning mahsulot yoki ish birligiga sarflanish normalari;

b) xomashyo, materiallar va yoqilg‘ilarni tayyorlash va ularni tashish xarajatlarining norma va normativlari. Bu normalar korxonaning xomashyo va energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini va mahsulot tannarxiga kiruvchi moddiy boyliklarga qilinadigan xarajatlarni aniqlashda qo‘llaniladi.

Normalashtirishning vazifasi haqiqatda kerak bo‘lgan foydali sarflanadigan xomashyo va material miqdori hamda minimal yo‘qotish miqdorini aniqlashdan iborat. Bu uch yo‘l bilan aniqlanadi: a)tajriba-laboratoriya usuli; b) texnik-analitik usul; v) hisobot-statistik usul.

Bu usullar orasida texnik-analitik hisoblash usuli normalashtirish-ning asosiy usuli bo‘lib, u normalarni elementlar bo‘yicha hisoblashga asoslanadi, ya’ni normani tashkil qiluvchi har bir elementi tahlil qilishga imkon yaratadi. Bu usul ilg‘or tajriba, fan va texnika yutuqlarini chuqur o‘rganishga yordam beradi.

Resurslarni tejashda resurslar pulliligi muhim omil hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlarda 70-yillarda yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan to‘g‘ri foydalanishni tashkil etish uchun to‘lov tizimi joriy etildi. Ammo hozirgi kungacha to‘lov tizimida bir qator muammolar mavjud. Korxonaning moddiy mineral xomashyo komponentlaridan to‘g‘ri foydalanish uchun to‘lov joriy qilinishi natijasida korxona rentabelligidan sezilarli darajada kam miqdorda haq to‘lamoqda.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish ishlab chiqarishning barcha va ayniqsa, ko‘p material iste’mol qiluvchi tarmoqlarda moddiy xarajatlarni tejash katta ahamiyatga ega. Mahsulot birligiga ketadigan xomashyo va materiallar miqdorini uning sifati uzoqqa chidashi va ishonchli bo‘lishiga zarar yetkazmasdan kamaytirish, bir xil miqdordagi materiallar va xomashyodan ko‘proq mahsulot olish va tarmoqlararo ishlab chiqarish aloqalarini takomillashtirish imkonini beradi.

Moddiy resurslarni tejash uchun kurash yangi texnikani joriy qilish va texnologiyani takomillashtirishga sharoit yaratadi, ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish esa o‘z navbatida boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilashga sharoit yaratadi. Mahsulot birligiga sarflanadigan xomashyo va

materiallar miqdorining kamayishi ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirish demakdir, chunki xomashyo va materiallar tarkibidagi moddiylashtirilgan mehnat hamda materialarni tashish, ortish, tushirish va saqlash bilan bog‘liq bo‘lgan “tirik” mehnat miqdorini kamaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga asosiy ishchilar sarflaydigan mehnat miqdori kamayadi, chunki kam materialni qayta ishslashga to‘g‘ri keladi.

Moddiy resurslarni tejash mahsulot tannarxini kamaytirishning eng asosiy omillaridan biridir. Xo‘jalikka to‘g‘ri rahbarlik qilishda xomashyo va materiallar sarflashni chuqur tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Tahlil ishlab chiqarish xususiyatiga qarab o‘zgaruvchi moddiy resurslardan foydalanish ko‘rsatkichlari asosida olib boriladi.

Boshlang‘ich xomashyoni birinchi bor qayta ishlovchi tarmoqlarda xomashyo birligidan tayyor mahsulot chiqishi ko‘rsatkichidan foydalaniladi.

Ba’zi bir tarmoqlarda mahsulot birligiga sarflanadigan xomashyo miqdori ko‘rsatkichidan foydalaniladi.

Qayta ishlovchi bir qator tarmoqlarda xomashyo va materiallardan foydalanish koeffitsiyenti aniqlanadi. U detal, uzel yoki mahsulotning sof og‘irligini unga sarflangan material miqdoriga yoki sarflash normasiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. Bu koeffitsiyent birga qancha yaqin bo‘lsa, shuncha yaxshi, chunki materialdan shuncha to‘liq foydalaniladi.

Materiallardan foydalanish darajasini to‘g‘ri tahlil qilish uchun ishlab chiqarishning barcha texnik-iqtisodiy sharoitlarini ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi.

Moddiy resurslar zahiralarini ishga solish manbalari va yo‘llarini aniqlash maqsadida tahlil usuli amalga oshiriladi.

Xomashyo va materialarni tejashning asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

- mashina va boshqa mahsulotlar sifati oshgani holda og‘irligining kamayishi;
- ishlab chiqarish yo‘qotishlari va chiqindilarini har taraflama kamaytirish;
- xomashyo va materiallardan kompleks foydalanish;
- xomashyoning qimmatbaho kamyob turlari o‘rniga tejamli, yangi materiallar qo‘llash;
- xomashyodan qayta foydalanish.

Sanoat ishlab chiqarishida xomashyo va materialarni tejashning asosiy yo‘llari quyidagilardan iborat:

- mashina va mahsulotlar konstruksiyasini yaxshilash;
- yangi texnika va progressiv texnologiyani joriy etish;
- texnologik jarayonlarni yaxshilash;
- xomashyoni kompleks qayta ishslash usullarini rivojlantirish;

- ishlab chiqarishni tashkil qilishni yaxshilash.

Ma'lumki, moddiy resurslarni tejash tadbirlarini amalga oshirish qo'shimcha pul xarajatlari bilan bog'liq. Bunday xarajatlar ikki xil xususiyatga ega:

1. Kapital xarajatlari sifatida – materiallar xarajatini kamaytirishni qoplash uchun zarur bo'lgan yangi uskunalarni o'rnatish uchun.

2. Xomashyo va materiallar sifatini oshirish uchun sarflanadigan xarajatlar sifatida.

Qo'shimcha pul xarajatlari mahsulot tannarxini kamaytiradi va shuning hisobiga tejash imkonini beradi. Materialarni tejash, shuningdek, uskunalardan foydalanishni yaxshilash va mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi. Shuning uchun xarajatlar samaradorligini aniqlashda faqatgina xomashyodan olingan tejamgina hisobga olinmay, balki uskuna va ish haqidan olingan tejamni ham aniqlash kerak bo'ladi.

Mehnat buyumlarini sarflash normalarini pasaytirishdan olinadigan tejam quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$E = (N_1 - N_2) \cdot P_{ts}$$

Bu yerda **E** – reja bo'yicha yillik tejam;

N₁ va **N₂** – tadbir joriy qilinguncha va qilingandan keyingi mahsulot birligiga material sarflash normalari;

P – mahsulot ishlab chiqarishning yillik miqdori;

ts – mahsulotga sarflanadigan xomashyo va materiallar bahosi.

Mehnat buyumi sifatini yaxshilashga sarflangan xarajatlar samaradorligi yangi materialarni joriy qilingunga qadar va qilingandan keyin mahsulot tannarxlarini qiyoslash yo'li bilan aniqlanadi.

Bozor iqtisodiyotiga kirib borish mamlakatning xomashyo resurslarini ko'paytirishga va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga keng yo'l ochib berdi. Respublika sanoatining xomashyo bazasi borasidagi davlatning xo'jalik siyosati qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarining yuqori sur'atlar bilan taraqqiy etishini va xomashyo resurslarining jadallashtirilgan rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Sanoat xomashyo bazasi rivojining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: yangi xomashyo manbalarini aniqlash bo'yicha geologik-qidiruv ishlarini kengaytirish, undiruvchi sanoat tarmoqlarini tezlik bilan rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining sanoat uchun yetarli darajada mahsulot yetishtirishini va uning tovarlilik qobiliyatini kuchaytirish, sun'iy materiallar va uning o'rnini bosuvchi buyumlari turli xillarini yaratish va h.k.

Xomashyo resurslaridan foydalanishda tejamkorlik tamoyilidan to'la-to'kis foydalanish hozirgi davrning eng muhim muammozi hisoblanadi. Bu muammoni yechish uchun tejamkorlikning strategiya va taktikasini ishlab chiqish kerak bo'ladi. Xomashyodan oqilona foydalanish maqsadida uni

qayta ishslash jarayonida tegishli sanoat tarmog‘i uchun maqsadga muvofiqligini aniqlash, xom materiallarni dastlabki qayta ishslash va boyitish, xomashyodan kompleks foydalanish, materiallardan ikkinchi marta foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Bunga erishishda fan-texnika taraqqiyoti, ayniqsa kimyoviy vositalardan foydalanish va yangi texnologiyalarni joriy etish asosiy rol o‘ynaydi.

Resurslarni tejash xo‘jalik yurituvchi subyektlarning sezilarli darajada rivojlanishiga ta’sir etadi. Shuning uchun ham har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt resurslardan foydalanishga alohida e’tibor qaratmog‘i lozim.

Ko‘rib o‘tganimizdek, tejamkorlikni amalga oshirish va mahsulotga material sarfini kamaytirishga erishish uchun avvalo xo‘jalik yurituvchi xodimlar va xizmatchilar uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini tushunib olishlari hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘lida iqtisodiyotning hamma bo‘g‘inlarida uni mohirona qo‘llay bilishi kerak.

Hukumatimiz tomonidan resurslardan samarali foydalanishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ammo mamlakatimiz aholisi va korxonalarini tomonidan bu ishning amalga oshirilishi talabga javob beradigan darajada emas. Shu sababli oxirgi yillarda respublikada resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishga katta e’tibor berilib bir qator me’yoriy hujjatlar qabul qilindi⁵⁶ va o‘tgan yillardagidek isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslikka erishilmoqda.

Qisqacha xulosalar

1. O‘zbekiston sanoati o‘zining juda katta xomashyo bazasiga ega. Mustaqillik va bozor iqtissodiyotiga kirib borish mamlakatning xomashyo resurslarini yanada ko‘paytirishni va mavjud tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishni talab etadi.

2. Sanoat xomashyo bazasi rivojining asosiy yo‘llari quyidagilardan iborat: xomashyo yangi manbaalarini aniqlash bo‘yicha geologik-qidiruv ishlarini kengaytirish, undiruvchi sanoat tarmoqlarini tezlik bilan rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining sanoat uchun yetarli darajada mahsulot yetishtirishini ta’minalash va tovarlilik qobiliyatini kuchaytirish, sun’iy materiallarni turli xillarini yaratish va h.k.

3. Xomashyo resurslaridan foydalanishda tejamkorlik tamoyi-lidan to‘la-to‘kis foydalanish hozirgi davrning eng muhim muammosi hisoblanadi. Shu sababli, xomashyodan oqilona foydalanish maqsadida uni qayta ishslash

⁵⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 20.05.2016 й.даги “2016 — 2020 йилларда рангли ва нодир metallarни чуқур қайта ишлаш негизида экспортга йўналтирилган тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кўпайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2533-сон Қарори; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 15.06.2016 й.даги “2016 — 2020 йилларда минерал-хом ашё ресурсларини чуқур қайта ишлаш негизида экспортга йўналтирилган тайёр кимёвий маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кўпайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2547-сон Қарори

jarayonida tegishli sanoat tarmog‘i uchun maqsadga muvofiqligini aniqlash, xomashyo materiallarini dastlabki qayta ishlash va boyitish, xomashyodan kompleks foydalanish, materiallardan ikkinchi marta foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur. Bu chora-tadbirlarni amalga oshirishda fan-texnika taraqqiyoti, ayniqsa kimyoviy vositalardan foydalanish va yangi texnologiyalarni joriy etish, tashkilotchilik, tejamkorlik va uni rag‘batlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘z-o‘zini nazorat qilishga oid savollar

1. Xomashyo tushunchasi va uni guruhlash.
2. O‘zbekiston sanoatining xomashyo bazasi va uning rivoji.
3. Mineral xomashyo konlarini iqtisodiy baholash.
4. Sun’iy materiallar ishlab chiqarishning rivoji.
5. Sanoat xomashyosidan foydalanishning oqilona usullari.
6. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tejamkorlik tamoyili va uning talablari.
7. Sanoat xomashyo bazasini mustahkamlashda xorijiy hamkorlikning roli.

12-BOB. SANOAT ISHLAB CHIQARISHINING AYLANMA FONDLARI VA MABLAG'LARI

Tayanch atamalar va iboralar: aylanma fondlar, ishlab chiqarish jamg‘armalari, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari, aylanma fondlarning tarkibini, moddiy resurslardan kompleks (har taraflama) foydalanish, chiqindilardan yoki ikkilamchi xomashyo va materiallardan foydalanish, muomala fondlari, normallashtiriladigan aylanma mablag‘lar

Reja:

- 12.1. Aylanma fondlarning mohiyati va ahamiyati**
- 12.2. Moddiy resurslardan samarali foydalanish masalalari**
- 12.3. Aylanma mablag‘lar va ularning aylanishini tezlashtirish**

12.1. Aylanma fondlarning mohiyati va ahamiyati

Sanoat sohasida turli mahsulotlarni tayyorlash jarayonida moddiy va moliyaviy mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojlar doimo oshib boradi. Sanoat korxonalarida asosiy fondlar bilan bir vaqtida mehnat buyumlari ham harakatda bo‘ladi. Shu sababli ular aylanma fondlar deb aytiladi.

Aylanma fondlar – bu ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashib, o‘z qiymatini tayyor mahsulotga o‘tkazib, o‘z shaklini ham o‘zgartiradigan, butunlay yo‘qotib yuboradigan mehnat buyumlaridir.⁵⁷

Aylanma fondlarga ishlab chiqarish jamg‘armalari va ishlab chiqarishdagi mablag‘lar, tugallanmagan ishlab chiqarish va kelgusi davr xarajatlari kiradi.

Ishlab chiqarish jamg‘armalari aylanma fondlarning asosiy qismini tashkil etadi. Bu korxonalarga keltirilgan, Lekin ishlab chiqarish jarayonida hali foydalanilmagan mehnat bumlari, xususan, xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg‘i, asosiy va yordamchi materiallar, energiya, ta’mirlash uchun ehtiyyot qismlar, xo‘jalik jihozlari va tez yemiriluvchi buyumlardan iborat.

Aylanma fondlarning yana bir qismini tugallanmagan ishlab chiqarish tashkil etadi. Ular ishlab chiqarish jarayoniga allaqachon tushgan, lekin ishlov berish tugamagan mehnat buyumlaridir. Bularga korxona o‘zi yaratgan, lekin chala tayyor mahsulotlar va tugallanmagan ishlab chiqarishlar kiradi.

Aylanma fondlarning yana bir qismi kelgusi davr xarajatlari hisoblanadi. Ularga yangi turdagи mahsulotlarni loyihalash, tayyorlash va o‘zlashtirish, mutaxassislarini o‘qitish va qayta tayyorlash, xonalarni ijara qilish, tog‘-sanoat korxonalariga taalluqli xarajatlardan iboratdir. Bu

⁵⁷ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.158.

xarajatlarning hammasi tayyor mahsulotning tannarxi tarkibiga kirishi evaziga qoplanadi.

Aylanma fondlarning tarkibi turli tarmoqlarda turlicha bo‘ladi. Masalan, umuman sanoat bo‘yicha ishlab chiqarish jamg‘armasi 64% ga yaqin bo‘lsa, elektroenergetika va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish sohasida 56% ni, mashinasozlikda 54%, ko‘mir sanoatida 33% ni tashkil etadi. Aylanma fondlarning tarkibi faqat tarmoqlarda emas, korxonalarda ham bir biridan farq qilishi mumkin. Bu ishlab chiqarishning texnikaviy darajasiga, joriy etilayotgan texnologiyaning usuliga, yo‘liga, korxonani ixtisoslashtirish darajasiga, ishlab chiqarish jarayonining davomiyligiga, ishlatiladigan materiallarning tarkibiga bog‘liqdir. Aylanma fondlarning tarkibini iqtisodiy tahlil etish va ularning tarkibiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularning ta’sir kuchi natijalarini topish, tarmoqlar va korxona taraqqiyotini belgilashga katta yordam beradi. Aylanma fondlarning tarkibini aniqlash, foydalanishni yaxshilash yo‘llarini belgilash uchun moddiy balanslar tuziladi. Bu balanslar har bir tarmoq ikkinchi tarmoqqa qanday buyumlar yetkazib berishini tavsiflaydi.

12.2. Moddiy resurslardan samarali foydalanish masalalari

Ijtimoiy ishlab chiqarish va uning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moddiy resurslardan oqilona foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Moddiy resurslardan foydalanishning juda ko‘p yo‘llari mavjud bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

1. Moddiy resurslardan kompleks (har taraflama) foydalanish;
2. Chiqindilardan yoki ikkilamchi xomashyo va materiallardan foydalanish.

Xomashyo va boshqa aylanma fondlardan foydalanishni yaxshilash uchun dastavval fan va texnika taraqqiyotini jadallashtirish kerak. Eski texnikani yangi texnika bilan almashtirish, ayniqsa, hozirgi zamonda rivojlangan xorijiy mamlakatlar texnologiyasini joriy etish zarur. Bu borada hozirgi paytda respublikada anchagina ishlar amalga oshirilmoqda. Rossiya, Germaniya, AQSH, Yaponiya, Fransiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Italiya va boshqa bir qator davlatlar bilan hamkorlikda sanoat korxonalari texnik va texnologik jihatdan yaxshilanmoqda. Korxonalarda ishlab chiqarish jarayonini kompyuterlashtirish kuchaymoqda. Ba’zi bir mashina-mexanizmlar modernizatsiya qilinmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlari takomillashmoqda. Bu esa korxonalarda ishlovchilarning malakasini oshishiga ta’sir ko‘rsatmoqda, oqibatda har bir mahsulot birligiga sarflanayotgan mehnat buyumi kamaymoqda. Xomashyo, yoqilg‘i, energetika resurslari, ya’ni aylanma fondlarning yaxshi ishlatilishi tufayli katta samara olish borasida faqat texnikaviy omillargina katta o‘rin tutmasdan, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham yetarli rol o‘ynaydi.

Aylanma fondlardan samarali foydalanishda xo‘jalik mexanizmining ahamiyati katta. Xususan, rejalashtirish, baholash, moliyalash, kreditlash, xo‘jalik hisobini yuritish, boshqarish, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish kabi xo‘jalik mexanizmining elementlari ham ta’sir ko‘rsatadi. Aylanma fondlardan oqilona foydalanish uchun raqobatni joriy etish kerak. Raqobat esa mahsulotni eng sifatli, eng arzon va ko‘plab ishlab chiqarish vositasidir. Raqobat bo‘lishi uchun bir xil mahsulotni ishlab chiqaradigan korxonalar soni ko‘p bo‘lishi kerak.

Aylanma fondlardan rejaviy foydalanishni tashkil qilishda ularning ayrim turlarini mahsulot birligiga sarf etishni ilmiy asosda normallashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Bu ishni bajarish ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, ishlab chiqarishning rentabelligini oshirish, moddiy texnika ta’minotini tashkil etish, texnika va texnologiyani takomillashtirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Barcha normalar ilmiy jihatdan asoslangan va o‘zlarining xususiyatlari bo‘yicha ilg‘or davr talabiga javob beradigan bo‘lishi zarur.

Moddiy resurslarni sarflash normalari turlicha bo‘lishi mumkin:

1. Foydalanish muddatiga normalar, a) istiqbolli; b) yillik va operativ normalar.
2. Qo‘llanish miqyosi bo‘yicha normalar ikki xil: shaxsiy normalar va rasmiylashgan normalar bo‘ladi.
3. Normallashtirilayotgan mablag‘ning detallashtirish darajasi: tayyor mahsulot yoki uning ayrim qismlari bo‘yicha ajratilishi mumkin.
4. Materiallarni detallashtirish bo‘yicha yig‘ma normalar, yiriklashgan normalar bo‘lishi mumkin.
5. Moddiy resurslarni to‘g‘ri, oqilona sarflashni normallashtirish uchun ularning tarkibini belgilash katta ahamiyatga ega.

Normalar tarkibida quyidagilar e’tiborga olinadi:

- mahsulot birligiga sarflanadigan foydali xomashyo va materiallarning miqdori.
- zaruriy texnik chiqindi va boshqalar. Masalan, kiyim tikish jarayonida qiyqimlar chiqadi. Normalar tajriba, laboratoriya, texnikaviy, analitik, hisob, statistik usullar bilan tuziladi. Bu usullarning eng muhimi birinchisi hisoblanadi.

12.3. Aylanma mablag‘lar va ularning aylanishini tezlashtirish

Sanoat korxonalarining faoliyati asosiy va aylanma fondlar hamda aylanma mablag‘lar bilan uzviy bog‘liq holda alohida ahamiyat kasb etadi. Muomaladagi ishlab chiqarish fondlarining yig‘indisi aylanma mablag‘larni ifodalaydi. Aylanma mablag‘lar 2 ta fondni o‘z ichiga oladi:


1. Aylanma fondlar;

2. Muomala fondlari.

Aylanma fondlar o‘z navbatida ishlab chiqarish jamg‘armasi, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari va omborlardagi tayyor mahsulotlardan iborat bo‘ladi.


Muomala fondlariga jo‘natishga yuklangan mahsulotlar va davlat bankidagi pul mablag‘lari kiritiladi.

Aylanma mablag‘larning tarkibini 4-chizmada ko‘rish mumkin:



4-chizma. Aylanma mablag‘lar⁵⁸ (sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha).

Aylanma mablag‘lar doimo harakatda bo‘lib, pul va ishlab chiqarilgan tovar shaklida ro‘y berishi mumkin. U quyidagi tartibda ifodalanadi:



Bunda: **P** – korxonaning pul shaklidagi mablag‘lari; ishlab chiqarish vositalarini sotib olish uchun (**Iv**) va ish haqi (**Ih**), so‘m hisobida.

Ich – ishlab chiqarish vositalarining unumli iste’moli, so‘m hisobida;

T – ishlab chiqarish vositalarining ishlab chiqarish jarayonida iste’mol qilinishi natijasida ishlab chiqarilgan tovarlar qiymati, so‘m hisobida;

⁵⁸ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.161.

P¹ – ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish natijasida hosil bo‘lgan pul, so‘m hisobida.

Korxonaning aylanma mablag‘lari kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Chunki ular ishlab chiqarish jarayonining uzlusizligiga sharoit yaratib beradilar. Aylanma mablag‘lari kamayib ketgan korxona (firma)lar bankrotlikka yuz tutadilar.

Tashkil etilish usuliga qarab aylanma mablag‘lar normallashtiriladigan va normallashtirilmaydigan mablag‘larga bo‘linadi.

Normallashtiriladigan aylanma mablag‘lar korxonaning uzlusiz ishlashini ta’minlash uchun kerak bo‘lgan mablag‘larning minimal miqdoridir.

Aylanma mablag‘larning aylanish davri 3 qismdan iborat bo‘ladi:

1. Mablag‘larning ishlab chiqarishdagi jamg‘arma shakli;
2. Ishlab chiqarish jarayonidagi shakli;
3. Tayyor mahsulot yoki hisob-kitob schyotidagi shakli.

Normallashtirishning asosiy vazifasi ishlab chiqarish jamg‘armalarini, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmini, tayyor mahsulot qoldig‘ini aniqlashdan iborat.

Normalarga binoan, ishlab chiqarish jamg‘armalari rejlashtiriladi. Ularning miqdori korxonalarda kamroq, lekin ishlab chiqarish jarayoniga yetarli bo‘lishi kerak.

Har bir korxona aylanma mablag‘larni saqlash va ulardan oqilona foydalanishni va ularning aylanishini tezlashtirishni ta’minlashi kerak. Faqat shundagina u samarali ishlagan bo‘ladi. Aylanma mablag‘larning iqtisodiy samaradorligi ularning doiraviy shaklda aylanishining tezlashishidir. Bunga erishilganda ortiqcha mablag‘larning bo‘sashiga va ulardan boshqa maqsadlarda qo‘llanishiga sharoit yaratib beriladi.

Aylanma mablag‘larning aylanishi turli ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi. Aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsiyenti quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Ka = M_{sm} / Ay.q,$$

Bunda: **M_{sm}** – sotilgan mahsulot miqdori, so‘m hisobida;

Ay.q. – aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qoldig‘i, so‘m hisobida.

Aylana mablag‘larning 1 ta aylanish davrini quyidagi formula bilan hisoblash mumkin:

$$Ad = (A.y.q * 360) / M_{sm}$$

Aylanma mablag‘larning aylanish davrini hisoblashni osonlashtirish uchun yildagi kunlar sonini 360 kun, kvartalni 90 kun, oylikni 30 kun deb qabul qilingan.

Qisqacha xulosalar

1.Sanoat ishlab chiqarishida asosiy fondlar bilan bir vaqtning o‘zida mehnat buyumlari ham harakatda bo‘ladi. Shu sababli ularni aylanma fondlar deb ataydilar. Aylanma fondlarning ashyoviy mazmunini asosiy va yordamchi materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish, yarim fabrikatlar, ehtiyot qismlar, kam baholi hamda tez to‘ziydigan buyum va inventarlar, turli idishlar (taralar) tashkil etadi. Aylanma fondlarga tayyor mahsulot, yo‘ldagi mahsulot va hisobdagи pullar ham kiradi.

2.Aylanma fondlardan foydalanishni yaxshilash mavjud xomashyo va materiallar bilan ishlab chiqarish ko‘lamini yuqori darajaga ko‘tarish, tarmoqlar o‘rtasida yuqori tejamli nisbatlarni (proporsiyalarni) belgilash, ijtimoiy mehnat unumdarligini oshirish va mahsulot tannarxini pasaytirishga imkon yaratadi. Ishlab chiqarishni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish xomashyo va materiallardan, yoqilg‘i va elektroenergetikadan oqilona foydalanishni talab etadi.

3.Moddiy resurslarni tejash maqsadida ko‘p omillardan foydalanish mumkin. Resurslarni tejashning asosiy ishlab chiqarish – texnik omillariga ishlab chiqarishning texnik darajasini uzluksiz oshirish, texnologik jarayonlarni mukammallashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishni yaxshilash, tejamkorlikni rag‘batlantiruvchi dastak va stimullardan keng foydalanish kiradi.

4.Aylanma mablag‘larning aylanishini tezlashtirish juda katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Chunki u pul mablag‘larini bo‘shatishga imkoniyat yaratadi.

5.Aylanma mablag‘larning aylanishini tezlashtirishning asosiy yo‘llari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish siklining davomiyligini, uzoqligini qisqartirish;
- normativdan tashqari, va oshiqcha zahiralarni yo‘qotish;
- tayyor mahsulotlarni sotishni tezlashtirish va h.k.

O‘z-o‘zini nazorat qilishga oid savollar

1. Aylanma fondlarning mohiyati, ahamiyati va mazmuni nimalardan iborat?
2. Aylanma fondlar asosiy fondlardan qaysi xususiyatlari bilan farqlanadi?
3. Aylanma fondlarning tarkibi va tuzilmasi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
4. Moddiy resurslardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?
5. Aylanma fondlardan samarali foydalanish mexanizmi nimalarni o‘z ichiga oladi?
6. Aylanma mablag‘lar deganda nimalarni tushunasiz? Ularning turlarini izohlab bering?
7. Aylanma mablag‘larning aylanish tezligini oshirishning ahamiyati nimalardan iborat?

8. Aylanma mablag‘larning aylanishini tezlashtirish yo‘llarini izohlab bering?
9. Bu mavzu bo‘yicha yechimi topilmagan qanday muammolar mavjud?

13-BOB. SANOAT MAHSULOTINING SIFATI VA UNING RAQOBATBARDOSHLIGI

Tayanch atamalar va iboralar: sifat, mahsulot sifati, mustahkamlik ko'rsatkichlari, standartlashtirish va unifikatsiyalash ko'rsatkichlari, ergonomik ko'rsatkichlar, estetik ko'rsatkichlar, transportabellik ko'rsatkichlari, patent-huquqiy ko'rsatkichlar, ekologik ko'rsatkichlar, xavfsizlik ko'rsatkichlari, buyumning bahosi, iqtisodiy optimal sifat, sifat birligining bahosi, kvalimetriya ilmi, mahsulot sifatini attestatsiya qilish, mahsulot sifatini o'lchashni, mahsulot sifatini nazorat qilish, mahsulot sifatini boshqarish, mahsulotning raqobatbardoshligi, atesstatsiya, nazorat qilish, standartlashtirish, sertifikat, sertifikatlashtirish.

Reja:

- 13.1. Sifat tushunchasi va uni oshirish zarurati**
- 13.2. Mahsulotning sifat ko'rsatkichlari va ularni baholash usullari**
- 13.3. Mahsulot sifatini boshqarish va uni oshirish yo'llari**
- 13.4. Standartlashtirish, sertifikatsiyalashtirish, attestatsiya va nazorat qilish**

13.1. Sifat tushunchasi va uni oshirish zarurati

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti ishlab chiqariladigan mahsulot sifatiga boshqacha muhim talablar qo'yadi. Chunki hozirgi zamonda har qanday firmaning omon qolishi, uning tovarlar va xizmatlar bozoridagi mustahkam mavqeい raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi. O'z navbatida raqobatbardoshlik ikki ko'rsatkich bilan - baho va mahsulot sifatining darajasi bilan bog'liqdir.

Ishlab chiqarishni erkinlashtirish davrida ikkinchi omil birinchi o'ringa ko'tarilmoqda. Chunki sifat korxonaning obro'si va yanada gullashi hamda sifatni boshqarish bo'yicha ish - bu barcha xodimlar, rahbardan tortib aniq ish bajaruvchi uchun alfa va omegasi, ya'ni avvali va oxiridir⁵⁹. Shu tufayli davlatning iqtisodiy, shu jumladan, sanoat siyosatida sifat masalasi muhim o'rin egallaydi. Mahsulot sifatini oshirish - bu natijada uning miqdori, resurslarni tejash, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni to'laroq qondirish masalasi hisoblanadi. Ya'ni, har qanday mahsulot eng yuqori texnikaviy – iqtisodiy va estetik hamda boshqa bir qator talablarga muvofiq kelishi, jahon bozorida raqobat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Agar sifat muammozi hal etilmasa, ijtimoiy ishlab chiqarish va aholining tovarlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirib bo'lmaydi.

Mahsulot (ish, xizmat) sifati - bu mahsulotning har tomondan

⁵⁹ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.165.

foydalanimishga mukammal ekanligini belgilovchi xususiyatlar yig‘indisidir.

Mahsulot sifati - bu mahsulotdan ma’lum maqsadda foydalanimish uchun uning yaroqlilik darajasi, mahsulotning iqtisodiyot ehtiyojlarini, iste’molchilarning talab va didlarini qondirish qobiliyatidir.

Sanoat mahsulotining sifati tarmoqning, korxona(firma)ning faoliyatini rejalashtirishda va uni aniqlashda qo‘llaniladigan asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Unda mehnatni tashkil qilish, uning jihozlanish darajasi, mutaxassislarning malakasi, ishlab chiqarishni boshqarishning holati ifodalanadi. Mahsulot sifati iqtisodiy jihatdan iste’mol qiymatining o‘lchovi va foydalanimish darajasi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Mahsulot sifati iqtisodiy kategoriya bo‘lib, ishlab chiqaruvchi va iste’molchilarning munosabatlarini, sifatli mahsulot ishlab chiqarish, reja topshiriqlarini bajarish hamda mahsulotga baho belgilash bo‘yicha korxonaning davlat bilan munosabatlarini ifoda etadi. Undan tashqari, mahsulot sifati sifatli mahsulot uchun moddiy rag‘batlantirish va sifatsiz mahsulot ishlab chiqarilgani uchun moddiy javobgarlikka tortish bo‘yicha korxonalar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi.

Mahsulot sifati texnika taraqqiyotining sur’atlarini, mehnat unumdorligini va shu orqali ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ta’riflovchi iqtisodiy kategoriyalidir. Mahsulot sifatini muntazam ravishda yaxshilash iqtisodiyotni rivojlantirishning zarur sharti, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xalq farovonligini o‘stirishni asosiy omillaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Mahsulotning miqdori va sifati o‘zaro dialektik bog‘liqdir. Yuqori sifatli mahsulot sifatsiz tayyorlangan mahsulotga nisbatan jamiyat ehtiyojlarini yuqoriroq darajada qondirishga qodir. Demak, mahsulot sifatini yaxshilash ishlab chiqarish hajmini qo‘srimcha xarajatlarsiz oshirish demakdir. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati va miqdorining o‘zaro bog‘liqligi mahsulot sifatini oshirish, jamiyat ehtiyojlarini to‘la qondirishga imkon beradi, mamlakatimiz ishlab chiqaruvchi kuchlari o‘sishining muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

Sifatli mahsulot doimo o‘z xaridorlariga ega. Hozirgi davrda mazkur talab qondirilgandagina mahsulotni dunyo bozoriga chiqarish mumkin bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatga eksportdan keladigan valyuta tushumini ko‘paytirish orqali yangi texnika va texnologiyalar sotib olish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish hamda uning samaradorligini oshirish imkonini beradi. Yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishga va uni sotishga erishgan korxona (firma) esa o‘z ishlab chiqarish salohiyatini yanada yuksaltirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday subyektlarning ko‘payishi esa mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotining taraqqiy etishi esa aholining daromadlarini oshishi va turmush darajasining ham yuksalishiga olib keladi.

Natijada sifatli mahsulot va yuqori darajada ko'rsatilgan xizmatlarga talab ko'payadi. Ya'ni, sifatli mahsulot (taklif) o'zining sifatli iste'molchisini (talab)ni yaratadi. Pirovardida jamiyatda yanada yuqoriroq darajada iqtisodiy o'sish ta'minlanadi.

13.2. Mahsulot sifat ko'rsatkichlari va ularni baholash usullari

Sanoat ishlab chiqarishi o'z mahsulotlarining g'oyat turli-tumanligi, ya'ni xilma-xilligi bilan tavsiflanadi. Bu mahsulotlar tabiiy xususiyatlariga ko'ra har xil me'yor va xilma-xil sifat ko'rsatkichlariga ega bo'ladi. Lekin, ma'lum sanoat mahsulotlarining muayyan guruhi uchun umumiyligida ko'rsatkichlar ishlatilishi, boshqa guruhi uchun esa o'ziga xos ko'rsatkichlar qo'llanilishi mumkin.

Mahsulot sifatiga va uning texnikaviy xususiyatlariga baho berish uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimi qo'llaniladi:

Iste'mol qilish xususiyatlari bo'yicha talabni qondirish ko'rsatkichlari. Bunday ko'rsatkichlar mahsulotdan tayinli, belgilangan ravishda foydalanish natijasida kerakli (zaruriy) samarani tavsiflaydi. Ishlab chiqarish - texnik vazifani bajaruvchi mahsulot uchun mehnat unumдорligi ko'rsatkichi xizmat qilishi mumkin. U baholanayotgan mahsulot yordami bilan qanday hajmdagi mahsulotni tayyorlash yoki ma'lum davr ichida qanday hajmdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishi mumkinligini ifodalab beradi.

Mustahkamlilik ko'rsatkichlari - buyumlarning buzilmasligi, yaxshi saqlanishi, ta'mirlashga qulayligi, shuningdek, chidamliligidir. Mashina va o'lchov asboblarining sifati ularning mustahkamligiga va uzoq ishslash qobiliyatiga qarab aniqlanadi. Har bir buyumning mustahkamligi mo'ljallangan muddatda, o'z xizmat parametrlarini o'zgartirmay, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni boshqarish xususiyatidir. Vositaning, ya'ni qurolning ishslash muddati - mo'ljallangan vaqtda, o'zining ishslash qobiliyatini o'zgartirmaslik xususiyatidir.

Texnologik ko'rsatkichlar mahsulotni tayyorlash va ta'mirlash jarayonida yuqori mehnat unumдорligini ta'minlash uchun konstruktor-texnologik yechimlarning samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardir. Aynan texnika va texnologiya yordamida mahsulot ishlab chiqarishning ommaviyligi, material xarajatlarini, mablag'lar, mehnat va vaqtni oqilona taqsimlash ta'minlanadi.

Standartlashtirish va unifikatsiyalash ko'rsatkichlari - bu mahsulotning standartli, unifikatsiyalashgan va original, ya'ni ajoyib, ajralmas qismlar bilan qondirilganligi, to'ydirilganligi, shuningdek, boshqa buyumlarga nisbatan unifikatsiyalashganlik darajasi. Ular traktorni boshqarish uchun kerak bo'lgan kuchlar, muzlatgichda ruchkaning joylashishi, harorat, namlik, yorug'lik, shovqin, vibratsiya, nurlanish, yonuvchi mahsulotlarda uchar gazi va suv bug'ining yig'ilishi bo'lishi mumkin.

Ergonomik ko‘rsatkichlar insonning buyum bilan munosabatini va bu buyumdan foydalanishda ro‘y beradigan gigiyenik, fiziologik va ruhiy xususiyatlar majmuini aks ettiradi.

Estetik ko‘rsatkichlar buyumlarning badiiy-konstrukturlik xususiyatlarini ifodalaydi. Ular buyumning tovar qiyofasi jonliligin, shaklining ma’qulligini, kompozitsiyaning butunliligin, mukammal bajarilganligini va barqarorligini tavsiflaydilar.

Transportabellik ko‘rsatkichlari mahsulotning tashish uchun moslashganligini ifodalaydi.

Patent-huquqiy ko‘rsatkichlar mahsulotning patentli himoyasini va patentli sarxilligini (asilligini) tavsiflaydi va raqobatbordoshligini aniqlashda muhim omil hisoblanadi. Patent-huquqiy ko‘rsatkichlarni aniqlashda buyumlarda yangi texnik omillar borligini, shuningdek, mamlakatda patentlar bilan himoyalangan yechimlarni hisobga olish kerak bo‘ladi.

Ekologik ko‘rsatkichlar - bu atrof-muhitga xavfli ta’sir ko‘rsatish darajasi, qaysiki mahsulotni ekspluatatsiya qilish yoki iste’mol qilishda yuzaga keladi⁶⁰. Masalan, zararli qotishmalarning bo‘lishi, mahsulotni saqlash, tashish va iste’mol qilishda zararli qismlar, gazlar va nurlarni chiqarish mumkinligi.

Xavfsizlik ko‘rsatkichlari - xaridor va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning xavfsizligi uchun mahsulot xususiyatlarini tavsiflaydi, ya’ni mahsulotni montaj qilish, xizmat ko‘rsatish, ta’mirlash, saqlash, tashish, iste’mol qilishda xavfsizlikni ta’minlaydilar.

Yuqorida qayd qilib o‘tilgan ko‘rsatkichlarning yig‘indisi mahsulot sifatini tashkil etadi. Buyum mustahkam (pishiq), estetik jihatdan ko‘zni qamashtiradigan, o‘z vazifasini yaxshi bajaradigan bo‘lishi lozim. Lekin, shu barcha ko‘rsatkichlardan tashqari, buyumning bahosi ham muhim. Chunki iqtisodiy optimal sifat masalasi baho bilan chambarchas bog‘liqdir. Xaridor buyum sotib olganda buyum bahosi u ega bo‘lgan xossalalar to‘plamini qoplashini bilish uchun ularni doimo taqqoslaydi.

Iqtisodiy optimal sifat deganda, sifat va xarajat nisbati yoki sifat birligining bahosi tushuniladi va u quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$K_{opt} = \frac{Bs}{X\epsilon}$$

bu yerda: **K_{opt}** – iqtisodiy optimal sifat;

B_s - buyum sifati;

X_ε - buyumni sotib olish va ekspluatatsiya qilish xarajatlari, so‘m.

Formulaning maxrajini aniqlash murakkab emas, chunki u buyumning sotish bahosini, ekspluatatsiya, ta’mirlash va utilizatsiya qilish xarajatlarini

⁶⁰ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.167.

o‘z ichiga oladi. Formula sur’atini aniqlash esa qiyinrok kechadi, chunki buyumning sifati juda ko‘p va turli - tuman ko‘rsatkichlardan iborat. Bu bilan alohida fan - kvalimetriya ilmi shug‘ullanadi. U sifatni son jihatdan, ya’ni bir so‘mlik xarajatga buyum sifati birligining o‘sishini baholashning yetarli darajada ma’qul usulini ishlab chiqqan.

Demak, hozirgi zamon ishlab chiqarishi sharoitida mahsulotning sifati - korxona (firma) samaradorligining, rentabelligining muhim tashkil etuvchisidir, shu sababli unga doimo e’tibor bermoq zarur. Sifat bilan barcha - korxona direktoridan tortib, aniq ish bajaruvchigacha shug‘ullanishi kerak.

Sifatni ta’minalash, loyihalash, saqlash bo‘yicha barcha jarayonlar sifatni boshqarish tizimiga birlashtirilgan.

13.3. Mahsulot sifatini boshqarish va uni oshirish yo‘llari

Har qanday ishlab chiqarishni rivojlantirish va yuksak darajaga ko‘tarish uchun uni boshqarish kerak bo‘ladi. «Boshqarish» iborasini mahsulot sifatiga oid qo‘llaganda, mahsulot sifati va uning raqobatbardoshligini doimiy nazorat qilish, uning belgilovchi shartlar va omillarini maqsadga muvofiq ta’sir qildirish yo‘llari bilan mahsulot sifatini loyihalashtirish, ishlab chiqarish va foydalanishda uning zaurur darajada o‘rnatalishini, ta’minalishini va saqlanishini tushunmoq kerak.

Mahsulotning sifatini boshqarish operatsiyalari muhandis-texnik, tashkiliy-texnologik, nazorat va boshqa jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi majmuasini tashkil etuvchi tartib doirasida olib boriladi.

Mahsulot sifatini boshqarish jarayoni quyidagi operatsiyalardan iborat:

- mahsulot sifati darajasini belgilash;
- mahsulot sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi buyum va uni ishlab chiqarish jarayonining faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarni yig‘ish va o‘rganish;
- mahsulot sifatini boshqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish va obyektga ta’sir ko‘rsatishga tayyorlanish;
- boshqaruvga tegishli buyruqlarni berish;
- boshqarish natijasida mahsulot sifatining o‘zgarishi haqidagi axborotlarni yig‘ish va tahlil qilish.

Mahsulot sifatini boshqarishda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- mahsulotning texnikaviy darajasi va sifatini uzoq muddatlarga chamalash;
- mahsulot sifatini oshirishni rejalashtirish va bashorat qilish;
- mahsulot sifatini attestatsiya qilish;
- mahsulot loyihasini chizish va ishlab chiqarishga joriy etish;
- mahsulot sifatini moddiy-texnika tomondan ta’minalash;
- ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash;
- mahsulot sifatini o‘lchashni tashkil etish;
- mutaxassislarni tanlash, joylashtirish, o‘qitish va tarbiyalash;

- sifatli mahsulot ishlab chiqarish darajasini bir tekisda olib borish;
- ishlab chiqarish vositalarini saqlash, ta'mirlashni tashkil etish;
- mahsulot sifatini oshirishni rag'batlantirish;
- mahsulot sifatini nazorat qilish;
- standartlarga, o'lchash vositalariga va texnik shartlarga riosa qilish;
- mahsulot sifatini boshqarish huquqini ta'minlash.

Mahsulotning xossalari, texnologik jarayonlarning ixtisoslashtirish xususiyatlari, ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari va usullarini hisobga olgan holda bajariladi.

Mahsulot sifatini yaxshilashga oid vazifalar va tadbirlar tuzilayotganda ularni amalga oshirish imkoniyatlari va maqsadga muvofiqligi texnikaviy-iqtisodiy jihatdan asoslanadi.

Buning uchun quyidagilar asos qilib olinadi:

- ishlab chiqarilgan mahsulot sifatiga bo'lgan talablar va kelgusida uni takomillashtirish imkoniyatlari;
- mahsulotning sifat darajasini baholash;
- ishlab chiqarilgan mahsulotda uchragan nuqsonlarni yuzaga chiqarish va ularni tahlil etish;
- laboratoriyadan o'tkazilgan sinov natijalari, iste'molchilar tomonidan yuborilgan norozilik hujjatlari, texnikaviy nazorat va ma'lumotlar;
- ilg'or korxonalarining mahsulotlari bilan taqqoslash.

Mahsulot sifatini yaxshilashga oid tadbirlar majmuasiga quyidagilar kiradi:

- mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan asosiy tajriba va loyihalashtirish ishlari hamda tashkiliy-texnikaviy tadbirlar;
- ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasini takomillashtirishga oid tadbirlar;
 - xomashyo va materiallar sifatini oshirish bo'yicha ta'minlovchilarga qo'yiladigan talablar;
 - mahsulot sifatini oshirish bo'yicha o'tkaziladigan ilmiy-tadqiqot, tajriba va loyihalashtirish bo'yicha ilmiy-tekshirish, loyihalashtirish tashkilotlariga beriladigan topshiriqlar;
 - texnikaviy hujjatlarni yaxshilash tadbirlari;
 - texnologik intizomga riosa qilishni tekshirish sharoiti, ishlab chiqarishni o'lchov asboblari bilan ta'minlash, ularning aniq ishlashini kuzatib turish tadbirlari;
 - standartlarni o'zlashtirish, ularga riosa qilish, buyumlarni unifikatsiyalashtirish, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish, nuqsonlarning oldini olish va iste'molchilar tomonidan bo'ladigan noroziliklarni kamaytirish bo'yicha tadbirlar.

Ushbu va boshqa bir qator tadbirlarning o'z vaqtida bajarilishini to'la-to'kis ta'minlash uchun ularning bajarilish muddatlari, mas'ul kishilar,

muayyan xarajatlar va ularning iqtisodiy samaradorligi, raqobatbardoshligi hamda boshqa ko'rsatkichlar aniqlanadi.

Ma'lumki, raqobat va raqobatbardoshlik o'rtaida dialektik aloqadorlik mavjud bo'lib, biri ikkinchisidan kelib chiqadi. Raqobat korxona (firma)larni raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga va raqobatbardosh xizmatlar ko'rsatishga undaydi.

Raqobatbardoshlik nisbiy o'lchov bo'lib, uning xususiyati shundan iboratki, uni raqobat predmeti (mahsulot raqobatbardoshligi)ga nisbatan ham qo'llash mumkin.

Mahsulotning raqobatbardoshligi deganda, iste'molchining aniq ehtiyojlarini qondirish va uni xarid qilish hamda keyinchalik undan foydalanish uchun sarflanadigan xarajatlar darajalari bo'yicha uni, ya'ni mahsulot boshqa shunday tovarlardan ajralib turadigan tavsiflar yig'indisi tushuniladi.

Mahsulotning raqobatbardoshligi - u biror bir firma tomonidan ishlab chiqarilgan, raqobatchi firmalarning xuddi shunday tovarlariga qaraganda yaxshiroq iste'mol xususiyatlari va texnik-iqtisodiy parametrlariga ega bo'lgan tovarlarning iste'molchilar tomonidan ajratib olinish «qobiliyati»dir.

Raqobatbardoshlik aynan bozorda kuzatiladi va tovarlarning iste'molchi ehtiyojlariga muvofiq kelishi qiyoslab va tekshirib ko'riladi. Ana shunda tovarning raqobatbardoshligi real xaridni amalga oshirayotgan xaridor uchun jozibadorlik darajasini ko'rsatadi.

13.4. Standartlashtirish, sertifikatlashtirish, atesstatsiya va nazorat qilish

Mahsulot sifati muammosiga tegishli masalalardan biri standartlashtirishdir.

Standartlashtirish - standartlarni belgilash va qo'llash jarayoni. U normal ijodiy faoliyat bo'lib, sifatning optimal ko'rsatkichlarini, mahsulotning parametrik qatorlarini, nazorat qilish, sinash usullari va hokazolarni ishlab chiqishni va qat'iy belgilashni o'z ichiga oladi.

Standartlashtirish - bu mahsulot sifatini boshqarishning tashkiliy va normativ asosi hisoblanadi. U barcha normalarni standart, instruksiya, mahsulotni asoslash uchun kerakli shartlar usuli kabi hujjatlarda aks ettiradi⁶¹.

Standartlashtirishning eng muhim ahamiyati shundaki, u ishlab chiqarishning rivojlanish sur'ati va darajasiga zaruriy ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun esa standartlash fan va texnika hamda amaliy tajribalarning oxirgi yutuqlariga tayanadi.

O'zbekistonda standartlashtirish milliy iqtisodiyotni boshqarish va tashkil etish bilan chambarchas bog'liqdir. Standarlashning asosiy, eng

⁶¹ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.171.

muhim vazifasi iqtisodiyot, aholi, mamlakat mudofaasi uchun tayyorlanadigan mahsulotlarga yuqori talablar belgilovchi normativ-texnik hujjatlar tizimini yaratish hamda ushbu hujjatdan to‘g‘ri foydalanishni nazorat qilishdan iborat.

Harakatdagi, mavjud standartlashtirish tizimi quyidagilarni ishlab chiqishga va doimiy faol holatda bo‘lishiga imkoniyat yaratadi:

- yagona texnik til;
- mahsulotning muhim texnik tavsifining unifikatsiyalashgan qatorlari, ya’ni o‘lcham ayirmasi (qo‘yish va tushish, kuchlanish, tez-tez qaytalanish va boshqalar);
 - umummashinasozlikda ishlatiladigan buyumlarning tipo-razmer qatorlari va namunali konstruksiyalari (podshipniklar, krepej, kesuvchi asboblar va boshqalar);
 - texnik-iqtisodiy axborotlar klassifikatorlari tizimi;
 - materiallar va moddalar xossalari to‘g‘risida aniq ma’lumotlar beradigan dalillarni.

O‘zbekiston standartlash tizimi xalqaro, regional va milliy tizimlar bilan uyg‘unlashishi kerak va quyidagilarni ta’minlashi lozim:

- sifat va mahsulot nomenklaturasi, xizmat va jarayonlar, insonlarning hayoti va sog‘lig‘i, atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha iste’molchilar va davlat manfaatlarini;
- mahsulotning mos kelishining o‘zaro almashuvi, ya’ni bir-birini almashtira olishini;
- inson va moddiy resurslarni tejashga ko‘maklashish hamda ishlab chiqarishni iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilashni;
- ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar va yirik loyihalarning normativ-texnik bazasini yaratishni;
- ishlab chiqarishda va savdoda texnik to‘sirlarni bartaraf etishni dunyo bozorida mahsulot raqobatbardoshligini, xalqaro mehnat taqsimotida samarali qatnashishini va h.k.larni ta’minlashi kerak.

Standartlashtirish bir qator tamoyillarga asoslanadi:

- tarmoqlanish - bir xil umumiylar xususiyatga ega bo‘lgan narsalar, jarayonlar, munosabatlar, tatbiq etish mumkin bo‘lgan obyektlar doirasini aniqlaydi;
- variantlilik - oqilona xilma-xillik, rang-baranglikni yaratish - standartlashgan obyektga kiruvchi standart elementlarning oqilona turlari minimumini ta’minlaydi;
- tizimlilik - standartga tizim elementi sifatida qaraydi;
- o‘zaro almashuvchanlik - texnikaga muvofiq turli vaqt-makonning turli nuqtalarida tayyorlangan bir xil detallarni yig‘ish yoki almashtirishni nazarda tutadi.

Standart inglizcha «standard» so‘zidan olingan bo‘lib, norma, namuna, o‘lcham ma’nosini bildiradi. U boshqa obyektlarni taqqoslash uchun dastlabki obyekt deb qabul qilingan namuna, etalon, model, standartlanadigan obyektga qo‘yiladigan va vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlangan normalar, qoidalar, talablarni belgilovchi normativ-texnik hujjat. Standart inson faoliyatining barcha sohasiga, ilm-fanga, texnikaga, sanoat, qishloq xo‘jaligiga, qurilishga, transport va aloqaga, ta’lim va boshqa sohalarga taalluqlidir.

Mustaqillik yillarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat standartlash tizimi (DST) shakllandi va u O‘zbekistonda standartlar tuzish, Izohlash va tarqatish jarayonlarini tartibga keltirdi. Bu borada O‘zbekiston Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi («O‘zstandart») olib borayotgan keng ko‘lamli ishlarni alohida e’tirof etish joiz. «O‘zstandart» agentligi bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulotning sifat darajasini belgilovchi, ko‘rsatkichlar raqobatdoshligini ta’minlovchi, ishlab chiqaruvchilarga yetarli miqdorda axborotlar yetkazib beruvchi markazdir.

«O‘zstandart» agentligi tomonidan ishlab chiqilgan «Sifat menejmenti va mahsulotlarni sinash» tizimi mahsulot sifat ko‘rsatkichini baholash bilan birga me’yoriy hujjatlar asosida to‘g‘ri ma’lumotga ega bo‘lish talablarini o‘rnatadi. Davlat standartlash tizimi (DST) beshta asosiy standartlarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish tizimi. Asosiy qoidalar;
2. Tarmoq standartlari;
3. Texnik shartlarni kelishish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi;
4. Korxonaning standartlari. Umumiylar qoidalar.
5. Xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan Xalqaro standartlashtirishning roli, ahamiyati beqiyos darajada kuchaydi. Chunki, xalqaro standartlashtirish ilmiy-texnika va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga katta imkoniyat yaratadi. Ular xalqaro aloqalarni kengaytirishga, mavjudlarini takomillashtirishga yordam beradi. Hozirgi kunda jahonda 400 dan ortiq Xalqaro va regional (hududiy) tashkilotlar mavjud (2000 yil). Standartlashtirish sohasida yirik xalqaro tashkilotlar – BMTga qarashli Yevropa iqtisodiy komissiyasi (YeEKOON), standartlashtirish bo‘yicha Xalqaro tashkilot (ISO) ishlab turibdi.

Mahsulot sifati nazariyasi va amaliyotida mahsulotni sertifikatlashtirish masalasi muhim o‘rin tutadi. Mahsulotni sertifikatlashtirish, uning aniq belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash usullaridan biri hisoblanadi.


Mahsulot yoki bajarilgan ishning belgilangan talablarga muvofiqligiga oid faoliyat uchun tegishli hujjat beriladi. Uni «sertifikat» deb ataydilar.

Sertifikat lotincha «certificatis» so‘zidan olingan bo‘lib, tasdiqlangan degan ma’noni bildiradi. Birinchidan, u biror faktni tasdiqlovchi hujjat

(masalan, malaka oshirilganligi to‘g‘risidagi hujjat); ikkinchidan, maxsus obligatsiyalar va aksiyalarning nomi; uchinchidan, sug‘urta shartnomasida uning shartlari yoziladigan hujjat; to‘rtinchidan, maxsus idoralar (savdo palatasi, Davlat inspeksiysi va boshqalar) beradigan va mahsulot, tovar, buyum, mol sifatini tasdiqlaydigan hujjat; beshinchidan, qishloq xo‘jaligida urug‘lik navini va sifatini tasdiqlaydigan hujjat. Sertifikat bo‘lmagan taqdirda urug‘lik (oddiy) navsiz don sifatida qabul qilinadi.

Respublikada sertifikatlash ishlarini yaxshilash maqsadida 1993 yilning 28 dekabrida Oliy Majlis tomonidan «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi qonun qabul qilingan. Mazkur qonun sertifikatlashtirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini, shuningdek, majburiyatlar va javobgarliklarni belgilab beradi. Ushbu qonun 4 ta bob va 23 moddadan iborat bo‘lib, ularda Umumiyligida qoidalar, sertifikatlashtirish faoliyatiga doir umumiyligida talablar, mahsulotlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish, nizolarni qarab chiqish, sertifikatlashtirish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun javobgarlik masalalari bayon etilgan.

Muvofiqligini tasdiqlash jarayonida bajariladigan operatsiyalar, ya’ni har bir ayrim ish faoliyatlarini quyidagi chizmada ko‘rish mumkin:



7-chizma. Sertifikatlashtirish⁶².

⁶² Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.174.

Standartlashtirish va sertifikatlashtirish ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston Davlat standartlash, metrologiya va sertifikatsiya markazi «O‘zdavstandart», Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi, tabiatni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi zimmasiga yuklatilgan.

Qisqacha xulosalar

1. Mahsulot sifati sanoat ishlab-chiqarish xo‘jalik faoliyatining asosiy, eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Mahsulot sifati mahsulotning iste’mol xususiyatlari majmui bo‘lib, uning iqtisodiyot va aholining muayyan ehtiyojlariga yaroqliliginu ifodalaydi.

2. Mahsulot sifati tayyorlangan mahsulotning mustaqilligi, qulayligi, ishonchliligi, chidamliligi, tejamkorligi, go‘zalligi va boshqa bir qator xususiyatlari bilan belgilanadi. Shu sababli mahsulot sifatini yaxshilash jamiyatga juda katta samara keltiradi: mablag‘larni tejaydi, tannarxni kamaytirish, foydani ko‘paytirish va shu asosda mamlakat xazinasini to‘ldirishga imkon beradi.

3. Mahsulot sifatini yaxshilash va uning raqobatbardoshliliginu ta’minlash davlat siyosatining eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Shu sababli Oliy Majlis qonunlarida, Prezident farmonlarida va hukumat qarorlarida mahsulot va ish sifatini oshirishga alohida e’tibor berilib, ularda barcha turdag'i mahsulotlarning texnik darajasi, tejamliligi va sifati oshirilsin deyiladi, yangi o‘zlashtiriladigan mahsulotlar o‘zining sifat va texnik-iqtisodiy xarakteristikalari jihatidan jahon fan-texnika va texnologiyasi erishgan ilg‘or yutuqlarga mos boshqa bir qator ko‘rsatmalar berilgan.

4. Mahsulot sifati muammosiga tegishli masalalardan biri standartlashtirishdir. Yana bir muhim masala – sertifikatlashtirishdir. Bu ikki faoliyat fan-texnika, amaliy tajribalarning oxirgi yutuqlariga tayangan holda ishlab chiqarish rivojiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi.

5. Mahsulot sifati oshirilishini attestatsiya qilish va rag‘batlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Mahsulot sifatini moddiy rag‘batlantirishda mahsulotning bir me’yorda ishlab chiqarilishi ko‘rsatkich sifatida e’tiborga olinishi lozim.

O‘z-o‘zini nazorat qilishga oid savollar

1. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti va sifat siyosati.
2. Sifat kategoriyasining mohiyati va ahamiyati.
3. Mahsulot sifati ko‘rsatkichlari.
4. Sifat, baho va baholash.
5. Mahsulot sifatini boshqarish.
6. Standartlashtirish va standartlar.

7. Sertifikatsiyalash va sertifikatlar.
8. Sifat va xorijiy tajribalar.
9. Mustaqillik yillarda mahsulot sifatini va uning raqobatbardoshligini oshirish borasidagi yutuqlar va istiqboldagi vazifalar.

14-BOB. SANOATDA TANNARX, FOYDA VA IShLAB ChIQARISh RENTABELLIGI

Tayanch atamalar va iboralar: qiymat, tovar qiymati, mahsulot ishlab chiqarish tannarxi, ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlar, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari, ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi, ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar, ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari, mahsulot tannarxi tarkibi, foyda, haqiqiy foyda, o'rtacha foyda, monopol foyda, maksimal foyda, sotish rentabelligi, asosiy faoliyat rentabelligi, xususiy kapitalning rentabelligi, asosiy kapital (fondlar) rentabelligi, permanent kapital rentabelligi, aylanma kapitalning rentabelligi, qarzga olingan kapitalning rentabelligi, real asosiy kapitalning rentabelligi, investirlangan kapital rentabelligi.

Reja:

- 14.1. Qiymat va tannarx nazariyasi, ishlab chiqarish sarflarini kamaytirishning ilmiy asoslari**
- 14.2. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlarni guruhlash.**
- 14.3. Foyda va uni maksimallashtirish**
- 14.4. Rentabellik va uni oshirish yo'llari**
- 14.5. Mahsulot tannarxini pasaytirishning manbalari va omillari**

14.1. Qiymat va tannarx nazariyasi, ishlab chiqarish sarflarini kamaytirishning ilmiy asoslari

Iqtisodiyot nazariyasida qiymat va tannarx masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, qiymat tushunchasi borasida bir qator munozarali fikrlar mavjud. Ayrim iqtisodchi olimlar tovarning qiymatini uning natijaliligi bilan bog'lasalar, ayrimlari tovar qiymati – tovar ishlab chiqaruvchilarning tovarda gavdalangan va unda moddiylashgan ijtimoiy mehnati, deb hisoblaydilar. Boshqalari esa tovarning qiymatini ushbu tovarga bo'lgan talab va taklif, ya'ni tovarning noyobligi belgilaydi, deb hisoblaydilar.

Umuman olganda, tovarning qiymati uning boshqa tovarga ayirboshlana olish darajasini aniqlash uchun zarurdir. Narx (baho) va qiymat tushunchalari orasida deyarli farq yo'q. Faqatgina narx (baho) – bu tovar qiymatining puldag'i ifodasidir xolos.

Iqtisodiyotda mahsulot ishlab chiqarish tannarxi kategoriyasidan ham keng foydalaniladi. Qiymat va ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut ishlab chiqarish subyektining daromadi yoki foydasi hisoblanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi – mahsulotni ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, ya’ni ishlab chiqarish texnologiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning puldagi ifodasidir⁶³.

Sanoat oldida turgan asosiy vazifalardan biri – bu mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishdir. Bu vazifaning bajarilishi natijasida ishlab chiqarishni rivojlantirishga va aholining turmush darajasini oshirishga imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha resurslardan bekami-ko‘st foydalanish bu ko‘rsatkichlarning rolini oshirish zaruratini taqozo etadi. Shu sababli tannarx atamasining mohiyati, ahamiyati, mazmuni va shakllarini yaxshi bilish hamda uni pasaytirish masalasiga katta e’tibor berish kerak bo‘ladi.

Biron-bir mahsulot ishlab chiqarish uchun ma’lum miqdorda xomashyo va materiallar, mehnat va boshqa ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan yuklama xarajatlar sarflanadi. Mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot ishlab chiqarish tannarxi deb ataladi.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi ko‘rsatkichi ishlab chiqarishni rivojlantirishda va uni tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish ishlab chiqarish rentabelligini oshirish, ya’ni foydani ko‘paytirishning, mavjud resurslar bilan ishlab chiqarish hajmini o‘stirishning muhim omili hisoblanadi. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi ko‘rsatkichi ishlab chiqarish sifat ko‘rsatkichlari orasida alohida o‘rin tutadi.

Ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etish, texnika va materiallardan foydalanish, moddiy texnika ta’minotini takomillashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash borasidagi hamma o‘zgarishlar xarajatlar darajasida aks etadi. Shu sababli ham biz mahsulot tannarxi ishlab chiqarish samaradorligining sifat ko‘rsatkichlari tizimida muhim o‘rin egallaydi, deya olamiz. Binobarin, shuning uchun ham mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlarni ularning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra guruhlash muhim ahamiyat kasb etadi.

14.2. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlarni guruhash

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini aniqlash va uni hosil qiluvchi xarajatlarni turkumlash mamlakatimizda tegishli me’yoriy hujjatga muvofiq⁶⁴ amalgaga oshiriladi.

⁶³ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.177.

⁶⁴ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 5 февралдаги 54-сон қарори билан тасдиқланган «Махсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиши харажатларининг таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисида»ги Низом

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra quyidagi elementlar bilan guruhlarga ajratiladi:

- ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarilib tashlangan holda);
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalari;
- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar.

I. Ishlab chiqarish bilan bog‘liq moddiy xarajatlar.

Ishlab chiqarish bilan bog‘liq moddiy xarajatlarga quyidagilar tegishli bo‘ladi:

1. Ishlab chiqariladigan mahsulot asosini tashkil etib uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulot tayyorlashda (ishlarni bajarishda, xizmatlar ko‘rsatishda) zarur tarkibiy qism hisoblangan chetdan sotib olinadigan xom ashyo va materiallar.

2. Normal texnologiya jarayonini ta’minalash va mahsulotlarni o‘rash uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadigan (asbob-uskunalar, binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalar sinovini o‘tkazish, nazorat qilish, saqlash, tuzatish va ulardan foydalanish) uchun ishlab chiqarish jarayonida foydalanadigan, xarid qilinadigan materiallar, shuningdek, asbob-uskunalarni tuzatish uchun ehtiyot qismlar, instrumentlar, moslamalar, inventar, priborlar laboratoriya asbob-uskunalarini va asosiy fondlarga kirmaydigan boshqa arzonbaho ashyolarning eskirishi.

3. Sotib olinadigan, kelgusida ushbu xo‘jalik yurituvchi subyektda montaj qilinadigan yoki qo‘srimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar.

4. Tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektning ichki tarkibiy bo‘linmalari tomonidan bajariladigan faoliyatning asosiy turiga tegishli bo‘lmagan, lekin ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan ishlar va xizmatlar.

Ishlab chiqarish xarakteriga ega bo‘lgan ishlar va xizmatlarga mahsulot tayyorlash bo‘yicha ayrim operatsiyalarni bajarish, xomashyo va materiallarga ishlov berish, iste’mol qilinayotgan ashyo va materiallar sifatini aniqlash uchun sinovlar o‘tkazish, belgilangan texnologik jarayonlarga riosa etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini tuzatish va boshqalar tegishli bo‘ladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt ichida tashqi yuridik shaxslarning transport xizmatlari (xomashyo, materiallar, detallar, instrumentlar, inventarlar, yuklarning boshqa turlarini bazis (markaziy) ombordan sexga keltirish va tayyor mahsulotni saqlash uchun omborga keltirish) ham ishlab chiqarish

xususiyatiga ega bo‘lgan xizmatlarga tegishli bo‘ladi.

5. Tabiiy xomashyo (er rekultivatsiyasiga ajratmalar, ixtisoslashtirilgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan yerni rekultivatsiya qilish ishlariga haq to‘lash), ildizi bilan beriladigan daraxtga haq to‘lash, sanoat korxonalarini tomonidan suv xo‘jaligi tizimidan belgilangan limitlar doirasida va undan ortiqcha olinadigan suv uchun haq to‘lash. Sanoatning xomashyo tarmoqlari uchun – yog‘och-taxta materiallardan yoki foydali qazilmalardan (rudadan) foydalanishga huquqlarning amortizatsiya qilinadigan qiymati yoki atrof-muhitni tiklash xarajatlari.

6. Texnologik maqsadlarga, energiyaning barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga sarflanadigan yonilg‘ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning transporti tomonidan bajariladigan ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha transport ishlari.

7. Xo‘jalik yurituvchi subyektning texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish hamda xo‘jalik ehtiyojlariga sarflanadigan barcha turdag‘i xarid qilinadigan energiya. (Xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘zi tomonidan ishlab chiqariladigan elektr energiyasi va energiyaning boshqa turlariga, shuningdek, xarid qilinadigan energiyani iste’mol joyigacha transformatsiya qilish va uzatish xarajatlari xarajatlarning tegishli elementlariga kiritiladi).

8. Ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning tabiiy yo‘qolish normalari doirasida va ulardan ortiqcha yo‘qotilishi, yaroqsizlanishi va kam chiqishi.

9. Xo‘jalik yurituvchi subyektning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni yetkazish bilan bog‘liq xarajatlar (yuklash va tushirish ishlari ham shu jumлага kiradi) ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlariga kirishi kerak (mehnatga haq to‘lash xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlar va boshqalar).

10. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan moddiy resurslarni yetkazib beruvchilardan olinadigan idishlar ham moddiy resurslar qiymatiga kiritiladi.

11. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan qaytariladigan chiqitlar qiymati, idish va o‘rash-joylash materiallari qiymati ularning amalda sotilishi, foydalanishi yoki omborga kirim qilinishi narxi bo‘yicha chiqarib tashlanadi.

12. «Moddiy xarajatlar» elementi bo‘yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxidan, jumladan, barter bitishuvlarida, qo‘srimcha narx (ustama)dan, ta’midot, tashqi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan to‘lanadigan vositachilik taqdirlashlaridan, tovar birjalari xizmatlari qiymatidan, xususan, brokerlik xizmatlaridan, bojlar va yig‘imlardan, transportda tashishga haq to‘lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va yetkazib berishga haq to‘lashdan

kelib chiqib shakllanadi.

II. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari.

Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari tarkibiga quyidagi moddalar kiritiladi:

1. Xo‘jalik yurituvchi subyektda qabul qilingan mehnatga haq to‘lash shakllari va tizimlariga muvofiq bajariladigan narxnomalar, tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan amalda bajariladigan ish uchun ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan ish haqi, shu jumladan, bajarilgan ishni hisobga olish bo‘yicha dastlabki hujjatlarda nazarda tutilgan rag‘batlantiruvchi tusdagi to‘lovlar.

2. Kasb mahorati va murabbiylit uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar.

3. Ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lgan kompensatsiya tusidagi to‘lovlar, shu jumladan:

- texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ishdan tashqari, vaqtda, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarda ishlaganlik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar va qo‘srimcha haq;

- ko‘p smenali rejimda ishlaganlik, kasblarni birga qo‘shib olib borganlik va xizmat ko‘rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar;

- hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro‘yxati bo‘yicha og‘ir, zararli, alohida zararli mehnat va tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, xususan, ushbu sharoitlardagi uzlucksiz ish stoji uchun ustamalar;

- aloqa, temir yo‘l, daryo, avtomobil transporti va katta yo‘llar xodimlari doimiy ishi yo‘lda o‘tadigan yoki qatnov tusiga ega bo‘lgan boshqa xodimlarning ish haqiga, xo‘jalik yurituvchi subyekt joylashgan joydan jo‘nagan paytidan boshlab shu joyga qaytib kelgan paytigacha to‘lanadigan yo‘lda o‘tgan har bir sutka uchun to‘lanadigan ustamalar;

- qurilishda, rekonstruksiya qilishda va mukammal ta’mirlashda bevosita band bo‘lgan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda vaxta usuli bilan ishlarni bajargan xodimlarga ishning ko‘chma va qatnov xususiyati uchun ustama;

- doimiy ravishda yer osti ishlarida band bo‘lgan xodimlarga ularning shaxtada (konda) ish joyiga jo‘nab ketishlaridan va orqaga qaytishlarigacha o‘tadigan normativ vaqt uchun qo‘srimcha haq;

- mehnatga haq to‘lashning rayonlar bo‘yicha tartibga solinishiga, shu jumladan, rayon koeffitsiyentlari va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq cho‘l, suvsiz va yuqori tog‘ joylarida ishlaganlik uchun koeffitsiyentlar bilan belgilangan to‘lovlar;

- xo‘jalik yurituvchi subyekt joylashgan joydan (yig‘ilish punktidan) ish joyiga va orqaga qaytadigan yo‘lda o‘tadigan kunlar uchun vaxtada

ishlash jadvalida nazarda tutilgan, shuningdek, xodimlarning meteorologiya sharoitlariga ko‘ra va transport tashkilotlari aybi bilan yo‘lda tutilib qolning kunlar uchun tarif stavkasi.

4. Ish vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqtি jamlanib hisoblanganda va qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ularga ish vaqtining normal davom etishidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish (ortiqcha ishlagan ish vaqtি uchun dam olish) kunlari uchun haq to‘lash.

5. Ishlamagan vaqt uchun haq to‘lash:

- amaldagi qonun hujjatlariiga muvofiq navbatdagi (har yilgi) va qo‘srimcha ta’tillar, navbatdagi (har yilgi) foydalanilmagan va qo‘srimcha ta’tillar uchun kompensatsiyalar, o’smirlarning imtiyozli soatlari, bolani ovqatlantirish uchun onalar ishidagi tanaffuslar, shuningdek, tibbiy ko‘rikdan o‘tish bilan bog‘liq vaqt uchun haq to‘lash;

- majburiy ta’tilda bo‘lgan xodimlarga asosiy ish haqini qisman saqlab qolgan holda haq to‘lash;
- donor xodimlarga qonini tekshirish, topshirish kunlari uchun va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to‘lash;
- davlat vazifalarini bajarganlik uchun (harbiy yig‘inlar, favqulodda vaziyatlar bo‘yicha yig‘inlar va boshqalar) mehnat haqi to‘lash.

6. Xo‘jalik yurituvchi subyekt shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tusdagi tuzilgan shartnomalar bo‘yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to‘lash, agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitob xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan amalga oshirilsa, pudrat shartnomasi ham shu jumлага kiradi.

7. Belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to‘lash fondiga kiritiladigan to‘lovlarning boshqa turlari.

III. Ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar.

Ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalarga quyidagilar kiradi:

1. Qonun hujjatlari bilan belgilangan normalar bo‘yicha mehnatga haq to‘lash fondiga ijtimoiy tusdagi majburiy ajratmalar.

2. Nodavlat pensiya jamg‘armalariga, ixtiyoriy tibbiy sug‘urtaga va ixtiyoriy sug‘urtaning boshqa turlariga ajratmalar.

IV. Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi.

Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi bo‘yicha xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining dastlabki (tiklash) qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya ajratmalari summasi (hisoblangan

eskirish), lizing bo‘yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar, qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan jadallashtirilgan amortizatsiya ham shu jumlaga kiradi.

2. Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar eskirishi har oyda xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan dastlabki qiymati va ulardan foydali foydalanish muddatidan (biroq xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati muddatidan ortiq emas) kelib chiqib hisoblanadigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga tegishli bo‘ladi. Foydali foydalanish muddatini aniqlash imkonи bo‘lmagan nomoddiy aktivlar bo‘yicha eskirish normasi besh yil hisobiga belgilanadi, biroq xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati muddatidan ortiq emas.

V. Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlari.

Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlarni hisobga olishning navbatdagi kompleks moddalari I, II, III, IV – bandlarda keltirilgan xarajatlari elementlari bo‘yicha ajratiladi.

1. Ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko‘rsatish xarajatlari:

- ishlab chiqarishni xomashyo, materiallar, yonilg‘i, energiya, instrument, moslamalar va boshqa mehnat vositalari va buyumlari bilan ta’minlash xarajatlari;

- asosiy ishlab chiqarish fondlarini ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko‘rik va qarov, joriy va mukammal tuzatish xarajatlari). Asosiy ishlab chiqarish vositalarini barcha turda (joriy, o‘rtacha, mukammal) tuzatishlarni xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘z kuchi bilan o‘tkazish ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlari (moddiy xarajatlari, mehnat haqi to‘lash xarajatlari va boshqalar) bo‘yicha mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladi.

Zarurat bo‘lganda ayrim tarmoqlarning xo‘jalik yurituvchi subyektlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ruxsati bilan mukammal tuzatish ishlarini o‘tkazish uchun mablag‘lar zahirasini tashkil qilishlari mumkin. Ushbu zahiraga ajratmalar «Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlari» elementi tarkibida aks ettiriladi va ko‘zda tutilayotgan xarajatlari qiymati hamda asosiy vositalar har bir obyektni mukammal tuzatishlarning davriyligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Zahiraga ajratmalar normasi har bir hisobot yili oxirida qayta ko‘rib chiqiladi va zarur bo‘lganda yangi moliya yili uchun ajratmalar miqdori ko‘paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Agar mukammal tuzatishga zahira mablag‘lari summasi ushbu obyektni tuzatishga qilingan haqiqiy xarajatlar summasidan oshib ketsa, oshib ketgan summa bo‘yicha tuzatish kiritilishi kerak: agar haqiqiy xarajatlar zahiradagidan oshib ketsa, u holda oshib ketgan summa «Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlari» elementi tarkibida aks ettiriladi.

- yong‘indan saqlash va qo‘riqlashni hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarni texnikaviy foydalanish qoidalari bian nazarda tutilgan boshqa

maxsus talablar bilan ta'minlash, ular faoliyatini nazorat qilish xarajatlari.

Idoradan tashqari, qo'riqlash xarajatlari bunday qo'riqlash mavjud bo'lishini talab qiluvchi mazkur ishlab chiqarishga maxsus talablar mavjud bo'lgan taqdirda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritilishi mumkin.

- ishlab chiqarish faoliyatiga tegishli bo'lgan asosiy vositalarni joriy ijaraga olish bilan bog'liq xarajatlar;

- tabiatni muhofaza qilish maqsadlaridagi fondlarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq joriy xarajatlar, jumladan, ifloslantiruvchi moddalarni yo'l qo'yiladigan normalar doirasida va undan ortiqcha atrof-muhitga chiqarganlik uchun to'lovlar;

- ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan mehnatning normal sharoitlari va texnika xavfsizligini ta'minlash xarajatlar;

- xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashishi bilan bog'liq bo'lgan sog'lijni muhofaza qilish tadbirlari;

- tekin ko'rsatiladigan communal xizmatlar, oziq-ovqat, ayrim tarmoqlar xodimlariga oziq-ovqatlar qiymati, xo'jalik yurituvchi subyekt xodimlariga beriladigan tekin uy-joy haqini to'lash xarajatlar (yoki uy-joy, communal xizmatlar va boshqalar uchun pul kompensatsiyasi summasi).

- amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tekin beriladigan va shaxsiy foydalanishda qoladigan buyumlar qiymati (shu jumladan, formalı kiyim-bosh, maxsus ovqatlar, yoki ular pasaytirilgan narxlar bo'yicha sotilishi munosabati bilan imtiyozlar summasi);

- ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan boshqaruvning texnik vositalarini, aloqa uzellarini, signalizatsiya vositalarini, boshqaruvning boshqa texnik vositalarini, hisoblash markazlarini saqlash va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlar;

- qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazganlik uchun tibbiy muassasalarga haq to'lash.

2. Ishlab chiqarish xodimlarini belgilangan ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan xizmat safarlariga yuborish bo'yicha normalar doirasida va ulardan ortiqcha xarajatlar.

3. Ishlab chiqarish ishchilarini va ishlab chiqarish aktivlarini majburiy sug'urta qilish xarajatlar.

4. Brak tufayli kelib chiqadigan yo'qotishlar.

5. Ishlab chiqarishning ichki sabablariga ko'ra bekor turishlar tufayli yo'qotishlar.

6. Kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli tuzatish va ularga kafolatli xizmat ko'rsatish xarajatlar.

7. Mahsulot (xizmatlar)ni majburiy sertifikatsiya qilish xarajatlar.

8. Ishlab chiqarish jarohatlari tufayli mehnat qobiliyati yo'qolishi

munosabati bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlari asosida va qarorlarisiz to‘lanadigan nafaqalar.

9. Umumiy foydalilaniladigan yo‘lovchilar transporti xizmat ko‘rsatmaydigan yo‘nalishlarda xodimlarni ish joyiga olib borish va olib kelish bilan bog‘liq xarajatlar.

Mahsulot tannarxi nazariyasida mahsulot tannarxi tarkibi degan muhim tushuncha mavjud. U ayrim xarajatlarning mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan jami xarajatlar summasidagi nisbatini ko‘rsatadi. Odatda, tarkib foiz hisobida o‘lchanadi.

Tannarx tarkibi tarmoqlar va korxonalarning xususiyatiga, ishlab chiqarish texnologiyasi va ishlab chiqarishning tashkil qilinishiga bog‘liqdir.⁶⁵

Mahsulot tannarxining tarkibi o‘zgarmas miqdor hisoblanmaydi. Sanoatning o‘sishi, texnika va ishlab chiqarish texnologiyasi takomillashishi, asosiy va aylanma fondlardan foydalanishning yaxshilanishi, ish haqi miqdorining o‘zgarishi, iste’mol buyumlari baholarining tartibga tushishi va transport tariflarining o‘zgarishi bilan mahsulot tannarxi tarkibi ham o‘zgaradi.

Mahsulot tannarxida qaysi guruhdagi xarajatlar asosiy o‘rin tutishiga qarab, sanoat tarmoqlari bir-biridan farq qiladi – ko‘p mehnat, ko‘p material, ko‘p energiya, ko‘p mablag‘ talab qiladigan bo‘ladi. Buni 13 - jadvaldagagi ma’lumotlardan ko‘rish mumkin.

13-jadval

O‘zbekiston sanoat tarmoqlari bo‘yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish tannarxining tarkibi (ishlab chiqarishga ketgan barcha xarajatlar foiz hisobida)

Jami xaraj at-lar	Sh u j u m l a d a n						
	Xomash yo va asosiy material lar	Yoqilg ‘i	Energi ya	Amorti -zatsiya	Ish haqi va undan ajratma	Boshq a xara-jatlar	
Umuman sanoat							
1995 y.	100	77	1,8	1,4	3,3	10,7	2,1
2003y.	100	77,8	3,4	4,1	8,4	7,0	5,1
Elektroenergetika							
1995 y.	100	-	45,9	0	23	20,6	5,2
2000 y.	100	3,6	60,2	16,0	1,9	10,3	8,0
Gaz sanoati							

⁶⁵ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.184.

1995 y.	100	-	1,3	13,5	36,2	26,7	17,3
2000 y.	100	39,2	1,3	15,3	9,8	6,4	28,0
Mashinasozlik va metalni qayta ishlash							
1995 y.	100	61,1	0,6	1,5	4,1	26,3	2,9
2000 y.	100	67,0	1,2	1,5	13,9	12,3	4,1
Yengil sanoat							
1995 y.	100	89,7	0,2	0,4	0,8	5,4	0,8
2000 y.	100	80,7	1,1	1,9	2,3	8,0	6,0
Oziq-ovqat sanoati							
1995 y.	100	89,3	0,8	0,4	1,2	4,7	0,9
2000 y.	100	78,4	2,0	1,5	2,7	7,1	8,3

Ish haqi uchun qilinadigan xarajatlar (mehnat xarajatlari) salmog‘i eng katta bo‘lgan ishlab chiqarish tarmog‘i ko‘p mehnat talab qiladigan tarmoq hisoblanadi (ko‘mir sanoati, yog‘och tayyorlash sanoati va boshqalar).

Xomashyo va materiallarga qilinadigan xarajatlar salmog‘i eng katta bo‘lgan ishlab chiqarish tarmog‘i ko‘p material talab qiladigan tarmoq hisoblanadi (engil sanoat va oziq-ovqat sanoati, mashinasozlik).

Xarajatlarning ko‘p qismi asosiy vositalar amortizatsiyasi uchun sarflanadigan tarmoqlar ko‘p mablag‘lar talab qiladigan tarmoqlarga kiradi (masalan, neft va gaz qazib chiqarish, gidroelektrostansiyalarda elektr energiyasi ishlab chiqarish).

Ishlab chiqarishning tarmoq xususiyatlarini hisobga olish, tannarx tarkibini va ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy tahlil qilish ishlab chiqarishda yuz beradigan asosiy texnik-iqtisodiy jarayonlarni o‘rganish, ishlab chiqarishdagi chiqimlarni kamaytirishning asosiy yo‘llarini belgilashga imkon beradi.

14.3. Foyda va uni maksimallashtirish

Sanoat va uning barcha bo‘g‘inlari ishini tavsiflovchi muhim sifat ko‘rsatkichlaridan biri foyda va rentabellikdir. Foyda bozor munosabatlarining muhim kategoriyasi sifatida iqtisodiyotda, ma’lum funksiya (vazifa)larni bajaradi:

- ishlab chiqarish faoliyatining natijasidan olingan iqtisodiy samarani tavsiflaydi, chunki u so‘nggi moliyaviy natijani ifodalaydi;

- turli darajadagi budgetlarni shakllantiradi;

- xodimlarning manfaatlarini himoya qiladi va bu borada iqtisodiy dastak va stimul rolini o‘ynaydi;

- ilmiy – texnikaviy, tashkiliy va ijtimoiy ishlarni amalga oshirishga imkoniyat beradi.

Foyda sanoat, tarmoq va korxonaning hamma ishlab chiqarish xo‘jalik

faoliyati natijalarini umumlashtiruvchi ko'rsatkichdir. Balansdagi foyda yoki foydaning umumiyligi summasi – korxona balansidagi mavjud ishlab chiqarish va ishlab chiqarishdan tashqari, xo'jaliklarning moliya-xo'jalik faoliyatlarini natijasida olingan foyda summasidir⁶⁶. Foydaning umumiyligi summasi tovar mahsulotini sotishdan, ishlab chiqarishdan tashqari, bajarilgan ishlari va xizmatlardan olingan daromadlardan, korxona yordamchi xo'jaliklarining mahsulotlarini sotishdan olingan daromadlardan, realizatsiyadan tashqari, foyda va uy-joy kommunal xo'jaligi, har xil jarimalar, penya va hokazolardan tashkil topadi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

-mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda (**YaF**), bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtaqidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{YaF} = \mathbf{SST} - \mathbf{MIT},$$

bu yerda: **YaF** – yalpi foyda;

SST – sotishdan olingan sof tushum;

MIT – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

Asosiy faoliyatdan ko'rigan foyda – bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtaqidagi tafovut va qo'shimcha asosiy faoliyatdan ko'rigan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{AFF} = \mathbf{YaF} - \mathbf{DX} + \mathbf{BD} + \mathbf{BZ},$$

bu yerda:

- **AFF** – asosiy faoliyatdan olingan foyda;
- **DF** – davr xarajatlari;
- **BD** – asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;
- **BZ** – asosiy faoliyatdan ko'rigan boshqa zararlar;

-xo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar) – bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plus moliyaviy faoliyatdan ko'rigan daromadlar va minus moliyaviy xarajatlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$$\mathbf{UF} = \mathbf{AFF} + \mathbf{MD} - \mathbf{MX},$$

bu yerda:

UF – umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD – moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX – moliyaviy faoliyat xarajatlari;

-soliq to'lagungacha olingan foyda – bu umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda, plus favqulotda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlardan ko'rigan foyda va minus favqulotda ko'rigan zarar sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{STF} = \mathbf{UF} + \mathbf{FP} - \mathbf{FZ},$$

⁶⁶ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.186.

bu yerda:

STF – soliq to‘lagungacha olingan foyda;

FP – favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ – favqulodda vaziyatlardan ko‘rilgan zarar;

-yilning sof foydasi – bu soliq to‘langandan keyin xo‘jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladi, o‘zi dadaromad (foyda)dan to‘lanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to‘lovlarni chiqarib tashlangan xolda soliqlar to‘lagunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

$$SF = STF - DS - BS,$$

SF – sof foyda;

DS – daromad (foyda)dan to‘lanadigan soliq;

BD – boshqa soliqlar va to‘lovlar.

Har bir korxona (firma) yashashi va ravnaq topishi uchun foyda olishi kerak. Korxona foydani o‘z rivojini ta‘minlovchi birinchi muhim omil deb biladi. Foydani maksimallashtirish bilan shug‘ullanmaydigan korxonaning yashab ketish imkoniyati kam bo‘ladi. Makroiqtisodiyotda uzoq muddatga foydani maksimallashtirish masalasiga katta e’tibor berilishi shundan iboratki, shu asosda firma faoliyatini oldindan bashorat qilinadi.

Mulk egasini o‘zi boshqaradigan unchalik katta bo‘limgan korxona (firma)da ularni yuritish bilan bog‘liq bo‘lgan hamma qarorlarda foydani ko‘paytirish asosiy o‘rin tutadi. Juda katta va yirik korxona (firma) larda rahbar (boshqaruvchi)lar kundalik qarorlarni qabul qilishda mulk egalari har doim ham boshqaruvchilar faoliyatini nazorat ostida saqlay olmaydilar. Shuning uchun boshqaruvchilarda va korxonaga rahbarlik qilishda ma’lum darajada erkinliklar bo‘lib, foydani maksimallashtirish bilan yetarli shug‘ullanmasliklari mumkin. Ular mulk egasi bo‘limganliklari uchun uzoq muddatli manfaat o‘rniga qisqa manfaatni afzal ko‘rishlari mumkin. Boshqaruvchilar ko‘pincha foydani maksimallashtirish o‘rniga daromadni ko‘paytirish yoki aksiyadorlarni qiziqtirish uchun dividendni oshirishga harakat qilishlari mumkin. Bundan tashqari, ular yuqori lavozimga erishish yoki katta mukofotlar olish maqsadida foyda keyinchalik kamayib ketsa ham hozirgi kunning o‘zida oshirishga harakat qiladilar. Shu tufayli bunday rahbarlar o‘z lavozimlaridan chetlashtirilishi va korxonani boshqa rahbarlarga topshirish zarurati yuzaga keladi.

Yuqorida keltirilgan foyda turlaridan tashqari, uning yana bir qancha turlari mavjud:

- haqiqiy foyda;
- o‘rtacha foyda;
- monopol foyda yoki iqtisodiy renta;
- maksimal foyda.

Haqiqiy foyda – bu haqiqatda hisobot ma’lumotlari, ya’ni haqiqiy

xarajatlar asosida aniqlangan foyda hisoblanadi. Bu foyda korxona moliyaviy faoliyatini tashkil etishda asosiy manba bo‘lib hisoblanadi.

O‘rtacha foyda deganda boshqa hamma korxonalar kabi sarflangan kapitaliga bir xil foyda olish yoki bir xil rentabellikka ega bo‘lish tushuniladi. O‘rtacha foyda korxona (firma)ning faoliyat ko‘rsatayotgan sohada, tarmoqda qolishini ta’minlaydi. Bunday foydaning yuzaga kelishi bozorning uzoq muddatli barqarorlikka erishganidan dalolat beradi. O‘rtacha foydani ko‘pincha iqtisodiy foyda deb ataydilar.

Iqtisodiy foyda qachon paydo bo‘ladi? Agar korxona bir mahsulotni tayyorlab, sotib, haqiqatda 100 ming so‘m foyda olgan bo‘lsa-yu, ana shu mablag‘ni boshqa mahsulot ishlab chiqarishga sarflab, uni sotganda 150 ming so‘mlik foyda olsa, bunday foydani iqtisodiy foyda deb tushunish kerak. Bu holda foyda ijobjiy tus oladi. Ijobjiy iqtisodiy foyda korxonani biron-bir investor faoliyat boshlashiga rag‘batlantirsa, ijobjiy haqiqiy foyda ishlab chiqarish yoki firmaning ancha oyoqqa turib organidan darak beradi.

Monopol foyda yoki iqtisodiy renta – bu cheklangan ishlab chiqarish omillaridan foydalanish natijasida sodir bo‘lgan foyda hisoblanadi. Masalan, ikkita korxona bir xil yerga ega bo‘lib, yerni olish bilan bog‘liq xarajatlar bir xil bo‘lishi sharoitida birinchi yer transport tarmog‘iga yaqin bo‘lganligi uchun mahsulotni tashishga 10 mln. so‘m kam sarf qilinishi mumkin, ana shu 10 mln so‘m uning qo‘srimcha foydasi hisoblanadi. Iqtisodiy renta ishlab chiqarish omillari cheklanganligidan kelib chiqadi va u yoki bu ishlab chiqarish omiliga berish holatini bildirgan baho bilan shu omilning eng kam bahosi o‘rtasidagi farqdan iborat bo‘ladi.

Maksimal foyda – bu bir birlik qo‘srimcha mahsulotni sotishdan olingan daromadni shu bir birlik qo‘srimcha mahsulotga qilingan xarajat miqdori bilan bab-barobar kelishi natijasida olingan foyda⁶⁷. Shu holda rentabellikning eng yuqori darajasiga erishilgan bo‘ladi. Shunga ko‘ra, foydani maksimallashtirish degani, eng yuqori rentabellikni ta’minalash deganidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat sohasida o‘tkazilayotgan tub iqtisodiy tadbirlar majmuida foydani taqsimlash masalalari muhim o‘rin tutadi, zero uni,adolat yuzasidan va to‘g‘ri taqsimlash jamoa va har bir xodimning manfaatdorligini uyg‘unlashtirish uchun sharoit yaratadi.

14.4. Rentabellik va uni oshirish yo‘llari

Sanoat korxonalarining muhim moliyaviy ko‘rsatkichlaridan biri rentabellikdir. Ishlab chiqarish rentabelligi korxona (firma) ishi samaradorligini umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlardan biridir. U korxonaning daromad olish darajisini ifodalaydi.

⁶⁷ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.188.

Rentabellik nazariyasida uning bir qancha turlari mavjud bo‘lib, ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- sotish rentabelligi;
- asosiy faoliyat rentabelligi;
- xususiy kapital rentabelligi;
- asosiy kapital (fondlar) rentabelligi;
- permanent kapital rentabelligi;
- aylanma kapital rentabelligi;
- qarzga olingan kapital rentabelligi;
- real asosiy kapital rentabelligi;
- investirlashgan kapital samaradorligi.

1. Sotish rentabelligi deganda har bir sotilgan mahsulot summasiga qancha xarajat qilinganlik darajasi tushuniladi. Demak, bu ko‘rsatkich sotilgan mahsulot qiymati bilan ana shu mahsulotni ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarni taqqoslash asosida yuzaga keladi. Bunday koeffitsiyent baholash siyosatidagi o‘zgarishlarni va sotilgan mahsulot tannarxini nazorat qilish bo‘yicha korxonaning qobiliyatini tavsiflaydi.

Sotish rentabelligini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$R_s = \frac{\text{sotilgan mahsulot tannarxi}}{\text{haqiqiy sotilgan mahsulot}}$$

2. Asosiy faoliyat rentabelligi – bu ishlab chiqarishning foydaliligi, natijaliligidir. Bu ko‘rsatkich ishlab chiqarish samaradorligini tavsiflaydi va quyidagicha ifodalanadi:

$$R_a = \frac{\text{mahsulotni sotishdan olingan foyda}}{\text{mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari (ishlab chiqarish tannarxi)}}$$

3. Xususiy kapitalning rentabelligi – bu korxona (firma), tarmoq xususiy kapitalining foydaliligi va natijaliligi. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Rxk = \frac{\text{sof foyda}}{\text{xususiy xarajatlarning o‘rtacha qiymati}}$$

Bunday koeffitsiyent xususiy kapitaldan foydalanish darajasini, ya’ni korxona tomonidan xususiy kapitalning o‘rtacha qiymatiga qancha sof foyda olinganligini ko‘rsatadi.

4. Asosiy kapital (fondlar) rentabelligi – bu asosiy fondlar va boshqa oborotdan tashqari aktivlarning foydaliligi. U quyidagicha aniqlanadi:

$$Rak = \frac{sof foyda}{ko'p muddatli aktivlarning qiymati}$$

5. Permanent kapital rentabelligi – bu permanent kapitalning foydaliligi, natijaliligidir. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Rp = \frac{sof foyda}{permanent kapitalning o'rtacha qiymati}$$

6. Aylanma kapitalning rentabelligi – bu aylanma kapitalning foydaliligi, natijaliligi. U har bir so‘mli aylanma kapitaldan qanchalik foyda olish mumkinligini ko‘rsatadi. Uni quyidagi formula asosida aniqlash mumkin:

$$Ra = \frac{sof foyda}{aylanma kapitalning o'rtacha qiymati}$$

7. Qarzga olingan kapitalning rentabelligi – bu qarzga olingan kapitalning foydaliligi, unumligi. U quyidagicha aniqlanadi:

$$Rq = \frac{sof foyda}{qarzga olingan kapitalning o'rtacha qiymati}$$

Bu koeffitsiyent har bir so‘mli qarzga olingan kapital qancha foyda keltirganligini ifodalaydi.

8. Real asosiy kapitalning rentabelligi uning foydaliligini ifodalaydi va har bir so‘mli real asosiy kapital qancha so‘m foyda keltirganligini ko‘rsatadi. U quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$Rrk = \frac{sof foyda}{real asosiy kapital}$$

9. Investirlangan kapital rentabelligi – bu investitsiya mablag‘larining natijaliligi, foydaliligi. Bu ko‘rsatkich investitsiya tufayli olingan mablag‘larning qanchalik samara berishini ifodalaydi va quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Rik = \frac{soliqlarsiz foyda + to'langan foizlar summasi}{xususiy kapital + uzoq muddatli qarzli kapital}$$

Rentabellik darajasi ko‘rsatkichining yuqori bo‘lishi korxona (firma) ixtiyoridagi asosiy va aylanma fondlardan oqilona foydalanilayotganini va korxona (firma)ning ma’lum miqdorda foyda (daromad) olayotganligini ko‘rsatadi.

Rentabellik darajasini ko‘tarish uchun sanoatning barcha tarmoqlari va korxonalarini sotilgan mahsulot hajmini oshirishga, uni ishlab chiqarish uchun

sarflanayotgan xarajatlarni kamaytirishga, ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishlari zarur.

14.5. Mahsulot tannarxini pasaytirishning manbalari va omillari

Mehnat unumdorligini oshirish, xomashyo va material, yoqilg'i va elektroenergetika xarajatlarini kamaytirish, xizmat ko'rsatish va boshqarish sarflarini qisqartirish, ishlab chiqarishdan tashqari, xarajatlarni tejash sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirishning eng muhim manbalari hisoblanadi.

Mehnat unumdorligini oshirish uchun yangi texnika, texnologiya jarayonlarini va ishlab chiqarishni o'stirish yoki tashkil etishning ilg'or usullarini joriy qilish orqali har bir mehnatchi tomonidan tayyorlanayotgan mahsulotni ko'paytirish kerak bo'ladi. Bu holda har bir mahsulot birligiga sarflanadigan ish haqi qisqaradi, ammo ishchining umumiyligi esa ortib boradi. Mehnat unumdorligi ish haqiga nisbatan jadal o'sgandagina tannarx pasayadi.

Mehnat unumdorligining o'sish mohiyati shundan iboratki, bunda mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan jonli mehnat ulushi kamayadi, ilgari sarflangan mehnatning ulushi esa ortadi, biroq mahsulot birligi uchun ketadigan mehnat sarfi qisqaradi.

Material, yoqilg'i va elektr energiya xarajatlarini kamaytirish uchun ularni tejab sarflash, qimmatbaho materiallarni arzon, lekin sifatli materiallar bilan almashtirish, ularni sotib olish va korxonaga keltirish bilan bog'liq bo'lgan sarflarni qisqartirish kerak bo'ladi.

Xizmat ko'rsatish va boshqarish uchun ketadigan xarajatlarni qisqartirishga esa tarmoq va korxonalardagi ma'muriy boshqaruv apparatining sarflarini kamaytirish, asbob-uskuna, bino va inshootlarni saqlash, yoritish, isitish uchun ketadigan mablag'larni tejab-tergab sarflash orqali erishiladi.

Unumsiz xarajatlarni (jarima to'lash, penya va hokazolar) tugatish mahsulot tannarxini pasaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishni tashkil etishning ijtimoiy shakllarini takomillashtirishning, ishlab chiqarishni ratsional joylashtirish, ishlab chiqarish va mehnatni korxonaning ichida uyushtirishni yaxshilash mahsulot tannarxini pasaytirishning ta'minlovchi omillari bo'lib hisoblanadi. Masalan, texnika taraqqiyoti mahsulot tannarxini pasaytirishning barcha manbalariga ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarishni elektrlashtirish va elektronizatsiyalash hamda kompleks avtomatlashtirish, kimyoviy vositalardan foydalanish mahsulot tayyorlash uchun sarflanadigan solishtirma xarajatlarni kamaytiradi.

Har bir korxonada mahsulot tannarxini pasaytirish darajasini hisoblash uchun eng avvalo undagi rezervlarni, ya'ni foydalilmayotgan imkoniyatlarni aniqlash kerak. Ular ko'zga tashlanadigan, yuzaki, juda

murakkab, ko‘z ilg‘amaydigan bo‘lishi mumkin. Faqat chuqur, har taraflama iqtisodiy-texnik tahlildan keyin ularni aniqlash, topish mumkin bo‘ladi.

Rezervlar har xil belgilarga qarab guruhlarga ajratilishi mumkin. Ular eng avvalo to‘planish joyiga qarab ichki ishlab chiqarish va tashqi rezervlarga ajraladi.

Tashqi rezervlarga tarmoqlar bo‘yicha rezervlar, regional (hududiy) va tabiiy-ekologik rezervlar kiradi.

Rezervlar safarbar etilishi muddati bo‘yicha joriy va istiqbolli rezervlarga ajraladi.

Rezervlarni ishlab chiqarish jarayonlarining elementlari bo‘yicha ham guruhlarga bo‘lish mumkin. Bunday rezervlarga mehnat, moddiy va asosiy fondlardan foydalanish rezervlari kiradi.

Korxona yoki tarmoq faoliyatini tahlil etish uchun rezervlarni ikkiga bo‘lib ko‘rish mumkin:

- tashkiliy-texnikaviy rezervlar;
- ijtimoiy-iqtisodiy rezervlar.

Mana shu yuqorida keltirilgan barcha rezervlar, ya’ni foydalanilmayotgan imkoniyatlarni safarbar etish, ishga solish hamda shu asosda tannarxni keskin pasaytirish uchun bir qator omillardan keng foydalanish va ularni hisoblab chiqish kerak. U ishning metodikasi, usulini “Korxonalar faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish va boshqarish” fanidan o‘qiladigan ma’ruzalarda, amaliy mashg‘ulotlarda chuqqurroq va har tomonlama tushuntirib beriladi.

Mahsulot tannarxini rejalashtirish mehnat, moddiy va moliyaviy mablag‘lardan oqilona foydalanish asosida ishlab chiqarishning yuqori samaradorligiga erishishga qaratilgandir. Tannarx rejasi quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

1. Mahsulot tannarxini pasaytirish rejasi;
2. Mahsulot tannarxini kalkulatsiya qilish;
3. Ishlab chiqarish xarajatlari smetasi;
4. Tovar va sotiladigan mahsulot tannarxining hisobi.

Tannarx rejasi, ikki bosqichda ishlab chiqiladi. Birinchi bosqichda, eng avvalo, hisobot yilida rejalarining bajaralishi tahlil etiladi, mahsulot tannarxini pasaytirish, foya va rentabellikni oshirish rezervlari aniqlanadi va aniqlangan rezervlardan foydalanish tadbirlari belgilanadi, reja loyihasi ishlab chiqiladi. Ikkinci bosqichda esa rejaning uzil-kesil loyihasi ishlab chiqiladi va bu reja topshiriqlari korxona bo‘limlariga yetkaziladi.

Mahsulot tannarxi va uni pasaytirish topshiriqlari davlat va korxona rejasida yuqoridan belgilanmaydigan, aksincha, korxonalarining o‘zida hisob qilinadigan ko‘rsatkich hisoblanadi. Shunga qaramay, mahsulot tannarxi sanoat ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib qolaveradi. Chunki sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirish ishlab chiqarishning rentabellik darajasini oshirish

rezervlaridan biri hisoblanadi. Mahsulot tannarxi qanchalik past bo'lsa, albatta, boshqa shart-sharoitlar bir xil bo'lgan holda (masalan, xuddi o'sha mahsulotning narxi barqaror bo'lganda) uni sotishdan kelgan foyda ham shunchalik ko'p bo'ladi.

Qisqacha xulosalar

1. Mahsulot tannarxi sanoat korxonalari faoliyatining muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishga sarflangan mablag'lardan tashkil topadi. Shu sababli mahsulot tannarxini arzonlashtirishning ahamiyati beqiyosdir. Uni pasaytirish foyda (daromad)ning oshishiga, narxlarning pasayishiga imkoniyat yaratib beradi.

2. Foyda (daromad) korxona (firma) faoliyatini umumlashtiruvchi ko'rsatkichdir. U moddiy ishlab chiqarishda yaratilgan sof daromadning bir qismi bo'lib, davlat budgeti daromadlarining shakllanishida asosiy manbalardan biri bo'lib hisoblanadi.

3. Ishlab chiqarish rentabelligi sanoat ishlab chiqarishi, uning tarmoqlari va korxonalarning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi vaqtida rentabellik darajasini aniqlashning bir necha usuli mavjud bo'lib, ular korxonaning xo'jalik faoliyatini baholovchi vosita (instrument) vazifasini o'taydi.

O'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar

1. Tannarx va qiymat muammolari.
2. Tannarxning tarkibi va uni pasaytirish yo'llari.
3. Foyda va uni maksimallashtirish masalalari.
4. Rentabellik va uni hisoblash usullari.

15 - BOB. SANOAT IShLAB ChIQARIShIDA BAHO VA BAHONI ShAKLLANTIRISH

Tayanch atamalar va iboralar: baho, baho siyosati, ulgurji baholar, chakana baholar, xarid baholari, dunyo baholari, baho funksiyalari, bahoning iqtisodiy mazmunini, nufuzli baholar, dotatsiyali baholar, davlat baholari, mavsumiy baholar, standart baholar, preyskurst baholar, maksimal baho, minimal baho, obyektiv baho, bozorga kirib olish narxi, demping narx.

Reja:

- 15.1. Baho – bozor munosabatlarining iqtisodiy kategoriyasi sifatida**
- 15.2. Baho tushunchasi va uning funksiyalari**
- 15.3. Bahoning turlari va tarkibi**

15.1.Baho - bozor munosabatlarining iqtisodiy kategoriyasi sifatida

Baho bozor kategoriyasi bo‘lib, tovarlar ayirboshlanganda yuz beradigan munosabatlarni anglatadi. Oqilona, ilmiy jihatdan asoslangan baho va baholash iqtisodiyotning ilmiy va amaliy vositalaridan biri hisoblanadi.

Baho siyosati - bu davlatning iqtisodiy siyosati va iqtisodiy strategiyasining muhim ajralmas qismidir. Shu sababli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda, mehnatkashlarning tashabbusi va omilkorligini rivojlantirishda baho belgilash siyosati alohida o‘rin egallaydi. Bahoni xo‘jalik mexanizmi va o‘zini o‘zi pul bilan ta’minlashning ko‘tarib turuvchi ustuni deyish mumkin. Jamoaning va ayrim xodimning daromadlari, ular iqtisodiy manfaatlari narxning, ya’ni bahoning to‘g‘ri belgilanishiga bog‘liqdir.⁶⁸

Baho bamisol barometr kabi bozor holatini ko‘rsatib turadi, u pasayib ketsa, tovar bozori kasodga uchraydi, tovar nafsiz bo‘lib, uni boshqa tovar bilan almashtirish yoki uning sifatini yaxshilash zarurligi kun tartibiga qo‘yiladi.

Baho pul muomalasi holati, kreditlash samaradorligi va iqtisodiyotning moliyaviy sog‘lomligi bilan bog‘liq. Davlatning, korxona (firma) lar va ularda ishlovchilarining, umuman aholining o‘zaro rejali bog‘lanishi baho yordamida amalga oshiriladi, ijtimoiy resurslardan foydalanish ta’milanadi, yalpi ichki mahsulotni hisobga olish va taqsimlash amalga oshiriladi. Bahoni tovar qiymati belgilaydi, ammo bozor iqtisodiyoti sharoitida u aniq qiymatdan yuqori yoki kam bo‘lishi mumkin, bu esa bozordagi o‘sha mahsulotga bo‘lgan talab va taklifga bog‘liq bo‘ladi. Tovar bahosining darajasi, Shuningdek, tovarning ijtimoiy foydaliligi darajasi va boshqa tovarlar o‘rnini bosa olishi, muomaladagi pulning xarid quvvatiga ham boqliq bo‘ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida baho yordamida korxonalar ishlab

⁶⁸ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.194.

chiqarishini tashkil etishning asosiy muammolaridan biri, nima ishlab chiqarish foydali ekanligini hal etadi. Baho tovar taklifi, aholining to‘lov qobiliyati, ishlab chiqarish resurslarining oshib yoki kamayib ketishi to‘g‘risida korxona egalariga axborot beruvchi vosita hamdir. Bahoning yana bir vazifasi qiymat o‘lchovidir, bunda qilingan xarajatlar va olingan natija ma’lum bir narx yordamida hisob-kitob qilinadi.

Xo‘jalik yuritish amaliyotida esa bahoga muhim iqtisodiy vosita, dastak deb qaraladi. Ma’lumki, qiymat ishlab chiqarish kategoriyasi bo‘lib, ishlab chiqarishdagi mehnat sarflanishi bilan bog‘liq munosabatlarni ifoda etadi. Tovarning yaratilishida moddiylashgan va jonli mehnat sarf etiladi. Ularning majmuasi qiymatdir. Ammo qiymat har qanday mehnat sarfi emas. Qiymat tovarni yaratishga ketgan ijtimoiy zarur mehnat sarfi, aniqrog‘i ehtiyojni qondira olgani sababli bozorda tan olingan mehnat sarfidir, chunki mehnatning bir qismini, agar u kerakli bo‘lmasa, bozor inkor etadi va shu qismi qiymatni yaratishda ishtirok etmaydi. Muayyan baho sharoitida ko‘proq foyda olish uchun xarajatlarni kamaytirish zarur.

Baholar tovar-pul munosabatlari muomalasining shakli va realizatsiya qilinadigan mahsulot turiga ko‘ra farqlanadi. Ammo bahoning turlari bir biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular yagona tizimni tashkil etadi. Mazkur tizimning muhim elementlari quyidagilardir:

a) ulgurji baholar. Ular firmalar o‘z mahsulotlarini katta hajmda boshqa firmalarga yoki vositachilarga va ulgurji savdo tashkilotlariga sotayotganlirida qo‘llaniladi. Ulgurji baho korxonalarga ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashni, zarur foyda olishni ta’minlab berishi zarur;

b) chakana baholar. Ulardan tovarlarni bevosita iste’molchilarga sotishda foydalaniladi. Bu baholarga davlat savdosи, xususiy mulk egalari do‘konlari va bozorda yuzaga kelayotgan baholar kiradi. Chakana baho darajasi aholining real daromadlari bilan belgilanadi.

c) xarid baholari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining davlat tomonidan sotib olinishida ishlatiladi.


d) dunyo baholari xalqaro savdo munosabatlarida qo‘llaniladi.

Baholar tovar ishlab chiqarishning rivojlanishiga o‘z vazifalari orqali ta’sir etadi. Bozorda turli mehnat sarflari umumiyl, ya’ni ijtimoiy zarur mehnat sarfiga keltiriladi va shu sarfning pulda ifodalaniishi bahoni hosil qiladi. Bozorda sotuvchi bilan xaridor o‘rtasidagi iqtisodiy munosabat bo‘lganidan narxning shakllanishida har ikki tomon ishtirok etadi. Xaridor deganda, biz tovar va xizmatlarni iste’mol etuvchilar – fuqarolar, ishlab chiqarishni yurgizish uchun resurslarni sotib oluvchi firmalarni tushunamiz. Baholarning shakllanishida tovarni ishlab chiqarishdan tortib, iste’molga yetbungacha bo‘lgan mehnat sarflari ishtirok etadi. Jamiki xarajatlar baho tarkibiga kiradi.

Bahoni shakllantiradigan asosiy omillar esa quyidagicha:

1. Iqtisodiy xarajat darajasi;
2. Tovarlarning naflilik darajasi;
3. Tovarga bo‘lgan talab va uning taklifi;
4. Raqobat shakllari va usullari;
5. Tovarni iste’mol qilish vaqtisi.

Raqobat cheklangan bozorlarda (sof monopoliya, monopolistik raqobat, oligopoliya) ishlab chiqaruvchilarining o‘rnini bozor narxlarini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi. Monopoliya sharoitida bozorda bir turdag‘i mahsulotlar taklif qilinishi sababli baho ustidan to‘liq nazorat amalga oshiriladi. Bu degani monopolist ishlab chiqaruvchilarining narx belgilashdagi hukmronligi, iste’molchi daromadlari cheklangani bo‘lib, to‘qnash keladi. O‘rnini bosuvchi tovarlarning mavjudligi ham ularning baho belgilashdagi mutlaq imkoniyatini cheklaydi. Bahoning shakllanishini quyidagicha ifodalash mumkin:



5-chizma. Bahoning shakllanishi.⁶⁹

Oligopoliya sharoitida esa alohida ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) bir-biriga bog‘liq bo‘lganliklari sababli baholarni mustaqil belgilashga botina olmaydilar. Faqat baho belgilashda yashirinchaligi kelishishlari mumkin.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida bahoning roli va ahamiyati beqiyosdir. Ma’lumki, hozirgi zamон iqtisodiyoti bozor iqtisodiyotidir. Bu iqtisodiyot yer yuzidagi ko‘pgina davlatlarda turli darajada va o‘ziga xos

⁶⁹ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.196.

xususiyatlar bilan rivojlanib bormoqda. Uning mohiyat belgilarini eng rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida ko‘rish mumkin. Uning ana shunday belgilaridan biri, narxlarning liberallashuvi, narx-navoning erkin shakllanishidir. Tovarlar narxini davlat yuqoridan belgilamaydi. U bozordagi talab va taklifga qarab, xaridor bilan sotuvchining savdolashuvi asosida yuzaga keladi. Kelishilgan narxlar esa bozor munosabatlariiga xizmat qiladi. Narx pul bilan o‘lchanadi. Bozor iqtisodiyoti pulsiz bo‘lishi mumkin emas. Pul esa iqtisodiy munosabatlarning asosiy vositasi bo‘lib, iqtisodiyotda o‘ta muhim rol o‘ynaydi. Pul munosabatlari bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Pul oboroti, pul emissiyasi, qadri-qimmati, inflyatsiya, valyuta kursi kabi hodisalar iqtisodiy vaziyatning ko‘zgusi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotida tovar taqchilligi bo‘lmaydi, shu sababdan bozorda ishlab chiqaruvchi emas, balki iste’molchi (xaridor) o‘z izmini o‘tkazadi, tovar va xizmatlarni sifati va narxiga qarab tanlab olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ko‘rib chiqqanimizdek, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida narxning roli va ahamiyati juda katta.

Baho shakllanishida raqobat muhim o‘rin tutadi. Raqobatda yutib chiqish yoki yutkazish bahoni belgilashga ham bog‘liq. Raqobatlashuv jarayonida xaridor ko‘p bo‘lsa, yuqori narx tashkil topadi. Agar sotuvchilar ko‘p bo‘lib, ular raqobatlashishsa, past baholar vujudga keladi.

Raqobat kurashida xarajatlarni qoplamatdigan, binobarin, zarar keltiradigan o‘ta past baholar ham paydo bo‘ladi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xo‘jalikni oqilona yuritish esa moliyaviy aloqalar va qiymat qonunlaridan foydalanishni talab qiladi.

Ayrim buyumlarning bahosini o‘zgartirish evaziga davlat ularga bo‘lgan ehtiyojni hamda ularni xarid qilishni boshqaradi. Jumladan, inson sog‘lig‘iga putur yetkazuvchi mahsulotlarning narxini oshirish evaziga ularni xarid qilinishini chegaralash va aksincha, ba’zi oziq-ovqat mahsulotlarining narxini me’yorda ushlab turish orqali ehtiyojlarni to‘laroq qondirish mulohazamizga dalil bo‘la oladi.

15.2. Baho tushunchasi va uning funksiyalari

Nazariy jihatdan olib qaralganda, baho - tovar qiymatining puldag'i ifodasıdır. Amaliy jihatdan qaralganda esa, baho – muhim iqtisodiy vosita, dastak hisoblanadi. Ma'lumki, qiymat ishlab chiqarish kategoriyasi bo‘lib, ishlab chiqarishning o‘zidagi mehnat sarfi bilan bog‘liq munosabatlarni ifoda etadi. Tovarning yaratilishida moddiylashgan va jonli mehnat sarf qilinadi, ularning majmuasi qiymat demakdir. Ammo qiymat har qanday mehnat sarfi emas. Qiymat tovarni yaratishga ketgan ijtimoiy zarur mehnat sarfi, aniqrog‘i ehtiyojni qondira olgani sababli bozorda tan olingan mehnat sarfidir, chunki mehnatning bir qismini, agar u kerakli bo‘lmasa, bozor inkor etadi va shu

qism qiymatni yaratishda ishtirok etmaydi. Bozorda turli mehnat sarflari umumiy, ya’ni ijtimoiy zarur mehnat sarfiga keltiriladi va shu sarfning pulda ifodalaniши bahoni hosil qiladi.

Bahoning iqtisodiy mazmunini uning funksiyalari yaqqol ko‘rsatib beradi. Baho nimaga tegishli bo‘lishidan qat’iy nazar (tovar, xizmat, ish kuchi, qarz puli narxini, buning farqi yo‘q) besh asosiy funksiyani bajaradi:

1. Bozor muvozanatini ta’minalash funksiyasi. Bunda baho bozordagi talab va taklifning hajmi va tarkibiga ta’sir etish orqali ularni muvozanat holatiga keltiradi.

2. Hisob-kitob, o‘lchov funksiyasi. Baho qiymatning puldagi ifodasi, chunki bajarilgan ish hajmi, foyda-zararning barchasi baho asosida hisob-kitob qilinadi.

3. Iqtisodiy regulyator funksiyasi. Baho bozor iqtisodiyotining asosiy vositalaridan biridir. Undagi o‘zgarish bozor holati (kon’yukturasi)ni bildiradi.

4. Raqobat vositasi funksiyasi. Raqobat bozor iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. Baho vositasida bellashuv raqobatning asosiy ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Firmalar o‘z raqiblarini yengish, ularni bozordan siqib chiqarish uchun bahoni o‘zgartirib turadilar.

5. Ijtimoiy himoya funksiyasi. Baho ayrim aholi toifalarini kambag‘allikdan saqlash vazifasini o‘taydi. Odatda aholining nochor va muhtoj qatlamlariga tovarlar arzonlashtirilgan baholarda sotiladi. Bular ijtimoiy dotatsiyalangan baholar bo‘lib, ularni moliyaviy jihatdan davlat budgeti yoki budgetdan tashqari mablag‘lar ta’minalaydi. Dotatsiyalangan baholarni davlat belgilaydi.

15. 3. Bahoning turlari va tarkibi

Bozor iqtisodiyotining o‘ziga xos tizimi borki, u o‘zaro bog‘langan, bir-birini taqozo etuvchi, ammo turli maqsadlarda qo‘llanuvchi baholar majmuasidan tashkil topadi. Bahoning shakllanish jarayoni murakkab bo‘lib, uning ishtirokchilari g‘oyat ko‘pchilikni tashkil etadi. Baholar turli vazifalarni bajarganligi sababli ham ularning turi ko‘p.

Baholarning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:⁷⁰

1. Ulgurji baholar. Tovarlar ko‘tarasiga katta miqdorda sotilganda bu baholardan foydalilanadi. Bunday bahoni asosan ulgurji savdo-sotiq olib boriladigan savdo markazlarida uchratish mumkin.

2. Chakana baholar. Tovarlar bevosa iste’molchilarga sotilganda foydalilanadi. Bu baho o‘z ichiga tovar ulgurji narxini, chakana savdo tashkilotchilarining xarajati va foydasini oladi.

3. Nufuzli baholar. Bu baholardan obro‘ talab iste’molchilarga

⁷⁰ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.198.

tovarlar sotilganda va xizmatlar ko‘rsatilganda foydalaniladi.

4. Dotatsiyali baholar. Bunda tovarlar davlat budgeti hisobidan arzonlashtirilgan baholarda olinadi.

5. Davlat baholari. Bu ishlab chiqaruvchilarga davlat tomonidan buyurtma berilganda qo‘llaniladi.

6. Mavsumiy baholar. Bu mavsumiy ishlab chiqariladigan tovarlarga belgilanadi.

7. Milliy va jahon baholari. Alovida tovarning baynalmilal xarajatlari. Bunda jahon bozoridagi talab va taklif nisbati hisobga olinadi.

8. Standart baholar. Xaridor cho‘ntagidagi pulga qarab, ma’lum davrgacha o‘zgarmaydigan qat’iy standart narxlar qo‘llaniladi.

9. Preyskurant baholar. Bu baholar sotuvchi uchun mo‘ljal baho, xaridor uchun bildirishlik yoki ma’lumot baho hisoblanadi.

Ishlab chiqargan mahsulotni sotish uchun muzokaralarga tayyorgarlik ko‘rish mobaynida tadbirkor eng avvalo, o‘zi uchun maqbul bo‘lgan baho ko‘rsatkichlarini aniqlashga harakat qiladi. Shu maqsadda u bahoni uchga ajratadi. Ya’ni maksimal (eng yuqori), minimal (eng past) va obyektiv baho.

Maksimal baho - (sotuvchi nuqtai nazaridan) - bu muzokaralarni shu bahodan boshlash mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichidir.

Minimal baho - (qo‘shilishi mumkin bo‘lgan eng past baho) - bu tovar narxining shunday ko‘rsatkichiki, tadbirkor muzokaralar davomida undan tushmaslikka harakat qiladi.

Obyektiv baho - bu tarkibida o‘rtacha sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan u yoki bu tovarning o‘rtacha bahosidir.

Bahoning iqtisodiyotdagi o‘rni beqiyos katta bo‘lganidan uning har bir turidan oqilona foydalanish tadbirkorlik uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli korxonalar va firmalar narx, belgilashga katta e’tibor beradilar. Ular o‘zlarining narx strategiyasini ishlab chiqishda quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydilar:

- tovar sotishni ko‘paytirish;
- ko‘proq foyda olish;
- o‘rnini muayyan mavqeini saqlab qolish.

Tovar sotishni ko‘paytirishdan uch natija kutiladi: a) tovar sotishni ko‘paytirish orqali bozorda o‘z hissasini oshirish, imkon bo‘lganda bozorni o‘z nazoratiga olish; b) har bir tovarni (tovar birligini) sotishdan tushadigan foydaning kamayishiga rozi bo‘lgan holda tovarlarni ko‘plab sotish orqali keladigan yalpi foydani oshirish; v) tovarni ko‘p sotish natijasida uning hajmiga nisbatan savdo-sotiq xarajatlarini qisqartirish.

Bozordan raqiblarni surib chiqarib, o‘z mavqeini mustahkamlash uchun firmalar maxsus narx qo‘llaydilar, uni **bozorga kirib olish narxi** yoki **demping narx** deb ataladi.

Bu narx raqibni sindirishga qaratilganligidan davlat uni ta'qiqlaydi, shu sababli firmalar uni yashirin qo'llaydilar va bu ish rasmiy narxning bir qismini kechib yuborish shaklida bo'ladi.

Qisqacha xulosalar

1. Sanoat ishlab chiqarishi iqtisodiyotining eng muhim muammolaridan biri bu tarmoq korxonalarida tayyorlanadigan mahsuloti bahosini belgilashdir.

2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida baho sanoat tarmoqlari va korxona (firma)larning moliyaviy ahvoliga yetarli (sezilarli) ta'sir etuvchi eng muhim sintetik ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bu shu bilan tushuntiriladiki, korxona va uning mahsuloti raqobatbardoshligi bilan tijorat tashkiloti foydasining miqdori o'rtasida chambarchas bog'liqlik bordir.

3. Mahsulot bahosi juda ko'p omillarga bog'liq: mahsulotga bo'lgan talab, ishlab chiqaruvchining taklifi, davlatning narx siyosati, xarajatlar, raqobat va h.k.

4. Fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishda, mahsulot hajmini kengaytirishda va uning sifatini oshirishda, iste'molchilar ehtiyojini qondirishda baho bilan rag'batlantirishning roli beqiyosdir.

O'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar

1. Baho siyosati davlat iqtisodiy siyosatining ajralmas qismidir.

2. Baho va baholashning mohiyati, ahamiyati va mazmuni.

3. Baho funksiyalari.

4. Bahoning turlari.

5. Sanoat ishlab chiqarishida baholash tizimini yaxshilash yo'llari.

6. Xorijiy mamlakatlarda baho va baholash.

16-BOB. SANOAT ISHLAB ChIQARISHINI JOYLASHTIRISH

Tayanch atamalar va iboralar: sanoatni mamlakat hududida oqilona joylashtirish, hududiy mehnat taqsimoti, sanoat ishlab chiqarishini oqilona joylashtirish, ishlab chiqarishni joylashtirishning fundamental qoidalari, iqtisodiy rayonlar, konsentratsiyalash, ixtisoslashirish, kooperativlashtirish, kombinatlashtirish, ayrim sanoat tarmoqlarini joylashtirishdagi o‘ziga xos xususiyatlar, korxonalarini joylashtirish hududini tanlash, korxonani joylashtirish punktini asoslash, sanoatni joylashtirishdagi siljishlarning iqtisodiy samaradorligi

Reja:

- 16.1. Sanoatni joylashtirish tamoyillari**
- 16.2. Sanoatni joylashtirish omillari**
- 16.3. Ayrim sanoat tarmoqlarini joylashtirishdagi o‘ziga xos xususiyatlar**
- 16.4. Ayrim korxonalarini joylashtirishni iqtisodiy asoslash usuli**
- 16.5. Sanoatni joylashtirishdagi siljishlarning iqtisodiy samaradorligi**

16.1. Sanoatni joylashtirish tamoyillari

Sanoatni mamlakat hududida oqilona joylashtirish – jamiyat qurilishining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, respublika va har bir iqtisodiy rayon iqtisodiyotini yuqori darajaga ko‘tarish va rivojlantirishning zaruriy shartidir.

Ma’lumki, ishlab chiqaruvchi kuchlar va uning eng muhim elementi bo‘lgan sanoatni joylashtirishning asosiy qonuniylari ishlab chiqarish usuli bilan belgilanadi. Shu sababli hozirgi bozor munosabatlarini shakllantirishda, uning barcha tarmoqlarini joylashtirishda iqtisodiy islohotni davlat amalga oshirmoqda va bu uning tarkibiy qismi hisoblanadi hamda uni amalga oshirish milliy iqtisodiyotimizning hozirgi holati va strategik vazifalari bilan belgilanadi.

Sanoatni joylashtirish deganda, uni yer shari hududida, shuningdek, ayrim mamlakat yoki iqtisodiy rayonlarda taqsimlanishi tushuniladi.⁷¹

Sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish uning hududiy tashkil etish shakllarini ifodalaydi va u korxona (firma)larni ma’muriy va iqtisodiy rayonlarda joylashtirishda namoyon bo‘ladi.

Milliy iqtisodiyotning bu real sektorini joylashtirish ham bevosita hududiy mehnat taqsimoti bilan bog‘liq. Ijtimoiy mehnat taqsimoti unsuri bo‘lgan hududiy mehnat taqsimoti (HMT) soddarroq qilib aytganda, turli joylarning mamlakat yoki viloyatlar, tumanlar, shaharlarning har xil mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashishidir. Natijada ana shu joylarning iqtisodiy

⁷¹ Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.201.

«bashorati» shakllanadi va ularning hududiy tizimdagi o‘rni o‘z ifodasini topadi.

HMT keng ma’noda – bu ishlab chiqarish sohalarini (tarmoqlarini) hududning tabiiy sharoiti va boyliklari, aholisi, mehnat va boshqa resurslari kabi hamda mintaqa bozorining hajmi, aholisining sotib olish qobiliyati, infratuzilma va kommunikatsion tizimning rivojlanganligi darjasи kabi omillarga qarab joylashtirishini nazarda tutadi.

Sanoat ishlab chiqarishini oqilona joylashtirish - kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini yuqori sur’atlarda amalga oshirish, mamlakat tabiiy boyliklaridan har tomonlama samarali foydalanish va buning natijasida ijtimoiy mehnat unumdarligini yuksaltirish, har bir korxonada mahsulot tannarxini pasaytirish, mamlakat barcha iqtisodiy hududlarini bir tekis rivojlantirish, shahar va qishloq hamda sanoat va qishloq xo‘jaligi o‘rtasidagi tafovutni yo‘qotish, mamlakat mudofaa qobiliyatini oshirish imkonini beradi.

Sanoatning oqilona joylashishi transport va qishloq xo‘jaligining joylashishiga hamda yangi shahar va qishloqlarning paydo bo‘lishiga, ayrim iqtisodiy hududlarning muayyan mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha ixtisoslashuviga olib keladi.

Sanoatni iqtisodiy hududlar bo‘ylab joylashtirish ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ishlab chiqarish jarayoniga uzluksiz erishish, tejamkor ijtimoiy mehnat unumdarligi o‘sishi hamda aholining moddiy va madaniy faravonligining ko‘tarilishi sanoat ishlab chiqarilishini joylashtirishning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi mezonidir.

Ishlab chiqarishni joylashtirishning fundamental qoidalari, ya’ni tamoyillari mavjud bo‘lib, ular ishlab chiqarish kuchlarini, xususan, sanoatni mamlakat bo‘yicha oqilona joylashtirish, iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- sanoat ishlab chiqarishini avvalambor xomashyo, yoqilg‘i-energetika manbalariga yaqin va nihoyat, sanoat mahsulotlarini iste’molchi hududularga tobora yaqinroq joylashtirish;

- iqtisodiy hududlar o‘rtasida mehnatni oqilona taqsimlash va iqtisodiy hududlar xo‘jaligining majmuali rivojlanishini ta’minalash;

- har qaysi viloyat va tumanlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini baravarlashtirishga intilish;

- sanoat tarmoqlarini joylashtirishda respublikaning mudofaa strategiyasiga asoslanish;

- mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarda o‘zaro teng manfaatli munosabatlarni o‘rnatish, xalqaro mehnat taqsimoti negizida samaradorlikka erishish, jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvni jadallashtirish;

-sanoat korxonalarini joylashtirishda hududning ekologik vaziyatini hisobga olish, atrof – muhitga chiqindilar chiqarishning me'yoriy normalariga asoslanish va hokazo.

Yuqorida keltirilganlardan ma'lumki, sanoat ishlab chiqarishini xomashyo manbaiga va iste'molchi hududlarga yaqin joylashtirish sanoatni oqilona joylashtirishning eng muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Sanoatning xomashyo bazasiga yaqin bo'lishi qayta ishlashning barcha tadrijiy bosqichlarida ushbu resursni qayta ishlashdan tortib, yarim fabrikatdan tayyor mahsulot olishga qadar, mehnatning eng kam sarflash imkoniyatini nazarda tutadi. Masalan, elektroenergetika ko'pincha suv yoki yoqilg'i bazasida rivojlanadi, to'qimachilik sanoati xomashyo manbaiga yaqinlashtiriladi, oziq-ovqat sanoati esa ko'proq iste'molchi hududlarda joylashtiriladi. Sanoatni xomashyo va yoqilg'i-energetika manbaiga yaqinlashtirish hududlarda mavjud resursslarni qayta ishlash sohasiga jalg etish, korxona (firma)larning oqilona o'lchamini (razmerini) belgilash imkoniyatini beradi. Xomashyo, yoqilg'i va tayyor mahsulotni uzoq masofaga tashishni kamaytiradi va shu asosda ijtimoiy mehnatni anchagina tejashga olib keladi.

Sanoatning xomashyo, yoqilg'i-energetika manbalari va iste'molchilarga yaqin joylashtirilishi sanoat ishlab chiqarishini mamlakat bo'ylab bir tekis taqsimlanishini ta'minlamaydi. Chunki mamlakat bo'ylab ishlab chiqarish resursslari notekis taqsimlangan.

Sanoatni bir tekisda joylashtirish sanoat taraqqiyotining bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos sifat xususiyati. Lekin uning barcha sohalarini duch kelgan hududga majburan joylashtirish tavsiya etilmaydi. Hududlarning sanoat rivojlanishi orasida bunday tenglikka erishish ko'p hollarda bir qator sanoat korxonalarini ularga tegishli shart-sharoitlar yo'q hududlarga sun'iy ravishda joylashtirishga, ijtimoiy mehnatning ortiqcha xarajatlariga olib kelishi mumkin.

Sanoatni xomashyo va yoqilg'i-energetika manbaiga yaqinlashtirish va ishlab chiqarishni mamlakat hududi bo'ylab bir tekis joylashtirish intensiv ravishda ro'y beradigan fan-texnika taraqqiyoti imkoniyat tug'diradi. Elektronizatsiyalashtirishning har taraflama rivojlanishi, ishlab chiqarishni kompyuterlashtirish, yangi texnologiyalardan keng foydalanish, sanoat ishlab chiqarishining tabiiy geografik muhitga tobelligini, qaramligini susaytiradi, sanoatni joylashtirish punktlarini ancha erkin (puxta) tanlab olishga moddiy-texnik shart-sharoitlar yaratib beradi. Elektronizatsiyalash va kimyo lashtirish ishlab chiqarish sohasiga yangidan-yangi materiallarni, ishlab chiqarish chiqindilarini, ikkilamchi resursslarni jalb etadi. Xomashyodan majmuali foydalanish turli xildagi ishlab chiqarishlarni birlashtiradi.

Fan-texnika taraqqiyoti geologik - qidiruv ishlarini kengaytirishga, mamlakatning turli hududlarida mineral xomashyoning yangi konlarini

ochishga imkoniyat tug‘diradi. Sanoatni joylashtirish rejasi, yangi korxonalar va hududiy ishlab chiqarish majmualari joylashtiriladigan hududlar va punktlari tanlanishining har tomonlama iqtisodiy asoslanishini talab qiladi.

Sanoatni joylashtirishning iqtisodiy samaradorligi ijtimoiy mehnat unumdorligida namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy rayonlar o‘rtasida mehnatni oqilona taqsimlash va iqtisodiy rayonlar xo‘jaligining majmuali rivojlanishi sanoatni joylashtirishning muhim tamoyili bo‘lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy rayonlar xo‘jaligining majmuali rivojlanishi hududlarning o‘zaro mehnat taqsimoti natijasida o‘ziga xos ixtisoslashuviga olib keladi. Ayrim iqtisodiy rayonlarning ixtisoslashuvi ularda mavjud bo‘lgan tabiiy boyliklarga va ushbu boyliklardan iqtisodiyot miqyosida oqilona foydalanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Mamlakat ichki resurslaridan to‘liq va samarali foydalanish har bir hududning respublika miqyosida ayrim bir turdagи mahsulot ishlab chiqarishiga ixtisoslashuvini talab qiladi va shu bilan birga har bir hududda shu hudud talablarini qondiradigan tarmoqlar rivojlanishiga olib keladi.

Ishlab chiqarishni joylashtirishning yana bir muhim tamoyili - mamlakatlararo do‘stlik va o‘zaro iqtisodiy yordam asosida tashkil topgan xalqaro mehnat taqsimotidir. Bunday mehnat taqsimoti har bir mamlakatda oqilona iqtisodiyot tarkibini barpo etish va rivojlanishi uchun tabiiy va iqtisodiy jihatdan qulay sharoitga ega bo‘lgan sanoat tarmoqlarining ixtisoslashuvini ta’minlaydi.

16.2. Sanoatni joylashtirish omillari

Yuqorida qayd qilingan tamoyillarni amalga oshirishda korxonalar va hududiy ishlab chiqarish majmualari joylashtiriladigan joylarni tanlashga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar e’tiborga olinadi.

Sanoatni joylashtirishga tabiiy va texnik-texnologik, demografik, iqtisodiy, ekologik omillar, ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qilish shakllari, transport vositalari, ishlab chiqarishni joylashtirish xarakteri ta’sir ko‘rsatadi.

Tabiiy omillarga: foydali qazilmalar, gidroenergetika va o‘rmon boyliklarining miqdor va sifat ko‘rsatkichlari, hududning iqlim sharoitlari, tabiiy suv yo‘llari hamda mehnat resurslarining joylashishi kiradi. Yuqoridagi barcha omillar ekologik omil bilan hisoblashishlari shart. Hozirgi ekologik vaziyat shuni taqozo etadi. Tog‘-kon sanoati va gidroenergetika tarmoqlarida tabiiy sharoit korxonalarining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatadi va bu tarmoq korxonalarini joylashtirish foydali qazilmalar va gidravlik resurslar joylanishiga bog‘liq bo‘ladi. Qora metallurgiya va kimyo sanoati korxonalarining joylashishi asosan suv resurslariga bog‘liq.

Aholi va ishlab chiqarishning joylashishi o‘rtasida o‘zaro mustahkam aloqa mavjud. Mehnat resurslarining geografik joylashishi, avvalo, ko‘p mehnat sarflanadigan sanoat tarmoqlarining joylashishiga ta’sir etadi.

Shuning uchun aholi siyrak bo‘lgan hududlarda ko‘p mehnat talab qiladigan sanoat tarmoqlari (asbobsozlik, radiotexnika, yengil sanoat) joylashtirilmaydi.

Sanoat tarmoqlarini joylashtirishda ayrim hududlar mehnat resurslarining tarkibi va tuzilishi hamda malakaviy darajasi muhim ahamiyatga ega. Masalan, mashinasozlikning (avtomobilsozlik, asbobsozlik, aniq mashinasozlik) yuqori malaka talab qiluvchi tarmoqlari shunday malakali kadrlar bor yerda joylashtiriladi, xotin-qizlar mehnatini talab qiluvchi yengil sanoat aholining zich va ayollar ishchi kuchi taklifi yuqori bo‘lgan hududlarda rivojlantiriladi.

Fan-texnika taraqqiyoti hamma sanoat tarmoqlarini joylashtirishning asosiy omili hisoblanadi. Kimyolashtirish sanoatni joylashtirishga tobora ko‘proq ta’sir ko‘rsatmoqda. Kimyoviy usullarni qo‘llash sanoatning joylashishiga iqlim ta’sirini kamaytirmoqda, natijada sanoatning respublika hududi bo‘ylab bir tekis joylashuviga sharoit yaratmoqda. Sanoatning joylashishiga texnologik jarayonlar xarakteri ham ta’sir etadi. Birinchidan, ishlab chiqarish texnologiyasi talab qilinadigan xomashyo va energiya xarakteri, ishlab chiqaruvchi tayyor mahsulot turi va xususiyatlari, xomashyo va tayyor mahsulotni tashish sharoitlarining o‘zgarishiga bog‘liq. Ikkinchidan, hududning o‘ziga xos xususiyatlari joylashtirilayotgan korxonalarining texnologik jarayonini tanlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Yer osti boyliklarini qazib chiqarish va xomashyo hamda yoqilg‘ini boyitish texnologiyasining takomillashuvi tog‘-kon sanoatini tekis joylashtirish imkonini beradi. Ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish mahsulotga sarflanadigan mehnatni kamaytiradi. Shu tufayli kompyuter texnologiyasiga asoslangan korxona (firma)larni aholi siyrak hududlarga joylashtirilsa, katta samara olish mumkin.

Sanoatni joylashtirishda – konsentratsiyalash, ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish va kombinatlashtirish kabi ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qilishning progressiv shakllari katta rol o‘ynaydi. Ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi natijasida korxona iste’mol qilishi uchun juda katta xomashyo va energetika bazasini vujudga keltirish, korxona mahsulotini iste’mol qiluvchi hududni kengaytirish talab qilinadi.⁷² Natijada transport xarajatlari oshib ketadi, korxonalarini joylashtirish nuqtasi va maydonini tanlash masalasi ancha qiyinlashadi. Shu sababli hozirgi bozor sharoitiga o‘tishda yirik korxonalarini joylashtirish o‘rniga o‘rta va kichik korxonalarini asoslashda transport omilini hisobga olish kerak bo‘ladi.

Ixtisoslashtirish ham sanoatni joylashtirishga xuddi konsentratsiyalashtirish kabi ta’sir ko‘rsatadi, chunki ixtisoslashtirish bir

⁷² Ортиков А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – Б.205.

turdagi mahsulot ishlab chiqarishni mujassamlashtirishdan iboratdir. Shuning uchun ixtisoslashtirish darajasi oshgan sari transportga talab ortib boradi. Korxona (firma)larni u yoki bu hududga joylashtirishda bunday xarajatlarning miqdorini albatta, hisobga olish kerak.

Korxonalarini kooperativlashtirishning sanoatni joylashtirishga ta'sirini hududiy ishlab chiqarish majmularini barpo qilish misolida ko'rish mumkin. Hududiy sanoat majmui uzoq vaqt o'zaro kooperativlashgan aloqa qiluvchi har xil sanoat tarmog'iga xos bo'lgan bir qator korxonalardan iborat. Kooperativlash omilini hisobga olmay turib joylashtiriluvchi obyekt yoki majmualarning iqtisodiy samaradorligini to'g'ri aniqlash mumkin emas.

Ishlab chiqarishni kombinatlashtirish sanoatni joylashtirishga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Kombinatlar – yuqori mujassamlashgan korxonalar. Shuning uchun ularni joylashtirish mujassamlashtirishga o'xshashdir.

Respublika mudofaa qobiliyatini yanada yuqori darajaga ko'tarish sanoatni joylashtirishni tashkil etishda albatta e'tiborga olinishi kerak bo'lgan muhim omillardan biri hisoblanadi.

Sanoatni joylashtirishga oldindan meros qolgan ishlab chiqarishni joylashtirish xarakteri ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, dastlab tashkil etilgan hunarmandchilik markazlari, ular infratuzilmasining shu yerning o'zida yoki shu hududga yaqin bo'lgan joylarda barpo etilishi zaruratini tug'diradi.

16.3. Ayrim sanoat tarmoqlarini joylashtirishdagi o'ziga xos xususiyatlar

Ayrim sanoat tarmoqlarining o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlari ishlab chiqarishni joylashtirishga aloqadordir. Shuning uchun ayrim tarmoqlarni joylashtirishni rejalashtirish va iqtisodiy asoslashda ularning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish zarur.

Elektr stansiyalarini joylashtirishda mineral yoqilg'ilarni tashish mumkin bo'lgan holda, suv resurslarini ko'chirish mumkin emasligi hisobga olinadi.

Qora metallurgiya sanoati korxonalarini joylashtirishda uning xomashyo bazasi, ishlab chiqariladigan mahsulot nomenklaturasi, korxona turi, tarmoqning suvgaga talabi hamda yirik metallurgiya kombinatlarining boshqa tarmoqlar joylashishini va yirik shaharlar paydo bo'lishini e'tiborga olish zarur.

Kimyo sanoatining turli tarmoqlarini joylashtirishda zamonaviy kimyo texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni kimyo sanoatiga tegishli xomashyoning ko'pligi, energetika resurslari hamda ko'p tarmoqlarning chiqindilarini majmuali tarzda qayta ishlash, bir turdag'i xomashyodan turli va bir turdag'i mahsulotlarni har xil xomashyodan olish, sintetik materiallarni barcha iqtisodiy hududlarda ishlab chiqarish mumkinligi hisobga olinadi.

Mashinasozlik sanoatini joylashtirishda ishlab chiqariladigan mahsulot xususiyatlari, tarmoqning metallga bo'lgan talabi, ularni tashish masalalari,

ayrim iqtisodiy rayonlar sanoatining ixtisoslashuvi, iqtisodiy hududlarning industrial rivojlanish darjasи, mashinasozlik korxonalarida ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va kooperativlashtirish, mashinasozlik sanoati mahsulotlariga barcha hududlarda talabning doimiyligini e'tiborga olish zarur.

Yengil sanoat, oziq-ovqat sanoatining ko'pgina tarmoqlari mamlakatning barcha iqtisodiy rayonlarda, ayrim tarmoqlar esa muayyan hududlarda joylashadi. Bular – tikuvchilik, trikotaj, poyafzal, qandolat, unyorma, makaron mahsulotlaridir. Non va alkogolsiz ichimliklar sanoati esa har bir aholi punktida joylashtirilishi kerak.

Yuqorida ko'rsatilgan tarmoqlar va to'qimachilik sanoati iste'mol bozori doirasi keng hududlarda joylashadi. Bunga sabab xomashyoni tayyor mahsulotga nisbatan tashish osonroq, tayyor mahsulot assortimenti iste'mol qiluvchi ma'lum hudud aholisining jinsiy va yosh jihatdan tarkibiga, milliy mentalitetiga bog'liq bo'lishidir. Xomashyo bazasiga yaqin joyda esa shakar, yog'-moy, konserva, spirt, vinochilik, paxta tozalash va shu kabi tarmoqlar joylashadi. Shunday qilib, korxonalarni joylashtirishni rejallashtirish va iqtisodiy asoslash paytida har bir tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini to'g'ri hisobga olish, ishlab chiqarishni joylashtirishning umumiyligi tamoyillariga tayanish butun sanoatni joylashtirishning yuqori samaradorligini ta'minlash imkonini beradi. Natijada ijtimoiy mehnat unumdoorligi oshadi. Bu esa milliy iqtisodiyotning rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi.

16.4. Ayrim korxonalarini joylashtirishni iqtisodiy asoslash usuli

Sanoat korxonasini joylashtirish hududi va joyini tanlash yangi quriladigan korxona hajmi va ixtisoslashishini hamda yangi qurilayotgan korxonalarning ishlab turgan, loyihalanayotgan korxonalar bilan aloqalarini aniqlash sanoat korxonalarini faqat to'g'ri geografik joylashtirishning muhim masalalarigina bo'lib qolmay, balki yangi va ishlab turgan korxonalarini rekonstruksiya qilishni loyihalashning ham muhim masalasidir. Loyihaning yuqoridagi masalalariga bag'ishlangan qismi qolgan barcha qismlarining ishlashi uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Bu qismda korxonani mazkur joyda qurishning maqsadga muvofiqligi, xomashyo, yoqilg'i, energiya va suv manbalari, loyihalanayotgan korxonaning qiymati va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari aniqlanadi:

a) korxonalarini joylashtirish hududini tanlash;

Sanoat korxonasini qurish uchun tanlangan hudud (iqtisodiy hudud) quyidagi talablarga javob bermog'i lozim: hududda xomashyo, yoqilg'i, asosiy va yordamchi mahsulotlar mavjud bo'lmog'i kerak hamda loyihalashtirilayotgan korxona mahsulotiga yetarli talab bo'lishi zarur. Bundan tashqari, qurilayotgan korxona uchun tanlangan hudud ishlab chiqarish kuchlari majmuasi rivojlanishini va mahalliy xomashyo, energetika

resurslaridan to‘la foydalanishni ta’minlashi lozim. Tanlangan hududda quriladigan korxonalar ular mansub bo‘lgan tarmoqlarning mamlakat hududi bo‘ylab bir tekis joylashishini ta’minlanmog‘i kerak.

b) korxonani joylashtirish punktini asoslash;

Yangi korxonani joylashtirish hududi har tomonlama iqtisodiy asoslanib bo‘lgach, shu hudud ichida korxona qurilish o‘rni (punkt) belgilanadi. Korxonani joylashtirish punkti to‘g‘ri tanlanganligi qurilishning qancha davom etishiga, uning qiymatiga va korxonaning istiqbolda iqtisodiy samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Korxonani joylashtirish punktini asoslashda yirik shaharlarda sanoatning haddan tashqari, mujassamlashib ketishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligiga, korxonalarni yagona energetika va umumiyligini kommunikatsiyalarga ega bo‘lgan ishlab chiqarish shaklida qurish maqsadga muvofiqligiga, aholi joylarining rivojlanishini hamda qabul qilingan sanitariya-gigiyena talablari va normalariga rioya qilinishi zarur.

Tanlangan qurilish punkti transport xarajatlari kam bo‘lishi uchun xomashyo manbaiga va iste’mol joylariga maksimal yaqin bo‘lmog‘i lozim. Punktni tanlashda korxonani qurish uchun maydonni tanlash va uni iqtisodiy baholash alohida ahamiyat kasb etadi. Maydon gorizontal yuzaga ega bo‘lmog‘i lozim. Barcha binolar, inshootlar, korxona, transport xo‘jaligini maydonda ratsional joylashtirish, kelajakda kengaytirish, temir yo‘l magistraliga oson qo‘shilish, suv bilan oson ta’minlanish va ortiqcha suvlarni oqizib yuborish, yaqin oraliqda joylashgan aholi punktiga ega bo‘lgan sanitariya-gigiyena talablariga javob berishi zarur.

16.5. Sanoatni joylashtirishdagi siljishlarning iqtisodiy samaradorligi

Mustaqillik yillarida sanoat ishlab chiqarishini joylashtirishda yirik o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ayrim hududlar o‘rtasida yangidan-yangi aloqalar o‘rnatildi, ularning o‘zgarishlar davrigacha bo‘lgan ixtisoslanishi tubdan o‘zgardi. Sanoatda qayta ishlash uchun yangi hududlarda joylashgan bir qator foydali qazilma konlari ishga tushirildi. U yerlarda kuchli sanoat majmualari tashkil topdi. Bu o‘zgarishlar yuqorida aytib o‘tilgan sanoatni joylashtirish tamoyillari O‘zbekiston davlatining iqtisodiy strategiyasi va taktikasi asosida ro‘y berdi va bu ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining oshirilishiga olib keldi.

Sanoatni joylashtirishda ro‘y beradigan tub o‘zgarishlarning iqtisodiy samaradorligi ko‘pgina ko‘rsatkichlar yordamida hisobga olinadi. Lekin, bu o‘zgarishlarning bir qismini miqdor jihatdan o‘lchash mumkin emas, chunki ular siljishlarning sifat jihatidan natijasini ko‘rsatadi. Bular qatoriga yangi hududlarning juda katta foydali qazilma resurslarini sanoatda foydalanish uchun ishga tushirish, ilgari nisbatan qoloq hududlarning industrial va agrar hududlarga bo‘linishini yo‘qotish va shu kabilar kiradi.

Sanoat joylashishidagi siljishlarning iqtisodiy samaradorligini miqdor jihatdan hisoblashda birinchi navbatda iqtisodiyotga sarflangan kapital mablag‘lar samaradorligini oshirish ko‘zda tutiladi.

Sanoatni joylashtirishdagi siljishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashning muhim ko‘rsatkichlaridan yana biri mehnat unumdoorligining oshishidir. Respublikaning markaziy hududlarida joylashgan bir qator tarmoq korxonalari boshqa hududlardagi korxonalarga nisbatan yuqoriq mehnat unumdoorligiga ega. Lekin boshqa hududlarda qurilayotgan korxonalar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy muammolarni hal etadilar.

Sanoatni joylashtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlaydigan yana bir ko‘rsatkich mahsulot tannarxidir. Boshqa hududlarda joylashgan korxonalar mahsulotining tannarxi rivojlangan hududlardagi korxonalarnikidan bir muncha past bo‘lishi mumkin. Lekin bunday yuqotish mamlakat miqyosida amalga oshirilayotgan iqtisodiy – ijtimoiy taraqqiyot tufayli barham topadi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan amalga oshirilgan anchagina siljishlar bilan birga, mustaqillikka erishilgungacha mamlakat sanoatini joylashtirishda yo‘l qo‘ylgan bir qator kamchiliklar hali ham to‘la barham topgani yo‘q. Hududlar ichra va hududlararo kooperativlashtirishda ham bir qator muammolar mavjud. Bularning barchasi sanoat mahsulotlarining asosiy turlarini xomashyo va yoqilg‘ini nihoyatda uzoq va qarama-qarshi taraflarga tashish zaruratini tug‘dirishi natijasida ijtimoiy mehnat unumdoorligining ko‘tarilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois bozor iqtisodiyotining keyingi bosqichiga o‘tish davrida sanoatni oqilona joylashtirish masalasiga katta e’tibor berish kerak bo‘ladi.

Sanoatni joylashtirish borasidagi muammolarni hal etish uchun quyidagi masalalarga alohida e’tibor berish kerak:

- respublikada ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish bozor sharoitiga mos ravishda olib borilishi, uning tabiiy boyliklaridan oqilona va samarali foydalanish hamda kooperativlashtirish afzalliklaridan to‘la-to‘kis foydalanish;

- kichik va o‘rtaligining tegishli sanoat korxonalarini qishloqlarda yaratish, ayniqsa qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini olib kirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi;

- sanoat obyektlarining qurilish muddatini qisqartirish va ulardan foydalanish xarajatlarini keskin kamaytirish;

- tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish sharoitlarini yaratish va h.k.

Sanoat obyektlarini joylashtirish samaradorligini aniqlashda kapital qo‘yilmaning iqtisodiy samaradorligini aniqlashning rasmiy usulidan foydalanish mumkin. Bu usulga binoan sanoat korxonasini joylashtirishning iqtisodiy jihatdan eng qulay loyiha-mahsulot birligiga sarflanadigan ijtimoiy mehnat kamayishini ta’minlovchi variant tanlab olinadi. U quyidagi formula

bilan ifodalanadi:

$$X = T + Ye_k \cdot K,$$

bu yerda:

T – muayyan hudud sharoitida tayyorlanadigan mahsulotning to‘la tannarxi;

Ye_k – kapital qo‘yilmaning normativ qiyosiy samaradorlik koeffitsiyenti;

K - ishlab chiqarish quvvatini yaratish uchun lozim bo‘lgan kapital qo‘yilma miqdori.

Sanoat obyektlarini joylashtirishning qiyosiy samaradorligini aniqlash kapital qo‘yilma va mahsulot tannarxini hisoblashni va boshqa sharoitlarni ham batafsil aniqlash hamda har tomonlama taqqoslashni va barcha imkoniyatlarni nazarda tutishni taqozo etadi.

Qisqacha xulosalar

1. Sanoatni oqilona joylashtirish – ishlab chiqarishni izchil rivojlanadirish va mamlakat mudofasini mustahkamlashning muhim shartlaridan biridir.

O‘zbekistonda erishilgan mustaqillik va uni mustahkamlash mamlakat sanoatini hududlar bo‘yicha geografik joylashtirishga tubdan o‘zgartirishlar kiritdi. Sanoatni joylashtirish O‘zbekiston davlatining iqtisodiy strategiyasi va taktikasi, iqtisodiyotning qonuniyatları bilan bog‘liq bo‘lgan tamoyillar asosida amalga oshirilmoqda. Sanoatni xomashyo manbalariga va mahsulotni iste’mol qiluvchi hududlarga yaqinlashtirish mamlakat tabiiy resurslaridan maqsadga muvofiq foydalanish, xomashyo va tayyor mahsulotni tashishda juda katta tejamkorlikka erishish, mehnat unumdarligini oshirish va ishlab chiqarish sarflarini kamaytirishga imkoniyat tug‘dirmoqda.

2. Sanoatning alohida tarmoqlarini joylashtirishning xarakterini aniqlashda tarmoq xususiyatlari jumladan, ishlab chiqariladigan mahsulot xizmati (ishi, vazifasi), iste’mol qilinadigan xomashyo materiallari va ularni qayta ishlash texnologiyasining xususiyatlari, korxonaning tipi, ushbu tarmoqning iqtisodiy rayon ixtisoslashuvi va shaharlar tashkil topishiga ta’sir darajasi hisobga olinadi.

3. Sanoatni joylashtirish jarayonida, hudud va obyektning qurilish joyini tanlashni asoslashda korxona qurilishining va ushbu obyektni kelajakda ishlatalishning ham maksimal tejamkorligini nazarda tutish kerak bo‘ladi. Ayniqsa, yangidan yaratilayotgan korxona uchun maydon tanlash iqtisodiy jihatdan puxta asoslanishi kerak bo‘ladi.

O‘z-o‘zini nazorat qilishga oid savollar

1. Sanoat ishlab chiqarishini joylashtirishning mohiyati va ahamiyati.
2. Sanoatni joylashtirishning tamoyillari (fundamental qoidalari).
3. Sanoatni joylashtirishga ta’sir etuvchi shart-sharoitlar.

4. Tarmoqlarni joylashtirishdagi o‘ziga xos xususiyatlar.
5. Sanoat ishlab chiqarishini joylashtirishdagi siljishlar va istiqboldagi vazifalar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 07.02.2017 йилдаги ПФ-4947-сон Фармони
2. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тўғрисида”ги Қонуни (янги таҳрири). 2003 йил 29 август, 524-II-сон
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги 2017 йил 30 ноябрдаги ПҚ-3416-сон Қарори
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 12 сентябрдаги 395-сон қарори билан тасдиқланган Марказлаштирилган манбалар ҳисобига қурилишни ташкил этиш, молиялаштириш ва кредитлаш тартиби тўғрисида Низомга ва Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 7 июндангি 263-сон қарори билан тасдиқланган Бюджетдан ташқари Мактаб таълими жамғармаси маблағларини шакллантириш ва улардан фойдаланиш тартиби тўғрисида Низом
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иш ҳақи, пенсиялар, стипендиялар ва нафақалар миқдорини ошириш тўғрисида”ги 2017 йил 20 ноябрдаги ПФ-5245-сон Фармони
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Мехнатга ҳақ тўлашнинг ягона тариф сеткасини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги 2009 йил 21 июль, 206-сон Қарори.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 22.12.2016 й.даги “Саноат тармоқлари корхоналарининг жисмоний ишдан чиқсан ва маънавий эскирган машина-ускуналарини жадал янгилаш, шунингдек, ишлаб чиқариш харажатларини камайтиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-2692-сон Қарори;
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 20.05.2016 й.даги “2016 — 2020 йилларда рангли ва нодир металларни чукур қайта ишлаш негизида экспортга йўналтирилган тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кўпайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2533-сон Қарори;
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 15.06.2016 й.даги “2016 — 2020 йилларда минерал-хом ашё ресурсларини чукур қайта ишлаш негизида экспортга йўналтирилган тайёр кимёвий маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кўпайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2547-сон Қарори
10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 5 февралдаги 54-сон қарори билан тасдиқланган «Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатларининг таркиби

ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисида»ги Низом

11. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Фойдаланилмаётган асосий воситаларни, қурилиши тугалланмаган обьектларни консервация қилиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 2003 йил 16 сентябрдаги 401-сон қарорига илова
12. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Капитал қурилишда хўжалик муносабатлари механизмини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2003 йил 12 сентябрдаги 395-сонли қарорининг 3-иловаси.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2003 йил 6 майдаги ПФ-3240-сонли “Капитал қурилишда иқтисодий ислоҳотларни янада чукурлаштиришнинг асосий йўналишлари тўғрисида” ги Фармони
14. Каримов И.А. Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишининг ўзига хос йўли. – Т.: «Ўзбекистон», 1993.
15. Каримов И.А. «Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини ишлаб чиқиши» комиссиясининг 1997 йил 5 июнида бўлиб ўтган мажлисидаги нутқи, «Халқ сўзи», 6 июнь 1997 йил.
16. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишлиланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. – Тошкент, 2016. 56-б.
17. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишлиланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январь. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 104 б.
18. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. 488-б.
19. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга мурожаатномиси. // Халқ сўзи. 2017 йил 23 декабрь.
20. Ортиқов А. «Саноат иқтисодиёти». Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006 – 220 бет.
21. «Темур тузуклари». – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. 24 бет
22. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1 жилд. – Т.: «Давлат илмий нашриёти», 2000. – 288 бет

23. Тўхлиев Н. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёти.– Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1998. – 240 бет.
24. Гаибназарова З.Т. Инновацион инвестициялаштириш самарадорлигини ошириш.-Т.: ТошДТУ, 2013.-124 б.
25. Ўзбекистонда меҳнат ва бандлик. Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси Статистика Кўмитаси. Тошкент 2016. 144 бет.
26. Ўзбекистон Саноати. Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Кўмитаси. Тошкент 2016. 144 бет.
27. Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Кўмитаси. Тошкент 2015. 344 бет.
28. Ўзбекистон Саноати. Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Кўмитаси. Тошкент 2014. 148 бет;
29. Ўзбекистонда қурилиш. Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси. Тошкент 2016. 178 бет.
30. Ўзбекистон рақамларда. Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси. Тошкент 2016. 139 бет.
31. Мирзиёев мамлакатимиз қурилиш соҳаси ходимларига табрик йўллади. <http://darakchi.uz/uz/31745> (27.12.2017й.да мурожаат қилинган)
32. <http://uza.uz/oz/society/atom-energetikasi-bar-aror-tara-iyet-kafolati-08-10-2018>
33. <http://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/940018>
34. <http://gigabaza.ru/doc/789-p3.html>
35. http://cci.uz/pg/okonx_uz.php
36. <http://www.biznes-daily.uz/uz/gazeta-birja/42413-iqtisodiy-faoliyat-turini-tasniflashning-yangi-tizimi>
37. <https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2035-ilm-va-fan>
38. <https://studlib.info/proizvodstvo/1810835-klassifikaciya-rabotnikov-predpriyatiya/>

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-BOB. “INDUSTRIAL IQTISODIYOT” FANIGA KIRISH	5
1.1. Fanning obyekti. Industrial iqtisodiyotning ta’rifi	5
1.2. Fanning predmeti va boshqa fanlar bilan bog‘liqligi	6
1.3. Fanning o‘rganish metodikasi va usullari	8
1.4. Fanning zamonaviy shart-sharoitga xos vazifalari	10
2- BOB. SANOAT - MILLIY IQTISODIYOTNING YETAKCHI TARMOG‘I	13
2.1. Sanoatning ta’rifi va tavsifi	13
2.2. Sanoat va uning milliy iqtisodiyot rivojidagi roli va o‘rnii	15
2.3. Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi tarixi	21
3- BOB. SANOAT TARMOQ TUZILMASI VA TARKIBIY SILJISHLAR	24
3.1. Tarkibiy siyosat, uning mohiyati va ahamiyati	24
3.2. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va sanoat tarmog‘ining shakllanishi	28
3.3. Sanoat tarmoq tuzilmasi va uni belgilovchi omillar	30
3.4. O‘zbekiston sanoatining tarmoq tuzilmasi xususiyatlari	34
3.5. Tarmoq tuzilmasi o‘zgarishining asosiy tendensiyasi	78
4- BOB. SANOATDA ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMI	83
4.1. Boshqaruv obyektiv zarurat va maqsadga yo‘naltirilgan jarayon sifatida	83
4.2. Boshqaruvning asosiy tamoyillari va usullari	88
4.3. Boshqaruvning zamonaviy tuzilishi	93
4.4. Boshqarishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari	97
5- BOB. SANOAT ISHLAB CHIQARISHINI REJALASHTIRISH VA PROGNOZLASH	100
5.1. Rejalashtirish va prognozlashning mohiyati, ahamiyati va vazifalari	100
5.2. Rejalashtirishning tamoyillari va usullari	104
5.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalar tizimi	107
5.4. Ishlab chiqarish rejasini tuzib chiqish va tasdiqlashni tashkil etish	110
5.5. Rejalashtirishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari	112
6 - BOB. SANOAT ISHLAB CHIQARISHINING IQTISODIY VA IJTIMOIY SAMARADORLIGI	115
6.1. Samaradorlik sanoat ishlab chiqarishining «ko‘zgusi» sifatida. Bozor munosabatlari sharoitida samaradorlikning o‘rni va ahamiyati	115
6.2. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezon va	116

	ko‘rsatkichlari	
6.3.	Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning omillari va yo‘llari	121
7- BOB.	SANOATDA FAN-TEXNIKA TARAQQIYOTI VA INNOVASION FAOLIYAT	124
7.1.	Fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati	124
7.2.	Fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari	128
7.3.	Fan-texnika taraqqiyotining samaradorligini baholash	134
7.4.	Innovatsion faoliyat va uni investitsiyalash masalasi	137
8- BOB.	IShLAB ChIQARISHNI IJTIMOIY TASHKIL ETISH	144
8.1.	Sanoatda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning shakllari va ularning o‘zaro bog‘liqligi	144
8.2.	Konsentratsiyalashtirish, uning shakllari va ko‘rsatkichlari	145
8.3.	Ixtisoslashtirish, uning shakllari va ko‘rsatkichlari	147
8.4.	Kooperativlashtirish, uning shakllari va ko‘rsatkichlari	149
8.5.	Kombinatlashtirish, uning shakllari va ko‘rsatkichlari	151
9- BOB.	SANOATDA KADRLAR VA MEHNATGA HAQ TO‘LASH	154
9.1.	Kadrlar siyosati va uning sanoat taraqqiyotidagi roli	154
9.2.	Kadrlar, ularning tarkibi	157
9.3.	Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish	159
9.4.	Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash	160
9.5.	Mehnat va unga haq to‘lash.	161
10- BOB.	SANOAT ISHLAB ChIQARISHINING ASOSIY FONDLARI VA ISHLAB ChIQARISH QUVVATLARI	172
10.1.	Asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, tarkibi va tuzilishi	172
10.2.	Asosiy fondlarni baholash	177
10.3.	Asosiy fondlarning eskirishi va amortizatsiyasi	178
10.4.	Asosiy fondlardan foydalanish ko‘rsatkichlari	181
10.5.	Ishlab chiqarish quvvatlari va ulardan foydalanishni yaxshilash yo‘llari	182
11- BOB.	O‘ZBEKİSTON SANOATINING XOMASHYO MANBAI VA UNI JOYLASHTIRISH	185
11.1.	Sanoatda xomashyo, uning xususiyatlari va turkumlanishi	185
11.2.	Resurslar tejamkorligining strategiyasi va taktikasi	190
11.3.	Mineral xomashyo va ulardan oqilona foydalanish	193
12- BOB.	SANOAT ISHLAB CHIQARISHINING AYLANMA FONDLARI VA MABLAG‘LARI	200

12.1.	Aylanma fondlarning mohiyati va ahamiyati	200
12.2.	Moddiy resurslardan samarali foydalanish masalalari	201
12.3.	Aylanma mablag‘lar va ularning aylanishini tezlashtirish	202
13- BOB. SANOAT MAHSULOTINING SIFATI VA UNING RAQOBATBARDOSHЛИGI		207
13.1.	Sifat tushunchasi va uni oshirish zarurati	207
13.2.	Mahsulotning sifat ko‘rsatkichlari va ularni baholash usullari	209
13.3.	Mahsulot sifatini boshqarish va uni oshirish yo‘llari	211
13.4.	Standartlashtirish, sertifikatsiyalashtirish, attestatsiya va nazorat qilish	213
14- BOB. SANOATDA TANNARX, FOYDA VA ISHLAB ChIQARISh RENTABELLIGI		219
14.1.	Qiymat va tannarx nazariyasi, ishlab chiqarish sarflarini kamaytirishning ilmiy asoslari	219
14.2.	Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlarni guruhash..	220
14.3.	Foyda va uni maksimallashtirish	228
14.4.	Rentabellik va uni oshirish yo‘llari	231
14.5.	Mahsulot tannarxini pasaytirishning manbalari va omillari	234
15- BOB. SANOAT ISHLAB CHIQARISHIDA BAHO VA BAHONI SHAKLLANTIRISH		237
15.1.	Baho – bozor munosabatlarining iqtisodiy kategoriyasi sifatida	237
15.2.	Baho tushunchasi va uning funksiyalari	240
15.3.	Bahoning turlari va tarkibi	241
16- BOB. SANOAT ISHLAB ChIQARIShINI JOYLASHTIRISH		244
16.1.	Sanoatni joylashtirish tamoyillari	244
16.2.	Sanoatni joylashtirish omillari	247
16.3.	Ayrim sanoat tarmoqlarini joylashtirishdagi o‘ziga xos xususiyatlar	249
16.4.	Ayrim korxonalarini joylashtirishni iqtisodiy asoslash usuli	250
16.5.	Sanoatni joylashtirishdagi siljishlarning iqtisodiy samaradorligi	251
ADABIYOTLAR RO‘YXATI		255
MUNDARIJA		258

Muminov N.G.

Industrial iqtisodiyot: Darslik. I qism / T.: “Tafakkur-bo‘stoni” nashriyoti, 2020., 261 bet.

Nashriyot litsenziyasi: AI №190.

Bosishga 23.12.2019-yilda ruxsat etildi. Bichimi: 60x84 1/16.

Offset bosma. «Times New Roman» garniturasi. Nashr b.t. 19.0.

Adadi 100 nusxa. Buyurtma №21/12.

«Tafakkur-bo‘stoni» nashriyoti. 100190. Toshkent shahar,

Yunusobod-9, 13-54. e-mail: yuusai_1987@mail.ru

«Shafoat Nur Fayz» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Toshkent

shahri, Uchtepa tomani, Maxorat ko‘chasi 71-uy